



RABINDRANAT  
TAGOR  
HIKOYALAR



RABINDRANAT TAGOR  
HIKOYALAR

RABINDRANAT TAGOR  
HIKOYALAR



Portrait of an elderly man with a full white beard and mustache, wearing a dark suit jacket and a light-colored shirt. The image is heavily textured with a grainy, stippled appearance.



**RABINDRANAT  
TAGOR**

**HIKOYALAR**

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT — 2006

**TO'XTASIN JALOLOV**  
tarjimasi

**Tagor Rabindranat.**

Hikoyalar (T. Jalolov tarj). — T.: «Sharq», 2006. — 272 b.

Ulug' hind yozuvchisi va mutafakkiri R. Tagorning hikoyalari oddiy mehnatkash insonga mehr-muhabbat tuyg'ulari bilan to'lib-toshgan. Yozuvchi haqsizlik dunyosining illatlarini ayovsiz qoralaydi, adolatga chorlaydi.

**BBK.**

ANDIJON MASHINASOZLIK VA TIRIQLASHTIRISH VA YASHIRGUCHILIK SHARHI  
 AXBOROT - RESURS MARKAZI nashriyoti, tarjima, 1983.  
 «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi.  
 Bosh tahririyati, 2006.

INV № 22964

## NUR VA SOYALAR

### I

Kecha kunbo'yi yomg'ir yog'ib, bu kun tindi, quyosh va to'zigan bulutlar yetilayotgan ertagi sholipoyalarga qarab birin-ketin panjalarini cho'zmoqdalar. Keng va ko'm-ko'k dalalar quyosh nuri tushishi bilan birdan yalt etib porlaydi-yu, yana bir lahzada quymoq ko'lanka ostida qolib ketadi.

Osmon sahnasida faqat ikki aktyor o'ynamoqda — bulut va quyosh, ularning har biri o'z rolini bajaradi, ammo yer sahnasida, ayni bir vaqtda necha joyda, qancha pesalar o'ynalayotganini hisoblash mumkin emas.

Biz qishloq yo'li ustidagi bir uyda o'ynalayotgan kichik bir hayot pesasini ko'rsatish uchun pardani ko'tardik. Bu uyning faqat ko'chaga qaragan bir xonasi g'ishtdan qurilgan, uning ikki tomonidan boshlanib ketgan eski g'isht devor hovlini tamom ihota qilib, hovlidagi boshqa loyshuvoq hujralarni ham o'z ichiga oladi. Yarim yalang'och bir yigitchaning divanda o'tirgani derazadan ko'rinib turadi, u, qo'lidagi kitobni o'qishga berilib, chap qo'lidagi xurmo yaprog'i bilan ba'zi-ba'zida o'zini yelpib, chivinlarni haydaydi.

Yo'l-yo'l soriyga o'ralgan bir qizcha ko'chada — deraza qarshisida uyoqdan-buyoqqa o'tar va soriysining etagiga solib olgan olxo'ridan bitta-bitta olib yer edi. Qizchanning yuz ifodasidan uning divanda o'tirib kitob o'qiyotgan yigitcha bilan oshnaligi ko'rinib turibdi. U bir

amallab yigitning diqqatini jalb qilish niyatida, ammo o'zining sokin beparvoligi bilan, go'yo faqat olxo'ri yeyish bilan bandu yigitchani payqamaganday ko'rinishga tirishadi.

Baxtga qarshi, qunt bilan o'qiyotgan yigitchaning ko'zlari ancha zaif bo'lib, uzoqni yaxshi ko'rolmaganidan, qizchaning sokin beparvoligi unga hech ta'sir qilmadi. Aftidan, qizcha buni bilardi, shuning uchun birpasdan keyin, uyoqdan-buyoqqa behuda yurish va sokin beparvolik o'rniga, olxo'ri danaklarini ishga sola boshladi. Ko'rga ishing tushsa, o'z qadru g'ururingni saqlab qolishing qiyin!

Bir necha danak, go'yo tasodifan borib yog'och eshikka tiqillab tekkanda, yigitcha boshini ko'tardi. Mug'ambir qizcha buni payqab, etagidagi olxo'rilardan pishkanroqlarini ajrata boshladi. Yigitcha ko'zlarini qisib qaragach, qizni tanidi: keyin kitobni qo'ydi-da, deraza oldiga kelib, tabassum bilan qizni chaqirdi.

— Giribala!

Giribala zo'r berib olxo'ri saralardi. Bu mashg'ulotga qattiq berilganday bo'lib, uydan ohista uzoqlasha boshladi.

Ko'zlari zaif yigitcha qizning bu qiligi o'zining beixtiyor bir jinoyati uchun berilgan jazo ekanini darrov angladi-da, yugurib ko'chaga chiqdi.

— Hoy, Giribala, o'zi nima gap, bugun menga olxo'ri bermaysanmi?

Giribala unga e'tibor etmay, bir olxo'rini olib diqqat bilan ko'zdan kechirdi-yu, sovuqqonlik bilan yemoqqa kirishdi.

Bu olxo'rilar Giribalalarning bog'idan bo'lib, yigitchaning har kuni oladigan sovg'asi edi. Kim biladi, balki bugun Giribala bu odatini unutgandir, har nuchuk, uning harakatlari olxo'rini faqat o'zi uchungina keltirganini ochiq ko'rsatib turardi. Unday desak, nega u olxo'rini birovning eshigi oldiga kelib yeydi, masalaning bu tomoni ravshan emasdi. Yigitcha qizning oldiga kelib, qo'ldan

ushladi. Dastlab, Giribala egilib, qo'lini bo'shatishga urinib ko'rdi, ammo birdan ko'zlari jiqqa yoshga to'lib, olxo'rilarini yerga tashladi-da, yigitning qo'lidan chiqib qochib ketdi.

Kechka tomon quyosh bilan bulutlar o'yini to'xtadi, oq momiqday bulutlar osmon ufqiga to'planib qoldi, daraxt yaproqlarida, hovuzlarda, yomg'irda yuvilgan tabiatning har bir zarrasida botayotgan quyoshning nurlari chaq nab turardi. Panjarali deraza oldida yana o'sha qizcha yuribdi, xonada esa, yana o'sha yigitcha o'tiribdi. Ammo endi qizchani etagida olxo'ri, yigitchaning qo'lida kitob yo'q. Darvoqe, bu orada boshqa ba'zi muhim o'zgarishlar ham ro'y bergan edi.

Bu gal ham qizchani nima maqsad bilan bu yerda aylanib yurganini aytish qiyin. Har holda, uning harakatlariidan, xonada o'tirgan yigit bilan gaplashish niyatida ekani ko'rinmas edi. Qizcha erta bilan tashlab ketgan olxo'rilarini o'sib chiqmadimikan deb ko'rgani kelgan bo'lsa kerak, uning yurish-turishlariga qarab faqat shunday taxmin qilish mumkin.

Olxo'rilarining o'sib chiqmaganiga bosh sabab shuki, ular hozir yerda emas, divanda — yigitchani oldida edi, qizcha bir nimalarni qidirganday bo'lib, ahyon-ahyonda yerga egilganida, yigitcha o'zicha kulib, jiddiy qiyofada, mevalarni ishtaha bilan birin-ketin yeb bitirmoqda edi. Mana bir necha danaklar go'yo tasodifiy ravishda borib qizchani yoniga tushdi, hatto oyog'iga ham tegdi, Giribala o'zining parvosizligi uchun yigitcha o'ch olayotganini angladi. Axir shu yaxshi ishmi» Sho'rlik qizcha jajji yuragini g'ururini bosib, yarashish uchun bahona qidirib yurgan-da, uning og'ir yo'liga yana g'ov solish noinsoflik emasmi» U bu gal yigitni xafa qilmay deb kelgan edi! Uyatdan qizchani yuzlari qip-qizarib ketdi, qochish uchun bahona qidira boshladi, xuddi shu paytda yigitcha chiqib kelib qo'lidan ushladi. Qizcha qo'lini ajratib olishga urinsa ham, bu safar yig'lamadi. Aksincha, qizarib, boshini o'sha berahm yigitchani orqasiga

yashirib, qahqaha urib kulib yubordi; so'ngra, go'yo zo'rlikka bo'ysunib, panjarali zindonga kirayotgan asiradek uyga kirib ketdi.

Osmonda quyosh bilan bulutlarning o'yini tabiiy bir hol bo'lgandek, bu ikki mavjudotning yerdagi o'yini ham tabiiy bir narsadir. Shuning bilan birga, quyosh va bulutlar o'yini tabiiy hol emas, umuman olganda, buni o'yin deb ham bo'lmaydi, u faqat o'yinni eslatadi, shuningdek, kishilik jamiyatida, ko'rkam kuz kunida ro'y berib turgan yuzlab voqealar orasida bu ikki noma'lum kishining qisqagina tarixi, ahamiyatsizdek ko'rinsa-da, aslida unday emas. Beparvolik bilan abadiylikni abadiylikka ulashtiradigan qadimiy, ulug' va ko'zga ko'rinmas tangri o'sha kungi tong va oqshomning kulgisi-yu ko'z yoshlariga bir umrning baxt va musibatlar urug'ini sochib yuborgan edi. Shunday bo'lishiga qaramay, qizchaning sababsiz gerdayishi, yolg'iz tomoshabinlargagina emas, hatto pesaning bosh qahramoni boyagi yigitchaga ham tamomila anglashilmas edi. Nega bu qiz ba'zan jahli chiqadi, ba'zan esa cheksiz mehribonlik ko'rsatadi, goho ko'plab sovg'alar olib keladi-yu, goho iltifotni butunlay unutadi, — bularning sababini anglash osonmas. Bukun u, butun aqlu fikrini, zakovatini ishga solib, yigitni quvontirmoq istasa, ertaga bor kuchini, qaysarligini ishga solib, uning jig'iga tegadi. Agar yigitni biror yo'l bilan xafa qilolmasa, qaysarligi ikki da'fa ortadi, mabodo uni xafa qilguday bo'lsa, qat'iyati pushaymonlik bilan chil-chil bo'lib har bir bo'lagi ko'zyoshida erib ketar, bepoyon marhamat va mehribonlik oqimiga aylanardi.

Quyosh va bulutlar orasidagi bu ahamiyatsiz o'yinning dastlabki ahamiyatsiz tarixi bundan keyingi bobda qisqacha bayon etiladi.

## II

Butun qishloq aholisi bir-biriga dushman guruhlariga bo'lingan, bir-birlariga qarshi ig'vo tarqatadilar va shakarqamish ekadilar, chaqimchilik qiladilar va jut ekadilar.



Faqat Shoshibushon bilan Giribalagina falsafa va adabiyot o'rganish bilan mashg'ul.

Bu do'stlik hech kimni taajjublantirmas va qiziqtirmas edi, chunki Giribala o'n yoshli qizcha bo'lib, Shoshibushon yaqindagina san'at magistri va huquq bakalavri unvonini olgan. Ular qo'shni edilar.

Giribalaning otasi Xorkumar bir vaqtlar o'z qishlog'ida ijaraga yer olib dehqonchilik qilardi, ammo keyin qo'li tang kelib, bisotida bor narsani sotdi-da, o'z xo'jayiniga noib bo'lib ishga kirdi; xo'jayini sira qishloqda yashamas edi. Xorkumarning qishlog'i o'zi yer ijarasi yig'ib yuradigan viloyatda, shu sababli u o'z uyidan uzoqqa borolmasdi.

San'at magistri unvonini olganda Shoshibushon huquq fanidan ham yaxshi imtihon berdi, lekin hech qanday ish bilan mashg'ul bo'lmadi. Hech kim bilan ortiqcha inoq ham bo'lmadi; majlislarga qatnasha ham, biror marta ikki og'iz so'zlagan emas. Ko'zi zaifroq bo'lganidan, ba'zan oshnalarini tanimay qolardi, — u ko'zlarini qisib qarar, odamlar esa, buni nopisandlik nishonasi deb hisoblar edilar.

Olam dengiziga o'xshagan Kalkuttaday katta shaharda kishi o'z fikrlariga berilib, tanho yashasa, bu hol unga alohida ulug'vorlik bag'ishlaydi, ammo qishloqda bu xil yurish-turishni tamom boshqacha baholaydilar.

Shoshibushonni ishlashga majbur etish uchun qilingan harakatlari hech qanday natija bermagach, otasi uni qishloqqa keltirib, xo'jalikka qarashib turishni topshirdi. Shoshibushon qishloq aholisidan ko'pgina mazammat va ta'nalar eshitdi. Buning o'ziga xos sabablari bor edi: Shoshibushon osoyishtalik, tinchlikni yaxshi ko'rardi, shuning uchun uylanishni ham xohlamasdi. Qizlari balog'atga yetib, o'zlari yuk bo'lib qolgan ota-onalar esa, uning uylanishga mayli yo'qligini manmanlik deb, sho'rlikning bu «aybini» sira kechirmasdilar.

Shoshibushonni qancha bezor qilsalar, u shuncha uydan chiqmas bo'lardi. Yigit odatda burchakdagi bir

xonada divanda o'tirar, atrofida inglizcha kitoblar sochilib yotardi, u kitoblarni tanlab o'tirmas, qo'lga tushganini o'qiyverardi. Uning ishi shundan iborat edi. Xo'jalik ishlari uni qiziqtirmasdi.

Biz yuqorida aytib o'tgandek, qishloqda u bilan muomala qiladigan birdan-bir odam Giribala edi.

Giribalaning akalari maktabda o'qirdilar; maktabdan qaytgach, esi past singillariga yerning shakli qanday, yer kattami, quyosh kattami deganday so'roqlar berar edilar. Qizcha bularga noto'g'ri javob berganda, darg'azab bo'lib uning xatosini tuzatardilar. Ko'zga tashlanib turgan narsalar quyoshning yerdan kattaligi haqidagi fikrga zid kelardi, ammo Giribala jasorat etib ba'zan bu haqda o'z tushunchalarini bayon etganda, akalari yanada kek-kayib:

— Sen nima deyapsan! — derdilar. — Bizning kitobda shunday deb yozilgan axir, sen bo'lsang...

Bosma kitoblarda shunday yozilganini eshitgach, sho'rlik Giribala qattiq zarba yeganday jim qolar, uning uchun boshqa dalillar kerak bo'lmasdi.

Qizcha akalari singari o'qishni o'rgangisi kelardi. Ba'zan u o'z xonasida o'tirib, kitobni ochar, allanimalar deb gapirar, o'zini o'qiyotganday ko'rsatib, tez-tez kitob varaqlar edi.

Kichik-kichik, tushunib bo'lmaydigan qora harflar, yelkalarida «i», «o» va «r»<sup>1</sup> harflarining belgilarini ko'tarib, go'yo sirli bir olamning darvozasi oldidagi qorovullarday yonma-yon turardilar-u, Giribalaning biror savoliga javob qaytarmas edilar. «Qotxamala» havasmandlik bilan zoriqib turgan qizchaga o'zining yo'lbars, shakal, bo'ri, eshak va otlar haqidagi afsonalarni so'zlamasdi, «Akenomonchjori»<sup>2</sup> bo'lsa, indamaslikka ahd qilgandek, o'z tarixini so'zlamay, jim turardi.

---

<sup>1</sup> Bengaliya alifbesida «n», «o» harflarining ustiga belgilar qo'yiladi, «r» esa ko'p vaqt boshqa harflar ustiga yoziladi.

<sup>2</sup> «Akenomonchjori» boshlang'ich o'qish kitoblari.

Giribala akalaridan, o'qishni o'rgatinglar, deb iltimos qildi, ammo akalari buni eshitishni ham xohlamadilar. Unga faqat Shoshibushon yordam qildi.

Birinchi davrda Shoshibushon ham qizchaga «Kotxamala», «Akenomonchjori»dek sirli va tushunib bo'lmaydiganday tuyuldi.

Temirpanjarali derazalari ko'chaga qaragan kichik xonada yosh bir yigit divanda o'tirar, uning atroflarida kitoblar qalashib yotardi. Giribala tashqaridan deraza panjarasiga osilib, o'qishga ortiq berilgan bu g'alati odamga taajjub bilan boqar, kitoblarning ko'pligini ko'rib, bu odam mening akalarimdan ham bilimdonroq bo'lsa kerak, degan xulosaga kelardi. Uning uchun bundan ko'ra taajjubroq ish yo'q. Qizcha, bu yigitning «Kotxamala»ni va dunyodagi boshqa eng muhim kitoblarni o'qigan bo'lishiga shubhalanmasdi. Shoshibushon kitob varaqlar, qizcha bo'lsa, jim turib, uning bilimi chegaralarini aniqlash uchun behuda urinardi.

Bora-bora Shoshibushon bu qizchaga e'tibor qila boshladi. Bir kun u yorqin muqovali bir kitobni ochib, qizchaga qaradi:

— Giri, beri kel, senga suratlar ko'rsataman!

Giri darhol qochib ketdi.

Ammo ertasiga yo'l-yo'l soriy kiyib yana deraza oldiga keldi-da, o'qiyotgan yigitga jimgina tikilib tura berdi. Shoshibushon uni yana chaqirdi, qizcha sochlarini silkitib yana qochib ketdi.

Ularning oshnaligi shu tariqa boshlangan edi, ammo bu oshnalikning keyin qaysi yo'l bilan do'stlikka aylanganini, qachondan beri qizchaning Shoshibushon divanidagi kitoblar orasidan o'ziga muqim joy olganini hikoya qilish uchun maxsus tarixiy tekshirish o'tkazishga to'g'ri keladi.

Giribala Shoshibushondan o'qishnigina emas, yozishni ham o'rgana boshladi. Bu o'qituvchi o'zining kichkina shogirdiga o'qish, yozish va grammatikani o'rgatish bilan qanoatlanmay, unga ulug' yozuvchilarning asarlarini tarji-

ma qilib berib, bular haqida qizchanning fikrini so'rar edi desak, hammaning kulishi aniq. Bulardan qizgina biror narsa anglarmidi, yo'qmi — buni xudo biladi, ammo o'qituvchining bu qadar jonbozligi qizchaga juda yoqib tushgani shak-shubhasiz. Anglashilgan va anglashilmagan narsalar uning bolalik tasavvurida bir-biriga qo'shilib, go'zal lavhalarni bunyodga keltirardi. U jim turib, ko'zlarini katta ochib, diqqat bilan tinglar, ahyon-ahyonda o'rin-siz savollar berar yoki birdan mavzudan chetga chiqib, gapga tushib ketardi. Shoshibushon bunday hollarda qizchanning gapini bo'lmas, ulug' asarlar haqida kichik tanqidchining fikrlarini eshitib, benihoyat mamnun bo'lardi. Butun qishloqda uning dilidagini anglaydigan birdan bir odam shu qizcha edi.

Giribala Shoshibushon bilan tanishganda 8 yashar edi, hozir 10 ga kirdi. Bu ikki yil mobaynida u ingliz va bengal alifbosini o'rganib, bir qancha boshlang'ich kitoblarni o'qib chiqdi. Shoshibushon bo'lsa, o'zining qishloqda o'tkazgan ikki yillik umrini yolg'izlikda o'tdi deb shikoyat qilolmas edi.

### III

Giribalaning otasi Xorkumar bilan Shoshibushonning munosabati yaxshi emas edi. Xorkumar bu magistr va bakalavrning oldiga dastlab har xil da'volar va sud protsesslari munosabati bilan maslahatga kelib yurdi, ammo bakalavr bu xil ishlarga qiziqmay, noibga o'zining huquq bobida hech narsa bilmasligiga ochiqdan-ochiq iqror bo'ldi. Xorkumar buni faqat bahona deb o'yladi. Shunday qilib ikki yilcha vaqt o'tdi.

Bir kun o'jar bir ijarachining adabini berib qo'yish zarurati tug'ilib qoldi. Noib u ijarachini nojo'ya harakatlari uchun sudga bermoqchi bo'lib, shu haqdagi ariza qanday bo'lishi lozim degan mazmundagi savollar bilan Shoshibushonga yopishib oldi. Shoshibushonning noibga maslahat bermagani-ku mayli-ya, ammo u qandaydir

osoyishtalik va qat'iyat bilan Xorkumarga shunday so'zlar aytdiki, bu so'zlarni unga yoqib tushadi deb o'ylash aslo mumkin emas!

Xorkumarning ijarachilarga qarshi boshlagan hamma da'volari o'zining zarariga hal bo'ldi. Jig'ibiyroni chiqqan noib, raqiblariga Shoshibushon yordam qilgan deb, nima bo'lsa ham, yigitchani qishloqdan chiqarib yuborish payiga tushdi.

Shoshibushonning ekin maydonlarida sigirlar yura boshladi, kimdir loviyalariga o't qo'ydi, yerlarining uvoti haqida nizolar paydo bo'ldi, Shoshibushonning ijarachilari ijara haqi to'lashdan bosh tortdilar va hatto, ustidan yolg'on maxfiy xabarlar yozmoqchi bo'ldilar; oxiri ish shu darajaga borib yetdiki, agar kechroq ko'chaga chiqqunday bo'lsa, o'zini kaltaklab, uyiga o't qo'ymoqchilar, degan ovozarlar ham tarqaldi.

Osoyishtalikni yaxshi ko'radigan yuvosh Shoshibushon oxiri Kalkuttaga ketishga qaror qildi. U jo'nay deb turganda, qishloqqa okrug sudyasi kelib qoldi. Uning yugurdaklari, xizmatchilari, politsiyachilari, itlari, otlari va otboqari butun qishloqni larzaga keltirdi.

Bolalar, yo'lbars orqasidan kuzatib borgan chiyabo'ri galasidek, qiziqish va qo'rquv bilan sudya tushgan hovli atrofida to'dalashib yurardilar.

Noib janoblari mehmonnavozlikka ketgan xarajatlarini ortig'i bilan qaytishini eslab, sud raisini tovuq, tuxum, yog' va sut bilan ta'minlab turdi. Noib janoblari favqulodda tirishqoqlik bilan, sud raisiga oziq-ovqatni keragidan ortiq yetkazib berdi, ammo bir kuni erta bilan sudning farroshi kelib, sohibning itlariga to'rt sher' yog' talab qilganda, Xorkumarning toqati toq bo'ldi. Agar sohibning itlari mahalliy itlardan ko'ra ko'proq yog'ni uyalmay hazm etsalar ham, har holda bu qadar yog' ularning salomatliklariga ziyon qiladi deb, farroshni quruq qaytardi.

\* Sher — og'irlik o'lchovchi — 900 gr.

Farrosh borib o'z xo'jasiga: men noibning oldiga borib itlar uchun qaerdan go'sht sotib olish mumkin deb so'rasam, u ko'pchilik oldida past toifaga mansubligimni pesh qilib haydadi, nopisandlik qilib hatto sizga ham til tegizdi, dedi.

Sohiblar uchun braxmanlarning toifaviy g'ururi toqat qilib bo'lmaydigan hol edi, buning ustiga noib uning farroshini haqorat qilgan, bunga sud raisi chiday olmadi, darhol «noib chaqirilsin» deb buyruq berdi.

Noib titrab-qaqshab, kalima o'girib sahibning eshigiga keldi. Oyoq tovushlari eshitilganda sud raisi tashqariga chiqdi.

— Nega sen mening farroshimni haydab yubording?— deb qichqirib so'radi u ajnabiy talaffuz bilan.

Xorkumar ta'zim qilib, shoshilgan holda, o'zining hech vaqt bu xil bezbetlikka yo'l qo'ymasligini aytdi; to'g'ri, dastlab 4 sher yog' berishga ko'nmagan bo'lsa ham, keyin to'rt oyoqlilarga ezgulik qilish niyatida mazkur narsani topish uchun kishilar yuborgan.

Sohib kimni, qaerga yubording deb so'radi.

Xorkumar og'ziga kelgan birinchi ismni aytdi. Sahib inobatli kishilarga bu masalani aniqlashni topshirib, noibni o'z uyida olib qoldi, yuborilgan odamlar kechqurun kelib, hech kimni hech yoqqa yuborgan emas ekan, deb xabar qildilar. Endi sud raisida noibning so'zlari yolg'on, farroshning gaplari to'g'ri ekaniga shak-shubha qolmagan edi.

Sud raisi g'azab bilan qichqirib, farroshga buyurdi:

— Qani, qulog'idan cho'zib, uydan chiqarib yubor!

Farrosh fursatni boy bermay, atrofga to'plangan xalqning ko'z oldida sahibning buyrug'ini bajardi.

Bu haqdagi xabar darhol qishloqqa tarqalib ketdi. Haqoratlangan Xorkumar uyiga kelganda tomog'idan ovqat ham o'tmay, o'likday cho'zilib yotdi.

Xorkumarning lavozimi unga ko'pgina dushmanlar orttirgan edi, bu xabar ularni juda mamnun etdi. Ammo Kalkuttaga jo'nashga hozirlangan Shoshibushon bu

xabarni eshitganda g'oyat darg'azab bo'lib, tuni bilan uxlay olmadi.

Erta bilan u Xorkumarning uyiga keldi. Xorkumar Shoshibushonning qo'lidan ushlab o'pkasi to'lib yig'ladi.

— Haqorat da'vosi bilan sud raisini javobgarlikka tortish kerak. Men sening himoyaching bo'laman.

Sohibni sudga berish haqidagi fikrni eshitib, noib qo'rqib ketdi. Lekin Shoshibushon o'z fikrida turib oldi.

Xorkumar o'ylab ko'rish uchun fursat so'radi. Biroq o'zining xo'rlangani haqidagi ovoza hamma yerga tarqalib, dushmanlari o'z quvonchlarini yashirmay yurganini bilgach, u ortiq chidab tura olmay, Shoshibushondan yordam so'rab keldi.

— Babu, mening eshitishimcha, nima uchundir sen Kalkuttaga ketishga qaror qilibsən. Bu fikringdan qayt. Qishloqda senday bir odamning bo'lishi bizlarni ruhlantiradi.

#### IV

Hamisha odamlardan yashirinb yurgan Shoshibushon bugun sudga keldi. Shoshibushonning gaplarini eshitib bo'lgach, sud raisi uni o'z kabinetiga chaqirib, shunday dedi:

— Shoshu babu, shu ishni ovoza qilmay, o'zaro hal qila qolsak yaxshi bo'lmasmikin?

Shoshibushon zaif ko'zlarini qisgan holda stolda yotgan qonunlar to'plamining muqovasiga diqqat bilan nazar tashladi.

— Men o'z himoyam ostidagi odamga bunday maslahat bera olmayman. U xalq orasida haqoratlang'an. Shunday bo'lgach, qanday qilib bu ishni «ovoza qilmay hal etib» bo'ladi?

Qisqagina suhbatdan sohib shuni bildiki, bu kamgap, ko'zlari zaif odamni o'z yo'liga kiritishi oson emas ekan.

— Ol rayt<sup>1</sup>, babu, ko'ramiz, qani bundan nima chiqar ekan.

<sup>1</sup>Ol rayt — yaxshi (inglizcha).

Sud bo'ladigan kuni belgilab, rais chiqib ketdi.

Bu orada okrug sudining raisi zamindorg'a shunday deb yozdi:

«Sening noibing mening xizmatkorlarimni haqorat qildi. Bu bilan u menga hurmatsizlik ko'rsatdi. Unga munosib choralar ko'rishga ishonaman».

Zamindor Xorkumarni chaqirib keltirdi. Xorkumar ham zamindorga bo'lib o'tgan voqeani batafsil so'zlab berdi. Buni eshitib zamindor juda g'azablanib ketdi.

— Axir, gapni cho'zib o'tirmasdan farroshga 4 sher yog'ni berib yuborsang bo'lmasmidi? Nima, bu bilan qashshoq bo'lib qolarmiding?

Xorkumar o'zining yanglishganini sezdi, darhaqiqat, bundan u hech ziyon qilmas edi. O'z aybiga iqrar bo'lib, dedi:

— Ko'rinib turibdiki, men shu kun chap yonimdan turgan ekanman. Shuning uchun shunday ahmoqlik qilibman.

— Senga sohib ustidan shikoyat qilishga kim maslahat berdi?

— Marhamatlim, men shikoyat qilmoqchi emas edim. Bu mening hamqishlog'im Shoshining ishi. Uning sud ishlarida hech qanday tajribasi yo'q, bu g'ovg'ani mening roziligimsiz shu bola qo'zg'adi.

Zamindor Shoshibushondan qattiq xafa bo'ldi: bu yangi chiqqan ishsiz advokat nom chiqarish uchun har qanday oldi-qochdiga tayyor! U, ish darhol to'xtatilsin, deb noibga buyruq berdi.

Xorkumar sovg'aga bir qancha meva-cheva olib, okrug sudining raisi huzuriga keldi. Sohib ustidan shikoyat qilish mening ta'bimdagi ish emas, bu haligi ona suti og'zidan ketmagan hamqishlog'im advokat Shoshibushonning ishi, u menga hech narsa demasdan, o'zicha shunday behuda ishni boshlagan, dedi. Sohib buni eshitib, Shoshibushonning xatti-harakatidan benihoyat darg'azab bo'lib, noibning uzurlaridan to'la qanoat hosil etdi. U, garchi g'azab ustida noibga jazo berishga buyur-



gan bo'lsam-da, hozir o'z qilmishimga afsuslanyapman, dedi.

Sohib yaqinda bengal tilidan yaxshi imtihon bergani uchun hozir oddiy odamlar bilan oliy uslubda gaplashar edi.

— Men xafa bo'lganim yo'q, — dedi noib, — ma'lumki ota-onalar ham jahllari chiqqanda bolalariga jazo beradilar, ammo keyincha ularni tizzalariga o'tqizib erkalatadilar.

Okrug sudining raisiga va xizmatkorlariga keltirgan sovg'asini bo'lib bergach, Xorkumar mahalliy sud raisini ko'rish uchun uning oldiga bordi. Shoshibushonning yuzsizlarcha harakatini eshitgan sud raisi bunday dedi:

— Men ham taajjubda qoldim. Men hamisha noib babu aqlli odam degan fikrda edim, to'satdan menga: u kishi bu ishni bosti-bosti qilishga rozi emas, ishni sudga berish niyatida, dedilar. Men o'z quloqlarimga ishonmadim. Endi menga hamma narsa tushunarli...

Oxiri u noibdan, Shoshi Kongress' a'zosi emasmi, deb so'radi. Xorkumar, kiprik qoqmay «ha», deb javob berdi.

Sohibning o'ziga xos tushunchasida bu ishlarning mohiyati ravshan edi: bular bari Kongressning qo'li bilan qilingan! Kongress agentlari yashirincha, har yerda ig'vo qilib, janjal chiqarishga imkoniyat qidirib yuradilar, so'ng buni «Amrita bazar» gazetasida bosib, hukumat bilan janjallashadilar. U o'ziga bir zarb bilan bu fitnachilarning hammasini bir yoqli qilishga yetarli huquq bermagani uchun hind hukumatini juda zaif hisoblar edi. Ammo Kongresschi Shoshibushonning nomini diliga tugib qo'ydi.

Olamda katta voqealar ro'y berganda, kichik voqealar ham och tomirlarini cho'zib, fursatni qo'ldan bermay, o'z huquqlarini talab etadilar.

Shoshibushon Xorkumar ishi yuzasidan harakat boshlab, katta kitoblardan shu ishga doir yo'l-yo'riq izlaganda, fikran o'z nutqini mashq qilar, guvohlarni takror so'roqqa chaqirar, hayajon bilan titrab, terga pishgan holda, o'zini sud majlisida, ko'p xalq orasida to'la g'alabaga erishganday tasavvur etardi, yosh shogirdi esa har kun belgili bir vaqtda uning eshigiga kelib turardi. Qizning qo'lida eski chorupat<sup>1</sup>, siyoh bilan yozib to'latilgan daftar, o'z bog'laridan goh meva, goh gul, goh shirinlik olib kelardi. Birinchi kunlarda Shoshibushonning qandaydir suratsiz, vahimali kitob o'qiyotganini ko'rdi. Ilgari u qanday kitob o'qimasin, undan biror narsani Giribalaga tushuntirishga urinardi. Nahotki endi, shuncha ko'p katta, qora kitoblarda uning uchun ikki og'iz so'z topilmasa» Nahotki buning sababi kitoblarning kattaligida-yu, uning kichikligida bo'lsa!

Dastlab o'qituvchining diqqatini jalb qilish uchun ashula aytdi, so'ng xat yozdi, oxiri yozganlarini tebrana-tebrana bor tovushi bilan qichqirib o'qidi, — hech qanday natija chiqmadi. Qizcha katta qora kitobdan juda ham xavfa edi. Bu kitob unga qandaydir badburush, berahm, yovuz maxluqday tuyuldi. Uning tushunib bo'lmaydigan har bir sahifasi Giribalaga so'zsiz nafrat bilan qaragan qandaydir yomon odanning basharasiday ko'rinardi. Agar biror o'g'ri shu kitobni o'g'irlab ketsa, uni mukofotlash uchun Giribala ayasining sandiqchasidan butun shirinliklarni olib chiqqan bo'lar edi. Shu kitob nobud bo'lsin deb qiz bechora ne-ne duolar bilan xudolarga murojaat qilmadi. Ammo xudolar unga quloq solmadilar, shuning uchun men ham bu duolarning mazmunini o'quvchilarimga so'zlab o'tirishni lozim ko'rmadim.

Shunda xafa bo'lgan qizcha uch kungacha o'qituvchisining oldiga bormaslikka qaror qildi. Keyin, ko'rgan choralarining natijasini aniqlash maqsadida yana bordi, — albatda, bu borish tamom boshqa ish bilan edi.

<sup>1</sup> Chorupat — kitob — darslik.

Yo'lda yashirincha Shoshibushonning derazasiga qaradi: endi Shoshibushon yonida u qora kitoblar yo'q edi. O'zi xona o'rtasida turib, qo'llarini cho'zib, derazaning temirpanjarisiga murojaat etib, chet tilda nutq so'zlardi. Ehtimol, u o'z nutqi sudlarning yuragini eritadimi — yo'qmi deb temirlarda sinab ko'rayotgandir. Hayotni faqat kitoblardan o'rgangan Shoshibushon agar qadim zamonalarda Demosfen, Sitseron, Bark, Sheridan kabi notiqlar o'z nutqlari bilan mo'jizalar ko'rsatgan bo'lsalar, so'z o'qlari bilan adolatsizlikni tor-mor etib, zo'rvonlikni fosh etgan, takabburni yerga qaratgan bo'lsalar, bizning zamonda ham imkondan xorij hech narsa yo'q-ku, deb o'ylar edi. U o'zining kichkina qishloqchadagi uyida turib, mansab mayidan mast bo'lgan bu inglizni butun dunyo oldida uyaltiraman, uni o'z qilmishlariga pushaymon bo'lishga majbur etaman deb o'ylardi. Osmonlardagi xudolar uni eshitib kuldilarmi yoki ularning ilohiy ko'zlaridan yosh to'kildimi — buni hech kim bilmaydi.

Shunday fikrlarga sho'ng'ib ketgan Shoshibushon, o'sha kuni Giribalaning kelganini sezmedi. Qizchaning etagida olxo'ri yo'q edi — u olxo'ri danaklarining ta'siriga ishonmay qo'ydi. Endi Shoshibushon beparvolik bilan: «Giri, bukun olxo'ri yo'qmi?» deb so'raganda, bu gap qizchaga xuddi masxaralaganday tuyulib: «Bor-e» deb, qochib ketardi. Bukun olxo'risi yo'qligidan mug'ambirlikka o'tdi. Birdan ko'zlarini uzoqlarga tikib, qattiq gichqirdi:

— Shorno, meni kutib tur, hozir boraman!

Erkak o'quvchilar bu gap qizchaning uzoqdan o'tib borayotgan dugonasiga qarata aytilgan deb o'ylashlari mumkin, lekin ayol o'quvchilar u yerda hech kim yo'qligini va bu gap yonginasida turgan yigitchaga aytilganini darrov fahmlaydilar. Hayhot bu mug'ambirlik ko'zlari zaif odamga hech kor qilmadi. Shoshibushon qizchaning so'zlarini eshitdi-yu, lekin ma'nosini anglamadi. U, qizchaning o'ynagisi kelyapti, deb o'yladi, uning esa, hozir qizcha bilan mashg'ul bo'lishga vaqti yo'q. Buning

sababi shuki, u bugun ba'zilarning yuraklariga qadash uchun o'tkir so'z o'qlari izlamoq bilan band. Ammo kichkina qizchaning qo'li bilan otilgan o'qlar nishonga tegmagandek, olim odamning o'qlari ham nishonga tegmay, xato ketganini o'quvchilar biladilar.

Olxo'ri danaklarining bir yaxshi jihati shuki, ularni birin-ketin ota bergach, bordi-yu to'rttasi xato ketganda ham, beshinchisi borib mo'ljalga tegishi muqarrar. Ammo Shorno o'ylab topilgan nom bo'lsa-da, «meni kut, men boraman» degandan keyin, bu yerda turish mumkin emas, mabodo joyida tura bersa, odamlar Shorno degan qizning borligiga shubha qiladilar. Shuning uchun, bu tadbir ham natija bermagach, Giribala darrov ketishga majbur bo'ldi. Ammo shuni ham aytish kerakki, uning harakatida dugonasini ko'rishga bo'lgan chin xohishning tabiiy quvonchlari sezilmas edi. U orqasiga qayrilmay, o'z izidan biror kishi kelyaptimi-yo'qmi, shuni bilishga tirishardi. Ketidan hech kim kelmayotganini sezgandan keyin ham, bir narsaga umid qilganday, yana orqasiga qayrilib qaradi, hech kimni ko'rmagach, xo'rlik va alam shiddatidan to'zg'ib ketgan charupatni yirtib-yirtib, o'zining so'nggi umidlari bilan birga yerga tashladi. Agar shu topda Shoshibushondan o'rgangan bilimlarini qaytarib berish yo'li topilsa, ularni ham yigitning eshigi oldiga olxo'ri danaklariday irg'itib ketardi. Qizcha Shoshibushon bilan ko'rishgungacha u o'rgatgan hamma narsalarni esdan chiqarishga qattiq qaror qildi. U holda, o'qituvchi undan so'raydi, u esa birortasiga javob qaytara olmaydi. Ha bittasigayam, bittasigayam. O'shanda u yigit o'zining qanday yomon ish qilganini payqaydi!

Alamdan Giribalaning ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi. Hamma narsani unutganini bilib Shoshibushonning xafa bo'lishini o'ylaganida, qizchaning ezilgan yuragi birmuncha tinchlandi, ammo Shoshibushonning aybi bilan kelajakda nodon bo'lib qolishini o'ylaganida, baxtsiz Giribalaning o'ziga rahmi kelardi.

Osmonda bulutlar suzardi — yomg'ir fasli boshlanganda bu xil bulutlarni har kun ko'rish mumkin.

Giribala yo'l bo'yidagi daraxt orqasiga bekinib, alamiga chidolmay yig'lab yubordi. Kuniga qancha qizlar shu xilda sababsiz ko'zyoshi to'kadilar. Bunda diqqatga sazovor hech narsa yo'q.

## VI

Shoshibushonning yuridik izlanishlari va notiqlik mashqlari nechun behuda bo'lib chiqqani o'quvchilarga ma'lum: sudga berilgan shikoyat to'satdan qaytarib olindi. Xorkumar o'z rayoniga faxriy sudya etib tayin qilindi. Endi u kir chapkon<sup>1</sup> kiyib, yog'i chiqqan salla o'rab, tez-tez sudga borar, shuning bilan birga har gal, sohib huzuriga kirib, unga ta'zim qilib chiqishni tark etmasdi.

Bir necha kundan keyin Shoshibushonning qora, katta kitobi Giribalaning qarg'ishiga uchradi, — uyning qorong'i bir burchagiga tashlab qo'yilgan, ustimi chang bosib, esdan chiqib ketgan edi. Axir Giribala qaerda, bu mudhish kitobga bo'lgan e'tiborsizlikdan quvonadigan qizcha qaerda?

O'sha kuni Shoshibushon qonun to'plamini yopib qo'ygach, Giribalaning ketib qolganini fahmladi. U xayol surib, so'nggi kunlarda qizchanning qilgan harakatlarini esladi. U Giribalaning bir kun erta bilan soriysi etagida hali yomg'ir nami qurimagan bakul gullari ko'tarib kelganini esladi, o'shanda u qizchaga qayrilib ham boqmagan edi. Qizcha esa dastlab o'zini yo'qotayozdi, lekin keyincha soriysidan igna-ip olib, boshini egib, gullarni birin-ketin ipga tiza boshladi, u bu ishni juda sekin qilsa ham, oxiri tugatdi. Kun kechikib, Giribalaning uyga qaytish vaqti yetgan edi. Shoshibushon bo'lsa, hanuz o'qish bilan mashg'ul bo'ldi. Qiz g'oyat xafa bo'lib, gullarni divanda qoldirib chiqib ketdi. Yigitcha bu xil beparvolik qizning

---

<sup>1</sup> Chapkon — tantanali marosimda kiyiladigan to'n.

izzat-nafsiga tekkanini fahmlab qoldi. Qizcha esa uning oldiga kirmay qo'ydi, faqat ahyon-ahyonda uyi yonidan o'tib qolardi, xolos; oxiri qizcha butunlay kelmaydigan bo'lib qoldi, — bunga ham ancha vaqt bo'ldi. Qizchaning izzat-nafsi bu qadar e'tiborsizlikka bardosh bermasligi muqarrar edi. Shoshibushon chuqur uf tortib, go'yo bir narsasini yo'qotganday devorga suyandi. Endi uning kichkina shogirdi yo'q edi, o'qishga bo'lgan har qanday havasi ham yo'qoldi. U kitobni olib, ikki-uch sahifa o'qib yana joyiga qo'yar, yozishga kirishar, lekin minut sayin cho'chib, bironi kutganday ko'chaga qarar, yoza boshlagan narsasini tashlardi.

Shoshibushon Giribala og'rib-netib qolmadimikan deb qo'rqdi. Ehtiyot bilan surishtirib, havotirning o'rinsiz ekanini bildi. Giribalani yaqinda erga beradilar, shuning uchun uydan chiqishi mumkin emas.

Charupatni yirtib, loy ko'chaga tashlab kelgan kuni-ning ertasiga, giri soriy etagiga shirinliklar solib, shoshilib uydan chiqdi. Havo dimligidan tuni bilan uxlamay chiqqan Xorkumar ilk sahardan beligacha yalang'och bo'lib olib, hovlida o'tirgan edi.

— Sen qayoqqa ketyapsan, — deb so'radi u Giridan.

— Shoshi amakimnikiga.

— Nima qilasan Shoshi amakinikida, bor, uyga kir!

Shundan keyin uni so'ka boshladi; kap-katta qiz, yaqinda erga tegadi-yu, uyatni bilmaydi. Ana shundan keyin, unga ko'chaga chiqishni man qildilar. Endi ruxsat so'rash, yolvorish foydasiz. Bu hol qizning g'ururini poy-mol qildi. Mango mevasining quyuq sharbati, betel va limonlar qaytib o'z joyiga qo'yildi. Yomg'irlar boshlandi, bakul gullari to'kilmoqda, guavi mevalari daraxtda osilib yotibdi, pishib yerga to'kilgan olxo'rilarni qushlar cho'qimoqda. Afsuski, to'zg'igan charupat ham endi yo'q bo'lib ketdi.

Giribalaning to'yida surnaylar chalingan kuni, tantanaga taklif etilmagan Shoshibushon qayiqda Kalkuttaga tomon suzib ketdi.

Xorkumar o'z shikoyatini qaytarib olgandan beri, Shoshibushonni ko'rishga ko'zi yo'q edi. U, Shoshi mendan nafratlanadi, deb qattiq ishonardi. U o'zi tasavvur etgan bu nafratning minglab nishonalarini Shoshibushonning ko'zlarida, yuzlarida, xatti-harakatida ko'rdi. U o'zining bir vaqt xo'rlanganini qishloq aholisi allaqachon unutgan, faqat Shoshibushongina eslab yuradi, deb hisoblar, shuning uchun yigitchaning ko'ziga qarolmasdi. Shoshibushon bilan uchrashganda o'ng'aysiz holatda qolar, shu bilan birga, yigitchaga g'azabi kelardi. U, Shoshini qishloqdan ketkazaman deb ahd qildi.

Bunday odamni o'z uyidan chiqib ketishga majbur etish og'ir ish emas. Noib janoblari tez fursatda o'z murodiga yeta qoldi. Bir kun Shoshi qayiqqa kitoblari bilan bir necha temirsandiqni yukladi. Uni bu qishloqqa bog'lab turgan birdan-bir ip shu kungi to'y tufayli tamom uzildi. U, ilgari bu nozik ip qalbini naqadar mahkam o'rab olganini tasavvur etmas edi. Qayiq daryo sohili bo'ylab yurib, tanish daraxtlarning uchlari uzoqlarda ko'zdan g'oyib bo'la boshladi, to'y muzikasi borgan sari zaiflashardi, birdan yigitning ko'ngli buzilib, nimadir tomog'ini siqib keldi, chakka tomirlari tez-tez ura boshladi, nazarida butun olam aldovchi sarobday ko'rindi.

Qayiq oqim bo'ylab ketgan bo'lsa ham, qarshi tomondan esgan qattiq shamol yo'lni og'irlashtirar edi. Shu payt daryoda bir voqea yuz berib, Shoshibushon sayohatining to'xtalishiga sabab bo'ldi.

Yaqinda temir yo'lni qo'shni rayonlar bilan bog'laydigan yangi paroxod yo'li ochilgan edi. Paroxod parraklari bilan suvni to'liqlantirib, pishqirgancha oqimga qarshi suzib kelardi. Unda yangi paroxod yo'li boshqarmasining raisi yosh sohib va bir qancha passajirlar bo'lib, birmunchasi Shoshibushonning hamqishloqlari edi.

Qandaydir savdogar barkasi<sup>1</sup> paroxodni quvib o'tishga intilib, goh o'zib ketar, goh orqada qolardi. Qayiqchi bu musobaqaga haddan tashqari qiziqib, birinchi yelkan ustiga ikkinchisini, ikkinchisi ustiga uchinchisini ko'tardi. Shamolning tazyiqidan uzun langar oldinga qarab egildi. Qayiq kesib o'tgan baland to'lqinlar uning bortlariga kelib urilar, barkas esa, suvliqni tishlab chopgan otday tez ketar edi. Daryo bir oz qayrilib oqqan yerda barkas paroxod yo'lini kesib o'tish uchun shiddat bilan ilgari harakat qildi, paroxoddan o'zib ketdi. Panjaraga tirsagini tirab turgan sohib bu musobaqani zo'r qiziqish bilan kuzatib borardi. Barkasning yurishi tezlashib, paroxoddan jindak o'tganda, birdan sohib miltig'ini olib, shishib turgan yelkanni nishonga olib otdi. Yelkan yirtilib, barkas to'ntarildi. Paroxod daryoning qayrilishida g'oyib bo'ldi. Boshqarma raisi nega bunday qildi, buni aytish qiyin. Biz, bengalliklar inglizlarning nimadan quvonishlarini sira anglay olmaymiz. Ehtimol, u hind barkasining musobaqadagi g'alabasiga chidamagandir; balki shishgan katta yelkaning bir lahzada burda-burda bo'lib ketishi uning uchun bir halovatdir; balki, dadil kemachaning o'yinini birdan buzishda, uning bir necha joyidan teshilishida biror iblisona lazzat bordir, — bilmadim. Ammo bir narsa shubhasiz: ingliz bu hazil uchun o'ziga hech narsa bo'lmasligiga qattiq ishonardi va to'g'risini aytganda, barkas egasini ham, komandani ham odam qatorida sanamas edi.

Sohib miltiqni olib otganda, barkas to'ntarilib g'arq bo'lganda, Shoshibushon shu hodisa ro'y bergan joyda bo'lib, hamma hodisani o'z ko'zi bilan ko'rdi. U ag'darilgan barkas oldiga darhol suzib borib, qayiqchi va eshakchilarni halokatdan qutqazdi. Faqat bir kishini qutqazib bo'lmadi — u, falokat yuz bergan chog'da barkas ayvonchasi ostida ziravor yanchib o'tirgan ekan.

Shoshibushonning tomirlarida qon qaynab ketdi. Adolat favqulodda sekin harakat qiladi, u xuddi katta va

<sup>1</sup> Barkas — katta qayiq.



murakkab mashina: hamma «tarafdor» va «qarshilarni» o'lab, dalillar to'playdi va to'la sovuqqonlik bilan jazo beradi, unda odam yuragiday yurak yo'q. Ammo Shoshibushonning nazarida jazo bilan g'azabni bir-biridan ayrib qarash — to'qlikni ochlikdan, xohishni qanoatdan ayrib qarash kabi g'ayritabiiy bo'lib ko'rindi. Ko'p jinoyatlar borki, ular tomoshabindan tezda biror chora ko'rishni talab etadi, aks holda, u tomoshabin o'z qalbida yashiringan samoviy jazoga giriftor bo'ladi. U holda adolatga ishonib o'zini tinchitish kishini uqubatli andishaga soladi. Biroq adolat mashinasi ham paroxod boshqarmasi raisini Shoshibushondan uzoqqa olib ketdi. Jamiyatning bu voqeada nima foyda qilganini bilmayman, lekin Shoshibushonning «hind g'ussadorligini», shubhasiz, kuchaytirdi.

Shoshi o'zi xalos etgan kishilar bilan qishloqqa qaytdi. Barkas yuksiz yotardi. Uni chiqarib olish uchun kishilar yubordi va qayiqchiga boshqarma raisi ustidan sudga shikoyat qilishni taklif etdi.

Qayiqchi rozi bo'lmadi.

— Qayiq-ku g'arq bo'ldi, nima, men endi o'zimni ham g'arq qilaymi?— dedi u.— Avvalo, buning uchun pul to'lash zarur, so'ngra, ishni tashlab, yemoq, uxlamoqni unutib, buning orqasidan sudma-sud yurish kerak, bundan tashqari, sohibga qarshi boshlangan bu ishning nima bilan tamom bo'lishini bir xudodan bo'lak hech kim bilmaydi.

Oxiri Shoshibushonning advokatligini, sud xarajatlari uning o'zi to'lashga tayyorligini va hamma faktlar uning foydasiga ishlab, sud qayiqchining ko'rgan ziyonlarini to'lashga hukm chiqarishi muqarraligini bilgandan keyin, qayiqchi rozi bo'ldi. Biroq, Shoshibushonning paroxodda kelgan hamqishloqlari sudda guvohlik berishga rozi bo'lmadilar. Ular Shoshibushonga bunday dedilar:

— Janob, biz hech narsani ko'rganimiz yo'q, biz paroxodning boshqa tomonida edik, suvning sharillashi va mashinaning pishqirishidan miltiq tovushini eshitganimiz ham yo'q.

Yuragida vatandoshlarini la'natlab, Shoshibushon boshqarma raisi ustidan o'zi shikoyat qildi.

Guvohlarga ehtiyoj ham sezilmadi. Boshqarma raisi miltiq otganiga chindan iqror bo'ldi. U bunday dedi: osmonda qator tumalarni ko'rib, nishonga oldim. Paroxod g'oyat tezlik bilan yurib, miltiq otilgan paytda daryoning qayrilib oqadigan yeriga kelib qolgan edi. Binobarin, qarg'ani o'ldirdimmi, turnani otdimmi yoki barkasni g'arq qildimmi, bilolmadim. Havoda va yerda ov to'lib yotganda, hech bir aqlli odam, garchi bir o'q chorak pay-sa tursa ham uni bekorga xayf qilib, iflos lattaga ot-maydi.

Sohib oqlandi va sigaret tutunini buruqsatib, karta o'ynash uchun klubga ketdi. Ziravor yanchib turgan odamning o'ligini hodisa yuz bergan joydan to'qqiz mil narida, to'lqin qirg'oqqa chiqarib tashlagan joydan topib oldilar. Shoshibushon ko'ngli buzilgan holda qishlog'iga qaytib keldi.

U qaytib kelgan kuni Giribalani qaynatasinikiga olib borish uchun qayiqlar tayyorlangan edi. Garchi Shoshi-bushonni hech kim taklif etmagan bo'lsa-da, u daryo sohiliga keldi. Pristan yonida odamlar to'plangan edi, u odamlardan bir oz nariroq o'tib turdi. Qayiq pristandan jo'nab, uning oldidan suzib o'tganda, u bir lahzagina kelinni ko'rib qoldi; u gamto bilan o'ragan boshini pastga egib o'tirardi. Giribala uzoq vaqtgacha, biror yo'l topib, ketish oldida Shoshibushon bilan ko'rishib qolarman, deb umid qilgan edi, endi bo'lsa, u sho'rlik o'qituvchisi yaqinida — sohilda turib unga qarayotganini bila olmadi. U biror marta boshini ko'tarmay, tovushsiz yig'lar, ko'z-yoshlari yuzlaridan oqib tushar edi.

Qayiq borgan sari olg'a qarab suzib, nihoyat, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Ertangi quyosh nurlari suvda porlay boshla-di, yonginada, mango daraxti shoxida, papiyar qushi baland tovush bilan o'zining intihosiz qo'shig'ini kuylay ketdi, qayiqchilar yuklarni bir sohildan ikkinchi sohilga o'tkaza boshlashdi. Pristanga suvga kelgan xotinlar

Girining qaynatasinikiga ketishini muhokama qilar edilar. Shoshibushon ko'zoynagini olib, jiq yoshga to'lgan ko'zlarini artdi. Shundan so'ng, yo'l bo'yidagi, derazalari temirpanjarali uyiga ketdi. Birdan uning qulog'iga Giribalaning tovushi eshitilganday bo'ldi: «Shoshi amaki!» Ajabo, qaerda u, qaerda? U hech yerda ko'rinmaydi! Na uyda, na ko'chada, na qishloqda — u faqat yigitning g'am-hasrat bilan to'lgan qalbida edi.

## VIII

Shoshibushon narsalarini yig'ishtirib yana Kalkuttaga jo'nadi. Kalkuttada uning hech qanday ishi yo'q, sirasini aytganda, borishga ham ehtiyoj yo'q edi. Binobarin, u temir yo'l bilan emas, daryo bilan jo'nashga qaror qildi.

Yomg'ir faslining avji qizigan chog'i. Bengaliyani minglab sersuv anhorlar to'rday qamrab olgan. Gurkuran yam-yashil Bengaliyaning qon tomirlari limmo-lim, hamma joyda mo'l maysa, lionlar, ko'katlar, nihollar, sholi, jut va shakarqamishi barq urib bosh silkimoqda.

Daryoning Shoshibushon qayig'i suzib borayotgan egri-bugri tor shoxobchasi limmo-lim to'lgan, suv qirg'oqlar bilan baravar bo'lib, sohildagi pichanzorlarni, ayrim o'rinlarda don ekinlarini suv bosgan edi. Suv bambuk novdalari o'sgan, mango bog'laridan iborat qishloq qo'ralariga juda yaqin kelgan go'yo xudolar Bengaliyadagi barcha daraxt tomirlari ostidan ariq o'tkazishga g'amxo'rlik qilgandek tuyulardi.

Sayohat boshlanganda, yomg'ir suvida yuvilgan daraxtlar quyosh nurida porlab turardilar, biroq tezda bulut to'planib, yomg'ir yog'a boshladi. Qaysi tomonga boqmang — hamma narsa qayg'uli va chirkin.

Toshqin vaqtida atrofi suv bilan o'ralgan tor va iflos qo'tonga qamab qo'yilgan sigirlar shikoyat etganday termilib, sabr bilan yomg'irda iviganday, Bengaliya ham qadam bosib bo'maydigan loy-balchiq va zax changalzorda xomush va g'amgin ivimoqda edi. Dehqonlar ko'chaga

chiqqanda boshlarga toka' ilib chiqadilar; xotinlar sovuq va shamoldan junjikib, shoshilgan holda ro'zg'or ishlari bilan uydan-uyga yuguradilar yoki ehtiyot bilan qadam bosib, ich-ichlarigacha ivib, daryoga suvga boradilar, uyda qolgan erkaklar eshik oldida o'tirib tamaki chekadilar; ular faqat zarur bo'lgan paytlardagina bellariga ro'mol o'rab, tuflini qo'lga olib, boshlariga shamsiya tutgan holda ko'chaga chiqadilar; quyosh qovjiratgan, yomg'irga bo'kkan bu mamlakatda shamsiyani xotinlarga berish yaxshi an'analar jumlasiga kirmaydi.

Yomg'ir bo'shshamadi. Qayiq ayvonchasida o'tirib bezor bo'lgan Shoshibushon poezd bilan ketishga qaror qildi. U, bir daryo ikkinchi daryoga quyiladigan joyda qayiqni qirg'oqqa bog'lab, ovqat qidirib ketdi.

Oqsoq odam chuqurga tushib ketar ekan, bunga faqat chuqur aybli emas, — oqsoqning oyog'i ham hamisha chuqurga qarab tortadi. O'sha kuni Shoshibushon buni juda yaxshi isbot qildi.

Ikki daryoning bir-biriga quyiladigan yerida baliqchilar to'r solib, uni qirg'oq yaqinidagi bambuk daraxtiga bog'lab qo'ygan edilar. Faqat bir joydagina qayiq o'tishi uchun yo'l qolgan edi. Baliqchilar uzoq vaqtlardan beri shu yo'sinda baliq ovlab, shunga munosib soliq to'lardilar. Baxtga qarshi, bosh politsiya amaldoriga, birdan, xuddi shu yo'ldan suzib o'tishga to'g'ri kelibdi. Uning qayig'ini uzoqdan ko'rgan baliqchilar, qichqirib, uni to'r solinganidan ogohlantirib, yo'l ko'rsatdilar. Ammo sohibning qayiqchisi kishilar yaratgan to'siqlar bilan hisoblashishga o'rganmagan, u qayiqni to'ppa-to'g'ri to'rga qarab burdi, to'r suvga botib, qayiq uning ustidan o'tdi, biroq eshkak ilinib qoldi. Uni ajratish uchun bir oz vaqt va harakat zarur edi.

Sohibning qahr-g'azabi jo'sh urib, qayiqni to'xtatishga farmon berdi. Uning yuzlaridagi g'azabni ko'rib baliqchilar tumtaraqay bo'lib qochib ketdilar. Sohib o'z esh-

<sup>1</sup>Toka — palma yaprog'idan yasalgan yoping'ich.

kakchilariga, to'zni qirqib tashlanglar, deb buyurdi. Ular yetti-sakkiz yuz rupiya turadigan to'zni bir nafasda kesib, burda-burda qilib tashladilar. Sohib g'azabini bir daraja bosib, baliqchilarni tutib kelishga buyurdi. Politsiyalar qochgan baliqchilarni topolmay, duch kelgan to'rt odamni tutib keldilar. Ular qo'llarini ta'zim vaziyatida tutib, sohibga yolvorib, qo'yib yuborishni so'radilar va hech narsadan xabarleri yo'qligini so'zlab uni ishontirishga urindilar. Politsiya boshlig'i asirlarni o'zi bilan olib ketishga buyurdi. Shu paytda ko'zlarida ko'zoynak, ustidagi ko'ylakning tugmalarini solishga ulgurmagan Shoshibushon tuflisini shapillatib, hansiragancha sohibning qayig'i oldiga chopib kelib, qaltiragan ovoz bilan dedi:

— To'zni kesishga va bu to'rt odamni qiynashga sizning hech qanday haqqingiz yo'q!

Katta amaldor unga hind tilida qo'pol javob berdi. Shu paytda Shoshibushon qayiqqa sakrab tushdi-da, sohibning ustiga otilib, uni yosh boladay, jinniday do'pposlab ketdi.

So'ngra nima bo'lganini u eslamaydi. Ko'zini ochib o'zini politsiya uchastkasida ko'rdi, u yerdagi muomalalardan uning ma'naviy qanoat hosil qilishi yoki jismoniy yengillik his etishi ehtimoldan uzoq edi, deb gapirishga ehtiyoj bo'lmasa kerak.

## IX

Shoshibushonning otasi advokat yollab, o'g'lini kafilga olishga muvaffaq bo'ldi. Shundan so'ng sud protsessiga doir tashvishlar boshlandi.

To'rlari qirqib tashlangan baliqchilar Shoshibushon yashagan okrugda istiqomat qilib, o'sha zamindorga mute edilar, ular baxtsizlikka uchraganda Shoshibushonning oldiga yuridik maslahat so'rab kelardilar. Sohib tutib ketgan boyagi to'rt kishi ham Shoshibushonning tanishlari edi.

Shoshi hamqishloqlarini chaqirib, ularni shu mojaroga guvoh tariqasida ko'rsatish niyatida ekanini aytdi. Ular

haddan tashqari qo'rqib ketdilar: axir ularning oilalari, bolalari bor, bordi-yu, politsiya bilan janjallashib qolsalar, ularni bu balodan kim qutqazadi?

Axir, har kimning birgina joni bor! To'g'ri, ular zarar ko'rdilar, biroq, hozir uni qaytarib bo'lmaydi, endi ko'ra-bila turib guvohlik berish —bu baloga giriftor bo'lishning o'zi-ku!

— Janob, sen bizni katta musibatga duchor qilding, — der edi ular.

Uzoq cho'zilgan gap-so'zlardan keyin, ular bo'lgan haqiqatni batamom so'zlab berishga rozi bo'ldilar.

Xorkumar bir ish bilan sudga borib, sohiblarga salom berish niyatida idoraga kirganda, politsiya boshlig'i kulib turib unga:

— Noib-babu, eshitishimcha, sening ijarachilaring politsiyaga qarshi yolg'on guvohlik berar emishlar? — dedi.

Noib qo'rqib ketdi:

— Qanday, yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas! Bu iflos toifaning bolalari juda ham yuzsiz-da!

Sudda advokat Shoshibushonni himoya qila olmagan tez fursatda gazetadan ma'lum bo'ldi.

Baliqchilar birin-ketin turib, politsiya boshlig'i to'rtmi qirqqani yo'q, bizlarni otlarimizni yozib oldi, xolos, dedilar.

Bugina emas. Shoshibushonning bir necha hamqishloqlari, biz o'sha kuni to'y munosabati bilan daryoda sayohat qilib, voqea yuz bergan joyning yaqiniga borib qolgan edik; Shoshibushonning birdan politsiya sohibiga tashlanib, uni bekordan-bekor urganini o'z ko'zimiz bilan ko'rdik, — dedilar.

Shoshibushon o'zi tahqirlangach qayiqqa tushib sohibni urganiga iqror bo'ldi. Lekin buning bosh sababi sohibning to'rtmi kesishi va aybsiz to'rt baliqchini qamashi edi.

Bunday sharoitda Shoshibushon ustidan chiqarilgan hukmni adolatsiz deb hisoblash mumkin emas. Hukm qat'iy bo'lib, Shoshibushon bir necha xil jinoyatda ayblangan edi: birovni urish, qayiqqa bostirib kirish, polit-

siyaning qonuniy harakatiga qarshilik ko'rsatish va hokazo... har qaysisining isboti uchun yetarli dalillar bor edi.

Shoshibushon sevikli kitoblarini kichik uyida qoldirib, besh yil muddatni turmada o'tkazishga majbur edi. Uning otasi oliy sudga shikoyat qilmoqchi bo'lganda, Shoshibushon qat'iy qarshilik ko'rsatib, bunday dedi:

— Turmaga borishim ham yaxshi. Temir zanjirlar yolg'on so'zlamaydi, turma devoridan tashqaridagi «ozodlik» esa meni aldab, musibatga giriftor qildi. Agar odamlar haqida so'z borarkan, shuni aytish kerakki, turma tor bo'lganidan u yerda yolg'onchilar, qalloblar, himmatsiz va nomard kishilar ozodlikdagiga nisbatan ancha oz.

## X

Shoshibushon qamalanganidan keyin tez orada otasi o'ldi. Uning boshqa hech kimi qolmadi. To'g'ri, bir akasi bor edi, ammo u uzoq vaqtlardan beri Markaziy Viloyatlarda ishlaydi. U yerda uy solib, xotin-bola-chaqalik bo'lib ketgan, vataniga qaytishga taraddud qilmasdi. Shoshibushonning bu yerdagi hamma mulklarini noib Xorkumar turli hiyla-yu nayranglar bilan o'zlashtirib olgan edi.

Taqdirning xohishi bilan Shoshibushon turmada boshqalardan ko'proq azob-uqubat chekdi. Nima bo'lsada, bu uqubatli besh yil o'tib ketdi.

Yana yog'ingarchilik davri boshlangan edi. Shoshibushon ozib-to'zib, ko'ngli cho'kkan holda turmadan chiqdi. U ozod bo'ldi. Turma devorlaridan tashqarida uning shu ozodlikdan boshqa hech narsasi, hech kimsasi yo'q edi. Jamiyatdan haydalgan, uysiz, yolg'iz Shoshibushonga bu keng dunyo boshpanasiz bir biyobondek tuyuldi.

U tik turib, hayotning uzilgan ipini qanday qilib ulash, nimadan boshlash haqida fikr yuritardi. Qo'qqisidan uning oldiga juft ot qo'shilgan katta kareta kelib to'xtadi. Uning ichidan chiqqan xizmatkor:

— Sizning ismingiz Shoshibushon-babumi? — deb so'radi.

— Ha.

Xizmatkor kareta eshigini ochib, o'zi eshik yonida, uning o'tirishini kutib turdi.

— Siz meni qaerga olib bormoqchisiz? — so'radi Shoshibushon ajablanib.

— Sizni mening xo'jayinim taklif etgan.

O'tkinchilarning qiziqib qarashlariga toqat qilib bo'lmadi, shuning uchun Shoshibushon xizmatkor bilan ortiqcha so'zlashib turmay, karetaga o'tirdi. «Shubhasiz, bu yerda qandaydir anglashilmovchilik bo'layotir, — deb o'yladi u, — ha mayli, axir qaerga bo'lmasin ketish kerakku. Ehtimol, bu xato mening yangi hayotimning boshlanishi bo'lar».

O'sha kuni ham osmonda quyosh bilan bulutlar o'ynamoqda edi; yong'ir suvi bilan to'lgan yo'l bo'ylab cho'zilib ketgan to'q-yashil sholilar nur bilan soyalarning almashinuvidan rang-barang bo'lib tovlanardi. Bozor yonida eski kareta qiyshayib turar, uning yaqinidagi oziq-ovqat do'koni oldida, vishnu qalandarlari gupijontra<sup>1</sup> va do'mbira tovushiga jo'r bo'lib kuylar edilar:

*Qayt, sultonim, qayt!*

*Qayt, intizor, chanqoq qalbinga!*

Kareta olg'a ketar, ashula esa, borgan sari uzoqdan eshitilardi:

*Qayt, berahm, qayt, nozigim, qayt!*

*Qayt, go'zalim, bahor kunlaridek qalbimni yorit!*

Ashula endi zo'rg'a eshitar, so'zlarini anglab bo'lmasdi. Ammo ashulaning maqomi Shoshibushonni hayajonlantirardi, she'rlarni birin-ketin eslab, ashulani to'xtatishga kuchi yetmaganday, o'zicha sekin xirgoyi qila boshladi:

*Abadiy baxtim, qayt! Qayt, mangu kulfatim!*

*Qayt, baxtu kulfatim, azobu davlatim, qayt!*

*Qayt, bir umr mushtoq etgan, abadiy sevgilim, qayt!*

<sup>1</sup>Gupijontra — muzika asbobi.



*E, bevafo, og'ushimga qayt!*  
*Qo'ynimga qayt, ko'z uyimga qayt!*  
*Tushlarimga, xayolimga qayt!*  
*Qayt, kulbanga, quvonchimga, hayotimga qayt,*  
*Kulgimga qayt,*  
*Ko'zyoshimga qayt!*  
*G'ururinga, xotiramga, hurmatimga qayt!*  
*Ishonchimga, nomusimga, ishlarimga qayt!*  
*Tashvishimga, hayotimga, o'limimga qayt!*

Kareta, atrofi o'ralgan bir boqqa kirib, ikki qavatli, imorat oldida to'xtadi. Shoshibushon ham ashula aytishdan to'xtadi.

U biror narsa haqida so'rab-netib turmay, xizmatkor orqasidan keta berdi.

U kirgan xonada devor bo'ylab qo'yilgan oynali shkaflarda rang-barang muqovali kitoblar qator terib qo'yilgan edi. Bularni ko'rib, u o'zini turmadan ikkinchi daf'a ozod bo'lganday his etdi. Muqovalari oltin naqshlar bilan bezatilgan bu chiroyli kitoblar, unga nariyog'ida baxt dunyosi yashiringan, qimmatli toshlar bilan bezatilgan tanish darvozaday tuyuldi.

Stol ustida bir narsa turar edi. Ko'zlari uzoqdagini ilg'amaydigan Shoshibushon egilib, toshtaxta ustiga qo'yilgan bir necha eski daftarlar va Dosning<sup>1</sup> eskitirib to'zgi'gan «Dxarapat», «Kotxamala» va «Mahobhorata» nomli kitoblarini ko'rdi. Toshtaxtaning yog'och ramkasiga katta harflar bilan siyohda Shoshibushonning qo'li bilan «Qizcha Giribalaga» deb yozilgan edi. Shu ism uning qalami bilan daftarlarga va kitoblarga ham yozilgan.

Shoshibushon qaerga kelganini fahmladi. Uning yuragi qattiq ura boshladi. U ochiq derazaga qaradi, hayhot, bu nima? O'sha derazalari temirpanjarali uy, o'sha o'nqircho'nqir qishloq yo'li, o'sha yo'l-yo'l soriy kiygan qizcha... O'zining o'sha davrdagi osoyishta, sokin hayoti. Bu baxtli hayotda odatdan tashqari bir holat yo'q edi:

<sup>1</sup> Kashiram Dos — mashhur bengal yozuvchisi.

ko'zga tashlanmaydigan kichik ishla, ozgina baxt bilan shukuh qilib kun kechirar, uning hayotidagi ahamiyatsiz voqealar, shaxsiy mashg'ulotlar orasida yosh qizchani o'qitish mashqlari alohida ajralib turardi. Biroq yo'l bo'yidagi uyda yolg'izlikda kechirgan hayoti, u osoyishtalik, u ozgina baxt, u kichkina qizchani yorug' chehrasi — mana shular hammasi uning ko'z o'ngida, bevaqt, o'rinsiz yalt etgan tutqich bermas samoviy orzulardek ko'rindi. U kunlarning xotiralari bu kungi g'amgin ertaning nuri va vishnuparastlar qo'shig'ining hazin ohangi bilan qo'shilib, yuragida go'zal maqom singari jaranglar edi. Bir tomoni changalzorga qarab ketgan tor, iflos yo'l ustida xafa bo'lib turgan qizchani g'amgin, lekin mag'rur chehrasi uning ko'z oldida xudoning qudrat qo'li bilan yaratilgan eng go'zal suratday namoyon bo'ldi. Yana ashulaning yurakni ezadigan sadosi eshitildi. Uning nazarida, bu qishloq qizining yuzida butun olamning chorasiz g'am-g'ussalari aks etganday tuyuldi. Yuzini qo'llari bilan berkitib, tirsaklarini stolga, shu toshtaxtaga, daftar va kitoblarga tirab, o'tmishning xotiralarini o'ylab ketdi. Yengil oyoq tovushi eshitildi. U boshini ko'tardi. Uning qarshisida kumush barkashda meva va shirinliklar ko'targan Giribala so'zsiz kutib turardi. Hech qanday bezaksiz, oq, tul xotin libosi kiygan Giribala uning oldida tiz cho'kdi va bosh egib ta'zim qildi.

Giribala o'rnidan turgach, azob tortib, ozib-to'zigan Shoshibushonga muhabbat bilan nazar soldi, ko'zlari yoshga to'lib, yuzlaridan oqib ketdi.

Shoshibushon, odatdagidek, avval qizning salomatligini so'ramoqchi edi, biroq biror so'z ham ayta olmadi. Uning ko'zyoshlari tomog'iga kelib tiqildi, — yig'i bilan to'kilmagan ko'zyoshlari, aytilmagan so'zlar yurakda yig'ilib, go'yo qotib qoldi...

Ziyoratchi, qalandarlar uy qarshisida to'xtalib, takror va takror kuylardilar:

*Qayt, o, qayt!*

1894-yil

## TASHNA TOSHLAR

Biz uni poezdda uchratdik: do'stim ikkovimiz Pudja<sup>1</sup> bayrami munosabati bilan mamlakat bo'ylab qilgan safarimizdan Kalkuttaga qaytib kelmoqda edik. Libosiga qarab biz uni g'arbiy viloyatlarning musulmonlaridan deb o'yladik. Lekin uning gaplari bizni libosidan ko'ra ko'proq hayratga solib qo'ydi. U har xil narsalar va hodisalar xususida shunady muhokama yurgizardiki, go'yo parvardigori olam hamisha va birinchi galda u bilan bamaslahat ish qiladiganday. Shu choqqacha biz olamda qanday g'aroyib hodisalar ro'y berayotganini bilmay bamaylixtir yashab kelgan ekanmiz. Ruslarning nechog'li ilgari ketgani, inglizlarning qanday yashirin rejalari borligi va mahalliy rojalar orasida qanday chigalliklar ro'y berayotgani haqida hech narsa anglamay yurardik. Bizning yangi oshnamiz mug'ambirona jilmayib:

— Yeru ko'kda ko'p g'aroyibotlar bor, Goratsio, ammo ular haqida sizning gazetalarigizda hech qanday axborot berilmaydi, — dedi.

Biz birinchi dafa o'z uyimizdan chiqib musofirotga qadam qo'yganimiz uchunmi, har nuchuk, u kishining xatti-harakatlari bizni tamom hayratda qoldirdi. U odam har narsadan munosabat topib, o'z bilimdonligini namoyish qilar, vedlardan<sup>2</sup> dalillar keltirar yoki birdan forsiy she'rlar o'qir edi. Biz olimlik da'vosidan yiroq bo'lib, ved va fors tilidan ham yetarli bahramand bo'lmaganimiz sababli, bu kishiga bo'lgan ehtiromimiz tobora ortardi. Mening taqvodor do'stim esa, hatto, bu odam biror sehrli kuch bilan yoki samoviy mavjudotlar vositasila yoinki shunga o'xshash boshqa biror vosita orqali narigi dunyo bilan aloqador degan e'tiqodga kelib qoldi. Shuning uchun

<sup>1</sup> Pudja — hindlarning Kali tangrisi sharafiga o'tkazadigan eng katta diniy bayramlari, sentabr oyining oxiri va oktabr boshlarida bo'ladi: bu bayram munosabati bilan o'n kungacha maktablarda dars, idoralarda ish to'xtatiladi.

<sup>2</sup> Vedlar — hind adabiyotining qadimiy yodgorliklari.

u, bu g'ayritabiiy odamning eng oddiy so'zlarini ham zo'r maroq va cheksiz ehtirom bilan tinglab, ohista yoza boshladi. Menga, bu sirli shaxs o'zi qoldirgan taassurotni payqab, mamnun bo'lganday tuyulardi.

Poezd katta stansiyaga keldi. Biz boshqa poezdni kutib vokzalga kirdik. Kech soat o'n bir yarim edi. Bizga, yo'lda allaqanday hodisa ro'y bergani uchun poezd kechikib keladi, deb xabar qildilar. Men to'shaklarimni stolga yozib, bir oz mizg'ib olmoqchi bo'ldim. Biroq, haligi g'alati yo'ldoshimiz yana hikoya qila boshladi. Shunday qilib, men o'sha kechasi ko'z yummadim.

Jugantorida ma'muriyat bilan kelisholmay, ishni tashlab, Haydarobod hokimiga xizmatga kelganimda, men yosh va sog'lom edim, shuning uchun meni Barichga paxtadan soliq yig'ish ishiga tayinladilar.

Barich juda so'lim joy. Tog' etagidagi quyuq o'rmonlar orasidan go'yo mohir raqqosadek buralib, eshilib, tosh poyandoz ustidan shovillab chopqir Shusta daryosi oqadi. Daryo sohilida, undan bir yuz ellik zina yuqorida, tog' etagida oq toshdan yasalgan tanho saroy qad ko'targan; bu yaqinda boshqa uy-joy yo'q, paxta bozori va Barichning o'zi bu yerdan ancha yiroq.

Taxminan ikki yuz ellik yillar muqaddam shoh Mahmud Ikkinchi kayfu safo surish uchun bu kimsasiz joyda saroy qurdirgan edi. U chog'larda cho'miladigan xonalardagi fontanlardan atirgul suvining muattar hidi anqir edi. Fontanlardan sachragan suv tomchilari bilan salqinlangan ayrim xonalarda sovuq marmar kursilarda o'tirgan eron qizlari cho'milish oldidan sochlarini yozib, gul bargiday go'zal oyoqlarini fontandan oqqan zilol suvlarga tutib, tizzalariga setor qo'yib chalar, xonalarda g'azalxonlik yangrardi.

Hozir bu fontanlar ishlamaydi; ashula sadolari ham tingan; oq marmarlarda xiromon yurgan go'zallarning oyoq sharpasi ham eshitilmaydi, hozir bu yer — menga o'xshash soliq yig'uvchilar, tanholikdan zoriqqan,

toliqqanlar uchun huvillab yotgan juda katta joy bo'lib qolgan. Idoramizning eski xizmatchisi Karimxon meni bu saroyda tunab qolma, deb ogohlantirgan edi. U, bu joyga faqat kunduzi kelgin, lekin kechasiga sira-sira qola ko'rma, degan edi. Men bunga javoban kulibgina qo'ygan edim. Xizmatchilar ham, biz u yerda kunduzi ishlaymiz-u, kechasi qolmaymiz, degan edilar. «Mayli, xohlaganlaringcha bo'lsin» javob berdim men. Bu uy shunday yomon shuhrat chiqargan ediki, hatto o'g'rilar ham kechasi kirishga botinmas edilar.

Birinchi davrda bu tashlandiq tosh saroyning odamsizligi meni qandaydir vahimaga solganday bo'ldi, men imkon boricha bu uyga kunduzi kelmaslikka tirishardim, faqat kechasi charchagan holda qaytib, yotiboq darhol uxlab qolardim.

Ammo oradan bir hafta o'tmay, bu qasrning odatdan tashqari sehri meni chulg'ab ola boshladi. Mening u davrdagi ahvolimni tasvirlash qiyin, lekin mening so'zlarimga ishonish undan ham qiyinroq. Bu bino go'yo tirik organizmday, asta-sekin meni o'z komiga torta boshladi.

Ehtimol bu hol men saroyga kirgan kuniyoq boshlangandir, lekin men buning nishonalari ko'ringan kunning ba'zi hodisalarinigina aniq eslayman. Allaqachon jazirama kunlar boshlangan, bozor katta emas, binobarin men deyarli ishlamas edim. Bir kuni, quyosh botmasdan ancha ilgari, saroy zinapoyasi oldidagi kresloga o'tirdim. O'shanda Shustaning suvi ozayib sayoz bo'lib qolgan edi, botayotgan quyosh shu'lasida qarshi sohilning sayozliklari yarqirab ko'rinardi, oyog'im ostida esa, sayoz va musaffo suv tagida rang-barang toshlar yarqirardi. Shabada yo'q, daraxt barglari qimir etmasdi. Yaqin adirlardan kelgan arpa badiyonning o'tkir hidi anqib, sokin havoni to'ldirdi.

Quyosh tog' cho'qqilari orqasiga yashiringan hamon kun sahnasiga katta qora parda tushdi, tog'lar yaqin bo'lganidan, quyosh botgach, bu yerda yorug'lik va

qorong'ilikning bir-biriga qo'shilishi uzoqqa cho'zilmaydi. Ot minib sayohat qilgim keldi, biroq kreslodan turishim bilan zinapoyadan oyoq tovushi eshitildi. Qayrilib qaradim — hech kim yo'q.

Bu — tuyg'ularning aldashi deb o'yladim-da, yana qaytib joyimga o'tirdim. Shu zahotiy oyoq tovushi eshitildi, zinapoyadan pastga qarab bir necha kishi chopganday tuyuldi. Yuragimni allaqanday qo'rquv aralash shodlik hissi qoplab oldi. Zinapoyada hech kim yo'q edi, ammo mening nazarimda bir to'da quvnoq qizlar zinapoyadan bu yoz oqshomida Shustaga cho'milgani tushib ketayotganday tuyulardi. Garchi oqshom qorong'iligida na tog' etagidan, na daryo sohilidan, na bo'm-bo'sh saroydan hech qanday ovoz chiqmagan bo'lsa-da, men, yonimdan bir-birlarini quvib, chopib borayotgan cho'miluvchi qizlarning yangragan kulgilarini barala eshitdim. Ular go'yo meni payqamasdilar, ular men uchun sir bo'lganday, men ham ular uchun sir edim, ko'zga ko'rinmas edim. Daryo boyagiday tinch, ammo men cho'miluvchi qizlarning jarangli bilaguzuklar bilan bezatilgan qo'llari tekkanda zilol suvning qanday to'lqinlanishini, bir-birlariga suv sepishlarini va oyoqlarini shapillatib suzganda osmonga behisob marvarid tomchilar yarqirab sachrashini juda ravshan tasavvur qilardim.

Ko'nglimni tushunib bo'lmaydigan bir hayajon qoplab oldi: bu — qo'rquvmidi yoki shodlik hissimid, yoinki insonga xos bilish-anglash istagining tug'yonimidi — o'zim ham bilmayman. Shularning hammasini ko'rish havasi vujudimni qamrab olgan edi. Men diqqat bilan tikildim, ammo ko'z o'ngimda deyarli hech narsa ro'y bermadi, ko'rinmadi. Quloq solsam, ularning so'zlarini anglaydiganday edim, ammo men qancha quloq solmay, o'rmondagi chigirtkalarining chirillashidan boshqa hech narsa eshitilmadi. Oldimda go'yo ikki yarim asrning qora pardasi hilpillab turardi, — vaht bilan uning bir chetini qayirdim: u yerda juda ko'p odamlar to'plangan, biroq quyuq zulmat ularni ko'rishga halal berardi.

Qo'qqisdan qattiq shamol turib, sokin va og'ir havoni titratib yubordi. Jim oqayotgan daryo sathida suv parisi-ning sochlariga o'xshash yengil mavjlar qo'zg'alib, daryo bo'ylab chopa ketdi; oqshom qorong'isiga burkanib olgan o'rmon qattiq uyqudan uyg'ongandek shamoldan guvillay boshladi. Buni tush deb ataysizmi, o'ng deb ataysizmi, ixtiyor sizda, ammo mening ko'z o'ngimda namoyon bo'lgan bu ikki yarim asrlik voqealar bir lahzada g'oyib bo'ldi. Mening tasavvurimda bunyodga kelib, ovozsiz, lekin menga baralla eshilib turgan quvnoq xandalar bilan jimsiz oyoqlarida yonimdan parday yengil uchib o'tgan bu mavjudotlar hali nozik lablarini tishlab, ho'l liboslarining suvini siqib qaytganlaricha yo'q. Shamol muattar hidlarni taratgandek, ular ham g'oyib bo'ldilar, bahor nafasi ularni olib ketdi.

Men, ilhom parisi bu joylarning tanholigidan foydalanib yelkanga chiqib olmasaydi, deb qo'rqdim. Ko'rinib turibdiki, bu sho'x ma'buda paxta soliqlari hisobiga yashovchi men zahmatkashni bir baloga giriftor qilmoqchi. Men tuzukroq bir ovqat yeyishga qaror qildim, chunki och qorin hamisha davosiz dardlarni vujudga keltiradi. Men oshpazni chaqirib seryog' va achchiq mo'g'ul taomlaridan buyurdim.

Bo'lib o'tgan voqealarning hammasi ertalab menga haddan tashqari kulgili tuyuldi. Kayfim chog' holda turib, odatda sohiblar kiyadigan po'kak qalpoqni kiydimda, izvoshga o'tirib, tizginni qo'lga olib otlarni «chuv» dedim. Izvosh yo'lda taraqlaganicha ketdi — men o'z ishingga jo'nadim, o'sha kuni uch oylik hisobot tuzishim lozim edi, binobarin, men kechroq qaytaman deb o'yladim. Ammo hali qosh qoraymay turib, uyga qaytgim kela berdi. Meni birov chaqirdi deb aytolmayman, lekin menga bundan ortiq hayallash mumkin emasday, birovlar menga intizor bo'lib kutayotganday tuyuldi. Hisobotni tugatmay, qalpog'imni kiydim-da, izvoshga o'tirib, ikki tomonida qop-qora shoxlar osilib turgan va kechki kulrang-qoramtir soyalar chulg'ab olgan kimsasiz yo'l bilan

jo'nadim. Nihoyat, tog' etagidagi bu azim va sokin saroyga yetib keldim.

Zinapoya tepasidagi birinchi zal behad katta edi. Uning shiftlari uch qator muhtasham va azamat ustunlar tepasidagi arklarga bosh qo'yganday ko'rinardi. Bu zalning intihosiz bo'shligi kecha va kunduzi birday aks-sado berib turardi. Allaqachon kech kirgan bo'lsa-da, hanuz chiroq yoqilmagan. Eshikni bir itarib ochdim-da, zalga kirdim va darhol sezdimki, u yerda besaranjomlik boshlangan, go'yo ko'p odamlar o'rinlaridan qo'zg'alib, har biri bir tomonga — birov eshikka, birov derazaga va birov ayvonga qarab qochmoqda. Men hech narsani ko'rolmay, lol bo'lib qoldim. Qandaydir jozibador, qudratli his meni tamom qamrab olgan edi. Go'yo havoda allaqachonlar yo'qolib ketgan muattar hidlar anqir edi. Men muazzam bir zalda, qadimiy tosh ustunlar orasida turib eshitardim: oq toshlarga fontan suvlari sharillab quyular, kimdir setor chalardi, lekin qanday kuy ekanini men idrok etolmadim; goho oltin bezaklarning jaranglashi eshitilardi; goho mis gardishning sadosi yangrar, uzoq bir yerdan do'mbira ovozi kelar, billur zeb-ziynatlar jaranglab sado berar, ayvondan qafasdagi bulbulning hazin faryodi oqib kelar, bog'da o'rgatilgan oqqush sayrar — xullas mening atrofimda samoviy kuylar yangrardi...

Menda shunday bir hissiyot tug'ildiki, go'yo shu jism-siz, his etib bo'lmaydigan eng nozik hodisalar yer yuzasidagi birdan-bir haqiqat bo'lib, qolgan hamma narsa — aldovchi sarobdir. Mening — menligim, ya'ni falonchi, marhum otasining to'ng'ich o'g'li, paxta solig'i yig'ib to'rt yuz ellik rupiya ishlovchi odam ekanim, boshimda po'kak qalpoq, egnimda tor kamzul bo'lishi, otlarni ham o'zim haydashim — bularning hammasi menga shunday kulgili, ma'nosiz ko'rindiki, o'zimni bu muazzam, sokin va bo'sh zalda xo-xolab kulishdan tiyib qololmadim.

Shu chog'da mening musulmon xizmatchim, qo'lida chiroq bilan zalga kirib keldi. Ehtimol u meni aqldan ozgan deb o'ylagandir, bilmayman, darhol esladimki, men



haqiqatda ham... Nath, marhum... Chandroning<sup>1</sup> to'ng'ich o'g'liman, yana bu dunyoda yoki undan tashqarida nomavjud fontanlar, tasavvur etilgan setorlarning ko'rinmas panjalar ostida sado chiqarib yangrashi mumkiymi-yo'qmi, — bu masalani hal qilish shoirlarimizning ishi deb o'ylab qo'ydim. Bir narsa shubhasiz haqiqat: men Barichda paxtadan soliq to'plab, to'rt yuz ellik rupiya maosh olaman. Bir necha minut ilgari ajoyib kayfiyatimni xotirlab kulib qo'ydim va ustida chiroq yonib turgan safar stoli yoniga o'tirib gazeta o'qiy boshladim.

Gazetani o'qib, mo'g'ul taomini yeb bo'lgach, burchakdagi bir xonada karavotga yotib, chiroqni o'chirdim. Kichkina derazadan o'rmon bilan qoplangan Orali tog'i ustidan kichik yulduzlar miltillab ko'rinib turardi, ular o'n millionlarcha mil yuksaklikdan yaramas safar karavotida yotgan muhtaram janob soliq yig'uvchiga tikilib qarardilar. Shu xususdan taajjublanib va fikrga tolib, ko'zimni uyqu elitganini sezmay qolibman. Qancha uxlaganimni bilmayman, ammo birdan seskanib ko'zimni ochsam — xonadan biror sas-sado chiqmas, biror kishi kirgani ham sezilmas edi. Menga tikilgan yulduz qorayib turgan chog<sup>\*</sup> orqasiga yashiringan, yarim oyning zaif shu'lasini, so'roqsiz kirgani uchun kechirim so'raganday, xonani arang yoritib turardi.

Men hech kimni ko'rmadim, lekin kimningdir meni turtayotganini aniq his etdim. Atrofimga qarab, bildimki, kimningdir uzuk taqqan panjalari meni o'ziga chorlamog'da.

Men ohista o'rnimdan turdim. Holbuki, aks-sado beradigan yuzlab bo'm-bo'sh zal va xonalardan iborat bu muazzam qasrda mendan boshqa biror jon egasi yo'q; meni har qadamda vahima bosib qotib qolardim, go'yo birovni uyg'otib qo'yaman deb qo'rqardim. Xonalarning aksariyati hamisha berk bo'lar, men ularga kirmasdim.

O'sha kechasi ko'zga ko'rinmas yo'l boshchim bilan,

<sup>1</sup> Nath Chandro — Bengaliyada ko'p tarqalgan ismlar.

xomush, nafas ham olmay asta bosib qayoqlarga borganimni eslolmayman. Qancha tor va qorong'i yo'laklar, qancha havosi dimiqqan kichik va mahfiy hujralar orqali o'tganimni ham bilmayman.

Garchi yo'l boshlovchi qizni ko'rishim mumkin bo'lmasa ham, uning qiyofasi menga begona emas edi. U arabistonlik bo'lib, libosining keng yengidan ta'zim holatida tutgan oppoq qo'llari ko'rinar, bosh kiyimi ustidan tashlab olgan harir parda yuzini yopib turar, yoniga, esa, egri pichoq taqqan edi.

Men arab afsonalaridan alif laylo va layloning bir kechasini boshimdan kechirayotganday, go'yo uxlayotgan Bag'dodning tor va qorong'i ko'chalaridan allaqanday xatarli bir uchrashuvga borayotganday edim.

Banogoh yo'l boshlovchi qiz to'q-ko'k parda oldida to'xtab, barmoqlari bilan pastga ishorat qildi. U yerda hech narsa ko'rinmasa ham, dahshatdan tomirlarimda qon to'xtab qoldi. Shunda men parda oldida, yerda: afrikalik vahshiy bir og'aning oyoqlarini uzatib, tizzasiga yalang'och qilich qo'yib o'tirganini payqab qoldim. Hamrohim uning ustidan yengilgina hatlab o'tdi-da, pardaning bir chetini ko'tardi. Eron gilamlari to'shalgan xonaning bir burchi ko'rindi. Divanda za'faron liboslar orasidan ikki nozik oyoq, oltin va kumush iplar bilan baxiya tikilgan pushti baxmal kavushlar ko'rindi. Stolda ko'kish billur idishlarda olma, nok, purtaxol va uzum qo'yilgan, yoniga ikkita kichkina piyola bilan billur grafinda qahrabo rangli vino mehmonlarga muntazir edi. Xonada qandaydir xumor baxsh narsani chekishdan paydo bo'lgan hid meni garang qila boshladi.

Men dahshatdan qaltirab, og'aning uzatilgan oyoqlari ustidan hatlab o'taman deb turgan choqda, u birdan seskandi va qilich jaranglab marmar polga tushib ketdi.

Kimdir, qattiq qichqirganday bo'ldi. Qarasam, men terga botib, o'z safar karavotimda o'tiribman. Endigina boshlangan tong yorug'ida o'roq shaklli oyning nuri juda zaif, xuddi tun bo'yi uxlolmay azob chekkan bemor rangi-

ni eslatar edi, jinni Magar Ali o'z odati bo'yicha, ertangi kimsasiz ko'chada yugurib baqirardi. «Ketinglar, ketinglar!»

Mening arab afsonalarimdan birinchi kecha shu zayl tugadi, yana ming kecha qoldi.

Mening kunlarim tunlarim bilan jangga kirishdi. Kunduzi uyqusiz kechalarning xayollarini la'natlab xorigan holda ish boshlardim, ammo kech kira boshlagach, hamma mashg'ulotlarim arzimas, ahamiyatsiz, keraksiz va kulgili bo'lib tuyulardi.

Oqshom boshlanishi bilan g'alati bir sarxushlik holatiga kirib, go'yoki yuz yil orqaga qaytib, noaniq bir hodisaning qatnashuvchisiday bo'lib qolardim. Pidjak va tor shimlar endi menga kelishmay qoldi. Shunda boshimga qizil baxmal xoji do'ppi, keng ko'ylak, zardo'zi kamzul va ustidan shohi astar-avra to'n kiyib, guldor ro'molchamga atir sepib oldim, sigaretni tashlab, gul suvi bilan to'ldirilgan chilimni olib baland kresloga o'tirdim. Go'yo allaqanday g'ayritabiiy oshiq-ma'shuqlar uchrashuviga hozirlanganday edim.

Qorong'i quyuqlashib, ajoyib hodisalar boshlandiki, men uning tasviriga ojizman. Bahor shamoli sayr etib yurgan bu muazzam qasrda taajjub tarix sahifalari uchib yurganday tuyuldi. Ularning ba'zilari huzurimda bir lahza to'xtab, men o'qib ulgurmay, yana g'oyib bo'lardilar. Bu sahifalar iziga tushib, men butun tun bo'yi xonadan-xonaga chopib yurdim.

Uzilib qolgan shirin xayollar girdobida, halovatbaxsh xushbo'y hidlar, setor sadolari, sachragan zilol suv zarralari bilan to'la havoda birdan, za'far rangli keng cholvor, uchlari qaytarikli baxiyabof kavush, shoxi nimcha va zar popuklari oppoq peshonasiga tushib turgan qizil duxoba do'ppi kiygan bir nozaninning dilbar chehrasi chaqmoqday yarqirab namoyon bo'ldi.

Bu qiz mening aqlu hushimni olib qo'ydi. Men har kecha tush deb atalgan shaffof qasrning kishi adashadigan aylanma yo'laklari va yashirin xonalarida uni izlab yuradigan bo'lib qoldim.

Goho kechqurunlari, ikki sham bilan yoritilgan katta oyna oldida xuddi Shoh Jahonday o'zimga oro berib turganimda, ko'zgudagi aksim yonida birdan yosh eron qizining chehrasi namoyon bo'lardi. U boshini bir tomonga egib, iztirob to'la qora shahlo ko'zlari bilan himoya so'raganday menga nazar solardi, uning yoqut lablari men tushunmaydigan tilda bir nima deb pichirlar, yosh va go'zal sarv qomati, yengil raqs tushganday buralar, ko'zlari va tabassumi bilan oynaga dard, istak va shubha uchqunlarini separ, liboslari tovlanib ko'zdan g'oyib bo'lardi.

Birdan kuchayib, tog' o'simliklarining muattar bo'ylarini olib kirayotgan shamol shamni o'chirdi. Men o'zimga oro berishni to'xtatib, go'zal saroyimda karavotga cho'zilib, ko'zlarimni yumgancha huzurlanardim. Nazarimda, shamol esishi bilan, Orali tog'i xushbo'ylari bilan to'lgan xonalarning zim-ziyo bo'shliqlarida navozishlar, bo'salar, nozik qo'llarning bir-biriga chirmashgani eshitildi. Yangroq ovozlari qulog'imga nimalarnidir pichirlar, kimningdir xushbo'y va hayotbaxsh nafasi peshonamga tekkanday bo'lar, sohibjamollarning havodek yengil va harir pardalari yonginamda hilpillar, ba'zan yuzlarimga tegib ketardi. Sehrgar ilon borgan sari meni o'zining sarxush etuvchi halqasi bilan qattiqroq o'rab olganday tuyulardi; hayrat bilan chuqur xo'rsinib, dong qotib uxlab qolibman.

Bir kuni choshgohdan so'ng otliq aylanib kelmoqchi bo'ldim, kimdir meni tutib turganday edi, ammo bu kun men bunga hech qanday e'tibor bermadim. Sohiblarnikiga o'xshagan qalpog'im va kalta kamzulim yog'och mixda osig'liq turardi, ularni olib kiyaman deb turganimda, birdan shamol ko'tarilib, daryodan qum; tog'dan xas-hashaklarni uchirib keldi, qalpog'im bilan kamzulimni ham havoga ko'tarib aylantira boshladi. Shamolga qo'shilib kulgi ovozlari yangradi; shamol va kulgi bir-biriga qo'shilib, jaranglab avjiga chiqdi-da, birdan to'xtab qoldi.

Shunday qilib, men otliq sayrga chiqmadim, kulgili

kamzulim bilan sohiblarnikiga o'xshash qalpog'imni ortiq kiymadim.

Yarim, kechada men yana karavotda o'tirib quloq soldim: kimdir shikoyat qilganday ingradi, uning qalbidan bo'g'iq faryod-fig'on eshitilardi, bu shunday taassurot qoldirardiki, go'yo karavot ostidan, yer tagidan, bu muazzam saroyning qo'rqinchli nam toshlari ostidagi lahaddan: «Og'ir uyqular va alam-angiz xayollarning zanjirlarini parchalab, meni xalos et, otingga mindir, ko'kragingga bosib, o'rmonlar oralab, dovonlar oshib, daryolar kechib, o'z uyingga olib ket! O, shafqat et, xalos qil!» deya qandaydir bir asira iltijo qilardi.

Men kimman? Qanday qilib men uni xalos etaman? Men o'z xayolimda yaratgan qaysi bir nozaninni bu besaranjom tushlar hukmronligidan olib ketishim kerak? E samoviy go'zallik, qachon va qaerda nash'u namo surgan eding sen? Qaysi daryoning salqin sohilida, qaysi xurmozor soyasida, qaysi biyobon og'ushida tug'ilgansan? Qaysi qaroqchi bedov seni, nihol shoxini sindirganday, ona qo'ynidan yulib oldi-yu, otga mindirib, shamol tezligida sahroning jazirama sarobida g'oyib bo'ldi? Ey asira, u seni kimning mamlakatiga, qaysi qul bozoriga olib keldi? Qaysi podshoh mulozimlari sening yosh, iffatli, hali barq urmagan go'zalligingni ko'rib, bir hovuch oltin berib, dengizlarning naryog'iga olib ketdi-da, oltin maofaga, o'tqizib, o'z hukmdorlariga tortiq qilishdi? Keyin-chi? Muzika — sarangi' sadolari, bilaguzuklarning jaranglashi va sherozning shaffof qahrabo rang sharobida aks etgan xanjarning yaltirashi, zahri haloyil va ehtiros bilan qiyo boqishlar. O, qanday cheksiz dabdaba va qanday tubsiz zindon! Ikki tarafdin yaltiroq bilaguzuklar taqqan kanizaklar katta yelpig'ich bilan yelpir, shahan-shoh bo'lsa, marvaridlar qadalgan kavush kiygan oyoqlari ostida emaklar, eshik oldida xabash og'a' o'lim tangrisi, Yamaning elchisidek qilich yalang'ochlab turardi. So'ng

<sup>1</sup> Sarangi — skripka va g'ijjaka o'xshash muzika asbobi.

<sup>2</sup> Og'a — shoh haramida xizmat qiluvchi bichilgan kul.

qanday baloga giriftor bo'lding ey, biyobon chechagi? Ko'piklari hasad va makrdan iborat hadsiz hashamning qonli to'liqlarida qanday mudhish o'lim yoki undan ham dahshatliroq shuhratga qarab suzding?

Shu mahalda jinni Magar Ali yana qichqirdi: «Ketinglar, ketinglar! Hammasi yolg'on, hammasi yolg'on!» Tong otdi. Xizmatchilar menga xat keltirishdi, oshpaz kirib, qanday taom tayyorlay, deb so'radi.

Men ketishga qaror qildim! Bu yerda bundan keyin qolish mumkin emas, shu kuniyoq bor-yo'g'imni yig'ishtirib idoraga ko'chib keldim. Idoraning kekxa xizmatchisi Karimxon kulimsirab qo'ydi. Men undan xafa bo'lib, indamay ishga kirishdim.

Kun kech kirgan sayin menda parishonxotirlik boshlandi. Go'yo allaqanday bir joyga borishim zarurday. Paxta hisobotlari menga butunlay keraksiz tuyuldi, hatto hokimning idora ishi ham menga sariq chaqaga arzimaganday ko'rindi. Atrofimda sodir bo'layotgan hamma narsa mening nazarimda ahamiyatsiz, ma'nosiz va sovuq ko'rina boshladi.

Qalamni tashlab, katta daftarni yopib, izvoshga o'tira jo'nadim. Otlarning kun botish chog'ida tosh qasr darvozasi oldiga borib to'xtashlarini ko'rib taajjublandim. Men darrov chopib zinapoya bilan qasrning ichiga kirdim.

Bu kun hamma narsa sokin. Qop-qorong'i xonalar go'yo jahl bilan qovoq solganday. Mening qalbim afsusnadamat bilan to'lib-toshdi, ammo bu haqda kimga uzr aytishni, kimdan afv so'rashni bilmasdim. Horib-tolib qorong'i xonalarda kezardim. Mening, qanday bo'lmasin bir muzika asbobini olib, kimgadir murojaat qilib, kuylagim kelardi: «Ey ravshan chiroq! Sendan kechib, uchib ketishga uringan parvona o'lish uchun yana qaytib keldi. Uni kechir, qanotlarini kuydir, kul qil!»

Boshimga ikki tomchi tushdi. Orali cho'qqisi ustida bulutlar to'plangan edi. Zim-ziyo o'rmon va Shustaning qop-qora suvi harakatsiz qotib qoldi. Birdan hamma narsa: yer, suv va osmon larzaga keldi. Uzoq o'rmonlardan tish-

larini irjayitirib chaqmoq chaqnadi, zanjirini uzib qochgan jinniday bo'ron qo'zg'aldi. Saroyning bo'm-bo'sh katta zallarining eshiklari taraqlab ochilib-yopilar, devorlar shikoyatomuz ingrardi... Hamma xizmatkorlar idorada bo'lgani sababli chiroq yoqadigan kishi yo'q. Bu zim-ziyo qorong'ida bir xotinning karavotim oldida o'zini gilamga tashlaganini aniq his etdim, u qaltirab sochlarini yular, uning oppoq go'zal manglayidan qon oqar, goho u kutilmaganda qattiq kula boshlar, so'ng tomirlari tortishib faryod etar, o'z liboslarini pora-pora qilib, yalang'och ko'kragiga urardi. Ochiq derazadan guvillab shamol kirib, sel uning kiyimlarini jiqqa bo'l qildi.

Tun bo'yi bo'ron pasaymadi, fig'onu nola to'xtamadi. Men behuda pushaymon bilan qorong'i xonalarda tentirab yurdim. Hech yerda hech kim yo'q edi, men kimga tasalli beraman? Kim bunday musibat chekmoqda? Ajabo, bunday devonavor dilxastalikning boisi nima?

Jinni yana qichqirdi:

— Ketinglar, ketinglar! Hammasi yolg'on, hammasi yolg'on!

Tong yorishdi. Magar Ali ham bu dahshatli saharda har kungidek saroy atrofida chopib, odat bo'lib qolgan so'zlarni aytib qichqirardi. Birdan mening boshimga shunday fikr kelib qoldi: ehtimol Magar Ali ham bir vaqtlar menga o'xshash shu saroyda yashagandir va hozir, hatto aqldan ozib, oxiri bu dahshatli tosh maxluqning changalidan qutulgan esa-da, o'zini chu'lg'ab olgan sehrdan ozod bo'lolmay, har kun ertalab uning oldiga keladi.

Shibbalab turgan selda men jinningning oldiga yugurdim:

— Magar Ali, nimasi yolg'on?

U javob bermay, meni bir chetga itarib yubordi, o'zi yovvoyi bir ovoz bilan baqirib, ilon avragan qushday saroy atrofida gir aylana boshladi. Go'yo o'zini himoya qilishga tirishganday, takror-takror qichqirar edi: «Ketinglar, ketinglar! Hammasi yolg'on, hammasi yolg'on!»

Bu shovqin-suronli saharda quyundek uchib idoraga — Karimxonning oldiga kirdim:

— Menga aytib ber, bu nima degan gap?

Chol menga mana bunday hikoya qildi.

Qachonlardir bu saroyda ehtiroslar mavj urgan, qondirilmagan istaklarning alangasi yuraklarni yondirgan. Jafokash jonlarning ohu zori, qarg'ishlari va bajo keltirilmagan xohishlar bu toshlarga singib, ularni shunday och va tashna holga keltirganki, ular odamzod bu yerga qadam qo'yishi bilan uni yutib yuborishga urinadilar, bu yerda uch kun tunagan odamlardan, garchi evaziga aql-hushini yo'qotishga to'g'ri kelgan bo'lsa ham, salomat qolgan kishi faqat Magar Ali bo'ldi.

— Nabotki menga bundan qutulishning hech iloji bo'lmasa? — so'radim men.

— Bir chora bor, — javob berdi chol, — lekin u katta qiyinchiliklar bilan bog'liq, men hozir uni senga aytib beraman, ammo bundan ilgari sen bu atirgul bog'ida yashagan bir eron kanizagining tarixini biluving zarur. Dunyoda bundan ko'ra g'aroyibroq, bundan ko'ra qayg'uliroq voqea yo'q.

Shu paytda xizmatkorlar kirib, poezd yaqinlashib qoldi deb xabar qildilar. Buncha tez? Biz shoshilinch ravishda narsalarimizni bog'laguncha poezd keldi. Qandaydir uyqusiragan ingliz birinchi klass vagon derazasidan bo'ynini cho'zib, stansiyaning nomini o'qishga harakat qilardi. U bizning hamrohimizni ko'rib, uni o'z vagoniga chaqirdi, bizning biletlarimiz ikkinchi klass vagonga edi. Shunday qilib, biz bu babu kim ekanini bilolmadik va hikoyaning davomini ham eshitolmadik.

Men, ehtimol u odam bizni ahmoq deb o'ylab, masxara qilmoqchi bo'lgandir, uning bizga aytgan hikoyasi boshdan-oyoq uydirmadir, deb o'yladim.

Taqvodor do'stim bilan biz bu masalada bir fikrga kelolmadik va umr bo'yi yuz ko'rmas bo'lib arazlashdik.



## MRINMOYI

### I

Opurba kolledjni bitirib, Kalkuttadan uyiga qaytib kelmoqda edi.

Mana, kichkina soyga ham yetib keldi. Yomg'irlar tinganada bu soy juda kamsuv bo'ladigan edi, biroq hozir, srabon oyining oxiri bo'lsa ham, uning suvi ko'tarilib, qishloq devorlari va bambukzorlar etagigacha chaypalib yotibdi.

Qanchadan beri qovog'i osilib yotgan havo bugun ochilib, birinchi marta oftob ko'rindi. Agar biz shu zunda qayiqda o'tirgan Opurbokrishnaning yuragiga nazar sola olganimizda, unda ham oftob nurlarida charaqlab, shabadada tebranib, toshqin daryo kabi oqqan yoshlik xayollarini payqagan bo'lardik.

Qayiq qishloq pristaniga kelib to'xtadi. Shu qirg'oqdan, daraxt yaproqlari orasidan, kindik qoni to'kilgan uyining tomi ko'rinib turardi. Uning kelishidan uydagilar hali bexabar, shuning uchun pristanda kutuvchilar ham yo'q. Qayiqchi Opurbaning sakvoyajini ko'tarib olmoqchi bo'lganida, yigit uzr aytib, o'zi ko'tarib oldida, quvonganidan shoshilganicha qayiqdan sakradi. Sohilning xuddi shu yeri toyg'oq loy edi, Opurba sakrab tushgan hamon sirg'anib ketib, qo'lida sakvoyaji bilan loyga yiqildi. Shu payt qayoqdandir shunday sho'x qahqaha yangrab eshitildiki, bu ovozdan hatto yaqin oradagi daraxtlardan qushlar ham hurkib uchib ketdi. Hijolatda qolgan Opurba darhol uyoq-buyog'ini tozalab, atrofga qaradi. Nariroqda savdogar qayig'i yonida g'isht uyulib yotardi. Yigit ana shu g'isht ustida o'tirib ichagi uzilguday bo'lib kulayotgan bir qizni ko'rib qoldi.

Opurba uni tanidi, u yangi qo'shnilarining qizi Mrinmoyi edi. Ilgari bu qizning oilasi uzoqda, azim bir daryo sohilida yashardi. Toshqindan so'ng u yerdan ko'chishga majbur bo'ldilar. Mana endi ikki-uch yildan buyon shu qishloqda turishadi.

Bu qiz to'g'risida ko'p g'alati gaplar tarqagan edi. Erkaklar oqko'ngillik bilan uni, erkatoiy bo'lib o'sgan qiz, desalar, xotinlar uni haddidan oshgan o'zboshimcha, deb malomat qilardilar. U, qishloqdagi hamma o'g'il bolalar bilan inoq, ammo o'z tengi qizlarni o'lguday yomon ko'rardi. Mrinmoyi bolalar olamining kichkina zo'ravoni edi.

Otasining erkatoiy bo'lganidanmi yo boshqa biror sababdanmi, ishqilib, Mrinmoyi juda o'jar edi. Onasi o'z yaqinlariga, qizimni juda ham erkalatib yubordi, deb eridan tez-tez shikoyat qilib turardi. Ammo otaning qiziga bo'lgan cheksiz muhabbatini, Mrinmoyining ko'zyoshlari unga nechog'li qattiq ta'sir qilishini bilib, eri yo'qligida ham qizni uncha xafa qilgisi kelmasdi.

Mrinmoyi kaltagina jingalak sochlari hamisha yelkasiga tushib turadigan qorachagina qiz edi. Uning chehrasi o'g'il bolani eslatardi: qora shahlo ko'zlarida na nozu karashma, na tortinish, na qo'rquv alomati bor; u baland bo'yli, qomati juda kelishgan, sog'lom va kuchga to'lgan payti edi. Ammo uning necha yoshga kirganini hech kim o'ylamasdi ham. Bordi-yu, bu haqda gap ochilguday bo'lsa ham, odamlar uning ota-onasini, shu choqqacha qizni erga berishmabdi, deb ayblay boshlashlari turgan gap edi.

Qishloq pristaniga biror notanish zamindorning qayig'i kelib to'xtaguday bo'lsa, dehqonlarni vahima bosar, xotinlar esa yuzlarini bekitardilar, Mrinmoyi bo'lsa, to'zg'igan sochini ham yig'ishtirmay, bitta-yarimtaning yalang'och bolasini ko'tarib olib, daryo sohiliga qarab chopardi. U xavf-xatarsiz joyda o'sgan yosh kiyikka o'xshardi, sira xadiksiramay, notanish kelgindiga rosa zehn solib, keyin dugonalariga uning yurish-turish, aftangorini batafsil tavsiflab berardi.

Opurba kanikul vaqtlarida kelib, bu qizni bir necha bor ko'rgan. Bo'sh vaqtlarida, ba'zan esa mashg'ulot ustida ham shu qizni o'ylagani-o'ylagan edi.

Har kun son-sanoqsiz odamlarning chehrasiga ko'zimiz tushadi, ammo shularning ba'zi birlarigina

ko'nglimizga so'zsiz o'mashib qoladi. Bu, ularning sobib-jamol bo'lgani uchun emas, qandaydir, o'shalarning o'zlarigagina xos bo'lgan fazilatlar tufayli yuz beradi. Nazarimda, bu — har shaxsdagi o'ziga xoslikning ifodasi bo'lsa kerak. Ko'pincha odamning xulqini bir qarashda bilib bo'lmaydi. Ammo kishining ichki olamini yoritib turgan chehrani minglab odamlar orasidan ajratish mumkin va u xotiramizda naqsh bog'lab qoladi. Xuddi kiyikday yovvoyi bu shaddod qizning ko'zlarida, butun qiyofasida cheksiz latofat barq urib turar edi. Binobarin, bu serjilva chehrani bir ko'rgach, esdan chqarish mumkin emas edi.

Mrinmoyining kulgisi qancha yoqimli bo'lmasin, uning Opurbaga malol kelganini o'quvchilarga uqtirishning hojati bo'lmasa kerak. U shoshilgancha narsalarini qayiqchiga tutqazdi-da, xijolatdan qizargan holda, uyiga qarab tez yurib ketdi.

Bu voqea ro'y bergan joyning manzarasi juda go'zal edi: daraxtlar soya solgan soy qirg'og'i, qushchalarning chag'ir-chug'uri, asta bosh ko'tarayotgan quyosh va yigirma yashar navqiron! G'ishtla bu manzaraga bir darajada nuqis bo'lib ko'rinsa ham, unda o'tirgan jonon bu qattiq, o'ng'asiz kresloga ajoyib husn bo'lib turardi...

Birov bu go'zallik olamiga birinchi qadam qo'yganida nozik hislar kulgiga aylantirilsa — bundan ortiq shafqatsizlik bo'larmikin?

## II

Opurba, kiyimlari loy, daraxtlar soyasiga yashirilib, qo'lida narsalari va sharfini ushlagancha uyiga yetib kelganida ham quloqlari ostida boyagi quvnoq kulgi eshilib turardi.

Yolg'iz onasi o'g'lining kutilmaganda kelishidan behad quvonib ketdi. Xizmatchilar o'sha zahotiyuq sutga, nonga, baliqqa yugurdilar, qo'shni uylarda ham tashvish, taraddud boshlandi.

Tushki ovqat mahalida onasi to'ydandan gap ochdi. Opurba bu xil suhbatga tayyor edi: uni allaqachon bir qiz bilan unashtirib qo'yishmoqchi edi-yu, lekin davr ruhiga sodiq yigit, san'at bakalavri unvonini olmaganicha uylanmayman, deb turib olgan edi. Onasi bu kunni juda uzoq kutdi, endi har xil bahonalar foydasiz edi.

— Avval kelin topilsin, keyin bir gap bo'lar, — dedi yigit.

— Buning tashvishini qilma, kelin tayyor, — dedi onasi.

Opurba o'zi ham ish shu darajaga yetganini fahmlab:

— Axir, qizni ko'rmasdan uylanib bo'lmaydi-ku! — dedi.

Ona umrida bunaqa gaplarni sira eshitmaganini ko'nglidan o'tkazdi-yu, lekin o'g'liga e'tiroz qilmadi.

Kechasi Opurba chiroqni o'chirib, yolg'iz yotog'ida uzoq vaqtgacha uxlolmadi. Yomg'irli tun sukunatida uning quloqlariga uzoqdan o'sha quvnoq kulgi eshitilganday bo'lardi. U, ertalabki voqeaning og'ir taassurotini bir iloj qilib o'zgartish payida edi.

«Mening uzoq vaqt Kalkuttada yashagan, ko'p narsani biladigan Opurbakrishna ekanligimni bu qiz bilmasdi-da, axir, — dedi yigit o'z-o'ziga, — tasodifan toyib ketib loyga yiqilgan bo'lsam ham, bunday masxarali kulgiga loyiq bir qishloqi bola emasligimni bilmagandir-da».

Opurba ertasiga kelin ko'rgani borishi lozim edi. Yo'l uzoq emas, qiz shu mahallaning o'zidan. Yigit o'ziga juda oro berib kiyindi. Dxoti va chadorni yechib, ipak kashta tikilgan ko'ylagini kiydi, ko'k salla o'radi, yangi tufli kiyib, qo'lida shohi soyabon bilan ertalab yo'lga tushdi.

Bo'lajak qaynota eshigida uni zo'r tantana bilan kutib oldilar. Nihoyat, kelinni kuyov huzuriga olib chiqish payti ham keldi. Upa-elik, zeb-ziynatlar bilan oro berilgan qiz yengil, guldor liboslarga o'ralib, iymanibgina chiqib keldi. U burchakda siqilib, boshini tizzasiga egib, sas-sadosiz o'tiraverdi. Uning orqasida yosh xonimga dalda berish uchun kekxa xizmatchi xotin tik turardi. Bu orada kelin-

ning o'smir ukasi o'zlariga qarindosh bo'lishni xohlagan janobning sallasiga, soatining zanjiriga va endi sabz urgan mo'yloviga mahliyo bo'lib qarab qolgan edi.

Opurba ancha vaqtgacha mo'ylovini silab, oxiri jiddiy ohangda kelindan so'radi:

— Nimalar o'qiyapsan?

Qat-qat kiyimlarga burkanib o'tirgan uyatchan kelindan hech qanday javob bo'lmadi. Biroq savol yana bir necha marta takrorlangach, shuningdek, orqadan rag'batlantirish turtkilaridan keyin, qiz birato'la sharillatib sanab berdi:

— «Charupax»ning<sup>1</sup> ikkinchi qismini, grammatikaning birinchi qismini, jug'rofiyani, hisobni, Hindiston tarixini o'qiyapman.

Shu payt ko'chada shoshqin, qadam tovushi eshitildi, bir lahzadan so'ng, sochlari to'zib yelkasiga tushgan, han-siragan Mrinmoyi kirib keldi. U Opurbakrishnaga zarracha ham e'tibor qilmay, kelinning ukasi yoniga borib, uning yengidan tortdi. Kuyovga mahliyo bo'lib o'tirgan Rakxal o'rnidan turishga sira ko'nmadi. Cho'ri xotin ovozi mumkin qadar muloyimroq qilib Mrinmoyini urishib berdi. Opurbakrishna bor kuchi bilan jiddiy va sipo bo'lishga urinardi, to'yona sallasida ostida peshonasining biron joyi qimir etmadi, qo'llari esa cho'ntak soatining zanjirini tortardi. Mrinmoyi sherigini olib chiqishga ko'zi yetmagach, uning yelkasiga qarsillatib bitta tushirdi-yu, kelinning yuzidan pardani shartta tortib olib, uydan dovulday chiqib ketdi. Cho'rilar sarosimada qiy-chuv ko'tardilar. Rakxal bo'lsa, shunday bir vaqtda opasining yuzi ochilib qolgani uchun xandon urib kulib yubordi.

Mrinmoyi yelkasiga qattiq urib qochsa ham, Rakxal xafa bo'lmadi, chunki bu xil erkalatishlar ular orasida odat tusiga kirib qolgan. Chunonchi, Mrinmoyining ham soch o'rimi uning aybi bilan tez-tez buzilib, sochlari yelkasida

<sup>1</sup> «Charupax» — Okxoy Kumar Dotto (1820—1866) asari, unda tabiiyot asoslari bayon etilgan.

to'zib yurardi. Mana shu bola bir kuni qizning orqasida yashirib, qaychi bilan uning bir tutam sochini kesib ham tashlagan. O'shanda Mrinmoyining qattiq jahli chiqib, uning qo'lidan qaychini tortib olib, qolgan sochini ham o'zi qirqib tashlagan, turmaklangan sochlari esa uzilgan uzum boshidek yerda sochilib qolgan edi... ular bu xil hazillarga o'rganib qolishgan.

Mrinmoyi ketgach, kelin ko'rish marosimi bo'linib qoldi. G'ujanak bo'lib o'tirgan kelinni bir amallab o'ngladilar, keyin u cho'rilar bilan birga ichkariga kirib ketdi.

Opurba favqulodda jiddiy tusga kirib, endigina sabz urgan mo'ylovini chimdib-chimdib o'rmondan turdi-da, eshik tomon yurdi. Biroq eshik oldiga kelib, ipak bahiya tikilgan yangi tuflisini topolmadi. Hamma urinishlar behuda ketdi — tufli yo'q edi. Mezbonlar g'oyat o'ng'aysiz holda qoldilar, faraz etilgan aybdor (Mrinmoyi) haqorat va ta'nalar ostida qoldi. Uzoq qidirishlardan so'ng Opurbaga uy egasining eski, yirtiq sandalini kiyib ketishdan o'zga chora qolmadi. Shu ahvolda, ustida qimmatbaho sarpolar, boshida salla, oyog'iga yirtiq sandal kiyib, qishloqning loy ko'chalaridan ehtiyot bilan yurib, uyiga ravona bo'ldi. U kimsasiz tor so'qmoqdan yurib, hovuz bo'yiga yetganda qattiq masxaraomuz kulgi sadosi eshitildi. Go'yo daraxt shoxlarida bekinib o'tirgan o'rmon parisi bu g'alati tuflini ko'rib o'zini tutolmay xandon urmoqda edi.

Opurba beixtiyor to'xtab qoldi, hadiksirab atrofga qaradi. Shu paytda butalar orasidan haligi shaddod masxaraboz paydo bo'lib, Opurbaning oldiga uning yangi tuflisini qo'yib, o'zi qochmoqchi bo'ldi. Ammo yigit uning ketidan quvib, qo'lidan ushlab qoldi. Mrinmoyi qochib qutulaman deb behuda urinardi. Uning kulgidan gul-gul ochilgan, sochlari to'zg'ib tushgan sho'x chehrasiga birdan yarq etib quyosh shu'lasini tushdi. Opurba ham qaynab turgan buloqqa tikilib uning tubini ko'rishga intilgan yo'lovchiday, Mrinmoyining durkun yuziga va tiniq

ko'zlariga tikilar edi. So'ngra o'z murodiga yetmaganday istar-istamas qizning qo'llarini bo'shatib, asirasini qo'yib yubordi. Bordiyu Opurba jahl ustida uni urganida ham, qiz hech bir taajjublanadigan emasdi. Biroq u, kimsasiz so'qmoqdagi bu g'alati — so'zsiz jazoning mohiyatini tushunolmadi. Yoqimli kulgi raqqosa tabiatning bilaguzuk jarangiday havoni to'ldirdi. Xayollarga cho'mgan Opurbakrishna esa asta-sekin yurib uyiga ketdi.

### III

Opurba onasi bilan uchrashmaslik uchun turli bahonalar topib, kuni bilan ichkariga kirmadi. U hatto kechki ovqatni ham qo'shnilarinikida yeb, uyga juda kech qaytdi.

Opurbadek oqil, olim bir kimsaga nodon bir qizcha oldida o'z tabiatidagi olijanoblik va yashirin g'ururni ochish nega bunchalik zarur bo'lib qolganini tushunish ancha qiyin edi. Axir, qandaydir bir qishloqi qiz uni oddiygina odamlardan biri deb o'ylasa nima bo'пти? Mrinmoyi qisqa bir vaqt ichida uni masxaralab, keyin batamom unutgan va Rakxal degan nodon bir bolaga qiziqib qolgan bo'lsa, buning Opurbaga nima daxli bor? Opurbaning «Jahon mash'ali» degan oylik jurnalga uzundan-uzoq taqrizlar yozib turishini yoxud uning chamanonida atir, tufli, rangli qog'oz va «Fisgarmoniya chalish qoidalari» kitobi bilan birga, yarim kechada tongni kutganday burchakka yashirinib o'z tantanasini kutayotgan, bir daftarga zich qilib yozilgan asari ham borligini bu qizchaga tushuntirib o'tirish zarur ekanmi? Biroq ko'ngilni ko'ndirish qiyin, hurmatli san'at bakalavri Opurbakrishna Ray bu sho'x qizaloq oldidagi mag'lubiyatini sira tan olgisi kelmasdi.

Qosh qorayib, Opurba ichkari kirganda, onasi so'radi:

— Xo'sh, qiz qalay ekan, o'g'lim? Senga yoqdimi?

— Men bir necha qizni ko'rdim, oyi, — dedi xijolat tortib Opurba, — shulardan biri menga yoqdi.

— Shoshma, sen u yerda yana kimni ko'rding? — hayron bo'lib so'radi onasi.

Ko'p sha'mayu ishoralardan so'ng ona fahmladiki, o'g'liga qo'shnilar Shorotning qizi Mrinmoyi yoqib qolgan ekan. O'qimishli o'g'ilning didiga balli-e!

Opurba dastavval bir oz hayiqibroq turdi, ammo onasining qat'iy noroziligini ko'rgach, uning tortinchoqligidan asar ham qolmadi. U Mrinmoyidan boshqa hech kimga uylanmayman, deb qattiq turib oldi. Haligi boshqasini, qo'g'irchoqdek qimir etmay o'tiradigan qizni o'z qallig'i deb ko'z oldiga keltirgan hamono yuragida umuman nikohga qarshi zo'r nafrat uyg'onar edi. Ikki-uch kun janjal, aytishish bilan o'tdi. Yigit bir necha bor ovqatdan voz kechib, kechalari uxlamay, nihoyat, onasini ko'ndirdi.

Shundan so'ng ona o'ziga bunday tasalli bera boshladi: Mrinmoyi hali yosh bola, onasi uni o'qitishga, tarbiya berishga qodir emas, shuning uchun to'ydan keyin qiz erinikiga ko'chib keladi. Ana o'shanda u qaynonaning qo'liga tushib, tez kunda xulqi ham o'zgarib ketadi.

Asta-sekin u Mrinmoyi chiroyli qiz degan fikrga ham o'zini ko'niktira boshladi. Ammo kelinning paxmoq sochlarini ko'z oldiga keltirganida, yuragi yana qayg'u-hasratga to'lardi. Lekin, bu sochlarga yaxshilab yog' surkab, tasma bilan mahkam tortib bog'lansa, borib-borib bu nuqson ham yo'qoladi, deb umid qilardi.

Opurbaning bu maylini hamma qo'shnilar o'tkinchi havas deb hisoblardilar. Tentak Mrinmoyi ko'plarga ma'qul bo'lsa ham, hech kim o'z o'g'liga munosib qalliq deb o'ylamas edi.

To'y to'g'risida Mrinmoyining otasi Ishan Mojumdarga xabar qildilar. U bir paroxodchilik kompaniyasida xizmat qilar, uzoq pristandagi tunuka tomli katalak bir xonada yuk jo'natish va bilet sotish bilan band edi.

Qizining turmushga chiqishini eshitib Ishan ho'ngrab yig'lab yubordi. Bu ko'zyoshlari alamdanmi, quvonchdanmi — buni hech kim aniq bilmas edi.

Ishan Mrinmoyining to'yi munosabati bilan xo'jayiniga ariza berib otpuska so'radi. Ammo sohib buni arzimagani vaj ekan, deb iltimosni rad etdi. Bu ham bo'lmagach, Ishan, to'yni Pudja bayramigacha kechiktiringlar,



shundagina men borishim mumkin deb uyiga xat yozdi. Biroq Opurbaning onasi, shu oyda xayrlik kun bor, biz to'yni sira ham kechiktirmaymiz, deb turib oldi.

Itimosi ikkinchi marta rad etilgach, Ishan e'tirozni bas qilib, yuragida alam bilan yuk tortish, bilet sotishda davom etdi.

Bu orada Mrinmoyining onasi va qishloqning hamma keksa ayollari qizga bundan so'ng o'zini qanday tutishi kerakligi haqida ming xil pandu nasihat qila boshladilar: bundan keyin o'yinni unut, chopib yurma, qattiq kulma, o'g'il bolalar bilan laqillashma, shirin tomoqlikni esingdan chiqar, degan maslahatlari bilan unga oilaviy hayotni dahshatli bir narsadek ko'rsatib qo'ydilar. Bu nasihatlardan dovdirab, cho'chib qolgan Mrinmoyiga go'yo yoshligi zindonga qamalganday, o'ziga esa o'lim hukmi o'qilganday bo'lib tuyuldi. U sarkash toychoqday boshini egib, orqaga tisarildi-yu, dadillik bilan.

— Erga tegmayman! — dedi.

#### IV

Shunga qaramay, uni erga berdilar. Keyin tarbiyasiga kirishdilar. Mrinmoyining nazarida, u yayrab yurgan olam bir kunda qaynonasining ichkarisida tutqun bo'ldi-qoldi.

Qaynona kelinini qaytadan tarbiya qilishga astoydil kirishgan edi. U jiddiy qiyofaga kirib, bunday dedi:

— Qizim, esingda tut, sen endi yosh bola emassan. Bizning oilada odobni buzish rasm bo'lgan emas!

Mrinmoyi bu nasihatga boshqacha ma'no berdi. Uning fikricha, erining uyida hamma narsa taqiqlangan bo'lsada, boshqa joyda bunga amal qilinmaydi. Kechki paytda u hovlidan g'oyib bo'ldi. Darrov qidira boshladilar: u qaerda, qayoqqa ketdi? Nihoyat, Rakxal sotqinlik qilib, qizni yashiringan joyidan sudrab chiqdi: Radxakanta Txakurning non daraxti soyasida buzilib yotgan aravasi tagiga yashiringan ekan. Bu voqeadan so'ng qaynona, ona va boshqa xayrxoh ayollar Mrinmoyiga nimalar deganini o'quvchilar o'zlari ham tasavvur qila oladilar.

Kechga yaqin osmonni bulut qoplab, sel yog'a boshladi.

Opurba Mrinmoyiga yaqinroq kelib, qulog'iga ohista shivirladi:

— Sen meni yaxshi ko'rasanmi, Mrinmoyi?

— Yo'q! — dedi qizishib qiz. — Men seni hech qachon, hech qachon yaxshi ko'rmayman!

U shu vaqtgacha eshitgan hamma ta'nalari uchun butun qahr-g'azabini Opurbaning boshiga to'kib soldi.

— Nima uchun, axir? Senga nima gunoh qildim? — deb so'radi ko'ngli ozor topgan yigit.

— Nima uchun menga uylandingiz? — deb qichqirdi Mrinmoyi.

Bunaqa aybnomani rad etish qiyin edi. Biroq Opurba bu qaysar qizni qanday qilib bo'lsa ham o'ziga rom qilish fikriga tushdi.

Ertasiga Mrinmoyining avzoyi buzuq ekanini ko'rib, qaynonasi uni uyga qamab, eshigini qulflab qo'ydi. Qiz avval qafasga tushgan qushdek o'zini har tomonga urib ko'rdi. Oxiri, qochish mumkin emasligini payqab, g'azabidan nima qilarini bilmay, joyga yoziqli choyshabni tortib oldi-da, pora-pora qilib yirtib tashladi; so'ngra polga mukka tushib, «dada, dadajon!» deb ho'ngrab yig'lay boshladi.

Shu payt kimdir sekingina uning yoniga kelib o'tirdi-da, peshonasiga tushib turgan chang sochlarini asta silab, tuzatmoqchi bo'ldi. Ammo Mrinmoyi jahl bilan boshqa yoqqa o'girilib, uning qo'lini siltab tashladi. Shunda Opurba egilib uning qulog'iga shivirladi:

— Men sekin eshikni ochib qo'ydim. Yur, uy orqasidagi boqqa qochamiz.

Qiz ko'zyoshlarini to'xtatolmay, bosh silkib:

— Yo'q! — dedi.

— Sen bir qarab qo'y, axir, kim kelib turibdi! — dedi Opurba va uning iyagidan ushlab, boshini ko'tarishga urindi. Eshik oldida Rakxal turardi. U polda o'tirgan

Mrinmoyiga bezovtalik bilan tikilgan edi. Biroq qiz boshini ko'tarmay, Opurbani turtib yubordi.

— Rakxal seni deb kelibdi, u bilan o'ynagani chiqmaysanmi? — dedi yigit.

— Yo'q, — dedi qiz yana keskin qilib.

Rakxal ortiq bu yerda turish o'ng'aysizligini payqab, yoni bilan xonadan chiqdi-yu, yengil nafas oldi. Opurba bo'lsa, g'iq etmay, Mrinmoyining yonida o'tirib qoldi. Yig'lab charchagan qiz mudrab qolganda, u oyoq uchida yurib uydan chiqdi-da, sekingina eshikni yopib qo'ydi.

Ertasiga Mrinmoyi otasidan xat oldi. Ota, aziz qizining to'yiga kelolmagani uchun taassuf bildirib, kelin bilan kuyovga oq fotiha yo'llagan edi.

Mrinmoyi xatni o'qigandan keyin qaynonasiga:

— Men otamning oldiga boraman, — deb qoldi.

Ammo qaynona bu kutilmagan iltimosni eshitib, unga tanbeh bera boshladi.

— Gapini qarang-a! — dedi u. — Otasining qaerda ekani ma'lum emas, hatto adresi ham yo'q! Bu bo'lsa: «Otamning oldiga boraman!», deydi! Juda g'alati nozu firoq-ku!

Qiz indamay o'z uyiga kirib, eshikni bekitib oldi.

— Otajon, meni bu yerdan olib keting! Men yolg'izman, agar bu yerda qolsam — o'laman! — deb yolvorardi Mrinmoyi.

Faqat iztirobga tushgan odamlargina xudoga shu zayl-da munojot qiladilar.

Yarim kechada, eri uxlab qolgandan keyin, Mrinmoyi asta eshikni ochib, uydan chiqdi. Osmonda pardadekkina yupqa bulutlar suzib yurar, lekin oy yo'lni yoritib turardi. Otasining oldiga borish uchun qaysi tarafga yurish kerakligini Mrinmoyi bilmasdi. Ammo u, tez yurar pochталonlar qatnaydigan yo'l bilan borilsa, yer yuzidagi har qanday joyni topish mumkin deb qattiq ishonardi. Shuning uchun qiz pochtaga boradigan so'qmoq bilan yurib ketdi. U uzoq yo'l yurdi, charchab qolganini payqadi. Tong yaqinlashmoqda edi. Daraxtzorda saharxez qushlar uyg'onib qanot

qoqdilar, sayrashga ham taraddud qildilar-u, lekin hali barvaqt ekanini payqab, yana jim bo'ldilar...

Mrinmoyi daryo bo'yiga kelib, katta bozor maydoniga o'xshash bir yalanglikka chiqib qoldi. Endi qayoqqa borish kerak, deb xayol surguncha bo'lmay, tanish oyoq tovushlari eshitildi. Bu — yelkasida xat soladigan og'ir sumkasi bilan tez yurib, hansiragan pochталon edi.

Mrinmoyi darrov uning oldiga kelib, yolvorgan ohangda zo'rg'a gapirdi:

— Men Kushigonjga, otamning oldiga boraman. Meni o'zing bilan birga olib ketsang-chi.

— Men Kushigonj qaerdaligini bilmayman, — deb javob berdi pochталon. So'ngra uxlab qolgan eshkakchini turtib uyg'otdi-yu, shu bilan qayiq sohildan jilib ketdi. Uning qizga achinishga ham, undan xol-ahvol so'rashga ham vaqti yo'q edi, chog'i.

Bu orada pristanda ham, maydonda ham odamlar ko'paya boshladi. Mrinmoyi sohilga tushib, qayiqchilardan biriga:

— Meni Kushigonjga oborib qo'ymaysizmi? — deb qichqirdi.

Bu odam javob qilishga ulgurmay, yonidagi qayiqdan boshqa birov ovoz berdi:

— Hoy, kim bu? Ie, Minu, sen qanday qilib bu yerga kelib qolding?

Mrinmoyining hayajondan nafasi tiqilib qoldi.

— Menga qara, Bonomali, men Kushigonjga, dadamning oldiga ketyapman. Qayig'ingda meni o'sha yerga eltib qo'ysang-chi.

Bonomali shu qishloqlik eshkakchi edi. Bu o'zboshimcha qizni juda yaxshi bilgani uchun, u:

— Dadamning oldiga ketyapman degin? Juda soz, unday bo'lsa o'tir, oborib qo'ya qolay, — dedi.

Mrinmoyi qayiqqa o'tirdi. Eshkakchi qayiqni suvga tushirib, yo'lga ravona bo'ldilar. Biroq kutilmaganda osmonni bulut qoplab, haqiqiy sel boshlandi. Daryoning suvi kuzdagi singari toshib, to'lqinlanib, qayiqni tebrata

boshladi. Mrinmoyini mudroq bosdi. U kiyimining peshini ostiga solib, qayiq tubida yonboshlagan edi. Daryoning allalashi bilan tabiatning bu erka, o'jar qizi birpasda oromijon uyquga toldi.

Bir mahal, qiz ko'chini ochib qarasa, erining uyida yotibdi. Cho'ri xotin uning uyg'onganini ko'rib kimnidir chaqirdi. Bu ovozga Opurbaning onasi kirib, Mrinmoyini qarg'ay ketdi. Qiz ko'zlarini katta ochib, qaynonasiga jimgina qarab turardi. Kampir kelinini qo'yib qudasiga yopishganda, uni nodon deb ta'na qila boshlaganda, Mrinmoyi qo'shni xonaga qochib chiqdi-da, eshikni bekitib oldi.

Shunda Opurba onasining oldiga kelib:

— Oyi, kelingizni bir necha kunga otasining oldiga yuborsak nima qiladi? — deb so'radi.

Ona o'g'lini ham «dardisar» deb atadi va qishloqda shuncha qiz turib, shu tirmizakni xotin qilib olgani uchun uni ham rosa urishdi.

## V

Kunbo'yi havoning ham, Mrinmoyining ham qovog'i ochilmadi. Yarim kechada Opurba Mrinmoyini asta uyg'otib:

— Otangning oldiga borasanmi? — deb so'radi.

— Boraman, — dedi qiz quvonib va Opurbaning qo'lidan ushlab, o'rnidan turib o'tirdi.

— Unday bo'lsa, tur, sekin qochamiz, — deb shivirladi yigit, — men qayiq topib qo'yganman.

Shunda Mrinmoyi samimiy minnatdorlik bilan eriga nazar soldi. So'ngra tez o'rnidan turib kiyindi. U birpasda tayyor bo'ldi. Opurba onasini xotirjam qilish uchun xat yozib qoldirdi, shundan so'ng ikkalasi uydan chiqishdi. Bu sokin kechada, qishloqning bo'm-bo'sh ko'chasida, Mrinmoyi birinchi daf'a erining qo'lga ishonch bilan suyanib oldi, ana shunda yigit ham mayin qo'llar haroratidan yuragining quvonch bilan urishini sezib borardi.

Ular shu kechasiyoq qayiqda yo'lga tushdilar. Kayfi chog' bo'lishiga qaramay, Mrinmoyi darrov uxlab qoldi. Yangi kun uni erkin va baxtiyor holda kutib oldi. Daryoning ikki sohilida qancha-qancha qishloqlar! Yalangliklar, maysazorlar, yaylovlarning poyoni ko'rinmaydi. Qayiq-larchi, qayiq-lar! Ular ham son-sanoqsiz, bari bularning yonidan suzib o'tmoqda. Har qanday arzi-mas narsa ham Mrinmoyining ko'nglida yuzlab savol tug'dirar edi: «Bu qayiqda nima bor? Bu odamlar qaerlik? Bu joyning oti nima?» Albatta, bunday savollarga Opurba ham hech bir kolledjdan javob topolmas, Kalkuttada topgan tajribasi ham bu masalalarni hal qilib berolmasdi. Bu xil so'roqlardan uning do'stlari xijolat tortishlari mumkin edi, lekin u, ba'zilar haqiqatga to'g'ri kelmasa ham, har bir savolga javob berishga urindi. Binobarin, u tortinib o'tirmay, kunjutni zig'ir, Panchber shaharchasini — Rayn-gor, sud idorasini zamindorning hovlisi deb tushuntira berdi. Lekin bu xatolar olihimmat suhbatdoshining unga bo'lgan e'tiqodini zarracha kamaytirgani yo'q.

Ikkinchi kuni kechki paytda qayiq Kushigonjga yetib keldi. Ishanchondro tunuka tomli tovuq katagidek xonada, govrandan to'qilgan stulda o'tirgan edi. U chiroq yorug'ida, idora daftarlari qalashib yotgan kichkina stolga engashib, hisob-kitoblarni to'g'rilamoqda edi. Shu vaqt ostonada yosh qalliq-lar paydo bo'lishdi.

— Dada! — deb qichqirdi Mrinmoyi.

Bu uy-chada hech qachon bunday ovoz eshitilgan emas. Ishanning ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib, yuzlaridan oqib tushdi. U sarosimada nima qilishini, nima deyishini bilmay qoldi. Unga kuyovi shahzoda-yu, qizi malikaday tuyuldi. Fikrlari chuvalashib, buncha ashqol-dashqol uyulib yotgan xonada ularga ne tariqa taxt qurishni bilmasdi. So'ngra ovqat masalasi, bu xususda ham o'ylashga to'g'ri keladi. Sho'rlik chol o'zi sholi oqlab, o'zi pishirib yer edi. Hozir, bu g'amxonaga quvonch olib kelgan mo'tabar mehmonlarni nima bilan siylash kerak?

Chol shu andishada ekan, Mrinmoyi:

— Bugun hammamiz birgalashib ovqat pishiramiz, — deb qoldi. Opurba bu taklifni mamnuniyat bilan ma'qulladi. Uyda xizmatchilarga o'rin yetishmasdi. Ammo chashma suvi kichik teshikdan ikki chandon kuch bilan otilib chiqqanidek, bu yerda ham qashshoqlikning xira chehrasida quvonch nuri yana ham ravshanroq ko'rinar edi.

Shu tariqa uch kun o'tdi. Odatda, har kun soat ikkida paroxod kelar, undagi odamlar uyoqdan-buyoqqa yugurishib bu yerning tinchligini buzardilar. Kechki paytga borib sohil bo'm-bo'sh bo'lib qolardi. Shunda... shunda ular o'zlarini chinakam erkin his etardilar! Ular uchovlashib masalliq olib kelishar, ovqat pishiramiz deb necha bor buzishar, oxiri amal taqal qilib bir nima pishirishardi. So'ngra Mrinmoyining bilaguzuklar jaranglagan mehribon qo'llari bilan suzib keltirilgan ovqatni ota bilan kuyov o'tirishib yeyishardi. Ro'zg'orning ko'p nuqsonlaridan hammadan ilgari tadbirkor Mrinmoyi kulardi, ammo undagi bu qadar quvonch va bolalarcha g'ururning sababi ham xuddi shu nuqsonlar edi.

Shu tariqa uch kun o'tdi. Nihoyat, Opurba, endi ketmasak bo'lmaydi, deb qoldi. Mrinmoyi, hech bo'lmasa yana bir kun turaylik, deb iltijo qildi, ammo otasi, ketganlaringiz ma'qul deb maslahat berdi.

Jo'nash kuni Ishan qizini bag'riga bosib, boshini silab turib nasihat qildi:

— Qizim, sen, Lakshmiddek<sup>1</sup>, qaynonang uyiga baxt olib kirishing kerak. O'zingni shunday tutki, hech kim seni ta'na qilolmasin!

Mrinmoyi yig'lab-siqtab jo'nadi. Ishan bo'lsa, yanada befayz bo'lib qolgan tor kulbasida, ilgarigidek kunlar va oylarni yuk tortish bilan o'tkazish uchun, yana yolg'iz qoldi.

## VI

Gunohkor eru xotin uyga qaytib kelganda, Opurbaning onasi qovoqlaridan qor yog'ib, ularni xomushlik bilan

<sup>1</sup> Lakshmi — baxt, go'zallik va boylik ma'budasi.

kutib oldi: u shunday jazo berishini bilardiki, bundan qochib qutulishning sira iloji yo'q. Bu so'zsiz ta'na, bu til-siz jazo butun hovlini zahar-zaqqumga to'ldirdi. Toqati toq bo'lgan Opurba bir kuni:

— Oyi, yaqinda kolledjda o'qish boshlanadi. Men borib huquq fanini o'rganishim kerak, — dedi.

— Xotiningni nima qilmoqchisan? — sovuqqina so'radi onasi.

— Xotanim shu yerda qoladi.

— Yo'q, janob, bunaqasi ketmaydi. Uni o'zingiz bilan birga olib keting! — dedi kampir kesatib, Holbuki u o'g'liga odatda «sen»lab gapirardi.

— Yaxshi, — dedi ranjigan Opurba.

Kalkuttaga jo'nash tayyorgarligi tugadi. Oxirgi kuni kechasi Opurba o'rniga kelib qarasa Mrinmoyi yig'layapti. Uning yuragi shuv etib ketdi.

— Men bilan birga Kalkuttaga borishni xohlaysanmi, Mrinmoyi? — so'radi yigit xafaxol.

— Yo'q, — dedi qiz.

— Meni yaxshi ko'rmaysanmi?

Ko'pincha bunday savolga javob berish juda oson bo'ladi, biroq, hozirgi vaziyatda bu qiyin edi.

— Rakxaldan ajrash og'ir tuyulyaptimi? — deb so'radi yigit.

— Ha, — dedi qiz soddadillik bilan.

Mushtdek bolaga bo'lgan rashk o'qimishli yosh bakalavrning yuragiga xuddi igna singari sanchildi.

— Men uzoq vaqt uyga kelolmayman, — yana gapirdi Opurba, — ehtimol ikki yilgacha, balki undan ham oshiqroq.

— Uyga qaytganingizda Rakxalga, albatta uch damlik qalamtarosh olib keling, — deb talab qo'ydi Mrinmoyi.

Opurba yotgan joyida bir oz ko'tarilib, xotinigga qaradi:

— Nima qilasan, sen shu uyda qolasanmi?

— Men onamnikida qolaman, — dedi Mrinmoyi.

— Yaxshi, — dedi Opurba xo'rsinib, — ammo shuni



bilib qo'yki, to keling deb xat yozmaguningcha qaytib kelmayman. Endi mamnunmisan?

Mrinmoyi bunga javob qaytarishni ortiqcha deb bildi shekilli, mudrab qoldi. ammo Opurba uxlolmadi. U uzoq vaqtgacha yostiqqa tirsaklarini tirab o'tirdi.

Kechasi, allamahal bo'lganda oy chiqib, bexosdan uning yog'dusi bular yotgan o'ringa tushdi. Opurba Mrinmoyiga uzoq tikilib qoldi. Nazarida, bu qiz — kimningdir kumush tayoqchasi tegib sehrlangan malikaday tuyula boshladi. Endilikda faqat oltin tayoqchasi bo'lgan kimsagina uyqudagi bu jononni uyg'otib, unga nikoh gulambari taqa oladi.

Kumush tayoqcha — kulgi, oltin tayoqcha — ko'z-yoshi.

Subhidamda Opurba Mrinmoyini uyg'otdi.

— Men hozir jo'nashim kerak, — dedi u. — Yur, seni uylaringgacha kuzatib qo'yay.

Qiz turgandan so'ng Opurba uning qo'llarini ushlab turib so'z boshladi:

— Senga bir iltimosim bor. Men bir necha bor seni og'ir ahvoldan qutqardim, endi xayr-xo'sh chog'ida sendan kichik bir mukofot so'rayman.

— Qanday mukofot? — dedi qiz.

— O'zing meni o'p, toki sevganingni his qilib ketay. Bunday g'alati iltimosni eshitgach, Opurbaning jiddiy qiyofasini ko'rib, qiz xandon urib kuldi. Nihoyat, o'zini tutib olib, jiddiy tusga kirdi-da, erini o'pishga harakat qilib, yuzini unga yaqinroq olib bordi, ammo yana o'zini tutolmay qah-qah urib kulib yubordi. Oxiri, ikki dafa muvaffaqiyatsiz urinishdan so'ng, hamon kulishda davom etib, choyshabga o'ralib oldi. Yigit uning quloqlaridan tortib jazo bergan bo'ldi.

Opurba o'z oldiga og'ir vazifa qo'ydi. U majbur etishni, tortib olishni o'ziga munosib ko'rmasdi. Xuddi tangrilariday, hech qanday tashabbus ko'rsatmas, faqat ixtiyoriy qurbgnliknigina talab etib, o'z qo'li bilan biror narsa olishni xohlamas edi.

Mrinmoyi kulishdan to'xtadi.

Opurba azonda jimjit ko'chalar bilan qizni o'z uyiga kuzatib qo'ydi-da, onasining huzuriga qaytdi.

— Men o'ylab-o'ylab shu fikrga keldim: agar xotimni Kalkuttaga olib borsam qiynalib qolaman, — dedi u — Buning ustiga, u yerda uning tanishlari ham yo'q. Siz bo'lsa, uning o'z yonigizda bo'lishini istamaysiz, shuning uchun Mrinmoyi onasining oldiga eltib qo'ydim.

Ona-bola bir-biridan qattiq xafa bo'lib xayirlashdilar.

## VII

Mrinmoyi uyiga qaytib keldi, biroq bu yerda uni hech narsa quvontirolmadi. Go'yo uyda hamma narsa o'zgaragan edi. Vaqt bir joyda to'xtab qolganday. Qiz nima qilarini, qayerga borarini bilmasdi, hech kimni ko'rishni istamasdi.

Unga butun uyda, hatto butun qishloqda ham hech kim yo'qday tuyula boshladi. O'ziga ham noma'lum sabab bilan, birdan Kalkuttaga ketgisi kelib qoldi. Holbuki o'tgan kuni kechasi bu fikr uning xayolida ham yo'q edi! Qandaydir sabab bilan kechagina joniga tekkan hayotga qarshi birdaniga tamomila o'zgarib qoldi. O'tmish, go'yo kuzgi so'lg'in yaproq kabi yengil, sezdirmay uchib ketdi.

Rivoyatlarga qaraganda, shunday mohir ustalar bo'larmishki, ular yasagan o'tkir qilich bilan tanani ikki pora qilib tilinsa ham odam sezmasmish, faqat qo'l bilan tekkandagina jasad ikki bo'lak bo'lib yerga tusharmish. Parvardigorning qilichi ham shunday: u Mrinmoyining bolalik yoshini balog'at yoshidan ajratgandi, qiz buni o'zi ham sezmay qoldi. Faqat endi, bu o'zgarishni o'z boshidan kechirgach, u nadomat va hayrat bilan ko'rdiki, bola — Mrinmoyi orqada qolib ketibdi. Ota-ona uyidagi yotog'i ham o'ziga begona tuyuldi, chunki ilgari bu xonada yotib yurgan Mrinmoyi endi yo'q. Uning yuragiga boshqa uyning, boshqa yotoqning naqshi tushgan, u boshqa o'rinni qo'msardi...

Endi Mrinmoyi uydan tashqariga chiqmaydi, xandon urib kulmaydi. Rakxal o'z dugonasidan qo'rqib qoldi, o'yin-kulgi esa qizning xotiriga ham kelmaydi...

— Oyi, o'g'lingizning oldiga borishga ruxsat bering, — dedi bir kuni Mrinmoyi.

Bu orada Opurbaning onasi o'g'lining xayrlashish chog'idagi ma'yus chehrasini eslab, yuragi ezilmoqda edi. Ayniqsa, jahl ustida kelinining ketib qolishiga yo'l qo'ygani unga orom bermasdi.

Qaynona mana shu kayfiyatda ekan, bir kuni Mrinmoyi chodraga o'ralib kirib keldi-da, unga g'amgin ehtiromla bilan ta'zim qildi. Qaynona ko'zlariga yosh olib, shoshgancha kelinini ko'tarib bag'riga bosdi. Shu zahotiyoq ular yarashib, apoq-chapoq bo'lib ketishdi. Keliniga nazar solib Opurbaning onasi tamom hayratda qoldi: bu ilgari Mrinmoyiga sira ham o'xshamas edi. Oddiy odamning bu zaylda, kishini hayratda qoldiradigan darajada tez o'zgarishi mumkin emas, axir, o'z-o'zingni o'zgartirish uchun zo'r iroda kerak.

Qaynona Mrinmoyi xulqidagi nuqsonlarni asta-sekin o'zgartirmoqchi edi. Biroq qandaydir, ko'zga ko'rinmas murabbiy juda tez ta'sir qiluvchi bir vositani ishga solib, bu qizni go'yoki qaytadan yaratibdi.

Endi Mrinmoyi ham qaynonaning ko'nglini yaxshi bilar, u ham o'z navbatida kelinining gaplariga yaxshiroq tushunadigan bo'ldi. Butun ro'zg'or ishlarini ikkovlashib qilishar, xuddi daraxt bilan shoxdek, bir-birlaridan ajralmas bo'lib qoldilar.

Mrinmoyining chehrasida xotinlik latofati bilan salobat barq urib, butun borlig'ini qamrab turardi-yu, biroq, yosh juvon nimadandir iztirob chekkanday tuyulardi. Kishini yig'latadigan achchiq bir alam, xuddi asharx<sup>1</sup> oyidagi qora bulutlar singari, uning yuragiga cho'kib qolgandi. Bu alam uning uzun, qora kipriklari soyasini yana ham quyuqlashtirganday edi.

«Men-ku tentak edim, lekin, nega axir sen tushunmading? — deb fikran eriga murojaat qilardi Mrinmoyi. — Nega menga o'rgatmading? Nega meni quloq solishga

<sup>1</sup> Asharx — hind kalendarining uchinchi oyi.

majbur etmading? Men yaramas «yo'q» deganimda, nima uchun zo'rlab Kalkuttaga olib ketmading? Nega mening gapimga kirding, nima uchun mening nozu erkaliklarimga toqat qilding?»

So'ngra u o'sha kuni ertalab ko'l bo'yidagi so'qmoqda Opurba uni ushlab olganini, bir og'iz gapirmay, yuziga tikilganini esladi. Mrinmoyi o'sha ko'lni, uning yonidagi daraxtni, ertalabki quyosh nurlarini, Opurbaning yurakka qadaluvchi nigohini ko'z oldiga keltirib, bu qarashning ma'nosini endi tushundi.

Mrinmoyi o'ylab ketdi: agar u o'shanda o'zini boshqacha tutsa, uning birgina savoliga boshqacha javob qaytarsa, u holda nimalar bo'lardi ekan?

Ilgari Opurba, Mrinmoyi meni sira ham tushunmaydi, deb diqqat bo'lardi. Endi Mrinmoyi yolg'iz qolib, Opurba mening haqimda nima deb o'ylagan edi. Eri uni otashin bo'salar bilan muhabbat tashnaligini qondirishga noqobil, tantiq, o'jar, tuturuqsiz va ahmoq qiz degan fikrda ekani-ni o'ylaganda, unga qattiq alam qilar, xijolatdan yer yoril-sa kirkudek bo'lar edi. Nima qilarini bilmay, Opurbaning yostiqlariga harorat va ehtiros to'la bo'salar bag'ishlardi.

Shu tariqa ko'p vaqt o'tdi.

Opurba Mrinmoyidan xat olmaguncha uyga qaytmay-man degan edi. Mana shuni eslab, u bir kuni eriga xat yozishga kirishdi. Mrinmoyi eri berib ketgan zarhal hoshiyali rangdor qog'ozni olib o'yga toldi. So'ngra qunt bilan, lekin elang-bilang qilib qog'ozni chizdi-da, panjasi-ni siyohga botirib, turli hajmdagi harflar bilan, hech qan-day murojaatsiz, yozdi: «Nega menga xat yozmaysiz? Ahvolingiz qalay, uyga keling. Yana nimalarni yozish kerakligini bilmayman». U yozmoqchi bo'lgan gap shu bilan tugagan edi, biroq jamiyatda o'ylagan narsangdan tashqari yana nima haqidadir gapirish odati bor. Mrinmoyi buni bilardi. Shuning uchun u bir oz o'ylab, yana bir necha so'z qo'shib qo'ydi: «Endi marhamat qilib, siz menga xat yozing. Ahvolingiz qanday, shu haqda yozib uyga qay-ting. Onam sog'-salomat, qishloqdagi qizlar va bolalar ham salomat. Bizning qora sigirimiz kecha tug'di». Shu

bilan u o'z maktubini tugatdi. So'ngra uni konvertga solib, har harfiga ko'z yoshlarini to'kib, mehr bilan yozdi: «O'purbakrishna Ray janoblariga». Uning muhabbati qancha cheksiz bo'lmasin, bari bir harflarni to'g'ri va chiroyli chiqarolmadi. Konvertga ismdan tashqari yana adres ham yozish zarurligini Mrinmoyi bilmasdi. Xatga qaynonasi yoxud boshqa biror kishining ko'zi tushishidan qo'rqib, ishonchli cho'ridan pochtaga yubordi.

Bu maktubdan hech qanday natija chiqmaganini so'zlab o'tirishning hojati yo'q, chunki u O'purbaga tegmagan edi.

### VIII

Onasi ko'rdiki, kanikul o'tib ketsa ham O'purba uyga qaytmadi. U, o'g'lim hali ham xafa, deb o'ylardi. Mrinmoyi esa, u mendan ranjigan deb o'zi yozgan maktubdan andisha qilib, yer yorilsa kirkudek bo'lib yurardi. Rostdan ham xat juda ayanchli edi. Unda birorta bama'ni so'z yo'q, u bu xatda hatto o'zi o'ylagan so'zlarni ham ifoda etolmagan edi. O'purba uni o'qib, Mrinmoyini yana yosh bola deb, yanada nodonroq hisoblaydi, degan fikr sho'rlik qizning qalbini o'q tekkandek yaralar edi.

— Sen xatni pochtaga olib borganmiding? — Qayta-qayta so'rardi Mrinmoyi cho'ri xotindan.

— Bo'lmasamchi, men uni o'z qo'lim bilan pochta yashigiga tashladim, — deb ishontirardi cho'ri. — Ehtimol afandim uni allaqachon olgandirlar.

Bir kun O'purbaning onasi Mrinmoyini chaqirib:

— Ona qizim, O'purba qachondan beri uyga kelmay ketdi, men uni ko'rgani Kalkuttaga bormoqchiman. Sen ham bormaysanmi? — deb so'radi.

Mrinmoyi ma'qullab bosh silkib qo'ydi. Ma'qulladiyu, chopganча uyiga kirib eshikni bekitib oldi, o'zini karavotga tashlab, yostiqni quchoqladi-da, quvonchi ichiga sig'may xandon urib kulib yubordi. Anchadan so'ng kulgidan to'xtadi-yu, birdan, har xil xavflarni o'ylab, ko'ngli to'lib yig'ladi.

O'zlarining borishlaridan Opurbani xabardor ham qilmay, gunohkor ona-kelin undan uzr so'rash uchun Kalkuttaga jo'nashdi. Kalkuttada ona o'z kuyovining uyiga tushdi.

Bu orada Opurba Mrinmoyidan xat kelishini kutmay, o'z ahdini buzib, bir kun kechasi o'tirib xat yoza boshladi. Biroq u hech bir munosib ta'bir topolmadi. Yigit ham muhabbat, ham alam aks etadigan murojaat shaklini qidirardi. Ammo muvofiq ifoda topolmaganidan ona tiliga bo'lgan hurmatsizligi yana ham kuchaydi. Shu paytda unga pochchasidan maktub keltirishdi, unda onasi kelganligi xabar qilinib, uni ham tushki ovqatga yetib kelishi so'ralgan edi. Xatning oxirida uyda tinchlik deb aytilgan bo'lsa ham, Opurbaning ko'nglidan har xil xayollar o'tib, ta'bi xira bo'ldi. U darrov singlisinikiga qarab jo'nadi.

— Uylar tinchmi, oyi? — deb so'radi onasini ko'rgan hamon.

— Uydagilar hammasi sihat-salomat, bolam, — dedi ona, — ko'pdan beri uyda bo'lmaganing, kanikulda ham bormaganing uchun seni olib ketgani keldim.

— Bekorga ovora bo'libsiz, — dedi Opurba, — men huquqdan imtihon berishga tayyorlanishim lozim...

Ovqat ustida singlisi Opurbaga qarab:

— Aka, nega siz xotiningizni birga olib kelmadingiz? — deb so'radi. Yigit jiddiy qiyofada gap boshladi:

— Huquq fani bilan shug'ullanish...

— Bo'lmag'ur gapni qo'yib, to'g'risini aytavering, — deb kuldi pochchasi, — uni bizga ko'rsatishga qo'rqyasiz.

— Rostdan ham ehtiyot bo'lish kerak, — uning so'zini bo'ldi xotini, — agar yosh bolaning ko'zi sizga tushsa, albatta qo'rqadi-da.

Suhbat shunday hazilkashlik bilan davom etsa ham, Opurbaning qovog'i ochilmadi. Hazillar qaytaga uni asabiylashtirardi. Agar istasa Mrinmoyi ham kelardi, deb ko'nglidan kechirdi u. Ehtimol onam uni olib kelishga urinib ham ko'rgandir, lekin u ko'nmagan bo'lsa kerak, deb o'ylardi. Ming xil xayollarga borib turgan bo'lsa ham

onasidan so'rab-surishtirishga botinmadi. Inson hayoti va butun borliq unga nuqul yolg'ondan iborat bo'lib ko'rinib ketdi.

Kechki ovqat tugay deganda, kuchli shamol qo'zg'alib, sel quya boshladi.

— Aka, bugun biznikida qoling, — iltimos qildi singlisi Opurbaga.

— Yo'q, uyga ketishim kerak, ishim bor, — dedi yigit.

— Kechasi qanday ish bo'lardi? — e'tiroz bildirdi pochchasi, — axir biznikida yotib qolganingiz uchun birovga hisob bermaysiz-ku, Nimaning tashvishini qilyapsiz?

Ko'p munozaradan so'ng, Opurba nochor qolib, shu yerda tunashga rozi bo'ldi.

— Juda charchagan ko'rinasiz, aka, borib yotganingiz ma'qul emasmikan? — dedi singlisi.

Bu taklif Opurbaning ko'nglidagiday bo'ldi. U, qorong'i uyda tanho qolsam tashvishlarim bir daraja kamayar, degan umidda edi... Suhbatga qo'shilishni istamadi.

— Chiroqni shamol o'chiribdi, yoqib beraymi? — so'radi singlisi.

— Yo'q, kerak emas, — dedi Opurba, — men yorug'da yotolmayman.

Singlisi ketdi, Opurba astagina o'miga yaqinlashdi. Endi yotay deb turganida, birdan bilaguzuklarning jaranglagani eshitildi, ikki nozik qo'l uni ushlab mahkam bag'riga bosdi, kimningdir gul barglarini eslatuvchi lablari bexosdan uning yuzlariga tegdi, ko'zyoshlari aralash haroratli bo'salar yigitga o'z hayratini bayon qilishga xalaqit berardi.

Opurba dastlab hang-mang bo'lib qoldi keyin fahmlasa: bir vaqt kulgi xalaqit bergan iltimosning bajarilishiga bugun ko'zyoshlari yordam beribdi.

Biz, uch bola yotib yurgan uyning yonidagi xona devoriga odam skeleti osib qo'yilgan edi.

Kechasi uning suyaklarini shamol shiqillatsa, kunduzi biz shiqillatardik. U vaqtda biz panditimiz<sup>1</sup> bilan «Megxnadning halokati»ni<sup>2</sup> o'qir edik. Kenbel maktabining bir studenti bo'lsa, bizga osteologiyadan<sup>3</sup> dars berardi. Murabbiyimiz bizni qanday qilib bo'lsa ham ko'proq fanlardan xabardor qilishga intilar edi. Uning orzusi nechog'lik ro'yobga chiqqanini bizni bilgan kishilarga hikoya qilish ortiqcha, boshqalarga esa, yaxshisi, bu sir bo'lib qola qolsin.

Shundan beri ko'p vaqt o'tdi. Skelet xonadan g'oyib bo'ldi, osteologiya ham xotiramizdan ko'tarilib ketgan.

Lekin yaqinda, qandaydir bir munosabat bilan bir vaqtlar biz o'sha studentning darsini tinglagan uyda mehmonlar yig'ilib qoldi-yu, menga qachonlardir skelet osig'liq turadigan xonada uxlashga to'g'ri keldi. Men xiyla vaqtgacha uxlolmay, butxona minorasidagi katta soat milining urishiga quloq solib, dam u yonboshimga, dam bu yonboshimga ag'darilib uzoq yotdim.

Uyning bir burchida chiroq yonib turardi. Birdan lip-lip etdi-da, o'chib qoldi. Shuni ham aytib qo'yay, bizning uyimiz bunyodga kelgandan beri unda bir qancha baxtsiz hodisalar ro'y bergan edi. Binobarin, tabiiyki mening o'chgan chiroq haqidagi o'ylarim shu topdayoq inson hayotining bebaqoligi xususidagi tafakkurga o'tib ketdi. Men beixtiyor o'yga toldim: yarim kechanning cheksiz zulmatida mana bu chiroq shu'lasining bexosdan g'oyib bo'lgani singari, hayotda ham kechayu kunduz, kishi

<sup>1</sup> Pandit — hind klassik fani maktabini o'tgan olimlarga beriladigan faxriy unvon.

<sup>2</sup> «Myegxnadning halokati» — bengal shoiri va dramaturgi Maykl Modxushudon Dotning (1824—1873 yillar) dostoni.

<sup>3</sup> Osteologiya — suyaklar tuzilishi haqidagi bilim, anatomiyaning bir bo'limi.



jonining mayda-mayda uchqunlari ham vaqti-bevaqt so'nib turadi.

O'zim ham sezmay, bir vaqtlar shu uyga osilgan skelet haqidagi o'ylarga o'tib ketdim. Xayolimda, u kimniki edi ekan, deb turganda, to'satdan birov mening chodirim oldida timiskilanib, qorong'ida qo'li bilan devorni siypalab, bir narsa axtarganday tuyuldi. Kimningdir nafas olishi, oyoq sharpasi eshitildi. Bularning bari bezovta, hayajonlangan o'ylarim samarasi ekanini bilardim, albatta. Sharpa esa, chakka tomirlarimning urishidan boshqa narsa emas edi.

Shunga qaramay, men dahshatga tushdim. Bu sababsiz qo'rquvdan qutulish uchun:

— Kim bu? — deb so'radim.

Sharpa karavotimga yaqinlashgach, qotib qoldi-da, ovoz eshitildi:

— Bu men, mening skeletim qayoqqadir g'oyib bo'ldi, uni qidirib yuribman.

O'z tasavvurimda bunyodga kelgan bu mavjudotdan qo'rqishning hojati yo'q deb o'yladim, shuning uchun o'zimni bosib, beparvoroq ovoz bilan, biroq ko'rpani ustimga torta turib, yana so'radim:

— Ha, hozir xuddi shunday ishning xonasi! U skelet senga nima uchun kerak bo'lib qoldi?

— Bu qanday behuda savol? — Nazarimda u chodirimning yonginasida turib gapirar edi. — U suyaklar mening yuragimga qalqon edi, axir! U chog'larda men yosh va sahibjamol qiz edim! Sen mening skeletimga nazar solishni xohlarmiding?

— Ha, sening istaging tabiiy, — javob berdim men, — mayli, sen qidir, men bir oz mizg'ib olishga urinib ko'ray.

— Sen yolg'iz ekansan nazarimda, — deb davom etdi sharpa. — Unday bo'lsa, men bir daqiqa o'tiray-da, ikkimiz andak gaplashaylik. Dastlabki o'ttiz besh yil davomida men mana shunday o'tirib, odamlar bilan tez-tez gaplashib turardim. So'nggi o'ttiz besh yilda esa, qabristonda izg'igan shamoldek fazolarda aylanib yuraman. Hozir sening yoningda birpas o'tirib, yana inson tilida bir oz gaplashay.

Allakimning chodirim yoniga o'tirganini sezdim. Noiloj bir ahvolga tushib qolganimni anglab, butun kuchimni yig'dim-da, imkon boricha beparvolik bilan:

— Juda soz. Biror qiziq voqea to'g'risida so'zlashaylik, bo'lmasa, — dedim.

— Agar sen eng g'aroyib bir hangomani eshitmoqchi bo'lsang, hayotim haqida hikoya qilib beray.

Butxona soati kechasi ikkiga zang urdi.

— Men yosh va tirik chog'imda, faqat bir kishidan, o'z erimdan o'limdan qo'rqqanday qo'rqardim. O'zimni qar-moqqa ilingan baliqday his etardim. Nazarimda, tamom begona bir odam meni bolalikning osoyishta va shinam olamidan yulib olganu uning qo'lidan qutulishning iloji yo'qday tuyulardi. To'ydan so'ng ikki oy o'tgach, erim o'ldi. Qarindosh-urug'lar, yor-do'stlar mening shum taq-dirimga qon-qora qaqshab yig'ladilar. Qaynotam yuzimga uzoq tikilib turib, oxiri qaynonamga bunday dedi: «Shastrlarda mana shu qizimiz singari badbaxtlik kelti-ruvchi xotinlar haqida rivoyatlar bor». Bularning barini men yaxshi xotirlayman. Sen eshityapsanmi o'zi? Hikoyam yoqyaptimi?

— Juda yoqyapti, — deb javob berdim. — Boshlanishi g'oyat qiziq ekan.

— Unday bo'lsa, quloq sol. Men xursand bo'lib otam-ning uyiga qaytib keldim. Vaqt o'tib borardi. Garchi odamlar mendan yashirishga urinsalar ham, menga o'xshash sohibjamol qizni qidirib topish anrimahol ekani-ni o'zim juda yaxshi bilardim. Sen nima deb o'ylaysan?

— Shunday bo'lishi mumkin, biroq men seni aslo ko'rgan emasman.

— Ko'rganing yo'q! Mening skeletimni-chi? Ha-ha-ha! Men tegishyapman! Bir vaqtlar bu ko'z kosalarida timqora shahlo ko'zlar chaqnaganini, lolarang lablarda o'ynagan nozik tabassurning hozirgi bu yalang'och tish-larning mudhish tirjayishiga aslo o'xshamaganini senga ne yo'sinda isbot qilsam ekan? Senga nimalarni tavsif qilay: latofat va nazokatimnimi, husnu jamolimnimi, sarv qomatimnimi, kelishgan, nozik, miqqi, xushbichim a'zoyi

badanimni? Hozir bu tavsiflar senga g'ayritabiiy tuyuladi, bu esa mening g'azabimni keltiradi. Holbuki o'sha zamonning mana-man degan doktorlari ham mening skeletim osteologiyani o'rganish uchun bir vosita bo'lib qolishini tasavvur etolmas edilar. Bir doktorning eng yaqin do'sti bilan suhbatida meni, nozik va xushbo'y chechak, deb atagani hamon esimda. Boshqacha aytganda, hamma insonlar osteologiya va anatomiyani o'rganish uchun vosita bo'lishi mumkin, faqat mengina latif chechakka o'xshardim. Aytchi, chechaklarning ham skeleti bo'ladimi?

Men yurgan chog'da g'avdamning har bir harakatida go'zallik nuri porloq brilliant singari tovlanib turganini sezardim. Men qo'llarimga tez-tez va uzoq-uzoq tikilib qolardim. Bu qo'llar shu qadar nozik ediki, dunyoda eng mag'rur odamning ham qalbini rom qila olardi. Subhadra ham qomatini mag'rur ko'tarib, o'zining zafar duldulida Arjuna<sup>1</sup> bilan yonma-yon o'tirib hayratda qolgan uch olam uzra parvoz etarkan, ehtimol, uning kafti lolarang nafis, momiq qo'llarida nozik barmoqlari alanganing tili kabi yonib turgandir.

Mening behayo, yalang'och, ko'hna skeletim, balki senda noto'g'ri tasavvur qoldirgandir, lekin afsuski, bu yanglish fikrni rad etish uchun menda hech qanday dalil yo'q. Shu sababli mening uchun jahonda eng manfur narsa — sensan. Ko'z o'ngingda o'n olti yashar sohibjamol tannoz bir qiz bo'lib qad ko'tarsamu seni uzoq vaqtga uyqudan mahrum qilsam! Yana istagim shuki, har qanday osteologiyani barbod etib, sening boshingdan ham uning asarini qo'ymay quvib chiqarsam deyman.

— Agar latif badaning hozir ham bo'lganda, unga qasamyod qilib aytar edimki, boshimda u fanning yuqi ham qolmagan, — dedim men. — Jozibali, barkamol yoshlikdagi husn-jamoling esa kecha zulmatida ham olmos kabi porlab turibdi. Bu haqda ortiq gapirishning hojati yo'q!

<sup>1</sup> Arjuna — qadimiy hind eposi «Ramayana»ning qahramoni; Subhadra — uning xotini.

— Mening dugonam yo'q edi, — davom etdi u, — akam uylanmaslikka ahd qilgan, binobarin, ichkarida o'zim tanho yashardim. Yolg'izlikda bog'dagi bir daraxt soyasida o'tirib, butun olam menga oshiqi shaydo, yulduzlar ham faqat menga nigoh tashlaydi, shamol ham mening hasratimda nolish qiladi, sabzalar esa, agar hushi bo'lganda, mening oyog'im tegishi bilan hushini ham yo'qotardi, deb o'ylar edim. Ko'katlarning poymol bo'lib yerga qapishgan novdalari nazarimda, oyog'im ostida sasadosiz yotgan butun dunyoning yigit-yalanglariday tuyulardi.

Akamning do'sti Shoshishektor meditsina kolledjini bitirgach, bizning uy doktori bo'lib qoldi. Men uni ilgari ham darparda orqali tez-tez ko'rib turardim. Akam juda g'alati odam bo'lib, hayotga doimo cho'chibroq qarardi. Dunyo unga juda murakkab tuyular va u borgan sari undan uzoqlashib, oqibat go'shanishin bo'lib qolgandi. Shoshishektor uning yagona do'sti bo'lib, men doim ko'rib yurgan yigit ham faqat shu edi. Oqshomlari bog'da o'zimni shoh taxtida o'tirganday his etganimda, oyog'im ostida yotgan butun dunyo yigitlari Shoshishektor siymosida namoyon bo'la boshladilar. — Sen tinglayapsanmi? — deb menga murojaat qildi sharpa. — Sen nima xayol surib qolding?

Men og'ir so'lish olib:

— Men Shoshishektor bo'lib tug'ilsam, ehtimol yaxshiroq bo'lardi, — deb javob berdim.

— Avval hikoyani oxirigacha eshit. Bir yomg'irli kunda meni bezgak tutdi. Doktor ko'rgani keldi. Biz birinchi daf'a bunday yaqin turib ko'rishdik.

Men derazaga qarab yotgan edim, shuning uchun kechki shafaq oqargan yuzimga arg'uvon nurlarini sepib turardi. Doktor xonaga kirib, mening yuzimga qaragach, fikran o'zimni doktorning o'miga qo'yib, o'zimga chetdan nazar soldim. Yuzim kechki shafaq nurida so'lib qolgan kichkina nozik chechakka o'xshar, gajaklarim peshonamga tushib turar, hayo bilan yarim yumilgan shahlo ko'zlarim dilbar yuzga soya solardi...

Doktor xijolat ichida, ohistagina akamga mening tomirimni ko'rish kerakligini aytdi.

Men ko'rpaning tagidan momiqday qo'llarimni chiqardim: «Qimmatbaho bilaguzuklar taqsim qanday yaxshi bo'lardi», — deb o'yladim ichimda.

Doktorning bemor qo'lini bunday o'ng'aysizlik bilan ushlaganini men hargiz ko'rgan emasdim. Barmoqlari tomirni qidirarkan, tinmay qaltirardi. U menda isitma borligini sezdi, men esa, uning yurak urishini sezdim. Ishonmaysanmi.

— Ishonmaslik uchun hech qanday dalilim yo'q, — dedim men. — Buning ustiga, kishining tomiri hamisha har xil urib turadi.

— Men bir necha da'fa og'rib tuzalgandan so'ng, payqadimki, dunyoda oqshomlari meni kutuvchi yoshlarning miqdori ancha kamayib, olamim deyarli bo'm-bo'sh bo'lib qolgan edi. Nihoyat, unda doktor bilan bemor qoldi, xolos.

Oqshomlari men yashirincha za'faron liboslar kiyardim, sochlarimning uchiga jasmin gulini taqib, chiroyli turmaklab qo'yardim, qo'limga ko'zgu tutib, bog'da uzoq-uzoq o'tirib qolardim. Nega bunday qilardim? O'z-o'ziga bino qo'yish, hadeb o'z aksingga termilish zeriktirmaydimi? Yo'q! Husnimga tikilgan men o'zim emas edim, axir. Men yolg'iz o'tirardim-u, lekin biz ikkov edik. Men goho doktor bo'lib olardim-da, o'zimga termilib, maftun bo'lardim, o'zimni sevib erkaldim, biroq goho qalbidan ma'yus oqshom shamolining tug'yoniday bir «oh» uzilib chiqardi.

Shundan beri men sira yolg'iz bo'lgan emasman. Sayr etganimda, yerga qarab qadamlarimni kuzataman, panjalarimning tushishiga razm solaman, bu oyoq olishim doktorga manzur bo'larmikan, deb o'ylayman. Qiyom paytida, tashqarida jazirama issiq bo'lib, atrofda sukunat hukm surganda, havoda parvoz etgan kalxat ovozi-yu, bizning hovli yonidan o'tgan o'yinchoqfurushning o'z matolarini ta'rif qilib qichqirgani eshitilardi. Ana shunda, men ko'katlar ustida ro'yja solib yastanib yotardim.

Yalang'och bilaklar yengillik bilan yumshoq yostiq ustiga tashalanar, nazarimda kimdir bu bilaklarning latifligiga mahliyo bo'lib, ohista ko'tarib, oppoq kaftlarimdan o'par, so'ngra sas-sadosiz uzoqlashardi. Agar men o'z hikoyamni shu bilan tugatsam, sen nima der eding?

— Mayli, — dedim men, — lekin oxiri yo'q, tunning qolganini sarf etib, hikoyani o'zim tugallashim lozim bo'ladi.

— U holda, — dedi sharpa, — bu, tishlari irjayib turgan skelet haqidagi qo'rqinchli hikoya bo'lmay qolardi. Davomini eshit! Bir oz tajriba ortdirgandan so'ng doktor bizning uyning pastki qavatida shifoxona ochdi. Men quvnoq suhbat va hazil-mutoyibalar orasida undan har xil dori va zaharlarning xususiyati, odamning nimadan tez va yengilroq o'lishi haqida so'rab qo'yardim. Gap doktorning sevgan mavzulariga borib taqalganda, u sergap bo'lib ketardi. Shunday suhbatlar meni o'limdan qo'rqmaslikka, o'limni qandaydir o'zimga yaqin bir narsaday tasavvur qilishga o'rgatdi. Olamda men uchun sevgi bilan o'limgina mavjudday tuyulardi. Mening hikoyam tamom bo'la yozdi, ozgina qoldi.

— Hademay tong ham yorishadi, — dedim men asta.

— Oradan birmuncha vaqt o'tgach, doktor babuning nimadandir tashvish tortib, o'z hayajonlarini mendan yashirishga urinayotganini sezib qoldim. Kunlardan bir kun qarasam, u juda hafsula bilan kiyinib akamdan izvosh olib, kechasi qayoqqadir jo'nadi.

Men ortiq toqat qilolmay, akamning oldiga bordim. Har xil mayda-chuyda gapni gapirib bo'lgach: «Aytganday, doktor babu izvoshda qayoqqa ketdi?» — deb so'radim. Akam qisqa qilib javob berdi:

— O'lgani.

— Bo'lmag'ur gapni gapirmang, — dedim men.

— Uylangani ketdi, — deb tushuntirdi akam.

— Nahotki! — deb qichqirib yubordim-u, qah-qah urib kula boshladim. Keyincha bilsam, doktor bu nikoh sharofati bilan o'n ikki ming rupiya qalin olarkan. «Ammo bu yangilikni sir tutib, nega u meni haqorat qildi? — deb

o'ylardim. — Axir, men uning oyoqlariga yiqilib, mabodo shunga o'xshash biror voqea ro'y bergan taqdirda o'zimni halok etaman deb hech qachon aytmagan edim!». Yo'q, erkaklarga ishonib bo'lmaydi. Men bu dunyoda faqat bir erkakni tanirdim-u, lekin shunda ham hamma erkaklarning nimadan iborat ekanini tezdin payqab oldim.

Kechga yaqin, kasallarni ko'rib bo'lgach, doktor uyga qaytib keldi. Men xandon urib, unga murojaat qildim: «Doktor janoblari, to'ylar muborak?» Mening quvnoqligimni ko'rib, doktor esankirab qoldi. Men esa yana so'radim. «Nahotki hech qanday muzika bo'lmasa?»

Shoshishektor og'ir nafas oldi:

— Nazaringizda to'y shunaqa quvonchli narsami?

Uning javobini eshitib, men yana kuldim. Bunaqasini sira eshitgan emasdim.

— Yo'q, bu yaxshi emas, men nag'ma-navoni, yorug'likni sevaman, — dedim.

Oxiri akam urf-odatga muvofiq o'yin-kulgi, tantana qilish haqida farmon berib mendan qutuldi.

Men kunbo'yi, uyga kelin kelsa nima qilaman, deb xayolga botib yurdim.

— Doktor janoblari, siz yana bemorlarning tomirini ko'rasizmi? — deb so'radim. — Ha-ha! Qasamyod etamanki, odamlarning, ayniqsa erkaklarning yuragida nima borligini sira bilib bo'lmaydi. — Mening so'zlarim doktorning qalbini o'qday teshib o'tdi.

To'y yarim kechadan so'ng bo'lishi kerak edi. Kechqurun doktor akam bilan tomida o'tirib, odatdagidek mayxo'rlik qilishdi. Hademay oy qalqdi.

Men ularning yoniga keldim-u:

— Doktor janoblari, xotiringizdan ko'tarildi, shekilli, siz jo'nashingiz kerak, — dedim kulib.

Bu o'rinda yana bir narsani eslatib o'tish kerak.

Ayvonga chiqishdan oldin men yashirincha aptekaga kirib, jindak poroshok oldim-da, uning bir qismini bilintirmay doktorning stakaniga soldim. Bu poroshokni ichgan odam o'ladi, deb uning o'zidan eshitgan edim. Doktor stakandagi mayni bir ko'tarishda sipqarib, o'rnidan turdi

va menga xira nazar tashlab, qaltiragan ovoz bilan sekina:

— Men ketdim, — dedi.

Mana naylardan ham sado chiqdi. Men banoras soriysi kiyib, bisotimdagi hamma qimmatbaho liboslarim bilan o'zimga oro berdim. Farqlarimni qizil rangda bo'yab, bog'dagi azim bir daraxt ostida o'zimga joy soldim.

Dilbar bir kecha. To'lin oy olamni sutdek yoritgan. Janub shabadasi uxlagan olamning horg'inligini tarqatib, fazalarda parvoz etmoqda, bog'da jasmin gulning xushbo'y hidi anqidi, uzoqda nay sadolari tinib, oy nuri xiralashganda, daraxtlar, osmon va men tug'ilib o'sgan uy zulmat dengizida sarob kabi suzib, erib ketganda, ko'zlarimni yumib, tabassum qildim. Men lablarimda arang sezilib turgan bu nafis tabassumni odamlar kelib ko'rishlarini istardim. Men bu tabassumni mangulik zulmatdan iborat o'z nikoh xonamga olib ketmoqchi edim. Hayhot, qani bu nikoh xonasi? Qani mening kelinlik zeb-ziynatlarim?

Men shaqirlagan ovozni eshitib uyg'onganimda, tepamda uch bolaning osteologiya o'qiyotganini ko'rdim. Bir vaqtlar quvonch bilan qayg'u hislari qaynagan, yoshlik gulining nafis yaproqlari ochilgan joyni hozir muallim tayoqcha bilan ko'rsatib suyaklarning nomlarini atamoqda edi.

Mening lablarimda g'unchaday ochilgan so'nggi tabassumning biror izini payqadingmi? Xo'sh, hikoya senga ma'qulmi?

— Juda ajoyib hikoya ekan, — javob berdim men.

Shu mahal qarg'alarning birinchi qag'illashi eshitildi.

— Sen hanuz shu yerdamisan? — deb so'radim.

Javob bo'lmadi. Tongning ilk nuri derazadan kirib kelmoqda edi.

1891-yil



Ranigxat zamindori Sharodashonkoming uyida yashovchi tul xotin Kadomini ning qarindoshlari yo'q edi. Hammasi birin-ketin vafot etgan. Qayin og'asi Sharodashonkoming kichik o'g'li uning yagona ovunchog'i, quvonchi edi. Bu go'dak tug'ilgandan so'ng onasi uzoq kasal bo'lib, bolani Kadomini boqib o'stirdi. Xotin kishi birovning bolasini tarbiya qildimi, garchi unga muhabbatdan boshqa hech qanday huquqi bo'lmasa ham, mehru muhabbati tobora ortib boraveradi. Muhabbat esa o'z huquqini hech qanday hujjat bilan isbot qilolmaydi. Zotan, muhabbat bunga muhtoj ham emas, u o'zining ishonchsiz sanamiga kun sayin zo'rroq ehtiros bilan xizmat eta beradi.

Kadomini bolaga bo'lgan mehrini sarf etib bo'lgach, bir kuni kechasi qo'qqisdan o'lib qoldi. Bu baxtsiz hodisa srabon oyida yuz berdi. Uning yuragi birdan urishdan to'xtadi. Dunyoda hamma ish o'z navbatida davom etardi, faqat mehr bilan to'la shu nozik yurakdagi davr soati mangu to'xtadi. Politsiyaning xarxashasidan qutulish uchun zamindorning to'rt braxmani jasadni tezroq kuydirishga qaror qildilar.

Dafn gulxani yoqiladigan qabriston qishloqdan ancha uzoqda edi. Bu yerda, ko'l bo'yida bir kulba bo'lib, yonida baland banyan daraxti o'sardi. Qachonlardir bu yerdan daryo o'tganu hozir qurigan. Uning o'zanida dafn marosimlari o'tkazish uchun ko'l qazilgan edi. Atrof-tevarakdagi aholi bu ko'lni qadimgi muqaddas daryoning bir qismi deb, unga zo'r ixlos qo'ygan edi.

Xizmatchilar jasadni kulbaning o'rtasiga keltirib qo'yib, dafn gulxani uchun o'tin kutib o'tirdilar.

Vaqt shunday sekin o'tardiki, xizmatchilardan Nitay bilan Guruchoronning toqati toq bo'lib, nega o'tin keltirishmadi, deb bilgani ketdilar. Bidxu bilan Bonmali esa, jasadni poylab qoldi.

Zim-ziyo kecha edi. Qalin bulutlar bilan qoplangan osmonda birorta yulduz ko'rinmasdi. Ikki kishi xonada xomush o'tiribdi. Birining sham va gugurti bor edi, lekin gugurt nam tortib qolgani uchun, har qancha urinsa ham yondirolmadi, chiroqlari esa o'chib qoldi.

Uzoq jimlikdan so'ng ularning biri:

— Hozir tamaki bilan trubka bo'lsa xo'p soz bo'lardi-da, — dedi.

— Men chopib borib, birpasda hammasini olib kelishim mumkin, — dedi Bonmali.

Bonmalining muddaosini payqagan Bidxu qichqirib yubordi:

— Nima, bu yerda men yolg'iz qolamanmi?

Yana jimlik cho'kdi. Har daqiqa bir soat bo'lib tuyulardi.

Ular o'tinga ketganlarni ich-ichlaridan la'natlardilar. Hatto, ular bir joyda o'tirib chilim chekayotgandir, deb gumonsiray ham boshladilar.

Atrofdan sukunat hukmron edi, faqat tinmagur baqalarning vaqillashi, tungi chigirtkalarining chirillashi jimlikni buzardi. Braxmanlarga tobutdagi jasad qimirlagan-day, go'yo ayol boshqa yonboshiga ag'darilganday tuyuldi. Bidxu bilan Bonmalini vahm bosib «Ram! Ram!» deb qichqirib yubordilar.

Kutilmaganda, kulbada og'ir xo'rsinish eshitildi. Xizmatkorlar bir lahza kulbadan chiqib qishloqqa qarab qochdilar. Uch mil chamasi chopib borgach, qaytib kelayotgan sheriklarini ko'rib qoldilar. Ular chindan ham chilim chekib, hech narsa bilmay qaytayotgan edilar, ammo, daraxt kesilgan, hademay o'tin keltiriladi, deb xabar qildilar. Bidxu bilan Bonmali kulbada ro'y bergan hodisani so'zlab berishdi. Nitay bilan Guruchoron bunga ishonmasdan, ularni qo'rqqoqlikda aybladilar. To'rtovlon qabristondagi kulbaga qaytib kelishdi. Tobutni bo'sh

'Ram! Ram! — hayronlik, qo'rquv yoki qayg'uni ifodalovchi xitob.

ko'rib hang-mang bo'lib qoldilar. Hammasi hayratda edi, bir-birlariga qaradilar. Jasadni qashqirlar olib ketdimikan desalar, atrofda biror parcha latta ko'rinmasdi. Xizmatkorlar tashqariga chiqib, kulba yonida, loyda zoifona oyoq izini ko'rib qolishdi.

Sharodashonkor ahmoq emasdi, agar bo'lgan haqiqatni unga so'zlaganlarida ham, uning bunga ishonishi dar-gumon. Uzoq muhokamadan so'ng, o'lik kuydirildi, deb xabar qilishga ahd etdilar.

Tong otarda, odamlar o'tin olib kelishi bilan, kulbada ozroq o'tin bor ekan, jasad kuydirildi, deb aytdilar. Bu gapning to'g'riligiga hech kim shak-shubha qilmadi. Rostdan ham kulbada jasad yo'q edi, jasad esa unaqa boylik emaski, birov o'g'irlab ketsa.

## II

Hammaga ayonki, odam ba'zan o'lganday tuyulsa ham, jon uning badanini ilitib turadi. Xuddi shunday Kadomini ham o'lmagan, faqat o'likka o'xshab qolgan edi.

O'ziga kelib, qarasa — atrofi qop-qorong'i. U go'yo o'z joyida yotar edi.

— Singlim, — deb chaqirdi u Hech kim javob bermadi. Qattiq qo'rqqan Kadomini tobutda yotganini birdan payqadi. Og'rib nafasi bo'g'ilganini esladi. Bu vaqtda ovsini bolasi uchun o'choqda sut ilitib turgan edi. Kadominining majoli qurib, o'zini ko'rpaga tashladi.

— Singlim, bolani olib kel, men o'laman, — dedi u uzuq-yuluq ovoz bilan hushdan ketayozib.

Shundan so'ng, go'yo siyoh quyilgandek hamma narsa birdan qoraydi. Kadominining xiralangan tushunchasida olam kitobining hamma harflari bir onda bir-biriga qo'shilib ketdi. Bola oxirgi marta uni chaqirdimi-yo'qmi, buni eslolmaydi. Bu tanish olamdan o'limning nihoyasiz, noma'lum yo'liga ravona bo'lganda, bolaning mehr bilan vidolashish armug'onini oldimi, yo'qmi, buni ham eslolmaydi.

Bu kimsasiz zulmatni u dastlab, hech narsa ko'rinmaydigan, hech bir sado eshitilmaydigan, mehnatsiz, abadiy tetiklik talab etadigan makon — o'lim tangrisi-Yamaning makoni deb o'yladi. Ochiq eshikdan rutubat aralash shamol esib, baqalarning vaqillashi eshitilgach, Kadomini juda yoshligidan boshlab azob-uqubatlar bilan to'lgan qisqa hayot yo'lini o'ylab, o'zining hali bu dunyoda ekanini sezdi. Birdan chaqmoq chaqib ko'lni, banyan daraxtini, keng dalalarni va uzoqda qorayib turgan qator daraxtlarni yoritdi. Ayol, oy o'n besh kunlik bo'lgan kezlarda bu ko'lda cho'milganini, dafn gulxani ustida yotgan o'liklarni ko'rib qo'rqqanlarini esladi.

U dastlab uyga qaytmoqchi bo'ldi. Keyin o'ylab qoldi: «Axir men o'lganman! Qanday qilib ular meni uyga kiritadi. Men ularning badbaxtligiga sabab bo'lmaymanmi. Men tiriklar saltanatidan quvilganman. Men endi arvoelman, xolos. Agar shunday bo'lmasa, men Sharodashonkorning yaxshi himoya qilinadigan ichkari uyidan ne yo'sinda bu uzoq qabristonga tushib qoldim? Jasadim kuydirilmagan. Meni kuydirishi lozim bo'lgan odamlar qayoqqa ketishdi?» Ayol Sharodashonkorning charog'on uyini esladi, so'ngra o'zini uzoq qorong'i qabristonda tanho, tashlandiq holda yotganini o'ylab, endi kishilik jamiyatining a'zosi emasligini payqadi. U faqat qo'rqinchli tush, vahmali ko'lanka yoxud arvo edi!

Kadomini, shularni xayoldan kechirgan hamono, yerdagi qonunlar zanjiridan xalos bo'lganday, o'zida favqulodda kuch va cheksiz erkinlik his etdi. Endi u xohlaganini qila olar va istagan tomoniga keta olardi. Bu yangi fikrdan devonavor holga kelgan Kadomini kulbadan chiqib qabristonda namoyon bo'ldi. Uning yuragida na iymanish va na qo'rquvning soyasi bor edi.

Lekin u andak yurib, butun vujudida horg'inlik sezdi. Chor-atrof, ba'zi joylari sholipoyalar bilan qoplangan ko'z ilg'amas tekislikdan iborat edi. Goho Kadomini tizza bo'yi suvda turganini payqab qolardi. Tong yorishib, uylar atrofidagi daraxtlarda qushlar nag'masi eshitilganda, bo-

yoqish juvonnini qo'rquv bosdi. U endilikda bu olam va tirik odamlar bilan qanday aloqada bo'lishini tasavvur etolmasdi. Kadomini zim-ziyo kechada qabristonda ekan, o'zini ozod va o'z joyida his etgandi. Ammo tong yorishib, uylar va odamlarni ko'rgach, u dahshatda qoldi. Odamlar arvohlardan, arvohtar esa odamlardan qo'rqadi, ularni o'lim daryosi bir-biridan ajratib turadi.

### III

Kadominining kiyimlari iflos, o'zi vahimali xayollar tufayli aqldan ozib telbaga o'xshab qolgan edi. Shu alfozda uni odamlar ko'rsa qo'rqar, bolalar ko'rsa yo tosh otar, yoxud qo'rqib yashirinar edilar. Xayriyat, uni bu ahvolda birinchi marta uchratgan kishi yolg'iz bir yo'lovchi bo'ldi.

— Xonim, siz mo'tabar ayolga o'xshaysiz, — dedi yo'lovchi unga yaqin kelib, — bu ahvolda qayoqqa bormoqchisiz?

Kadomini nima deb javob berishini bilmay, xomushlik bilan unga termilib qoldi. U hali ham tirik ekaniga va mo'tabar ayolga o'xshashiga, u bilan gaplashishlari mumkinligiga ishonmas edi.

— Yuring! Men sizni uyingizga eltib qo'yaman. Ayting, uyingiz qaerda? — dedi yo'lovchi.

Kadomini o'ylab qoldi. U qaynag'asining uyiga qaytishni xotiriga ham keltirmasdi. Biroq, boshqa boshpanasi yo'q. Shunda yoshlikdagi dugonasi Jogomaya yodiga tushdi. Dugonasi erga tekkandan beri u bilan ko'rishmagan, ammo ora-sira bir-birlariga xat yozishib turardilar. Ular goho bir-birlaridan o'pkalab qo'yardilar, sababi ma'lum, albatta: Kadomini Jogomayani juda yaxshi ko'rganini isbot qilishga tirishar, Jogomaya esa, sening muhabbating menikichalik emas, deb o'pkalar edi. Lekin har ikkalasi, mabodo yana uchrashguday bo'lsak, ortiq gina qilishmay, totuv yashaymiz deb ahd qilgan edilar.

— Men Nishindapurga, Patichoron janoblarning uylariga boraman, — dedi Kadomini.

Yo'lovchi Kalkuttaga borayotgan edi. Nishindapur garchi uzoqroq bo'lsa ham har holda uning yo'li ustida. U Kadomini dugonasining uyiga boshlab bordi. Boshda Kadomini bilan Jogomaya bir-birlarini tanimay turdilar. Taniganlaridan so'ng:

— Voy, kela qol, o'rtoqjon, marhamat! Qadamlaringa hasanot, — dedi Jogomaya gul-gul ochilib, — men seni qaytib ko'rarman deb xotiringa ham keltirmagan edim. Xo'sh, azizim, qanday shamol uchirdi? Nahotki qaynag'ang kelishingga rozi bo'lgan bo'lsa?

Kadomini xomush turardi.

— Opajon, — dedi u yolvorgan ohangda, — qaynag'am to'g'risida surishtirib o'tirma, yaxshisi, uyingdan boshpana ber, senga cho'ri bo'lay. Sen nima desang bari ni bajo keltiraman.

— Nimalar deyapsan o'zing? — xitob etdi Jogomaya. — Menga cho'ri bo'larmish! Axir sen mening eng yaqin, jonajon o'rtog'imsan-ku!

Shu palla xonaga Patichoron kirib keldi. Kadomini bir lahza unga nazar solib, so'ng ohista xonadan chiqib ketdi. U boshiga soriysining uchini ham yopmadi, uy xo'jasiga izzat-ikrom ham ko'rsatmadi. Bu qiliq eriga xush kelmasligidan qo'rqib, Jogomaya voqeani batafsil tushuntirishga kirishdi. Patichoron hamisha Jogomayaga yon bersa-da, bu gal so'zlariga e'tibor qilmay, xotinini o'ng'aysiz vaziyatda qoldirib chiqib ketdi.

Kadomini dugonasining uyida tura boshladi, lekin ular orasida ilgari ishonch yo'q edi. O'lim ularni bir-biridan ayirib turardi. Juvon boshqalar bilan inoq bo'lolmas, uning barhayotligi hali o'ziga ham jumboqday tuyulardi. Kadomini Jogomayaga qarab, uning eri, uy-joyi bor, u mendan uzoq bir olamda yashaydi, dugonam bebaqo dunyoning tirik odami, shu olanning burchini ado etib, uning huzur-halovatidan bahramand bo'ladi, men esa, faqat bir soyaman, deb o'ylardi. Jogomaya foniy — o'tkinchi dunyoda yashaydi, Kadomini esa abadiylikda.

Jogomayaning ham ko'ngli qandaydir g'ash edi, lekin

buning sababini o'zi bilmaydi. Xotin kishi sirni yoqtirmaydi, chunki sir mayda oilaviy tashvishlarni emas, she'riyat, qahramonlik va olimlikning yo'ldoshidir. Shuning uchun, agar xotin kishi biror narsani tushunmasa yo bu narsadan aloqani butunlay uzadi, yoxud uni o'zi tushunadigan qilishga tirishadi. Bordiyu bu ikkisi ham muyassar bo'lmasa, jahli chiqadi. Kadomini parishonroq ko'ringan sari, uning yuragidagi dardini bilolmay, Jogomayaning tobora jahli chiqaverdi. Kadomini o'zidan o'zi qo'rqar, lekin o'zidan qochib qutulishning ilojini topolmasdi. Ajinadan qo'rqan odamlar orqalariga qayrilib qarashga hayiqadilar: ularga hamma yer mudhish tuyuladi. Ammo Kadomini hammadan ko'proq o'zidan qo'rqardi, zotan uning atrofini o'ragan kishilardan qo'rqadigan joyi qolmagan. Tunda yolg'iz xonada yotib vahimaga tushar, oqshomlari chiroq shu'lasida o'z soyasini ko'rib larzaga kelar edi. Uning vahimachiligi bu uyda yashovchi boshqa odamlarni ham o'z soyasidan qo'rqadigan qilib qo'ydi. Xizmatchilar va Jogomayaga chor-atrofdan arvohtar ko'rinadigan bo'lib qoldi.

Kunlardan bir kun Kadomini yarim kechada Jogomayaning eshigi oldiga chopib kelib:

— Singlim, singlim, sendan yolvorib so'rayman, meni yolg'iz qoldirma! — deb faryod qildi.

Jogomaya qo'rqib, yana jahli chiqdi. U Kadominini shu zahotiyuq uydin quvmoqchi bo'ldi. Rahmdil Patichoron mehmonni arang yupatib, qo'shni xonada yotishga ko'ndirdi. Ertasiga, kutilmaganda, xotini uni o'z xonasiga chaqirib dag'dag'a qila boshladi:

— Siz qanaqa odamsiz. Begona bir xotin qaynag'asining uyini tashlab siznikiga kelib olgan bo'lsa. Mana salkam bir oy bo'lib qoldi, siz bo'lsangiz, unga, bu uyda turishing mumkin emas, deb loaqal shama ham qilib qo'ymadingiz. Zarracha noroziligingizni ham ko'rma-dim. Siz erkaklar hammangiz shunaqasiz.

Ayollar erkaklarni g'ayriixtiyoriy ravishda doim xotin jinsiga moyillikda ayblaydilar. Garchi Patichoron, kimsa-

siz, lekin suluv Kadominiga muhabbatim odob doirasidan chiqmaydi, deb qasamyod qilishga tayyor bo'lsa ham, u o'z xatti-harakati bilan buni isbot etolmadi. Uning fikricha, qaynag'a uyida sababsiz xo'rlangan Kadomini boshqa iloj topmay, toqatsizlikdan qochgan va uning uyiga boshpana qidirib kelgan. Bas, shunday ekan, qanday qilib u, bu ota-onasiz juvonne o'z uyidan ketkiza oladi. Patichoron Kadomini bilan savol-javob qilib, uning yarasini yangilashni istamay, yuqoridagi mulohazalarini xotiniga so'zlab, shu bilan bu gapga xotima bermoqchi bo'ldi.

Bundan hech ish chiqmagach, Jogomaya erinchoq eriga ta'sir qilishning boshqa vositalarini qidira ketdi. Nihoyat, eri ham oilada osoyishtalik barqaror bo'lmog'i uchun, Kadominining qaynag'asiga xabar qilish lozimligini payqadi. U maktubdan natija chiqmaydi deb, Ranigxatga o'zi bermoqchi bo'ldi. Eri jo'nashi bilan Jogomaya Kadominini chaqirib:

— O'rtoqjon, sen bundan so'ng biznikida turishing aqldan emas. O'zing bilasan: el og'ziga elak tutib bo'lmaydi, — dedi.

Kadomini bo'lsa dugonasiga g'amgin nigoh tashlab:

— Odamlar nima desa der, menga nima? — deb javob berdi.

Jogomaya bunday javobdan taajjublandi:

— Agar sen odamlarning gap-so'ziga beparvo bo'lsang, biz beparvo qaray olmaymiz! — deb baqirdi u. — Boshqa joydan kelgan bir juvonning buncha vaqt uyimizda turib qolishini biz odamlarga ne til bilan tushuntiramiz?

— Mening uyim bormi, axir?

«Ana xolos, — deb o'yladi. Jogomaya, — nimalar deb javrayapti bu baxti qora xotin?»

— Men sizlar uchun kimman? — deb ohista davom etdi Kadomini. — Ayting-chi, men yerda yuribmanmi? Sizlar kulasizlar, yig'laysizlar, har qaysingiz o'z ishingiz bilan bandsiz. Men-chi, men faqat mushohada qilib turaman. Sizlar — odamsizlar, men bo'lsam, faqat bir soya-



man. O'ylab o'yimga yetmayman, nega parvardigori olam meni sizning dunyongizda qoldirdi? Sizlar mendan, hayotimizga raxna soladi, turmushimizni achchiq qiladi, oilamizga badbaxtlik keltiradi, deb qo'rqaysizlar. Meni sizlarga bog'lab turgan narsa nima? Modomiki tangri menga hech qanday o'rin qoldirmagan ekan, men bu zanjirni uzib sizlardan ham ketaman.

Shu asnoda, uning nigohi g'alati, so'zlari shunday g'ayritabiiy ediki, Jogomaya nimanidir payqaganday bo'ldi-yu, bu sirni oxirigacha anglay olmadi. Ortiqcha savol-javob qilishga yuragi dov bermay, og'ir xayolga cho'mib, asta chiqib ketdi.

## VI

Patichoron Ranigxatdan qaytib kelganda kech soat o'nga yaqinlashgan edi. Yomg'irdan har joy, har joyda ko'lmak suv, go'yo kechaning ham, yomg'irning nihoyasi yo'qday tuyulardi.

— Xo'sh, nima gap? — deb so'radi Jogomaya.

— Gap ko'p, andak sabr qil, — dedi eri.

Patichoron ho'l kiyimlarini yechib, qayta kiyindi, kechki ovqatni yeb, karavotga cho'zilib yotdi-da, papiros cheka boshladi. Uning ko'zlarida tashvish bor edi.

Jogomaya kunjikovligini bir oz bosib turgach, oxiri erining oldiga kelib:

— Gapira qolsangiz-chi, nimalarni bilib keldingiz? — deb so'radi.

— Sen yanglishibsan, — dedi Patichoron.

Bu gapni eridan eshitar-eshitmas Jogomyaning jig'ibiyroni chiqdi. Xotinlar sira yanglishmaydi, bordiyu shunday hol ro'y berguday bo'lsa ham aqlli erkak o'zini bilmaslikka solishi, yoxud shu aybni o'z bo'yniga olishi kerak.

— Xo'sh, nimani bilib keldingiz? — jahl bilan yana so'radi xotini.

— Sen uyimizdan boshpana bergan juvon Kadomini emas!

O'z eridan bunday behuda gapni eshitgan xotinning jinni bo'lishi ham hech gap emas.

— Nima, men o'z dugonamni tanimaymanmi? — deb baqirdi Jogomaya, — buni ham sizdan so'rashim kerak-midi? Sizning es-hushingiz joyidami o'zi?

Patichoron bu haqda munozara qilishning befoyda ekanini payqadi. U o'zi haq ekanini isbot etadi. Jogomayaning dugonasi Kadomini o'lgan, bunda hech qanday shubha yo'q.

— Siz hamma narsani chatoq qilib kelgan ko'rinasiz, — dedi Jogomaya. — Yo boradigan joyga bormagan-siz, yoxud aytgan gaplarini tushunmagansiz. U yerda sizga kimning ko'zi uchib turuvdi. Bundan ko'ra xat yuborgan yaxshi emasmidi?

Xotining gapga ishonmaganidan Patichoronning ko'ngli ozor topib, o'z fikrini isbotlash uchun dalillar keltira boshladi, lekin xotinini ishontira olmadi. Ammo shu bahs paytida eru xotin bir fikrga keldilar: nima bo'lsa ham Kadomini uydan ketkazish kerak. Bu borada har ikkovining ham asoslari bor edi. Patichoron: bu juvon, dugonangman deb xotinini aldagani uchun, Jogomaya esa: bu juvonnini yengiltak ayol deb o'ylagani uchun. Qattiq munozarada har ikki tomon ham bo'sh kelmadi. Eru xotin qo'shni xonada Kadomini uxlayotganini unutilib, borgan sari jazavalari tutib, baqirib tortishar edilar.

— Oldimizda xavf-xatar bor! Men bu so'zlarning bari-ni o'z qulog'im bilan eshitib keldim, — dedi er.

— Bu gapning tagida nima borligini o'zim ko'rib turib, nega endi sizning gaplaringizga quloq solar ekan-man, — deb javob berdi xotini.

Nihoyat, Jogomaya:

— Yaxshi, ayting-chi Kadomini qachon o'libdi? — deb so'radi. Bu so'roqdan murod Kadominining o'limi bilan so'nggi maktubi orasida qancha vaqt o'tganini aniqlab, erining xatosini isbotlash edi. Eri Kadominining o'limi tarixini so'zlab berdi. Hisoblab qarashsa, Kadominining o'limi uning bu dargohda paydo bo'lishidan sal ilgari.

ekan. Shunda Jogomayaning sodda ko'ngli dahshatdan qaltirab ketdi. Patichoron ham vahimaga tushganday bo'ldi. Shu asnoda eshik ochilib sovuq shabada chiroqni o'chirdi. Xona zulmatga chulg'anib, Kadomini kirib keldi. Kechasi soat birlar chamasi edi. Tashqarida yomg'ir shib-balab quyardi.

— Jogomaya, men dugonang Kadominiman, ammo men tirik emasman. Men o'lganman, — dedi ayol.

Jogomaya dahshatdan qichqirib yubordi. Erining esa vahimadan tili kalimaga kelmasdi.

— Men o'lganman, xolos. Axir bundan bo'lak sizlarga biror zarar-zahmat yetkazmadim-ku! — davom etdi ayol. — Menga na tiriklar, na o'liklar orasida o'rin bor. Sho'rim qursin, men qayoqqa bosh uray endi? — iztirobdan go'yo uxlagan tangrini uyg'otmoqchi bo'lganday, u yana takrorladi. — Qayoqqa bosh uray? — shu ahvolda xushsiz yotgan dugonasini qoldirib, Kadomini yugurgancha uydan chiqib ketdi.

## V

Kadominining qanday qilib Ranixatga yetib kelgani ni aytish qiyin. Dastlab u hech kimga ko'rinmadi. Boyoqish ayol tuz totmay, butun kunini xaroba bir ibodatxonada o'tkazdi.

Yomg'ir kuchayib, qosh qorayib, momaqaldiroqdan qo'rqqan odamlar oshg'ich uyga jo'naganda, Kadomini yo'lga chiqdi. U o'z qaynag'asining eshigiga yaqinlashgach, yuragi zo'r berib tepa boshladi. Ayol boshiga ro'molini tashlab hovliga kirdi. Eshikdagi posbon uni oqsochlardandir deb o'ylab, yo'lini to'smadi.

Yomg'ir quyay, bo'ron shiddat bilan hayqirardi. Uy bekasi, Sharodashonkorning xotini, o'zining tul singlisi bilan karta o'ynab o'tirardi. Xizmatchi ayol oshxonada. Yotoqdagi karavotda bezgakdan azob chekkan kasal bola yotibdi. Kadominining yotoqqa kirganini hech kim payqamay qoldi. Bu ayolni qaynag'asining uyiga kelishga nima majbur etganini men bilmayman, buning sababini u

sho'rlikning o'zi ham bilmasdi, uning birgina orzusi shu go'dakka yana bir nazar solish edi. Kadomini qayoqqa borishini, so'ng nima qilishini o'ylamagandi. U chiroq yorug'ida jajji qo'llarini musht qilib, isitmada yonib turgan bolaning yuzlarini ko'rdi. Alamdan yuragi ezilib ketdi. Qani endi bu go'dakkinani olib bag'riga bosa olsa... «Mensiz buning holidan kim xabar oladi? — deb o'yladi Kadomini. — Uning onasi o'yin-kulgini, laqillashni, kartabozlikni yaxshi ko'radi. Go'dak mening qo'linda chog'ida, u bola tarbiyasi haqida o'ylab ham ko'rmas, tamom ozod edi, endi bu go'dakka kim g'amxo'rlik qiladi?»

Shu payt bola ikkinchi yonboshiga ag'darilib, uyqusirab qichqirdi:

— Xolajon, suv bering!

Bola hanuz g'amxo'r xolasini unutmagandi. Kadomini darhol ko'zadan ozgina suv quyib, bolani qo'lga olib ichirdi. Bola uyqu orasida ham o'ziga tanish qo'ldan suv ichganiga taajjublanmasa bo'ladi. Kadomini o'zini tutolmay, bolani o'pib, uni qo'lida tebrata boshlagach, bola ham uyg'onib xolasini quchoqlab so'radi:

— Xolajon, siz o'lganmisiz?

— Shundoq, qo'zim.

— Endi yana qaytib keldingizmi? Boshqa o'lmang!

Ayol javob berishga ulgurmay, ovoz eshitildi: xizmatchi xotinlardan biri likobchada sago olib kirdi, Kadominini ko'rishi bilan qo'lidan likobcha tushib ketdida, qichqirgancha polga yiqildi. Bu ovozni eshitib, uy bekasi ham kartani tashlab, chopib xonaga kirdi; kirdi-yu, dong qotib qoldi, na so'zlashga, na yurishga majoli bor edi. Bola bu ahvolni ko'rib vahimadan yig'lab qichqirdi:

— Xolajon, keting! Xolajon, keting!

Ana shunda, shuncha kundan keyingina, Kadomini o'zining o'lmaganligini angladi. Tanish xona, bundagi jihozlar, kichik jiyan, o'zining unga bo'lgan muhabbati — mana shularning hammasi bilan aloqasi borligini payqadi. Bu sinashta olam bilan uning orasida hech narsa

yo'q ekan. Dugonasining uyida bo'lsa, Kadomini o'zini rostdan ham o'lganday sezardi.

— Singlim, nega mendan qo'rqyapsan? — hayajon ichida so'radi boyoqish juvon. — Qaragin, men ilgari qanday bo'lsam, hozir ham shundayman-ku!

Uning ovozi eshitib, beka behush bo'lib yiqildi.

Bu hodisani singlisidan eshitib Sharodashonkor kirib keldi. U qo'llarini qovushtirib, yolvorgan holda Kadominiga qarab so'zladi:

— Kichkina kelin, shu ish sizga munosibmi? Shotish — mening bittayu bitta o'g'lim, nega unga azob berasiz? Begona emasmiz-ku! Siz ketgandan buyon bola faqir ichikib, ozib-to'zimoqda. Kasaldan chiqmaydi. Kechayu kunduz: «Xolajon! Xolajon!» deb chaqirgani chaqirgan. Siz bu dunyo bilan vidolashgansiz. Keling bu munosabatlarni ham uzing. Biz sizning arvohingizni noumid qilmaymiz.

Kadominining toqati toq bo'lib, qichqirib yubordi:

— Axir men tirikman, o'lgan emasman! O'lik emasligimni ne yo'sinda sizga isbot qilsam ekan!

Shundan so'ng ayol polda turgan xurmachani ko'tarib o'z peshonasiga urdi. Bir zumda peshonasidan qon tirqirab chiqdi.

— Qaranglar, men tirikman! — deb takrorladi ayol.

Sharodashonkor qimir etmay turar, bola qo'rqib qichqirar, uy bekasi bilan xizmatchi ayol polda hushsiz yotardi.

«Men tirikman! Men tirikman!» deb faryod qilganча ayol xonadan qochib chiqdi va zinapoyalardan chopib, to'g'ri hovlidagi ko'l bo'yiga borib o'zini suvga tashladi. Sharodashonkor suvning chayqalganini eshitdi, xolos.

Kechasi va ertasiga kunbo'yi yomg'ir yog'di. Kadomini o'zining tirik ekanini o'limi bilan isbot qildi.

1892-yil.

Urushda qattiq mag'lubiyatga uchragan shoh Shuja, Avrangzeb<sup>1</sup> ta'qibidan qo'rqib, boshpana izlab Arakan rojasi huzuriga qochib kelishga majbur bo'ldi. Uning uch sohibjamol qizi ham o'zi bilan birga edi. Arakan rojasi ularni o'z o'g'illariga olib bermoqchi bo'ldi. Buni eshitib shoh Shuja juda g'azablandi.

Shundan so'ng, bir kuni Arakan rojasining farmoni bilan Shuja va uning qizlarini aldab qayiqqa o'tqizdilar, daryoning o'rtasiga olib kelib, g'arq qilmoqchi bo'ldilar.

O'lim havfidan dahshatga tushgan ota kichik qizi Aminani o'z qo'li bilan daryoga otib yubordi. Katta qizi o'z-o'zini halok qildi. O'rtancha qizi Julikxani Shujaning sodiq mulozimlaridan Rahmat Ali degan yigit qutqazib qoldi. Shoh o'zi shu kurashda halok bo'ldi.

Daryoning asov to'lqinlarida oqib borayotgan Amina taqdirning marhamati bilan bir baliqchining to'riga tushib, xalos etildi. Baliqchi uni o'z kulbasiga olib borib, tarbiyalab o'stirdi.

Bu orada Arakaning keksa rojasi o'lib, uning o'rniga taxtga yosh hokim o'tirdi.

## I

Bir kun ertalab keksa baliqchi Aminaning oldiga kelib po'ng'illadi:

— Tinni (u o'zining arakan tilida Aminani shunday atar edi)! Bukun senga nima bo'ldi? Sen hozirgacha biror ish qilmabsan-ku! To'r yog'lanmagan, qayiq...

— Bobo, — muloyimlik bilan javob berdi qiz, — bukun mening opam kelganlar; gap bilan ovora bo'lib, ish qilolmadim.

— U qanaqa opa bo'ldi tag'in?

— Mana men, — dedi Julikxa, go'yo yer ostidan paydo bo'lganday.

<sup>1</sup> Avrangzyeb — (1658—1707) Hindiston podshosi. Buyuk Mo'g'ul sulolasidan.

Chol hayron qoldi. So'ngra qizga yaqinlashib, uning yuzlariga tikilganча:

— Sening qo'lingdan biror ish keladimi? — deb ohista so'radi.

— Bobo, opam uchun men ishlayman, — dedi Amina, — u ishlab o'rganmagan.

Chol andak jimlikdan so'ng Julikxaga qarab:

— Sen qaerda yashaysan? — deb so'radi.

— Amina bilan.

Chol «bu yana qanday baxtsizlik» deb o'yladi-da, baland ovoz bilan:

— Nima bilan tirikchilik qilasan? — dedi.

— Bunga mablag' topilib qolar, — dedi Julikxa va bir oltin tangani jahl bilan baliqchining yuziga qarab otib yubordi.

Amina yerdan oltinni olib cholga berarkan:

— Bobo, bu haqda ortiq gapirmang, ishingizga boring, vaqt bo'ldi, — dedi muloyimlik bilan.

Julikxaning Aminani baliqchi kulbasidan topguncha, erkak kiyimida butun olamni kezib chiqqanini kitobxonga tushuntirish uchun alohida hikoya yozish kerak. Bu orada uning xaloskori Rahmat Ali ham Arakan rojasiga xizmatga kirib olgan edi.

## II

Daryo bir maromda to'lqinlanib, sekin oqib borar, yozning salqin shabadasi ohista esib kayla daraxtining qizg'ich yaproqlarini to'kardi.

Daraxt tagida Julikxa bilan Amina o'tirardi.

— Xudo biz opa-singillarni otamizning halokati uchun qasos olsin, deb xalos etdi. Bunga bundan boshqa sabab yo'q, nazarimda — dedi Julikxa.

Amina bo'lsa qorayib ko'ringan o'rmon tarafiga nazar solib, sekin gapirardi:

— Opa, bu gaplarning nima hojati bor? Men, olam qanday bo'lsa, uni shu turishicha sevaman. Agar odamlar o'lishni istasa, qo'ying, bir-birlarini o'ldirisha bersin. Menga shu yerning o'zi ham juda yaxshi.

— Oh, Amina! Axir sen shoh qizisan! Dehli taxti o'rniga qandaydir arakan baliqchisining kulbasida o'tiribsan!

— Agar qizga baliqchi kulbasi bilan kayla daraxtining soyasi Dehli taxtidan ko'ra ma'qul bo'lsa, bundan toji taxtga hech qanday ziyon yetmaydi, — kulimsirab javob berdi Amina.

Bir oz o'ylagach, Julikxa singlisiga qarab yana gapirdi:

— Seni buning uchun ayblab bo'lmaydi, chunki sen u vaqtda juda yosh eding. Ammo shuni bilib qo'yki, otam seni juda sevardi, shuning uchun ham u seni o'zi suvga tashladi. Bunday yashashdan ko'ra otaning qo'lida o'lish ming marta afzal. Sening hayotingdan murod — otamizning halokati uchun o'ch olish.

Amina hayolga botib uzoqlarga tikildi. Suhbat jiddiy bo'lishiga qaramay, uni hozir ko'proq hayajonlantirgan narsa salqin shabada, daraxtlarning ko'lankasi, o'z yoshligi va yana allaqanday shirin xotiralar ekanligi ochiq sezilib turardi. Bir oz vaqt o'tgach, Amina chuqur nafas oldi-da, opasiga dedi:

— Opa! Siz bir oz kutib turing. Men uyning ba'zi yumushlarini qilib qo'yay. Agar men ovqat pishirmasam, bobom och qoladi.

### III

Julikxa tashvishga tushib, singlisining fe'l-atvori haqida o'ylab o'tirardi. Birdan yoniga birov sakrab tushganday tuyuldi va shu ondayoq kimdir qo'li bilan uning ko'zlarini berkitdi. Qo'rqib ketgan Julikxa qichqirib yubordi:

— Kim bu!

Yigit bu ovozni eshitib, qo'lini tortib oldi-da, qizning ro'parasiga o'tib turdi. Go'yo Julikxa o'zini Tinni qilib ko'rsatishga uringan-u, yigit bu hiylani payqab qolgandek:

— Sen Tinni emassan! — deb qichqirdi qizning yuziga qarab.

Qiz ko'ylagini tuzatib, g'urur bilan qomatini rostlab, yigitga nafrat to'la nazar solarkan:

— Sen kimsan? — deb so'radi.



— Sen meni bilmaysan. Tinni biladi. Qani u?

Mojaroni eshitib Amina chopib chiqdi. U opasining darg'azab bo'lib turganini, yigitning sarosimada va hayratda qolganini ko'rib, qah-qah urib kulib yubordi.

— Opa, uning so'zlarini ko'nglingizga olmang. Shu ham odammi? Axir u yovvoyi kiyikning o'zginasi-ku. Agar u sizga nojo'ya muomala qilgan bo'lsa, men adabini berib qo'yaman. Daliya, nima qilding? — Amina yigitga o'girildi.

— Men qo'lim bilan uning ko'zlarini berkitdim. Tinni deb o'ylagan edim, yanglishibman, — deb javob berdi yigit.

— Ana xolos! Unaqa haddingdan oshma? — zarda qildi Amina. — Qachon sen mening ko'zlarimni berkitib yuruvding? Juda dovyurak bo'lib ketibsanmi?

— Ilgari qilib yurgan bir ishni takrorlash uchun judayam katta jasorat talab qilinmaydi. Rostini aytsam, Tinni, men bukun bir oz qo'rqdim, — dedi yigit kulimsirab Julixxaga qiya boqarkan.

— Sen rostdan ham yovvoyisan! Podshoh qizi ro'parasida turishga ham loyiq emassan! Senga odobni o'rgatib qo'yish kerak ekan. Menga qara, mana munday qilib, salom ber...

Amina sarvqomatini ajib bir nazokat bilan egib Julixxaga ta'zim qildi. Yigit juda qiynalib, no'noqlik bilan unga taqlid etdi.

— Uch odim orqaga qayt, — deb buyurdi Amina.

Yigit bo'ysundi.

— Takrorla.

U yana ta'zim qildi.

Shu tariqa Amina yigitni uch qadamdan orqaga yurgizib, ta'zim qildira-qildira kulbaning eshigi oldiga olib bordi va:

— Endi uyga kir — dedi.

Yigit uyga kirdi.

— Bir oz ishla, o'choqqa o't yoq! — dedi qiz va eshikni berkitib opasining oldiga chiqdi.

— Opa, undan xafa bo‘lib yurmang. Bu yerning odamlari hammasi shunaqa, o‘lgudek beor.

Ammo Aminaning chehrasi uning gaplariga sira mos kelmasdi, aslida u mahalliy xalqqa haddan ziyoda xayrixoh edi.

— Amina, rostini aytsam, sening qilg‘ing meni taajjubda qoldirdi,— dedi jahli chiqqan Julikxa.— Allaqanday yosh bola senga qo‘l tegizishga jur‘at qilsa, axir!

— Opajon, bordi-yu biror shahzoda shunday qilganida, shubhasiz men uni jerkib tashlardim, — dedi Amina opasini quchoqlab.

Julikxa o‘zini kulgidan tutib turolmadi.

— Rostini ayt, Amina, o‘zing aytganday, bu dunyoni bor bo‘yicha sevishing shu yovvoyi yigitcha tufayli emasmi? — deb so‘radi opasi kulib.

— Yashirib o‘tirmayman, opa, uning menga ko‘p yordami tegadi. Gul terib yurganida ham, meva terganida ham, ov qilayotgan chog‘ida ham, men bir og‘iz chaqirdimmi — darrov yetib keladi. Ba‘zan uning ta‘ziri-ni berib qo‘yay deyman, lekin qilolmayman. Agar juda jahlim chiqib: «Daliya, men sendan juda xafaman», — desam, u menga qarab sekin kulib qo‘yadi, xolos. Nazarimda, bu o‘lkada shunday hazillashadilar, chog‘i. Agar uni turtib qo‘ysang, quvonib ketadi. Men buni sinab ko‘rdim. Hozir ham uni uyga qamab qo‘yganimdan xursand. Agar shu tobda eshikni ochsak, ko‘zlari qizarib, xushnudlik bilan o‘t yoqib turganini ko‘rasiz. Opajon, uni nima qilishimni o‘zim ham bilmayman.

— Men biror narsa o‘ylab ko‘raman, — dedi Julikxa.

— Iltimos, opajon, menga ko‘maklashing. Ammo unga hech narsa demang, — dedi Amina uyalib jilmayarkan.

Amina Daliya to‘g‘risida, hali yaxshi o‘rgatilmagan, begona odamdan hurkadigan sevimli kiik haqida gapirganday so‘zlardi.

Shu palla opa-singillar oldiga baliqchi chol keldi.

— Tinni, bukun Daliya kelmadimi? — deb so‘radi u Aminadan.

— Keldi.

— Qani?

— Beboshlik qilgani uchun qamab qo'ydim, — dedi qiz.

— Agar u sho'xlik qilsa, sen sabr qil. Uning yoshida biz hammamiz ham tentak edik. Qattiq jazolama, — dedi chol va bir oz o'ylab: — Kecha Daliya uchta balig'imga bir tilla berdi, — deb qo'ydi.

— Bobo, xafa bo'lmang, bukun men undan ikki tilla olib, bitta ham baliq bermayman, — dedi Amina.

Keksa baliqchi asrandi qizining ziyraklik va puxtaligiga qoyil qolib, erkalab boshini silab ketdi.

#### IV

Qizig'i shuki, Julikxa bora-bora Daliyaning kelib turishiga e'tiroz qilmay qo'ydi. Agar yaxshigina o'ylab qaralganda, buning taajjublanadigan yeri ham yo'q. Daryoning shiddatli oqimini qirg'oqlar tutib turganday, ma'rifatli kishilar orasida go'zallarning yurak urishini ham andisha tutib turadi. Ammo madaniyatli kishilardan yiroqda, Arakan o'rmonida andisha nima qiladi! Bu yerda mavsumning o'zgarishi bilan daraxtlar kurtak chiqaradi. Ko'k daryo yomg'ir suvidan to'lib-toshadi, u qishda tinch, yozda esa quriydi. Bu yerda qushlarning yoqimli ovozida ta'na sezilmaydi. Janub shamoli esa narigi qirg'oqdagi qishloqdan aravalarning taraqlagan ovozinigina olib keldi.

Tashlandiq va xaroba saroy o'rnida tezdin daraxtlar o'sib chiqqanidek, tabiat ham yashirin hujumida davom etib, odamlar vujudga keltirgan qattiq shartlilik asoslarini tadrijiy ravishda va sezilmas bir yo'sinda vayron etadi. Xotinlarga hech narsa bir-biriga munosib yigit bilan qizning totuvligiday halovat bag'ishlamaydi. Hech bir narsa ular uchun shu totuvlik kabi sirli va quvonchli bo'lmaydi. Bu yovvoyi kulbada Julikxaning nopisandligi, sipoligi yo'qolgach, gullab turgan kayla daraxti soyasida Daliya bilan Aminaning uchrashuvlari uni ham boshladi.

Julikxaning yosh qalbida allaqanday orzu uygʻonib, u xushnudlik va alamdand beqaror boʻlib qoldi. Bora-bora shu darajaga yetdiki, agar yigit hayallab qolgudek boʻlsa, opa-singil bir xilda sabrsizlik va hayajon bilan kutar edilar. Rassom endigina tamomlagan suratiga mahliyo boʻlib qaragandek, ular ham yigitga mehr-muhabbat bilan jilmayib nazar solardilar. Baʼzan ular janjallashib qolishar, shunda Julikxa Aminani, Daliya bilan koʻrisholmay qolsin deb, uyu qamab qoʻyardi.

Podshoh bilan oʻrmon orasida bir oʻxshashlik bor: har ikkisi ozod, har ikkisi oʻz saltanatining yagona hukmdori, na unisi, na bunisi hech kimning qonuniga boʻysunmaydi. Har ikkisida allaqanday oʻziga xos tabiiy ulugʻvorlik va poklik bor. Oddiy odamlar boʻlsa jamiyat qonunlariga butunlay boʻysunib yashaydilar, ular mustaqil emaslar: kattalarga — qul, kichiklarga — xoʻjayindirlar. Ular shu oʻrgangan oʻrinlarini yoʻqotib qoʻygan taqdirda oʻzlarini uddalay olmay qoladilar.

Tabiat qoʻynida betashvish oʻsgan yovvoyi Daliyada esa, malikalarga nisbatan zarracha ishonchsizlik yoʻq edi, ular ham buni oʻz oʻrtoqlari deb hisoblardilar. Uning quvnoq, pok, hamisha dadil va ikkilanishni bilmaydigan tabiatiga kambagʻalilik va qashshoqlik oʻz muhrini bosmagan edi.

Ammo bu uchrashuvlar vaqtida Julikxaning yuragi tez-tez siqilib: «Nahotki malikaning qismati shu boʻlsa?» deb oʻylardi.

Bir kuni ertalab Daliya kelganda, Julikxa uning qoʻlidan ushlab:

— Daliya, menga shu yerning rojasini koʻrsata olasanmi? — deb soʻradi.

— Koʻrsata olaman, nega siz uni soʻrab qoldingiz?

— Men bir xanjar saqlab yuribman, uni rojaning yuragiga sanchishim kerak, — dedi qiz.

Daliya dastlab bir oz taajjublandi. Keyin Julikxaning nafrat toʻla yuziga boqib, umrida bunday oʻtkir hazilni eshitmagandek jilmaydi. Faqat podshoh qizigina bunday

hazil qilishi mumkin. Daliya Julikxaning bir og'iz gap-so'zsiz, sababini ham aytmay, yurakka xanjar urishidan rojaning naqadar hayron qolishini ko'z oldiga keltirib, qattiq qah-qah kulib yubordi:

V

Ertasiga Rahmat Alidan Julikxaga yashirin maktub keldi. Bunda yosh roja qaysi bir yo'l bilan opa-singil malikalarni topgani, bir ilojini qilib Aminani ko'rgani va sevib qolgani, hozir saroyda roja bilan Aminaning to'yiga tayyorgarlik bo'layotgani xabar qilingan edi... «O'ch olish uchun bundan qulayroq tasodif bo'lmasa kerak,» — deb yozgan edi Rahmat Ali.

Shunda Julikxa singlisining qo'lini mahkam qisib:

— Xudoning xohishi aniq. Amina, sen o'z burchingni bajarishing kerak, endi ermak vaqti emas.

Daliya kelganda, Amina razm solib, uning g'alati tabassum qilayotganini ko'rdi.

— Bilasanmi, — dedi qiz uning kulgisidan ozor topib, — men rojaning xotini bo'lyapman.

— Bu uzoqqa bormaydi, — dedi yigit jilmayib. «Bu chindan ham o'rmon kiyigi, — deb o'yladi o'ksingan va hayratda qolgan Amina, — men jinni bo'lmasam unga odamchasiga gapiramanmi».

Daliyaga masalaning mohiyatini anglatmoq uchun qiz sekin gap boshladi:

— Agar men rojani o'ldirsam, qaytib kelolmayman.

— Albatta, qaytish qiyin, — xayrixohlik bilan javob berdi yigit.

Aminaning yuragi pora-pora bo'lib ketganday tuyuldi.

Qiz chuqur nafas olib, Julikxaga qaradi:

— Opa, men tayyorman, — dedi va so'ngra, o'zini quvnoq ko'rsatishga urinib, Daliyaga murojaat qildi: — Rojaga xotin bo'lganimdan so'ng, birinchi ishim unga suiqasd hozirlashda sherik bo'lganing uchun senga jazo berish bo'ladi, undan keyin o'z burchimni bajaraman.

Daliya Aminaning so'zini eshitib, bu bilan qiz unga qandaydir juda qimmat bir narsani va'da qilganday sevinib ketdi.

## VI

Mana, baliqchi kulbasining eshiklari tantanali ravishda ochiladigan payt ham keldi. Kichik uy muzika sadolari, bayroqlarning shitirlashi, otlar, fillar va piyodalarning qadam tashlashidan larzaga keldi. Shoh saroyidan oltin bilan ziynatlangan ikki taxtiravon olib keldilar.

Amina Julikxaning qo'lidan xanjarni olib, uning fil suyagidan yasalgan nafis dastasiga uzoq qarab qoldi. So'ngra xanjarni qo'yniga yashirdi. Xanjar xuddi o'z qiniga solinganday uning ko'ylak burmalari orasiga bekindiyu, sovuq po'lat tig'i qizning badanini kuydirganday tuyuldi.

Qizning birdan-bir xohishi bu tahlikali safar oldida Daliyani yana bir ko'rish edi. Ammo u kechadan berig'oyib bo'lib ketdi. Kecha istehzo qilib kulgan Daliyaning g'ururi tug'yon urmadimikan qizdan?

Taxtiravonga o'tirishdan oldin Amina, ko'zlari, jiqqa yoshga to'lgan holda, yoshligida boshpana bo'lgan uyga, daraxtga va uy yonidagi daryoga nazar soldi. U baliqchi cholning qo'lidan ushlab, yig'idan qaltirab, ko'ksidan uzilib chiqqan ovoz bilan dedi:

— Bobo, mana endi men ketaman, Tinni ketadi, sizga kim ovqat, pishirarkan?

Chol yosh boladay yig'lab yubordi.

— Bobo, agar Daliya kelsa, mana bu uzukni, Tinni ketayotganda senga qoldirib ketgan edi, deb berib qo'ying.— So'ngra Amina darhol taxtiravonga kirdi.

Dabdabali yurish boshlanadi. Daryo qirg'og'i bo'shab, Aminaning uyi bilan kayla daraxtini zulmat qoplab oldi.

Nihoyat, ulug'vor yurish katta davozga orqali saroyning ichkari hovlisiga kirdi. Opa-singillar taxtiravondan tushdilar.

Aminaning chehrasi jiddiy, ko'zlari quruq edi. Julikxa esa, oppoq oqarib ketgan. Qasos soati uzoq ekan choqda burchini ado etish istagi zo'r edi. Hozir esa, uning yuragi qalitrab, sevikli singlisini mahkam quchoqladi.

«Men ilk muhabbatning birinchi novdasidan yulib olingan gulni qonga botirish uchun boryapman»,— deb o'ylardi Julikxa.

Biroq o'ylab o'tirishning vaqti emasdi. Yangalarning yo'l boshchiligida opa-singil, go'yo tushdagidak, yuz minglab porlab turgan chiroqlar yorug'ida yurib borardi.

Nihoyat, nikoh xonasi oldida bir onga to'xtab, Amina: — Opa!— dedi.

Julikxa uni mahkam qucholab o'pdi. So'ngra ikkala qiz ohista xonaga kirdilar. Nikoh xonasining o'rtasida, jasmin gulning xush hidlari anqib turgan karavotda, shoxona libos kiyib roja o'tirardi. Amina qat'iyatsizlik bilan esbik oldida taysallab qoldi.

Julikxa yaqinroqqa borib, rojaning sekin va ma'noli kulimsirab turganini ko'rdi.

— Daliya!— deb qichqirdi birdan Julikxa. Amina xushdan ketib yiqildi.

Daliya sakrab o'rnidan turdi-da, Aminaning ohista ko'tarib, xuddi o'q tekkan qushday eltib karavotga yotqizdi. Qiz o'ziga keldi-da, xanjarni chiqarib opasiga qaradi. Julikxa Daliyaga qaradi, yigit esa jilmayib, so'zsiz ularga boqardi. Qindan chiqqan xanjarning po'lat tig'i yaltirab, kulganday tuyulardi.

1891-yil

## I

Romanatx Shilga qarashli uch qavatli uyning eng yuqorisida Gopinatx Shilning xotini Giribala turar edi. Uning yotoqxona eshigi oldida guldonlarda jasmin va atirgullar o'sardi. Tomdagi maydonchanning atrofi baland qilib o'rab olingan, ko'chaga qarab turish uchun har yer-har yeridan darchalar ochilgan edi.

Yotoqxona devorida yevropalik xotinlarning kiyimda va yalang'och bo'lib tushgan suratlari osilib turardi. Uy to'ridagi katta oynada o'n olti yashar uy bekasining aksi ko'ringanda, u husnda suratlardagi go'zallardan sirayam qolishmas edi.

Giribalaning husni-jamoli to'satdan olamga ko'z ochish, qo'qqisdan yalt etgan shu'la yoki mo'jizaga o'xshab ketar, bir zumda kishini maftun etardi. Men Giribalani ko'rganda payqadimki, bunday uchrashuvga tayyorlanmagan ekanman. U, men o'z atrofimda uzoq vaqt ko'rib yurgan odamlarning hech biriga o'xshamasdi.

Giribala o'z go'zalligidan o'zi ham hayajonda edi. Yoshlik va go'zallik uning butun vujudini xuddi qadahdagi may singari limmo-lim go'ldirib turardi. Uning butun barmog'idan: liboslari, zeb-ziynati, yurishlari, qo'l harakatlari, sal egik bo'yni, shahdam qadamlari, oyoqlaridagi qo'ng'iroqchalari, bilaguzuklari, xandon urib kulishlari to'liqib so'zlashlari, otashin nigohi — hammasidan yoshlik va go'zallik barq urar edi.

Giribala yoshlik tuyg'ulari bilan mast edi. U go'zal qomatini chiroyli soriyga o'rab, hayajonda tez-tez tom bo'ylab yurar; a'zoyi badani qandaydir sokin va so'zsiz qo'shiq ohangida raqsga tushganday tuyular, turli vaziyatda o'ziga bino qo'yib turishlari esa, unga huzur baxsh etganday bo'lardi. Bu juvon o'z husnidan go'yo tevarakka to'lqinlar taratib, qizg'in qonida bebosh bir g'alayon his etar edi. U kutilmaganda daraxtdan bir yaproqni uzib, qo'llarini yuqoriga ko'tardi-da, uni shamolda uchirib yuborardi. Shunda bilaguzuklari jaranglab, soriysining



etagi hilpirar, qafasdan qutulgan qush poyonsiz osmonning bulutlar saltanati tomon parvoz etganday, chiroyli qo'llari havoga talpinardi. Ba'zan Giribala guldondan bir siqim tuproq olib, sochib yuborar edi. Oyoq uchida turib darchalardan keng olamga yalt etib bir nazar solardi, so'ng o'girilib, soriysi bilan yuzini yashirarkan, etagiga bog'langan kalitlar jiringlab ketardi. U tez-tez katta toshoyna oldiga kelib, hech nimadan hech nima yo'q, sochlarini yoyib tarardi. Sadafday oppoq tishlari bilan tasmani tishlab turib, qo'llarini baland ko'tarib, sochlarini orqasiga turmaklab qo'yardi. Sochlarini tarab, o'rab bo'lgach, qiladigan ishi qolmasdi. Shundan so'ng yosh juvon oy nuri bilan chizilgan suratday bo'lib yumshoq karavotda yastanib yotardi. Giribalaning bolalari bo'lmagani uchun, bu badavlat xonadonda hech qanday g'am-tashvishi yo'q edi. U har kun yolg'iz, o'zi bilan o'zi qolib, axiyri bu tanholik joniga tekkan edi.

Giribalaning eri bor. Lekin u xotinini sira o'ylamas, hatto uning balog'atga yetganini ham payqamas edi.<sup>1</sup>

Bolalik chog'laridayoq eri murabbiylarning ko'zlarini shang'alat qilib, kichkina xotiniga muhabbat izhor qilish uchun kimsasiz choshtgoh vaqtlarida maktabdan uyga qochib kelardi. Garchi ular bir uyda yashasalar ham, chiroyli pochta qog'ozida bir-birlariga muhabbat maktublari yozishardi. Yigitcha bu maktublarni o'ziga yaqin maktabdoshlariga ko'rsatib faxrlanardi. Ular orasida hech qachon urish janjal bo'lgan emas.

Biroq tez orada Gopinatxning otasi o'lib, uning o'zi uy xo'jasi bo'lib qoldi. Yosh daraxtni darrov qurt yeydi. Gopinatx yoshligidan mustaqil hayotga qadam qo'ygach, atrofida juda ko'p turli-tuman odamlar paydo bo'la boshladi va bora-bora u ichkari hovliga kamdan-kam kiradigan bo'lib ketdi.

Odamlar boshliq bo'lishga tirishadilar, ularni o'zgalar ustidan xokimlik qilish istagi mast qilib qo'yadi.

---

<sup>1</sup> Hindistonda kuyov-kelinni 8—10 yoshdayoq nikohlab qo'yish rasmi bo'lgan.

Napoleonda behisob kishilarga va jahon tarixiga o'z ta'sirini o'tkazish ishtiyoqi juda kuchli bo'lgan ekan. Shunday ishtiyoq kichkina mehmonxonaning kichik xo'jayinida ham bor edi. Shunaqa odamlar bo'ladiki, ular qarzga botib, xonavayron bo'lib, shon-sharaflarini barbod etib bo'lsa ham, do'stlik bahonasi bilan, bir qancha pastkash odamlarni o'z atroflariga to'plab, ularni «gah» desa qo'lga qo'nadigan bir holga keltirib, so'ng shularning maqtovlarini eshitib yotishga ko'nikadilar, bu toifa odamlarning asosiy maqsadi mana shu!

Gopinatx jo'ravoshi darajasiga ko'tarilib, zavq-shavq ichra ko'klarda parvoz eta boshladi. Yoru birodarlari orasida ortib borayotgan obro'si tufayli, kun sayin o'ziga bino qo'yib gerdayaverdi. Uning tanishlari: «Gopinatxning o'z do'stlari orasida zo'r obro'si bor», deb gapirardilar. Bu baxtsiz yigit kibru havo va maqtovlarga uchib, boshqa ko'ngilli va ko'ngilsiz burchlarini ham tamomila unutdi-yu, girdobda aylanib qoldi.

Bu orada Giribala bo'shab qolgan yotoq taxtiga chiqib, uyning ichkari qismini zabt etgan bo'lsa ham, u nufuzi yo'q malika edi. Bilardiki, parvardigor saltanat hassasini uning qo'lga berib qo'ygan, u agar istasa, tomdagi to'siq darchasidan bir qiyo boqib, keng olamni zabt etadi, ammo shunga qaramay, u bu olamdan biror erkakni asir qilish imkoniyatidan mahrum edi.

Giribalaning chaqqon bir cho'risi bo'lib, uning ismi Shudxa yoki Shudxamukxi edi. U ashula aytar, o'yinga tushar, to'satdan she'r o'qir, bekasini ta'rif tavsif qilar, uning husni-jamolini madh etar, shuncha go'zallikning qadriga yetadigan kishi bo'lmagani uchun, bu nozanin juvonning umri zoe ketmoqda, deb zorlanar edi. Giribala Shudxasiz biror minut turolmasdi. U o'zining husni-jamoli va qaddi-qomati xususidagi ta'rif-tavsiflarni xijolatda qolib tinglardi. Ba'zan Shudxaning gapini bo'lib, hayajon ichida uni, tilyog'lama, aldamchi, deb urishib berardi. Shunda cho'ri xotin yuz xil qasam ichib, so'zlarining samimiyligiga dalillar keltirar, buni ko'rib Giribala ham unga ishona qolardi.

Shudxa bekasiga ko'pincha «Nilufarning gul bargiday izlaringga sodiqman» degan ashulasini<sup>1</sup> aytardi. Giribala bu ashulada o'zining xina qo'yilgan nafis oyoqlari ta'rifini eshitar, uning ko'z o'ngida hamma narsadan mahrum etilgan qul siymosi namoyon bo'lardi. U tomida aylanib yurarkan, oyoqlaridagi qo'ng'iroqchalar ham jiringlab uni madh etar, ammo birorta irodasi bo'sh odam kelib uning oldida muhabbat izhor etmas, oyoqlariga yiqilmas edi.

Gopinaxning aqlu hushini band etgan ayolning nomi Lobongo edi. U aktrisa. Bu ayol sahnada behush bo'lib yiqilish holatini zo'r mahorat bilan bajarardi. U qaltiroq ovoz, soxta ko'zyoshlari bilan arang tilga kelib, dimog'i bilan: «Ey yuragimning sultoni!» deganida, zaldagi tomoshabinlar: «Qoyil. Rahmat!» deb qichqirardilar.

Giribala bu aktrisaning favqulodda qobiliyati haqida ilgari eridan ko'p ta'rif-tavsiflar eshitgan. U chog'larda eri Giribaladan hali unchalik sovimagan edi, u ham eriga yoqmay qolganini payqaganicha yo'q edi. Ammo yuragida rashk paydo bo'ldi. U boshqa biror ayolda unda yo'q fazilatlarining bo'lishiga sira toqat qilolmasdi. Giribala bir necha bor teatrga borish niyatida ekanini aytdi-yu, biroq erkaklar qila oladigan bu ish unga man etilgan edi.

Nihoyat, u Shudxaga pul berib teatrga yubordi. Shudxa qaytib kelgach, burnini jiyirib, peshonasini tirishtirdida, eng avval aktrisalar olamiga qadam bosgani uchun gunohiga ma'firat tilab. Ramaga<sup>2</sup> tavba-tazarru qildi. So'ngra ularning beo'xshov aft basharalarini, erkaklarni ilintirish uchun qiladigan g'ayritabiiy nozu istig'nolarini gapirib berdi. Buni eshitib Giribala tamom xotirjam bo'ldi.

Biroq, eri unga butunlay qaramay qo'ygandan so'ng, unda yana shubha paydo bo'ldi. Giribala cho'risining so'zlariga ishonmaganini aytganda, u bekasining oyoqlariga yiqilib, aktrisalar chala yondirilib lattaga o'rab

<sup>1</sup> Hind mifologiyasida, aytilishicha, bu qo'shiqni tangri Krishna o'z sevgilisi — cho'pon qizi Radxaga qarata kuylagan ekan.

<sup>2</sup> Xudogo'y hindlar Ramaning nomi tilga olinsa, gunohlar yuviladi, deb ishonadilar.

qo'yilgan g'olaga o'xshaydi, yuzlari judayam beo'xshov, deb qayta-qayta takrorladi. Giri teatrning joziba kuchiga qarshi hech narsa o'ylab topolmadi, g'ururi poymol etildi.

Nihoyat, bir oqshom u Shudxa bilan teatrga bordi. Man etilgan narsaning jozibasi hamisha kuchli bo'ladi! Juvon hayratda qoldi, odamlar, muzika, bezatilgan sahna va charog'on zal unga ikki chandon fusunkor ko'rindi. O'zining kimsasiz, quvonchsiz, kar quloq devorlar bilan o'rab olingan ichkari hovlisidan bu yerga bu quvnoq go'zal olamga kelib qolgan unga xuddi tushday tuyuldi.

O'sha kuni «Taskin topgan rashk» operasi qo'yilmoqda edi. Muzika bir lahzada to'xtadi. Hayajonlangan odamlar jim bo'lishdi. Oldindagi chiroqlar ravshanroq yondi, parda ko'tarildi. Bir to'da chiroyli kiyingan ayollar qo'shiq aytib raqsga tushar, shu tariqa tangri Krishna yoshligida yashagan xayoliy Braj mamlakatini gavdalantirardilar. Teatr zalini vaqt-vaqti bilan ma'qullagan ovoz va qarsaklar qoplab turardi. Giribalaning badanida yoshlik qoni tug'yonga keldi. Muzika sadolari, chiroq nurlari, qimmatbaho, nafis buyumlar va go'zallik madhidagi xorni eshitib, u hamma narsani unutib yubordi. U go'yoki kishansiz, lekin go'zallik bilan to'la erkin bir olamga kirganday bo'ldi. Shudxa bir necha bor uning oldiga kelib, xavotirda qulog'iga shivirladi:

— Xonim, ketadigan vaqt bo'ldi, agar xo'jayin bilsa baloga qolamiz.

Giribala uning so'zlariga quloq solmadi. Hozir u hech narsadan qo'rqmasdi.

Tomosha eng qizigan payt. Radxa ranjigan, Krishna bu rashk dengizining tagiga sira yetolmasdi. Shuncha itoat-korlik iltijolar, ko'zyoshlari hech kor qilmadi! Giribalaning yuragi g'urur bilan to'lib-toshdi. U go'yo o'zi Radxaga aylanib, Krishnaning yalinib-yolvorishlariga qaramay, o'zining og'ishmas qat'iyatidan zavqlanardi. Unga hech kim hech qachon bu qadar yalinmagan. Giri tashlandiq, e'tibordan qolgan bir xotin edi, biroq u o'ziga cheksiz ishonch bilan, men ham shunday qat'iy

turib zor-zor yig'lata olaman; degan fikrga keldi. Yosh juvon go'zallikning qanday zo'r kuchi borligini ilgari ham payqardi. Bukun esa bezatilgan sahnada, chiroqlarning ravshan yorug'ida, muzika sadolari ostida Giribala buni yana ham aniq ko'rdi. Zavq-shavqdan boshi aylandi.

Mana parda tushib, gaz chiroqlar ham xiralashib qoldi. Giribala sehrlanganday joyida o'tirardi. U endi turib uyga ketish lozimligini ham unutdi. Unga tomosha hali tugamaganday, parda yana ko'tariladiganday, olamda Krishnaning Radxa oyoqlari ostida xo'rlanishidan boshqa hech narsa yo'qday edi.

Shudxaning ovozi eshitildi:

— Xonim, siz nima qilyapsiz? Turing, hozir hamma chiroqlar o'chadi.

Kecha allamahal bo'lganda Giribala o'z yotog'iga qaytib keldi. Burchakda miltillab chiroq yonardi. Xonada na bir jon, na sas-sado bor. Bo'sh karavot ustidagi eski pashshaxonani shamol sal tebratardi. Giribalaga kundalik hayoti o'ta qashshoq, qizig'i yo'q, ahamiyatsiz bo'lib ko'rindi. U nom-nishonsiz, tashlandiq va xo'rlangan xotinlar bo'lmaydigan go'zal va qunoq hayotni qaerdan topishi kerak, u qaerda shuhrat ko'klarida parvoz etib, diqqat markazida bo'la oladi? Shu kundan boshlab u haftada bir teatrga boradigan bo'lib qoldi. Asta-sekin ilk sarxushlik o'tdi. U aktyorlarning grimiga qarab, ularning chiroyli emasligini ko'rdi, sahnadagi soxtaliklarni payqadi, lekin san'atga e'tiqodi sovimadi. Parda ko'tarilganda urush ovozasini eshitgan jangchiday hayajonga kelardi. Barchani fath etuvchi go'zal malika uchun dilbar zarrin suratlar bilan bezatilgan, atrofi nurli gulchambarlar bilan o'rab olingan, she'riyat va qo'shiq sehri bilan kishini lol etadigan, son-sanoqsiz tomoshabinlar yig'ilgan, maxfiy mojarolar to'lib-toshgan bu go'zal va erkin olamdan ko'ra shaffof bir taxt yana qaerda topiladi?

Giribala birinchi marta erini teatrdan ko'rib, qandaydir bir artistkaning paydo bo'lishi bilan uning oh-voh qilishini eshitgach, yuragi nafratga to'lib-toshdi. U alam bilan,

erim qanoti kuygan parvonaday bo'lib, oyoqlarim ostiga yiqilgandagina, mening foydasiz chiroyim, keraksiz yoshligim ma'no kasb etadi, unda men nafrat nurini sochib, viqor bilan undan uzoqlashaman, deb o'yladi.

Biroq, bu porloq kun qachon keladi? Endilikda Gopinatxni ko'rish ham qiyin edi. U o'z telbaligi shamolida uchib, bir stakan suvdagi kichik shamaday gir aylanib qoldi, qandaydir bir to'garak ochish uchun qayoqqadir jo'nab ketdi, qayoqqa ekani noma'lum.

Giribala choytro oyida<sup>1</sup>, bahorning oydin oqshomida tomga chiqib o'tirgan edi. Janub shamoli uning to'q-sariq soriysini hilpillatardi. Garchi eri uyga kelmasa ham, Giri har kun yashirin bir umid bilan taqinchoqlarini taqib, o'ziga oro berardi.

Sadaf va olmosdan yasalgan taqinchoqlari jimirlab tovlanar, atrofga nur sochib jaranglar edi. U qo'llariga bilaguzuk, bo'yniga olmos va yoqut marjon taqdi. Sinchalog'ida zumrad uzuk porlardi. Shudxa uning oldida o'tirib, vaqti-vaqti bilan uning xina qo'yilgan chiroyli oyoqlarini silab, samimiy xo'rsinib gapirardi:

— Eh, xonim agar men erkak bo'lganimda bu oyoqlarni ko'kragimga bosib jon berardim.

— O'ylaymanki, erkak bo'lsang mening oyoqlarimni ko'kragingga bosmayoq o'lishga to'g'ri kelardi, — mag'rur kulgi bilan javob berdi Giribala. — Nahotki men bunga yo'l qo'ysam? Bas endi! Yaxshisi, bir ashula ayt.

Bo'm-bo'sh tomدا, oydin kechada qo'shiq yangradi:

*Nilufar gulbargiday izlaringga sodiqman,  
Hamma dugonalarimg Brindabanga<sup>2</sup> kelsin.*

Kech soat o'n edi. Uydagilar hammasi uxlagani ketgan. Hammayoqqa atir hidini buruqsatib, balo-qazoday birdan Gopinatx kirib keldi. Shudxa tilini tishlab, boskiga ro'molini tashlab qochib qoldi.

---

<sup>1</sup>Choytro — hind kalendarining o'n ikkinchi oyi, bizda mart — aprelga to'g'ri keladi.

<sup>2</sup>Brindaban — rivoyatlarga ko'ra, Krishna cho'pon qizlar bilan ashula aytib sayr etgan o'rmon.

Giribala endi xonasi keldi deb o'yladi. U Gopinatxdan yuzini o'girdi. Xuddi Radxaday, o'ta mag'rurlik bilan qimir etmay turaverdi. Biroq, sahnadagi singari parda ko'tarilmadi, Krishnaning boshidagi tovus parlari uning oyoqlari ostiga tushmadi, hech kim:

*Oy yuzingni yashirib, oydin kechani xiralatma, —*

deb qo'shiq ham kuylamadi.

Buning o'rniga Gopinatx qo'pol va beparvo ovozi bilan:

— Kalitlarni berchi, — dedi.

Bir necha kunlik judolikdan so'ng, bahorda oydin kechada uning topgan gapi shu bo'ldi! She'rlarda, dramalarda, romanlarda yozilgan hamma gaplar boshdan-oxir yolg'on ekan! Sahnada sevgi qo'shiqlarini aytib, oyoq ostiga yiqiladilar, buni ko'rib tomoshabinlarning ko'ngli yumshaydi, shu tomoshabinlarning biri, oydin kechada tomda paydo bo'lib, o'zining yosh, go'zal qaylig'iga: «Kalitlarni berchi!»dan boshqa so'z topolmaydi. Na muzika, na sevgi, na xushomad, na dilbarlik! O'ta e'tiborsizlikdan boshqa narsa yo'q!

Shu paytda janub shabadasi shitirlab, barcha xo'rlanganlarning chuqur xo'rsinishidek kelib yurakka qadaldi. Guldonlarda o'sgan atirgullar tomga xushbo'y hid taratdi. Giribalaning parishon sochlari yuziga yoyilib, ko'zlariga tushdi. Uning xushbo'y to'q-sariq soriysini shamol hilpiltatar edi. Giribala g'ururni unutdi. U erining qo'lidan ushlab:

— Kalitlarni beraman, ammo siz uyga kiring, — dedi.

Endi u yig'lab, erini ham yig'latmoqchi edi. U tanholikda yuragida saqlab kelgan dardlarini aytib, iltijo qilib, uni insofga keltirmoqchi bo'ldi.

— Men uzoq turolmayman, — dedi Gopinatx, — kalitlarni ber.

— Men kalitlarni beraman, ammo siz bu kecha hech yoqqa bormaysiz.

— Bo'lmagan gap. Men albatta ketishim kerak.

— Unday bo'lsa, kalitlarni bermayman.

— Bermayman? Hali shunaqami? Ko'ramiz, qanday qilib bermas ekansan.

Shu so'zlarni aytib, Gopinatx uning soriysi etagiga nazar soldi, kalitlar yo'q edi. Uyga kirib pardoz stolining g'aladonini ochib qaradi, u yerda ham kalitlarni topmadi. Shunda u taroqlar turadigan qutichani sindirib boqdi. Biroq unda qosh, kiprik va labga surkaydigan bo'yoqlar bilan tasmalardan boshqa hech narsa yo'q edi. U karavotni ag'dar-to'ntar qildi, matraslarni ko'tarib ko'rdi, shifonerni ag'dar-to'ntar qildi — kalitlar hech yerda yo'q edi.

Giribala eshik oldida tosh haykalday qotib qoldi. Behuda urinishlardan so'ng Gopinatx g'azab bilan unga yaqin kelib o'shqirdi:

— Kalitlarni ber, bo'lmasa yomon bo'ladi!

Giribala hatto javob ham bermadi. Shunda eri uning bilaguzuk, marjon va uzuklarini yulib olib, kaltak bilan savalab ketdi.

Uyda hech kim uyg'onmadi, qo'shnilardan hech kim hech narsa sezmedi, oydin kecha ilgarigidek jimjit edi. Agar bu kechaning qulog'i bo'lib, uydagi qichqiriqni eshitganda, u qattiq faryod qilib, ming bo'lakka bo'linar edi. Salobatli sukunatda er boyoqish juvonne it azobiga solib kaltakladi.

Bu kecha ham o'tdi. Giribala bu sharmandalik, bu haqoratni hatto Shudxaga ham aytolmadi. U xo'rlangani uchun qasos olish niyatida o'zini o'ldirmoqchi, o'z qo'li bilan bebaho yoshligini, mislsiz go'zalligini barbod etmoqchi ham bo'ldi. Ammo shu zahotiyoq, bu qasosni hech kim sezmay qoladi-ku, deb o'ylab qoldi. Bu dunyoda birovning musibati bilan birovning ishi yo'q. Na hayotda — baxt, na o'limda — osoyishtalik.

Giribala otasining uyiga ketadigan bo'ldi. Otasi Kalkuttadan ancha yiroqda yashardi, ammo juvon hammaning noroziligiga qaramay, o'zi yolg'iz jo'nadi. Gopinatx bu vaqtda uyda yo'q, ulfatlari bilan qayiqqa tushib bir necha kunga qayoqqadir ketgan edi.



Lobongo bosh rolni o'ynaydigan «Monorama» nomli muzikali drama qo'yilganda Gopinatx hamisha teatrda hoziru nozir edi. U o'z ulfatlari bilan birinchi qatorda o'tirib: «Qoyil!» deb qattiq qichqirar, sahnaga guldastalar tashlardi. Uning doimiy qichqiriqlari asta-sekin tomoshabinlarning g'ashiga tega boshladi. Biroq teatr direksiyasi uning bu qilg'ini man etishga jur'at etmasdi.

Bir kun Gopinatx mastlik bilan sahna orqasiga o'tib, u yerda janjal qo'zg'adi. Qandaydir ahamiyatsiz bir narsa uchun o'zini haqoratlangan hisoblab, bir raqqosani tutib urdi. Qizning faryodi va Gopinatxning haqoratlaridan butun teatr sarosimaga keldi.

O'sha kuni teatr direktorining toqati toq bo'lib, polit-siya Gopinatxni chiqarib yubordi.

Gopinatx o'ch olishga qattiq ahd qildi. Pudja bayramidan bir oy ilgari, «Monorama» spektakli qayta qo'yiladi degan shov-shuv bo'ldi. Butun Kalkutta e'lon bilan qoplandi. Drama avtorining nomi katta harflar bilan yozilgan afishalar shunday ko'p ediki, go'yo shahar namavali<sup>1</sup> kiy-ganga o'xshardi.

Gopinatx xuddi shu kuni spektaklda bosh rolni o'ynashi kerak bo'lgan Lobongoni olib qayiqda sayohatga jo'nadi. Uning qayoqqa g'oyib bo'lganini sira aniqlay olmadilar. Teatr direksiyasi nihoyat tajang bo'ldi. Lobongoni ko'p kutishdi, ammo oxiri Monorama rolni o'ynash uchun yangi artistka chaqirishga majbur bo'ldilar. Shu sababli premera ancha kechikdi.

Xohlaganlarning hammasi ham teatrda kirolmadi. Yuzlab odamlar noumid bo'lib qaytdi. Gazetalar yangi ijrochini maqtash uchun so'z topolmasdilar.

Bu maqtovlar Gopinatxning qulog'iga yetdi. U chidolmay, qiziqish va hasad bilan spektaklni ko'rgani keldi.

Pesaning mazmuni mana bunday edi: birinchi ko'ri-nishda gadolarday kiyingan Monorama qaynotasining

<sup>1</sup> Namavali — xudolarning nomlari bilan bezalgan matodan tikiladi-gan libos.

uyida cho'ri holida. Ro'molga o'ralgan, bukilgan, qunishgan bir ahvolda ish bilan ovora. U lom-mim demaydi, yuzlari ham ko'rinmaydi.

Oxirgi ko'rinishda Monoromaning eri uni otasining uyiga jo'natib, bir millionerning yagona qiziga uylanish taraddudiga tushadi. To'ydan keyin nikoh xonasida kuyov kelinga qarasa — u o'z xotini Monoroma bo'lib chiqadi. Ammo endilikda u cho'ri kiyimida emas, malikalarday kiyingan. Qimmatbaho ziynat asboblari bilan bezalgan bu sohibjamol juvonning chehrasidan nur yog'ilib turadi. Monoroma bolaligida boy ota-onalari uyidan o'g'irlanib qashshoqlikda o'sgan edi. Ko'p yillardan so'ng, yaqindagina, uni otasi topib uyiga olib keldi, yangidan zo'r dabdaba bilan ilgarigi eriga to'y qilib berdi. Shundan so'ng nikoh xonasida yalinib-yolvorib, kechirim so'rash navbati erga keldi.

Biroq shu paytda tomoshabinlar orasida shovqin ko'tarildi. Hozirgacha Monoroma ro'molga o'ralib, iflos cho'ri kiyimida turganda Gopinatx jim o'tirdi. Ammo u qizil nikoh kiyimida, qimmatbaho zeb-ziynatlari porlab, boshidan ro'molini tushirib, go'zallik nurlarini sochib, ko'rilmagan bir viqor bilan boshini tik ko'tarib, yuzidan pardani tushirib tomoshabinlarga, ayniqsa, birinchi qator-da o'tirgan Gopinatxga nopisandlik bilan yashinday chaqnagan ko'zlarini tikkanda, hayajonlangan tomoshabinlarning gulduros qarsaklaridan teatr larzaga keldi, shunda Gopinatx: «Giribala! Bu mening Giribalam!» — deb baqirganicha chopib sahnaga chiqishga urindi, ammo muzikachilar uni ushlab qolishdi.

Tomoshabinlar uning qilg'idan juda darg'azab bo'lgan edilar. Ingliz va bengal tilida shovqin ko'tarildi: «Uni olib chiqib keting! Uni haydab yuboring!»

— Men uni o'ldiraman! Tirik qo'mayman! — deb Gopinatx ham titroq ovoz bilan baqirdi.

Politsiyachilar paydo bo'lib, Gopinatxni olib chiqdilar.

Butun Kalkuttadan to'plangan tomoshabinlar nafas chiqarmay Giribalaning chiroyli o'yinini tomosha qildilar. Endi Gopinatx ularning orasida yo'q edi.

1885-yil

Qizchaga Shubxashin (shirin zabon) deb nom qo'yganlarida, uning soqov bo'lishini kim ham o'ylabdi deysiz? Uning ikki egachisiga Shukeshini (zulfizar) va Shuxashini (xushtabassum) deb nom qo'ygan edilar; binobarin, otasi ohangdoshlik uchun kichigiga Shubxashini deb nom qo'ygan edi. Uni qisqartib Shubxa deb chaqirardilar.

Katta qizlarini, odat bo'yicha, ko'p taraddud va xarajatlar bilan erga berdilar-u, kichik qizning taqdiri esa otanani qattiq tashvishga solib qo'ydi. Odamlar, gapirolmagan kimsada his-tuyg'u ham bo'lmaydi deb, Shubxaning taqdiri haqidagi tashvishlarini uning o'z oldida ro'y-rost so'zlay berardilar.

Qizcha dunyoga kelishi oilaning boshiga yoqqan la'nat bo'lganini bolaligidanoq sezgan edi. Shuning uchun odamlardan o'zini chetga olib, doim yolg'izlikka intilar edi. Hamma uni birdan esdan chiqarib qo'ya qolsa, unga ancha yengil bo'lardi, chog'i. Biroq, o'z musibatini kim ham esdan chiqara oladi? Ota-onasi shu haqda o'ylagani-o'ylagan. Ayniqsa onasi hammadan ko'proq iztirob chekardi. U qiziga qarab o'zidan nomus qilardi: qiz degan onaga o'g'il boladan ko'ra hamisha yaqinroq bo'ladi-da. Qiz bola ona vujudining bir qismi, undagi har qanday nuqson onani nomusga qo'yadi. Shubxaning otasi Banikontxa hamma qizlaridan ham Shubxashinini yaxshi ko'rardi, onasi esa aksincha, unga uncha ro'yxush bermasdi.

Shubxa tildan mahrum bo'lsa ham, lekin ko'zlari qora, shahlo, kipriklari uzun, lablari qiz qalbida tug'yon urgan hislarni aks ettirib, gul bargiday titrab turardi.

Fikirimizni bironvga bayon qilish uchun qanchadan-qancha urinamiz. Yetarli darajada ravshan bayon etolmasak, fikirimizni noto'g'ri tushunadilar. Ammo qizning qora ko'zlari so'zga muhtoj emas: ular xuddi yurakning o'zini ifoda etadilar: uning tuyg'ular goh alanganib, goh zaif miltillaydi, goh yolqinlanib ketib, goh horg'in so'nadi, goh botayotgan oydek osuda boqib, goh osmon

gumbazini yoritib o'tgan chaqmoqdek porlaydi. Kimki soqov bo'lib tug'lsa, unda til vazifasini titroq lablar bilan ko'z bajararkan. Ko'z tilining ifoda kuchi cheksiz: bu ifoda dengizdek chuqur, osmondek tiniq: u — tongotar bilan kun botar chog'i sokin yerda yog'du va soyalar almashuvigacha aks ettirarkan.

Soqovlarda, xuddi tabiatdagidek, tanholikning salobati bo'ladi, shuning uchun bolalar Shubxadan hayiqar va u bilan hech o'ynamas edilar. U kimsasiz, jazirama peshin chog'idek unsiz va tanho edi...

## II

Shubxa Chondipur degan qishloqda turardi. Bengaliyaning ko'p joylaridagidek, bu yerdan ham kichkinagina bir daryo oqib o'tar, bu daryo o'rta tabaqaga mansub qizlarday odob saqlab, o'zining tor qirg'oqlaridan sira oshib toshmasdi.

Bu himmatli daryo qishloq oilalarning teng huquqli a'zosi singari, o'z qirg'oqlaridagi qishloqlarga astoydil g'amho'rlik qilardi. Uning ikki sohili bo'ylab uylar, yamyashil daraxtlar tizilib ketgan, go'yo daryo tangrisi o'z qarorgohidan tushib, sahovat bilan bu yerlarga baraka va nusrat urug'ini sepgan edi.

Banikontxaning hovlisi daryo qirg'og'iga tutashar, yonidan suzib o'tgan qayiqchalarga poxol bilan yopilgan saroy, molxona, ombor, tamarind daraxtlari va butalar bilan ihota qilingan bog'cha bemalol ko'rinib turardi. Lekin bu to'la-to'kis ro'zg'orda soqov qiz borligini birovlar bilarmikin, buni ayta olmayman.

Shubxa ishlarini bitirib, darhol daryo qirg'og'iga borardi. Bu yerda tabiat baxtsiz qizning yarimta ko'ngliga malham bo'lar, u bilan go'yo suhbat qurardi. Suvning sharillashi, odamlarning ovozi, qayiqchilarning qo'shig'i, qushlarning sayrashi, daraxt yaproqlarining shitirlashi bir-biriga qo'shilib, Shubxa qalbidagi sevinchga quyilib, bolaning hayajonli, ammo mangu sokin yuragiga to'lqinlar sadosidek kirib borar, tabiatning bu bo'g'iq suroni va bu harakat soqov qizning tili edi; yaproqlarida chigirtkalar

chirillab turgan daraxtdan tortib, to osmondagi sas-sadosiz yulduzlargacha — hamma narsa uning kipriklari soya tashlagan shahlo ko'zlarida aks etar edi. Shubxa uchun butun atrof sirli imo-ishoralar, harakat, qo'shiq, ko'zyoshi va nidolar bilan to'lgan edi.

Choshgohda paromlar to'xtab, qayiqchi va baliqchilar ovqatga ketib, dehqonlar soya-salqinda yotib uxlaganda, qushlar nag'masi tinib, notinch olam oromga tolqanda, keng dunyo kimsasiz uydek huvillab, sukunat cho'kkanda, jazirama osmon gumbazi ostida tilsiz tabiat bilan daraxt soyasida o'tirgan soqov qiz yuzma-yuz uchrashadilar.

Shubxaning do'stlari yo'q emas. Molxonada Shorboshi va Panguli degan ikki sigir bor. Ular qiz og'zidan o'z laqablarini biror marta eshitmagan bo'lsalar ham, uning qadam tashlashini sharpasidan bilar edilar. Qiz gapirolmasdi, lekin uning shivirlashi va ma'nosiz ovozi jonivorlar har qanday so'zdan yaxshiroq tushunardilar. Ular Shubxaning erkalatishlarini ham, koyishlarini ham anglardilar; agar qiz molxonaga kirib Shorboshining bo'ynidan quchoqlasa, u yuzlarini uning yuzlariga surkar, Panguli bo'lsa beozor ko'zlari bilan yosh do'stiga tikilib, yuzlarini yalardi. Shubxa molxonaga kuniga uch daf'a kirishi lozim bo'lsa-da, aslida u bu yerga ko'proq qatnardi, ayniqsa uyda xafa qilganlarida darhol indamas do'stlari oldiga kirib borardi. Hayvonlar itoatkor, muloyim, xayrixoh ko'zlari va qandaydir noma'lum bir sezgi bilan qizning qalbidagi dardni anglar, unga yaqinlashib, shoxlarini Shubxaning qo'llariga asta surkab, beso'naqay harakatlari bilan so'zsiz tasalli berishga urinar edilar. Bulardan boshqa, yana echki bilan mushuk ham bor edi, lekin Shubxa ularga unchalik mehr qo'ymagan, shunga qaramay, ular ham Shubxaga mehribon edilar. Mushukcha qizning yumshoq tizzasiga chiqib o'tirishni, u nozik panjalari bilan bo'yni va orqasini silaganda, xurillab yotishni juda yaxshi ko'rardi.

### III

Oliy mavjudot orasida ham Shubxaning bir o'rtog'i bor edi. Ularni bir-biriga bog'lagan narsa nima ekanini

aytish qiyin, chunki unga do'st bo'lgan o'g'il bolaning tili bor edi. Bu esa ularning umumiy til topishlariga xalaqit berardi.

Gonshayning kichik o'g'li Protap juda yalqov bola edi, ota-onalari unga biror hunar o'rgatamiz deb juda ko'p urinsalar ham, hech qanday natija chiqmadi, oxiri noumid bo'lib, bo'lmaganga bo'lishma, maqomida uni o'z holiga qo'yib berdilar. Ammo bekor xo'jalarning bir xislati bor: uydagilar ularni qancha urib-so'ksa ham, o'zgalar ularni albatta yoqtirib qoladi. Yalqovlar hech qanday ish bilan bog'liq bo'lmaganlari uchun go'yo jamoat mulkiga aylanadilar. Har bir shaharga bir saylgoh bog' zarur bo'lganidek, har bir qishloqda ham bitta-ikkita takasaltang bo'lar ekan, ular yo o'yin-kulgi ishqibozlarining xizmatida yoki yalqovlarning suhbatida band bo'ladilar.

Protapning asosiy mashg'uloti qarmoq bilan baliq ovlash edi. Bu ishga u juda ko'p vaqt sarf etardi, uni hamisha daryo bo'yidan topish mumkin edi. U Shubxa bilan ham xuddi mana shu yerda uchrashib turardi. Protapga har qanday ishda ko'ngilli sherik kerak. Baliq ovida esa, tilsiz sherikdan yaxshisi bormi. Shuning uchun Protap Shubxaning qadriga yetardi. Boshqalar qizni Shubxa deb atasalar, bu unga juda yaqin ekanini ko'rsatish uchun sodda qilib Shu deb chaqirar edi.

Odatda Shubxa tamarind daraxti tagida o'tirar, Protap esa sal nariroqda qarmoq solardi. Protapning betel chaynash odati ham bor. Qizcha o'rtog'i uchun bu narsani o'zi tayyorlaydi. U Protapni uzoq kuzatib, unga biror narsa bilan ko'maklashishni chin ko'ngildan istar, uning uchun ajoyib bir ish qilib, yigitchani, bu qiz ham yer yuzida ortiqcha emas ekan-ku, deb o'ylashga majbur etmoqchi bo'lardi. Biroq Shubxa hech narsa o'ylab topolmadi. Shunda u tangridan do'stini taajjubga qoldiradigan biron katta ish qilish uchun o'ziga kuch-quvvat tiladi, toki Protap hayrat bilan; «Qarang-a, Shubxaning qo'lidan bunaqa ishlar kelar deb sira o'ylamagan edim!» deb yuboradigan bo'lsin, deb iltijo qildi.

Qani endi Shubxa suv parisi bo'lsa! O'shanda u ohista suvdan chiqib, Protapga ilonlar shohining boshidagi tojdan qimmatbaho tosh olib kelar, Protap bu bachkana baliq ovini yig'ishtirib, shu bebaho tosh bilan daryo tubiga tushib ketardi. Suvosti saltanatiga tushganida esa, kumush saroydagi oltin taxt ustida kimni ko'rardi deb o'ylaysiz? Albatta shu tilsiz Shunida, Banikontxaning qizi, bizning Shuni, ya'ni bu nurafshon va osoyishta suvosti olamining yagona qizini ko'rgan bo'lardi. Afsuski, bu mumkin emas! Bu umuman dunyoda mumkin bo'lmagan biror ish yo'qligidan ham emas, buning sababi shuki, Shubxashini podsho oilasida tug'ilmagan, Banikontxa oilasida tug'ilgan, binobarin, Gonshaynning o'g'li Protapni hayratda qoldirishga uning kuchi yetmaydi.

#### IV

Shubxa balog'atga yetayozdi; u o'z tuyg'ularini ham angelay boshladi, chog'i. Yuragida oydin tunlar dengizda mavj uradigan to'lqinlarday zo'r, jozibador, yangi va g'alati fikrlar paydo bo'la boshladi. Uning boshginasida son-sanoqsiz savollar uymalashar, lekin qiz ularga javob topolmasdi.

Bir oydin kechada Shubxa astagina eshikni ochib qo'rqa-pisa tashqariga bosh suqib, tevarakka alanglab qaradi. Shubxaning o'ziday yolg'iz to'lin oy uxlayotgan yerga boqardi. Qizning vujudida yoshlik mavj urar, quvonch va qayg'u uning borlig'ini qamrab olgandi; qalbida yolg'izlik dardi poyoniga yetib, qiz o'zi ham sezmaganda holda tanholikning chegarasidan hatlab o'tdi. Mana endi asta to'lqinlanib turgan ona tabiat bilan hayajonli tilsiz qiz yana yakkama-yakka uchrashdilar...

Bu orada qizni erga berish muammosi ota-onaga tinchlik bermasdi. Banikontxa badavlat odam bo'lib, uning oilasida kuniga ikki marta baliq va guruch taom yeyilganiga hasadchilar ham ko'p edi; shundan bo'lsa kerak, qo'shnilari, u qizini erga berolmaydi, deb mudom g'iybat va malomat qilardilar.

Banikontxa xotinlar bilan ancha maslahatlashib, bir necha kundan so'ng qayoqqadir jo'nadi.

Nihoyat, qaytib kelib:

— Kalkuttaga boramiz, — deb qoldi.

Begona shahar safariga tayyorlana boshladilar.

Alamdan yuraklari siqilgan Shubxaga ko'zyoshlari sira omon bermasdi. Bir necha kundan buyon uni noma'lum bir xavf-xatar qiynar va u tilsiz bir jonivordek, goh onasi, goh otasi ketidan yurardi. Qiz shahlo ko'zlarini katta ochib, biror narsa anglash niyatida, hayajon bilan tikilsa ham, ota-onasi unga biror og'iz so'z aytmas edi.

Nima bo'ldi-yu, bir kuni tushda, odatdagicha qarmog'ini tashlab o'tirgan Protap kulib turib gap boshladi:

— Shu, senga er topishibdi! Endi sen u yerga borib erga tegasan. Ammo bizni ham esdan chiqarma.

U ortiq hech narsa demay, yana baliq ovi bilan mashg'ul bo'ldi.

O'q yeb, o'lim oldida yotgan kiyik sayyodga qanday qarasa. Shubxa ham Protapga shunday qaradi. Uning mahzun, sassiz nigohi: «Men senga nima yomonlik qildim?» deb so'raganday edi. O'sha-o'sha, Shubxa bu daraxt soyasida o'tirmaydigan bo'ldi.

Banikontxa endi uyg'onib, papiros chekib turganda, birdan Shubxa chopib kirdi-da, uning oyoqlariga yiqilib zor-zor yig'ladi. Banikontxa unga tasalli berishga urindi-yu, lekin o'z ko'zyoshlarini to'xtatolmadi.

Ertasiga Kalkuttaga jo'nashlari lozim edi. Shubxa yoshlik do'stlari bilan xayrlashish uchun molxonaga kirdi. Hayvonlarga xashak soldi, bo'yinlaridan quchoqladi, allanimalar deb shivirladi, ularga erkalatuvchi nigoh tashladi. Uning ko'zyoshlari shashqator bo'lib yuzlaridan oqib tushardi.

Qiz oydin kechada tashqariga chiqib, ko'pdan beri aziz oshnasi bo'lgan daryo bo'yidagi xushbo'y ko'katlar ustiga o'zini tashladi. U bashariyatning qudrati va xotirjam onasi — yerni quchoqlab: «O, ona, meni qo'yib yuborma! Men seni quchganday, sen ham meni mahkam quchoqla!» deb iltijo qildi.



Ular Kalkuttaga kelgach, onasi Shubxani yaxshilab kiyintirdi. Sochlarini turmaklab, lenta bilan bog'ladi, qimmatbaho taqinchoqlar bilan bezadi, boshqacha aytganda, qizning tabiiy chiroyini barbod etdi. Shubxaning ko'zlaridan yosh arimasdi. Buni ko'rgan ona, ko'zlari qizarib, qovoqlari shishadi, degan xavf bilan sho'rlik qizni koyidi, urishdi, ammo hech qanday tahdid uning ko'zyoshini to'xtatolmasdi.

Nihoyat, bir do'stini boshlab kelin ko'rgani kuyov keldi. Qizning ota-onasi, go'yo osmondan tangrining o'zi tushib kelganday, tashvish va hayajonda qolishdi. Ona, unday qil, bunday qil, deb qizni shu ahvolga olib keldiki, sho'rlikning fig'oni falakka chiqdi, uni kuyovga ham xuddi mana shu ahvolda ro'baro' qildilar.

— Durust, — dedi kuyov unga qarab.

To'xtovsiz ko'zyoshlarini ko'rgan yigit, ota-ona bilan judolikka shuncha iztirob chekkan qiz eriga yana ham muloyim, yana ham mehribon bo'ladi deb o'yladi-da:

— Gavhar sadafning qimmatini oshirganday, qizning ko'zyoshlari ham uning qadrini oshiradi, — deb qo'ydi.

U boshqa so'z demadi.

Kalendarga qarab xayrli bir kunni tayin etdilar. To'y ham bo'ldi. Soqov qizni yigitga topshirib, ota-onasi uyga qaytdi: ularning toifasi bebro' bo'lish xavfidan qutulib, kelajaklari ta'min etilgan edi.

Shubxaning eri g'arbda ishlagani uchun tez fursatda uni ham olib ketdi. Ammo bir hafta o'tmay, kelinning soqov ekanini hamma bilib qoldi. Bordi-yu, bitta-yarim-tasi buni payqamagan bo'lsa, bu qizning aybi emas. Qiz biror odamni aldayman deb o'ylamagandi. U ko'zlari bilan butun haqiqatni aytib turar, lekin hech kim uning ko'nglidagini anglamasdi. Shubxa atrofga nazar solib yoshlikdan tanish biror odamni ko'rmadiki, u bilan umumiy til topib hasratlashsa. Ana shunda soqov qiz qalbida tutib bo'lmas, g'ayrimsoniy bir faryod qo'zg'aldi, afsuski, bu alam-angiz faryodni ham parvardigordan boshqa eshituvchi bo'lmadi. Shubxaning eri bo'lsa, ikkinchi daf'a ancha e'tibor bilan faqat ko'zini emas, quloqlarini ham ishga solib, boshqa — tili bor qizga uylandi.

Tara qishloqdagi dugonalariga qo'shnisi Joygopalning battolliги, xotiniga sira kun bermasligini batafsil gapirib berib:

— Tiliga chipqon chiqsin uni, — deb qarg'ab ham qo'ydi.

Bu gap Joygopalning xotini Shoshiga juda tegib ketdi: «Nima bo'lganda ham, xotin kishining o'z eriga yomonlikni ravo ko'rishini insofdan emas», deb o'ylab, Taraga e'tiroz bildirdi.

Biroq berahm Tara gapdan qolmadi, hovuri ikki chandon ko'tarilib:

— Shunday erga xotin bo'lgandan ko'ra yetti marta tul qolgan yaxshi-yu, — deb baqirgancha uyiga kirib ketdi.

Shoshi esa, uyga qaytib, yana xayolga toldi.

«O'ylab o'yimga yetolmayman, erimning qaysi guno-hi uchun undan bunchalar g'azablanish kerak ekan?» Shunday deb o'ylar ekan, yuragi hozir musofirlikda yurgan eriga mehr-muhabbat bilan to'lib-toshdi. Eri yotadigan joyiga o'zini tashlab, yostiқni o'pib, uning tanish hidi bilan nafas oldi...

Ayol yotoqning eshigini bekitib, yog'och qutichadan erining sarg'ayib ketgan eski fotosurati bilan hatlarini olib qaray boshladi.

Shoshi butun kunni shu bo'sh xonada o'tkazdi. Tanholik joniga tekkan ayol o'tmishni qumsab yig'ladi.

Joygopal bilan Shoshikolaning turmush qurganlariga ancha vaqt bo'ldi. Ular juda yoshlikdan uylanishgan, hozir bir necha bolalari bor. Eru xotin hamma vaqt birga, bir maromda tinch kun kechirishar, shuning uchun bir-birlariga ortiqcha tashnalik ham sezmas edilar. Mana endi o'n olti yil deganda Joygopal to'satdan xizmat bilan uzoq safarga ketib qoldi. Erga muhabbat hissi xotin qalbida yangi kuch bilan alanga oldi. Ayriliq erni unga yana ham

yaqin qilib, Shoshining yuragida sevgi sirtmog'i taranglashdi.

Hayot bir maromda o'tgan choqda bilinmagan xotiralarni qumsab, yuragi siqildi. Bu bahor kunlari yolg'iz yotib, erga chiqqan chog'dagi baxtiyor yoshligining shirin xotiralarini ko'z oldiga keltira boshladi. Holbuki Shoshi endi uncha yosh emas, bolalari bor.

Hayot oqimida ohista shildirab turgan muhabbat chashmasi birdan toshib ketdi. Yiroqda dilbar muzika yangrab, sohilda oltin saroylar, afsonaviy o'rmonlar ko'rindi... Hayhot, endi u bu baxt gulzoriga qadam bosolmaydi.

— Endi erim kelsa — deb shivirlardi ayol, — hayotning, bahorning bunday bema'ni, quvonchsiz o'tishiga qo'ymayman. Tentak ekanman. Arzimagan narsalar uchun u bilan necha bor aytishib, ko'nglini ranjitardim!

Shunday qattiq pushaymondan so'ng, Shoshi qanoatli, itoatkor xotin bo'lib, erining izmidan chiqmaslikka ahd etdi. Eri xoh yaxshi, xoh yomon ish qilsin — hammasiga bardosh qiladi, er hamma narsa, er — xudo, u yer yuzasidagi odamlarning eng azizi.

Shoshikola ota-onasining yagona qizi edi, uni hamisha erkalatardilar. Shuning uchun Joygopalning maoshi oz bo'lsa ham, eru xotin qishloqda ehtiyoj nimaligini bilmay yashashdi.

Biroq yaqinda yoshlari bir joyga borib qolgan ota-onalar bemahalda o'g'il ko'rishdi. Ochig'ini aytish kerakki, qiz ularning bu nomunosib, nohaq ishidan qattiq norozi edi. Eri ham bunga uncha quvongani yo'q.

Bunday bemahalda dunyoga kelgan go'dak ota-onaning butun diqqatini o'ziga jalb etdi. Emish va uxlashdan boshqa hech narsani bilmagan chaqaloq jajji, nozik qo'llari bilan pochchasi Joygopalning istiqbolga bo'lgan hamma umidlarini barbod etdi. U Assamga borib choy plantatsiyasiga ishga kirishga majbur bo'ldi.

Qarindosh va oshnalari Joygopalga yaqinroqdagi ish topishga maslahat berdilar. Ammo u, hammadan xafa

bo'lganidanmi, yoxud yangi vazifada tezroq ko'tarilish niyatidami, harnechuk, hech kimning so'ziga quloq solmadi.

Xotinini, bola-chaqasini qaynotasinikida qoldirib, As-samga jo'nadi. Eru xotin birinchi marta bir-biridan judo bo'lishdi.

Ishning bu xil chappa ketishini ko'rgan Shoshi kichkina ukasiga yashirin kek saqlab qo'ydi. Kishining dardi bo'lib, dardlashadigan odami bo'lmasa, badtar xunobi chiqadi. Chaqaloq onasini emib qorni to'ygach, ko'zlarini yumib mast uyquga tolardi. Opasi esa, har narsadan kiyik topib, hamma bilan urishar, goh sut juda issiq, goh ovqat sovib qolibdi, goh bolalar maktabga kech qoldi deb, jig'ibiyroni chiqib yurgani-yurgan edi.

Tez orada chaqaloqning onasi vafot etdi. O'lim oldida u o'g'lini qizining tarbiyasiga topshirdi. Yetim qolgan go'dak darrov badjahl opasining mehr-muhabbatini qozona qoldi. U opasining tizzasiga chiqib olib, inqillab, tishsiz og'zi bilan uning lablarini, burni yoki ko'zlarini o'pmoqchi bo'lar, jajji qo'llari bilan sochini ushlab sira qo'yvorgisi kelmas; tong otmay uyg'onib, opasining oldiga emaklab borar, uni ohista tortqilab, allanimalar der edi. U opasini didi-mo yoki didi deyolmay, zizi, zizi-mo, deb chaqiradigan bo'lib qoldi. U opasiga mudom xalaqit berar, u ish bilan band bo'lganda yoxud dam olib yotganda, qilma degan ishni qilar — qo'lga kirgan har narsani og'ziga solar, o'rmalab ketaverar edi. Shoshi esa uni tutib turolmas edi. Xullas opasi bu kichkina zolinga batamom bo'ysundi. Onadan ayrildi-yu, evaziga opasini tamomila o'ziga qaratib oldi bola.

## II

Bolaning ismi Nilmoni edi. U ikki yoshga to'lganda otasi Kaliproshonno qattiq og'rib qoldi. Joygopalga, tez keling, deb iltimos xati yubordilar. U ko'p taradduddan so'ng otpuska olib qaytganda, Kaliproshonno o'lim

to'shagida yotgandi. U o'lim oldida Joygopalni o'g'liga vasiy tayinlab, qiziga mol-mulkinging to'rtidan bir qismini meros qoldirdi.

Joygopal ishlab yurgan joyidan kechib, marhum qaynotasining mol-mulkini idora qilishga kirishdi. Shunday qilib, uzoq ayriliqdan so'ng er-xotin yana qovushdilar.

Agar bir narsa sinsa, uning parchalarini o'miga qo'yib yopishtirish mumkin. Biroq odamlarning uzoq ayriliqdan so'ng yana boyagidek bir-birlariga yopishmog'i amrimahol: davr o'tishi bilan odamning fe'l-atvori o'zgaradi, yangi tus oladi.

Erining qaytishi Shoshida yangi tuyg'ular uyg'otdi. Go'yo u yangidan erga tekkanday edi. Uzoq birga yashash tufayli vujudga kelgan beparvolik, e'tiborsizlik butunlay yo'qolgan edi. Shoshiga eri endi ming chandon aziz. «Nima bo'lsa ham erimni bari bir sevaman», deb o'z-o'zicha takrorlagani-takrorlagan edi. Joygopalga esa, xotin bilan uchrashuv o'zgacha ta'sir qildi. Ilgari, birga yashashganda, intilish va odatlari bir xil bo'lganda, Shoshi uning ayrilmas qismidek edi, agar u bo'lmasa Joygopal o'zining kundalik hayotida qandaydir bo'shliq his etardi. Musofirchilikda, dastlab, Joygopalni qandaydir bir girdob o'z qa'riga tortganday tuyuldi. Biroq yangi ish, yangi odat asta-sekin bo'shliqni to'ldirib, uning eski turmush haqidagi xotiralarini siqib chiqardi.

Ish bu bilan cheklanib qolmadi. Ilgari Joygopal ancha yalqov va beg'am edi. So'nggi ikki yil mobaynida esa unda hayotini o'nglab yuborishga shunday zo'r ishtiyoq paydo bo'ldiki, u boshqa hech narsani o'ylamay qo'ydi.

Mana shu ehtiros asoratida qolgan Joygopalga ilgarigi hayoti xuddi bir soyaday tuyula boshladi. Xotin kishini ko'pincha muhabbat o'zgartirsa, erkakni shuhratparastlik o'zgartib yuboradi. Ikki yillik ayriliq davomida Shoshikola ham o'zgarib qolgandi. Kichkina ukasi uning hayotiga xo'p yangilik kiritdi, mana shu yangilikni Joygopal tushunmasdi. Bolaga munosabat masalasida ular bir fikr-

ga kelolmadilar. Shoshi erini bolaga mehr qo'ydirishga urinardi, biroq erining bolaga qanday qarashi noaniqligicha qolaverdi.

Shoshi qo'lida go'dak bilan quvnoq jilmayib, erining oldiga kelar, ammo Nilmoni qarindoshiga iltifot etmay, jaji qo'llari bilan opasining bo'ynidan quchoqlab, boshini uning yelkasida yashirardi. Shoshi esa, ukachasi ajoyib qiliqlari bilan erini rom qilib olishini istardi. Eri esa bola mehrini qozonishni o'ylamas, bola ham unga beparvo edi. Joygopal bu kallasi katta, oriq, jiddiy qiyofali qora bolaning nimasiga buncha e'tibor qilinayotganini tushuna olmasdi. Xotinlar erlarining kayfiyatini darrov payqab oladilar. Oz fursatda Shoshi bildiki, Joygopal uning ukasiga juda beparvo.

Shundan so'ng u bolani erining sovuq, ba'zan adovat bilan qarashidan yashirib yurdi. Shu tariqa, bola xuddi yashirin xazinaday, doim uning e'tiborida turdi. Darhaqiqat sir tutilgan hislarning tug'yoni shiddatli bo'ladi! Bolaning yig'isi Joygopalning g'azabini keltirganda Shoshi uni bag'riga bosib yupatishga urinardi. Bola erining uxlashiga xalaqit berib, u bolaga qahru nafrat bilan baqirganida, Shoshi hayajonga tushar, go'yo eri oldida gunohkorday xijolat tortib, darrov bolani olib chiqib ketar, mehr bilan uni erkalatib:

— Oltinim, xazinam, g'ururim, — deya uxlatishga urin-ar, shivirlar edi.

Bolalar bir-birlari bilan bo'lar-bo'lmasga urishaverar edilar. Ilgari Shoshi oraga tushar, odatda, ukasining tarafini olib, o'z bolalarini koyiy boshlardi — chunki ukasi yetim. Endi qozi boshqa bo'lib, qonunlar ham o'zgardi: Nilmoni bekordan bekor qattiq jazoga tortilardi. Erining bolaga adolatsizligi Shoshining yuragiga o'tkir pichoqday sanchilardi: u ranjigan bolani o'z xonasiga olib kirib, unga qant-qurs, o'yinchoqlar berar, erkalatar, o'par, qo'lidan kelganча ovuntirar edi.

Shoshi ukasiga mehribonlik qilgan sari, Joygopalning g'azabi ortar, Joygopal bolaga g'azablangan sari opasi uni

sevib ardoqlar edi. Joygopal xotiniga yaxshi muomala qilar, Shoshi ham erining izmidan chiqmas, unga mehribon edi. Ammo bola eru xotin orasida yashirin adovatga sabab bo'ldi, ma'lumki, ochiq janjaldan ko'ra yashirin adovat og'irroq bo'ladi.

### III

Nilmoniga qaraganda avval uning katta kallasi ko'zga tashlanardi. Ingichka novdaning uchiga katta pufakni ilintirib qo'yganday ko'rinardi. Doktorlar, bola shu zaylda dardchil bo'lib qoladi yo o'ladi, deb xavfsirar edilar. U anchagacha gapirishga va yurishga o'rgana olmadi. Bolaning kichkinagina yuziga qaragan odam ota-ona o'z kekxa yoshining butun og'irligini shuning yelkasiga ag'darib ketgan ekan, deb o'ylardi.

Ammo opasining mehribonlik bilan parvarish qilishi natijasida, xavflik davr o'tdi. Bola besh yoshga kirdi.

Kunlardan bir kun, kartik oyining o'rtalarida, «ukaga oq fotiha berish»<sup>1</sup> marosimi bo'ldi. Shoshi Nilmoniga yangi kiyimlar kiygizib, uning peshonasiga an'anaviy xol qo'yaman deb turganda, to'satdan qo'shni xotin Tara kirib janjal boshladi:

— Bolaning peshonasiga mehr-muhabbat tang'asi bosib, zimdan uni halok qilishning nima ma'nosi bor? — deb qoldi u birdan.

Hang-mang bo'lgan Shoshi yashin tekkanday qotib qoldi. Uni alam, g'azab qamrab olgan edi.

Tara atrofdagilarga tushuntira ketdi: Shoshi bilan eri yetimchanning ota merosini tortib olishga ahd qilishgan. Ular ijara haqini ham to'lamay yurib, bolaning mol-mulki-ni kim oshdi qilib sotish, so'ngra bu mulkni Joygopalning amakivachchasi orqali o'zlariga sotib olmoqchi bo'lganlar.

<sup>1</sup> «Ukaga oq fotiha berish» marosimi hind oilalarida yiliga bir bo'ladi; bunda opa o'z ukasining manglayiga sandal daraxtining po'stlog'idan olingan bo'yoq bilan xol qo'yadi, unga har xil sovg'alar beradi.

— Shunday qabih tuhmatni kim tarqatgan bo'lsa ming la'nat, tiliga kuydirgi chiqsin, — dedi Shoshi g'azabga to'lib. So'ngra yig'lagancha erining oldiga bordi-da, unga bu g'iybatni so'zlab berdi.

— Ha, aftidan, endi hech kimga ishonib bo'lmaydi, shekilli, — dedi Joygopal. — Men amakivachcham Upenga xo'jalikni boshqarishni topshirganimda tamom xotirjam edim. Uning Xashilpurdagi mulklar uchun soliq qarzlarini yashirib, oxiri o'zi sotib olar degan fikr xayolimga ham kelmagan edi.

— Nima, siz uning ustidan shikoyat qilmaysizmi? — so'radi boshi qotgan Shoshi.

— O'z ukamning ustidan qanday qilib shikoyat qilay? Bari bir bundan bir ish chiqmaydi, behudaga pul sarf bo'ladi, xolos.

Shoshi eriga ishonishi kerak edi, biroq bu gal unga inonolmadi. O'z oilasini sevgan baxtiyor uy bekasining bu vaziyati endi unga juda xunuk, qabih bo'lib ko'rindi. Dunyoda eng mustahkam boshpana bo'lgan oila endi yo'q edi. Endi u bilan ukasi tushib qolgan dahshatli qopqon bor edi, xolos.

Shoshi, yolg'iz boshim bilan bu bechora bolani qanday himoya qilaman, deb har qancha o'yga tolsa ham, boshiga biron fikr kelmasdi. U shu to'g'rida o'ylagan sari dahshatga tushar, eriga nafrati zo'rayib, istiqboli xavf ostida qolgan ukasiga mehri ortardi. Agar u yo'lini bilganda, gubernatorga murojaat qilar, hatto Angliya malikasiga ham maktub yozib, ukasining mol-mulkini saqlab qolardi. Malika bilsa, Nilmoniga yilda yetti yuz ellik sakkiz rupiya daromad keltirib turgan Xashilpurdagi mol-mulklarni sotishga ruxsat bermasdi.

Shoshikola Angliya malikasi huzuriga qanday qilib kirish, qanday qilib Upenning adabini berish haqida o'ylab o'yiga yetguncha Nilmoni to'satdan isitma chiqarib, og'rib qoldi. Uni qattiq titroq bosib, tez-tez hushdan ketardi.



Joygopal o'sha yerlik vrachni chaqirdi. Shoshining yaxshi vrach chaqirish haqidagi gapiga:

— Nima, Motilal yomon davolaydimi? — dedi Joygopal.

Shoshi erining oyoqlariga yiqilib, iltimosimni rad etmang, deya yolvordi.

— Xo'p, men shahardan doktor yuboraman, — dedi nihoyat, eri.

Shoshi bolani qo'liga olib bag'riga bosdi. Bola undan bir minutga ham ayrilgisi kelmas, ketib qolmasin deb unga yopishib olar, hatto uxlab yotganida ham etagidan tutib yotardi.

Shu tariqa yana bir kun o'tdi. Kechqurun Joygopal kelib, vrachni shaharda topmadim, u kasal ko'rish uchun uzoq joyga ketibdi, dedi.

— Men sud ishi bilan yana bir joyga borishim kerak, — deb qo'shib qo'ydi u, — Motilalga tez-tez borib, kasalni ko'rib tur deb tayinlab qo'ydim.

Kechasi Nilmoni yomon alahsirab chiqdi. Erta bilan Shoshi ortiq o'ylab turmay, bir qayiqni kira qildi-da, ukasini shaharga olib ketdi. Doktor uyida edi, hech qayoqqa ketmagan ekan. Mo'tabar oilaga mansub ayol kelganini payqab, Shoshini ukasi bilan yonidagi tul kampirning uyiga joyladi-da, bolani davolay boshladi.

Ertasiga Joygopal paydo bo'ldi. U darg'azab edi, xotiniga darhol uyga qayt deb buyruq berdi.

— O'ldirsangiz ham hozir uyga qaytmayman. Hammangiz Nilmonini halok qilmoqchisiz; uning na otasi, na onasi bor, mendan boshqa hech kimi yo'q. Men — uni o'lim changalidan qutqazishim kerak.

— Unday bo'lsa, shu yerda qol, ammo qaytib mening uyimga borma, — qizishib baqirib berdi Joygopal.

— Mening uyim emish! — U ukamning uyi, — dedi Shoshi ham jahl bilan.

— Yaxshi, ko'ramiz, — deb tahdid qildi-da, chiqib ketdi eri.

Bu hodisa qishloqda ko'p shov-shuvlarga sabab bo'ldi.

— Ering bilan uyda janjallash-da, — der edi Tara, — axir uydan ketib bo'ladimi? Nima bo'lganda ham er-ku.

Shoshi yonidagi bor pulini sarflab, zeb-ziynatini sotib, ukasini o'lim changalidan qutqazib qoldi. Lekin sal o'tmay, Darigramdagi yiliga bir ming besh yuz rupiya daromad keltiradigan yerlarini zamindorning yordami bilan Joygopal o'z nomiga o'tkazib olganini bilib qoldi. Endi hamma mol-mulk Shoshining ukasiga emas, unga qaraydi.

Nilmoni kasaldan tuzalib, uyga ketamiz, deb opasini qistay boshladi. U o'z o'rtoqlari — Shoshining bolalarini sog'inib qolgandi.

— Uyga ketamiz, ketamiz uyga, — deb opasiga yolvo-rardi Nilmoni. Opasi esa yig'lagani yig'lagan. «Koshki uyimiz bo'lsa», deb iztirob chekardi juvon.

Nihoyat, u: «Ko'zyoshi bilan ish bitmaydi. Nilmoni-ning mendan boshqa hech kimi yo'q», deb sud muovini-ning uyiga bordi.

Sud muovini Joygopalni yaxshi bilardi. Mo'tabar bir zotning xotini uyidan ketib, yana u bilan mol-mulk da'volashish niyatida ekani unga mutlaqo ma'qul bo'lmadi. Biroq Shoshiga hech narsa demay, Joygopalga xat yozib yubordi. Joygopal amakivachchasi bilan kelib, xotinini majburan qayiqqa o'tqazib olib ketdi.

Ayriliqdan so'ng eru xotin yana uchrashdi. Prajapa-ting' xohishi shunday edi!

Nilmoni quvonchga to'lib, yana o'rtoqlari bilan o'ynay boshladi. Bolaning quvnoq kulgisi opasini o'ylatib qo'yar, uni g'am bosib, yuragi siqilardi.

#### IV

Qishda sud raisi o'z okrugini aylanib, shu qishloqqa kelib to'xtadi. Bu yerda ov bilan shug'ullanish niyatida

<sup>1</sup> Prajapati — hind mifologiyasida nikoh xudosi.

edi. U yo'lda bir to'da bolalar bilan Nilmonini uchratdi. Qishloq bolalari sohibni Chanakya<sup>1</sup> ehtiyot bo'lishga maslahat beradigan uzun tishli, tirmoqli va shoxdor maxluqlarning bir ozgina o'zgartirgan xili deb o'ylab, uzoqroqdan turib tomosha qilar edilar.

Biroq Nilmoni sira hovliqmay, jiddiy ko'zlari bilan unga qiziqib qarab turardi. Bola sohibning diqqatini jalb etdi, u Nilmoniga yaqin kelib so'radi:

— Maktabda o'qiyapsanmi?

Nilmoni bosh qimirlatib:

— Ha, — dedi.

— Qaysi kitobni o'qiyapsan?

Bola sudyaning savolini tushunmadi shekilli, indamay qarab qoldi.

Nilmoni uyga qaytgach, ingliz kishi bilan tanishganini zo'r iftixor bilan opasiga so'zlab berdi.

Tushki ovqatdan so'ng Joygopal salla o'rab, yangi sarpolar kiyib, sudyaning oldiga salomga bordi. Hammayoq shikoyatchilar, da'vogar, javobgar va politsiyachilar bilan liq to'la edi. Kun juda issiq bo'lganidan sudya stolni soyaga qo'yishga amr etdi.

Sudya Joygopalni o'tqazib, undan qishloqdagi ishlarni surishtira boshladi. Joygopal ko'pchilik oldida bunday faxriy joyda o'tirgani uchun o'zini shuhrat osmonida parvoz etganday sezdi.

«Afsuski, Chokrobari yoxud Noidi oilasidan biror kishi kelib meni bu yerda ko'rmadi», deb o'yarlardi u.

To'satdan chodra yopingan bir ayol Nilmonini yetaklab sudya huzuriga keldi.

— Sohib, bu yetimni sizga topshiraman, uni himoya qiling, — dedi u.

Ingliz boshi katta ko'zlari jiddiy tanish bolani ko'rib, oldida mo'tabar ayol turganini fahmlagach, o'rnidan turib, palatkaga kirib gaplashishni taklif qildi.

<sup>1</sup> Chanakya Vishnugupta — podshohi Chandragupta Maruyaning (Meloddan oldingi IV asr) bosh maslahatchisi.

— Yo'q, men hammasini shu yerda aytib beraman, — dedi ayol.

Joygopal bo'zarib, tipirchilab qoldi.

Sinchkov qishloqilar, bu yerda antiqa bir gap bor ekan, deb yaqinroq keldilar, lekin sohib hassasini ko'tarishi bilan orqaga chekindilar.

Shoshi bolaning qo'lidan ushlab turib, uning tarixini so'zlab berdi. Joygopal bir necha bor uning gapini bo'lishga urinib ko'rdi. Ammo sudya, g'azabdan yuzlari qizarib, unga o'shqirib berdi.

— Nafasingni o'chir! — deb buyurdi u va hassasi bilan, o'mingdan tur, deya ishora qildi.

Joygopal dilida xotiniga ming la'nat o'qisa ham, jim turishga majbur edi.

Nilmoni opasiga mahkam yopishib, taajjub bilan uning so'zlariga quloq solardi.

Shoshikola o'z hikoyasini tugatgach, sudya Joygopalga bir necha savol berib, uzoq vaqt jim qoldi. So'ngra Shoshiga qarab:

— Qizim, garchi bu ishni ko'rish mening huquq doiramga kirmasa ham, siz xotirjam bo'lishingiz mumkin: men o'z burchimni bajaraman, Ukangiz bilan uyingizga boring, hech narsadan qo'rqmang, — dedi.

— Sohib, uy qaytarilmaguncha men ukamni u yerga olib borolmayman. Agar siz uni o'zingiz bilan olib ketmasangiz, uni hech kim himoya qilolmaydi.

— Unda siz qayoqqa borasiz?

— Mening tashvish qiladigan yerim yo'q, erimning oldiga boraman.

Sohib miyig'ida kulib qo'ydi. Unga tumor taqqan, oriq, ko'rinishdan odobli, bug'doyrang bengal bolasini olib ketishdan o'zga chora qolmadi.

Shoshi sudya bilan xayrlashganda, bola opasining etagiga yopishib oldi.

— Qo'rqma, — dedi unga sohib, — biz birga ketamiz.

Shoshining ko'zlaridan yosh oqib yuzlarini yuwardi. U Nilmonini bag'riga bosdi va boshlarini silab turib:

— Bor, ukajon, biz yana ko'rishamiz, — dedi, so'ng etaginging uchini zo'rg'a ajratib, tez yurib ketdi.

«Opa, opa», — deb chinqirab qolgan bolani sohib quchoqlab oldi. Shoshi yana bir marta ukasiga qayrilib qaradi-da, uni yupatish niyatida so'zsiz qo'l cho'zib xayrlashdi, g'am-alamga to'lib yo'lga tushdi.

O'zlarining eski tanish uylarida eru xotin yana uchrashdilar. Prajapatining xohishi shunaqa edi.

Biroq bu uchrashuv uzoqqa cho'zilmadi. Oradan bir oz vaqt o'tar-o'tmas, bir kuni ertalab, qishloq aholisi orasida, Shoshi kechqurun vabo kasalidan o'libdi, kechasi o'likni kuydirishibdi, deb gap tarqaldi.

Bu haqda boshqa hech kim hech narsa demadi. To'g'ri, Tara bir nima deyishga urindi-yu, ammo boshqalar bunga yo'l qo'yishmadi.

Ukasi bilan xayrlasha turib, biz yana ko'rishamiz, deb va'da qilgan edi Shoshi. Biroq, u bu va'daning uddasidan chiqdimi-yo'qmi, bilmayman.

1895-yil

## NAZARI BAXAYR<sup>1</sup>

Kantichondro hali yosh bo'lsa ham, xotini o'lgandan so'ng boshqa qayliq qidirmay, ovchilikka berilib ketdi. U uzun bo'yli, xushbichim, baquvvat, chaqqon, ko'zlari o'tkir, qo'llari chayir yigit edi; G'arbiy Hindiston odamlariday kiyinar, yoru do'stlari esa, pahlavon Xira Sing, ashulachi Chxokxonlal va musulmon sozandalari: Kxan va Mianlardan iborat edi. Xullas, uning taralabedod ulfatlardan hech kamchiligi yo'q edi.

Ogrohayon<sup>2</sup> oyining o'rtalarida Kantichondro do'stlari bilan Naydigxi botqoqligiga ovga jo'nadi. U yerda ular ikkita katta qayiqda yashay boshladilar, birga kelgan xizmatkorlar esa, sohilda joylashdi. Bularning dastidan qishloq ayollari daryodan na suv ola bilar, na cho'mila olardi. Kun bo'yi havoda va suvda miltiq ovozi quloqlarni qomatga keltirar, oqshomlari esa, bu kelgindilarning muzika va ashulalari odamlarga uyqu bermasdi.

Bir kuni erta bilan, Kantichondro qayiqda miltiq tozalab o'tirarkan, birdan o'rdak ovozi eshitilib qoldi. Yigit sohilga qarab, shu tomonga kelayotgan qizga ko'zi tushdi, u ikkita o'rdakchani bag'riga bosib kelardi.

Suv o'simliklari g'ovlagan kichkina daryo sokin oqar edi. Qiz o'rdakchalarni suvga qo'yib, o'zi sohilda to'xtab qoldi, suzib uzoqqa ketmasin, deb mehr bilan ularni kuza-tib turdi. Unga qarab shuni payqash mumkin ediki, qiz odatda o'rdakchalarni suvga qo'yib o'zi ketarkan-u, lekin bukun ovchilardan qo'rqib, poylab turdi.

Qiz benihoyat go'zal bo'lib, go'yo haykaltaroshlik tangrisi Vishvakarmaning ustaxonasidan endigina chiqqanday edi. Uning yoshini aniqlash qiyin, chunki unda

---

<sup>1</sup>Hind nikoh marosimida kelin bilan kuyovning birinchi marta bir-birlarini ko'rish payti «Nazari baxayr» deyiladi.

<sup>2</sup>Ogroxayon — hind kalendarining sakkizinchi oyi, noyabr, dekabr oylariga to'g'ri keladi.

barkamol qaddu qomat bola chehrasi bilan qovushib, uni qamrab olgan olam hali qalbiga qo'l solmaganday tuyulardi. Ha, qizning o'zi ham bolalikdan o'smirlikka hatlab o'tganini hali sezmasdi, chog'i.

Kantichondro bir necha vaqtgacha miltig'ini unutib, sehrlanganday qarab qoldi. Garchi qizning go'zalligi rojaning saroyidan ko'ra bu yerning tabiatiga mos ko'rin-sada, yigit bu o'lkada bunchali sohibjamol qizni uchratish-ni aslo o'ylamagan edi. Axir gulning ham oltin guldondan ko'ra o'z shoxida turgani go'zalda! Shunday qilib, gi-yohlar shudring isirg'a taqib, kuz quyoshining ilk nurlari-da porlab turgan bu orombaxsh saharda Kantichondro sohibjamol qizni ko'rdi-yu, bu fusunkor chehraga qarab, ashshin oyida otasining uyiga tantana bilan qaytgan Parvatining quvnoq chehrasini ko'z oldiga keltirdi: Yosh Parvati ham ba'zan shunday o'rdakchalarni bag'riga bosib Mondakini<sup>1</sup>, sohiliga kelarkan-u, afsuski, Kalidasa<sup>2</sup> bu go'zal lavha tasvirlarini unutgan ekan!

Birdan qizning yuzi quv o'chib, o'rdakchalarni ushlab oldida, qandaydir g'alati ovoz bilan qichqirib, ketib qoldi. Kantichondro qayiqdan chiqib qaradi. Ko'rdiki, ham-rohlaridan biri, qizga hazillashib o'qlanmagan miltiq bilan o'rdakni nishonga olib turibdi. Kantichondro oshnasining orqasidan yugurib kelib, miltig'ini tortib oldi-da, yuziga shunday tarsaki tortdiki, u ag'darilib tushib, qilgan hazili-dan ming pushaymon bo'ldi. Kanti bo'lsa qayig'iga qaytib yana miltiq tozalay boshladi.

Havasmand Kantichondro bir kun ov izlab to'qayning ich-ichiga kirib ketdi. Kutilmaganda u hovlisida bir necha sholi ombori bo'lgan boy dehqon uyini, toza molxonadan sal nariroqdagi daraxt ostida anavi daryo bo'yida uchrat-gan qizni ko'rdi. U yaralangan kaptar uchun zor-zor yig'lar, ho'l etagining uchini siqib, uning sariq tumshu-

<sup>1</sup> Mondakini — hind diniy afsonalariga ko'ra osmonda yana bir Gang daryosi bor; Mondakini mana shu samoviy Gangning nomi emish.

<sup>2</sup> Kalidasa — hind adabiyotining ulug' arboblardan biri, shoir va dra-maturg.

g'iga hech bo'lmasa bir-ikki tomchi suv tomizishga urinardi. Yonida esa, tumshug'ini cho'zib, orqa oyog'ida tik turgan mushuk yirtqichlik bilan kaptarga tikilardi; ochko'z mushuk kaptarga juda yaqin kelgach, qiz bosh barmog'i bilan uning burniga chertib haydadi.

Qishloqning tushki jimligida, dehqon hovlisida ko'ringan bu osoyishta manzara Kantichondroda unutilmas taassurot qoldirdi.

Daraxt barglarining tanga-tanga soyasi va quyosh nurlari qizning tizzalarida o'ynardi. Nariroqda yotgan sigir sekin kavsh qaytarar, erinchoqlik bilan boshi va dumini qimirlatib, yelkasiga qo'ngan pashshalarni haydardi. Sarin shimol shabadasi qamishlarni shitirlatib, allanima deya shivirlaganday bo'lardi.

O'sha kuni daryo sohilida unga o'rmon parisiday ko'ringan qiz — hozir choshgoh sukunatida uning ko'z o'ngida oila hamdardi, uy-ro'zg'or tangrisi siymosida namoyon bo'ldi. Qo'lida miltig'i bilan to'satdan bu qizning oldida paydo bo'lgan Kantichondro jinoyat ustida qo'lga tushgan o'g'riday xijolatda qoldi. Uning qizdan uzr so'rab bu qushni men yarador qilgan emasman, deb aytgisi keldi. Biroq yigit ne yo'sinda uzr aytishni o'ylaguncha bo'lmay, qizni kimdir chaqirdi:

— Shudxa!

— Shudxa! — yana takrorlandi o'sha ovoz, qiz kaptarni qo'lga olib, darrov uyga qarab ketdi.

«Shudxa! Rostdan ham munosib ism», deb o'yladi Kantichondro.

U miltig'ini xizmatkorga berib, uyga tomon yurdi. Unda skameykada o'tirib diniy kitob o'qiyotgan, soqollari toza qirilgan, o'rta yashar, nuroniy braxmanni ko'rdi. Ovchi uning yuzlarida ham boyagi qiz chehrasidagi mehribonlik nishonalarini payqadi.

Kanti e'zoz bilan unga ta'zim etib so'radi:

— Janob, men juda chanqaganman, sizdan suv so'rashim mumkinmi?

<sup>1</sup>Shudxa — xushbo'y gulob demakdir.



Braxman quvonch bilan mehmonni qarshi olib, unga joy ko'rsatdi va o'zi uyga kirib ketdi. U darrov likobchalarda qant-qurs va bir ko'zachada suv olib chiqdi.

Kanti suvga qongach, braxman u bilan tanishdi. Yigit kimligini aytib, quyidagilarni ilova qildi:

— Agar biror narsada mening yordamim lozim bo'lib qolsa, aslo tortinmay so'rashingiz mumkin.

— Siz menga nima bilan ko'maklashingiz mumkin? — dedi Nobin Bondepadxaya. — Mening balog'atga yetgan Shudxa ismli qizim bor, agar unga loyiq qobil kuyov topib erga bersam, men o'zimni dunyoviy burchlarimdan qutulgan hisoblardim. Biroq bu orada unga munosib kuyov yo'q, men esa, tangri Krishnaning muborak suratini uyda qoldirib, kuyov qidirib ketolmayman.

— Agar siz, iltifot qilib, mening qayig'imga borsangiz u yerda kuyov to'g'risida o'ylashib ko'rardik, — dedi Kanti.

Kantichondro o'z joyiga kelib, hamrohlaridan bir necha kishini Bondepadxayaning qizi haqida qo'shimcha ma'lumotlar topib kelishga yubordi. Ular kelib, hammalari bir og'izdan, bu qiz fe'lu atvorda Lakshmining xuddi o'zi ekan, deb aytdilar.

Ertasiga braxman kelganda, Kanti uni zo'r e'zozikrom bilan qarshi olib, qiziga og'iz soldi.

Nobin Bondepadxaya bu kutilmagan baxtdan shunday hang-mang bo'ldiki, anchagacha biror og'iz so'z deyolmay qoldi. Bu yerda biror anglashilmovchilik bo'lmasin tag'in degan gumon bilan, so'rab ham ko'rdi:

— Siz mening qizimga rostdan ham uylanmoqchimisiz?

— Shunday, agar siz rozi bo'lsangiz men tayyorman.

— Shudxagami? — takror so'radi braxman.

— Ha, — tasdiqladi Kanti.

— U bilan uchrashib, gaplashish niyatingiz bormi? — so'radi Nobin bir oz o'ziga kelib.

— O, men bu ishni nazari baxayr marosimida qilmoqchiman, — dedi yigit, qiz bilan ko'rishganini sezdirmay.

— Mening Shudxam yaxshi qiz, — dedi Nobin ovozi qaltirab. — Uy-ro'zg'or ishlarida unga hech kim teng kelolmaydi. Siz uni ko'rmay uylanishga ahd qilibsiz. Men sizlarga fотиha beraman, u Lakshmiddek xushfe'l qiz, hech qachon erining izmidan chiqmaydi, uni ranjitmaydi, deb umid qilaman.

Kanti uylanishni paysalga solib o'tirmadi, to'yni magx oyiga tayinladilar. To'y tantanalarini o'tkazish uchun Mojumdorlarning qadimiy uylari ijaraga olindi. Belgilangan kunda tantana bilan kuyovnavkarlar kelishdi. Oldinda fil minib kuyov yetib keldi, uning orqasidan qo'llariga mash'al ko'tarib kuyovnavkarlar kelishdi, muzika sadolari yangradi...

Nazari baxayr marosimida Kantichondro kelinga qaramadi-yu, lekin tuzukroq ko'rolmadi, chunki Shudxaning upa-elik surkalgan yuzi pastga qaragan edi. Kantining esa, quvonchdan yuragi tipirchilab, ko'z o'ngini tuman qopladidi.

Xotinlar nikoh xonasiga to'plangach, biri, qishloqning eng mo'tabar ayoli, kuyov kelinning yuzidagi pardani ochsin, deb talab qildi. Kanti pardani tortib tushirdi-yu, yuragi «shuv» etib ketdi. Go'yoki ko'ksida allaqanday qora yashin chaqnab miyasini teshib o'tganday bo'ldi. Bir lahzada to'yxonani nurafshon etib turgan hamma chiroqlar go'yo so'ngan edi, yigitning yuzlariga xafalikning quyuq soyasi qo'ndi. Kuyov yonida Shudxa emas, tamom boshqa bir qiz o'tirardi!

Kantichondro bir vaqtlar ikkinchi marta uylanmaslikka ahd etgan edi. Nahotki shu ahdini buzgani uchun taqdir uni masxaralagan bo'lsa? U do'stlarining maslahatiga quloq solmay, qanchadan-qancha sohibjamol qizlarni rad etgan edi. Hech narsani pisand qilmay, tag-tuglikni ham, davlat-boylikni ham, latofat nazokatlikni ham nazariga ilmay, kelib-kelib botqoqlikdagi noma'lum qishloqdan kambag'al bir xonadonning qizini o'ziga hayot yo'ldoshi deb tanladimi? «El-yurtning ko'ziga qanday ko'rinaman?» — deb o'yladi Kantichondro.

U dastlab butun qahr-g'azabini qaynotasiga to'kdi. Imonsiz chol bir qizni ko'rsatib boshqasiga uylantiribdi. Ammo yigit o'ylab qarasa, braxman to'y oldida qizlarini umuman unga ko'rsatmagan — u o'zi ham, qizni ko'rishim shart emas, deb aytgan. Shuning uchun Kanti, yaxshisi bu dahshatli aldovni ham, o'zining ahmoqligini ham oshkor qilmaslikka ahd etdi.

Kantichondro hap dorini yutdi-yu, uning achchiq ta'midan uzoq vaqtgacha qutulolmadi. Nikoh xonasi uning uchun o'z latofatini yo'qotgan edi. U hammaga zahrini sochar, o'z qilmishidan diqqati oshardi.

Birdan kuyov yonida o'tirgan kelin qichqirib yubordi: xonaga bir quyoncha chopib kirib, hayiqmay uning oyoqlari ostiga tashlandi, quyon ketidan Kanti daryo sohilida ko'rgan haligi qiz paydo bo'ldi. U qo'rqqan quyonchani ushladi-da, yuzlariga mahkam bosib, mehr bilan erkalata boshladi.

— Tentak keldi! — deb qichqirishdi ayollar va unga, chiqib ket, deb ishora qilishdi. Lekin qiz pinagini buzmay, kuyov bilan kelinning ro'parasida o'tirib, ularni tomosha qila boshladi.

Uyga cho'ri xotin kirib, qizning qo'lidani ushladi, lekin Kanti:

— Unga tegma, qo'y, o'tirsin! — deb cho'rini chetlashtirdi.

So'ngra Kantichondro quyoncha ushlagan qizga murojaat qilib so'radi:

— Oting nima?

Biroq qiz hech qanday javob bermay, uyoqdan-buyoqqa tebrana boshladi. O'tirgan ayollar kulib yuborishdi.

Kanti boshqa savol berdi:

— O'rdakchalaring yaxshi o'syaptimi?

Qiz lom-mim demay, yigitga qarab turaverdi. Xijolatda qolgan Kanti bor kuchini yig'ib yana so'radi:

— Kaptaring tuzalib qoldimi?

Biroq u hech qanday javob ololmadi. Xotinlar xoxolab kulishdi.

Nihoyat, Kanti bildiki: qiz ham soqov, ham kar bo'lib, qishloqdagi hamma hayvonlar bilan do'stlashib yurarkan, o'sha kuni Shudxani chaqirganlarida, u tasodifan o'rtidan turib ketgan edi.

Kantining yuragi orqasiga tortdi: axir u dunyoda eng baxtsiz odam bo'lishi mumkin edi-ya! Bir tasodif tufayli kasofatdan qutulib, o'z xotirjamligini saqlab qolibdi. «Agar men bu qizga og'iz solganimda, — deb o'yladi Kantichondro, — chol darrov rozi bo'lar, nima qilib bo'lsa ham bu baxtsizdan qutulish uchun uni menga berishga urinardi».

Yigit o'zini maftun etgan dehqon qizi haqidagi o'ylari bilan band ekan, o'z rafiqasiga mutlaqo e'tibor qilmasdi. Kantichondro o'zini asir etgan qiz soqov va kar ekanini bilgach, butun olamni o'rab olgan qora parda birdan yirtilib tushib ketdi. Havoyi xayollar yo'qoldi, u atrofdagi narsalarni farq qila boshladi. Kanti yuragidan o'tilib chiqqan bir og'iz nafas bilan yengil tortib, xijolatda o'tirgan kelinga yana nazar soldi. Endi, rostdan ham, nazari baxayr edi. Yigit qalbidagi nur chiroqlarning yog'dusiga qo'shilib, qizning yoqimli chehrasini yoritdi. Kanti bo'lib o'tgan hodisadan sira o'kinmadi! U xotining yoqimli, chiroyli yuzini ko'rib bildiki, Nobinning duosi qabul etilibdi.

— Doktor, doktor!

— Yana uxlagani qo'yishmadi, — to'ng'illadim men va zo'rg'a ko'zimni ochdim. Qarasam qarshimda bizning zamindorimiz Dokxinachoronbabu turibdi.

Men sakrab o'rnimdan turdim, kajava suyanchiqli stulni beriroq surib, mehmonni o'tqizdim-da, tashvish bilan yuziga qaradim. Kechasi soat ikki yarim edi.

Ranglari o'chgan, qo'rquvdan ko'zlari olaygan Dokxinachoron so'z boshladi:

— Bugun kechasi yana dardim tutdi. Sizning doringiz hech narsaga arzimaydi.

— Ehtimol siz vinoni ko'proq ichib qo'ygandirsiz, — uyalinqirab luqma soldim men.

— Gap vinoda emas. Mening boshdan kechirganlarimni bilmasdan diagnoz qo'yishga urinib, katta xato qilyapsiz.

Tokchadagi chiroq past qilib qo'yilgandi. Men piligini ko'tardim, chiroq qattiq tutay boshlasa ham, uy bir oz yorishdi.

Men yelkamga choyshapni yopdim-da, ustiga gazeta yozib qo'yilgan yashikka o'tirib, u kishining tarixini eshishga hozirladim.

Dokxinachoron babu hikoyasini boshladi.

— Mening birinchi xotinim judayam qo'l-oyoqli ayol edi. O'zim esa u vaqtda uy-ro'zg'or ishlarini juda kam o'ylardim — yosh edim, she'riyatga berilib ketgandim, ko'nglimda Kalidas dostonining misralari yangrardi.

*Hamrohimiz, do'stimiz, uyimizning bekasi,*

*Go'zallikning shaydosi, dil mulkin malikasi...*

Lekin she'riyat mening xotinim uchun tamom yot narsa edi. U mening nafosatli gaplarimni eshitib, qahqaha urib kulib yuborar va natijada, tabiiyki, mening go'zal kayfiyatim tamom barbod bo'lardi.

Indiraning fili Gangning haybat bilan oqishini ko'rib qo'rqqandek, mening she'riy satrlarim va oshiqona nafis

so'zlarim ham uning kulgusidan lablarimda qotib qolardi. U xandon urib kulishga bag'oyat qobil edi.

Bir necha yil o'tdi. Men qattiq og'rib qoldim, isitmadan qaqshab, azob chekardim. O'lim yaqinlashib kelmoqda, sog'ayishdan deyarli umid uzilgandi. Doktorlar ham mendan qo'lni yuvib qo'ltiqqa urishgan edi.

Kim-qaysi qarindoshimiz bir braxmanni boshlab keldi. U menga tuyib, yoqqa bulangan o'simlik tomirini berdi. Shu tomir shifo berdimi yo taqdir shundaymidi, bilmayman, har nechuk tirik qoldim.

Men og'rib yotganimda xotinim bir daqiqa orom topmasdi. Zayifgina shu ayol o'lim tangrisi Yamaning ostonamizga kelib turgan elchisi bilan kechayu kunduz olishdi. U mening arzimas hayotimni xuddi emizikli bolasiday asrar, butun muhabbati, mehru shafqatini shunga sarf etar edi.

Uxlamas, yemas-ichmasdi, uning uchun olamda mendan bo'lak hech narsa yo'qday edi.

Yama ovi yurishmagan yo'lbarsday, meni o'z changalidan bo'shatdi, ammo u keta turib xotinimga dahshatli zarba berishga ulgurgan edi. Men og'rigan choqda u homilador edi, tez orada ko'zi yoridi, lekin bolasi o'lik tug'ildi. Shundan keyin, unda g'alati bir kasallik paydo bo'ldi.

Kasal chog'ida unga qarashsam uning jahli chiqardi.

— Nega bunday qilasiz? — derdi. — Odamlar eshitsa nima deydi?

Kechasi, uning isitmasi ko'tarilganda, men go'yo o'zimni yelpigan bo'lib, yelpigich bilan uni sal yelpisam, yelpigichni qo'limdan tortib olardi. Har safar, uning ba'zi ishlariga qarashib, ovqatga besh-o'n minut kechiksam, ta'na, nasihat, iltimos boshlanardi. Yordamlashish niyatida nimaiki qilsam, hamma vaqt uning noroziligiga duch kelaverdim.

— Erkak kishining haddan tashqari g'amxo'r bo'lishi yaxshi emas, — der edi u.

Siz bizning Boronagordagi hovlimizga borgandirsiz. Xotiringizda bo'lsa, u yerdagi uyimiz bog'ning ichida,

bog' etagidan esa Gang daryosi oqib o'tadi.

Yotog'imizning janub tarafdagi derazasi oldida xotinim bir oz yerni choptirib gulzor qilgan. Bu — bog'imizning ko'rimsizgina oddiy bir joyi edi. U yerda xushbo'y hidlar bilan rang-barang chechaklar ham yo'q, g'uch yaproqlar gullar jamolini to'sib yotmasdi. U yerda yosh nihollar o'sgan va lotincha yozuvli bayroqchalar tikilgan gultuvaklar ham yo'q edi. Gulzorda jasmin va atirgulning har xil navlari, sambit va tuberoz gullarigina o'sardi. Azim bakul daraxti soyasida oq marmar supa bo'lib, xotinim sog' vaqtida uni har kun ikki da'fa yuvdirib tozalattirdi. Yozda, uy ishlaridan bo'shagach, u shu yerda hordiq chiqarishni yaxshi ko'rardi. Bu pana yer edi, u yerda katerda yuradigan savdo xodimlariga ko'rinmasdan turib, Gangni tomosha qilish mumkin edi.

Xotinim yota berib zerikkanidan, bir oydin kechasi:

— Uyda qamalib yota bersang diqqinafas bo'lasan, kishi. Yuring, mening gulzoringa chiqaylik, — deb taklif qildi.

Men uni avaylab daraxt tagiga olib borib, marmar supaga asta yotqizdim. Uning boshini tizzamga qo'yib o'tirgim kelardi. Biroq u bu ishinni bari bir yoqtirmaydi, shuning uchun boshiga yostiq qo'ya qoldim.

Daraxtdan gulbarglar to'kildi, novdalar orasidan oy ko'rinib, bemorning ozg'in yuzlarini yoritdi. Atrof jimjit edi...

Men bo'lsam bog'ning muattar hidlar bilan to'la bu qorong'i burchagida o'tirib, xotinimga tikilganча yig'lardim.

Yaqinroq o'tirib, ikki qo'lim bilan uning oriq issiq qo'llarini ushladim. U qarshilik qilmadi.

Dastlab xomush o'tirdim. Biroq qalbim nozik hislar bilan to'lib-toshganidan chidolmay:

— Sening muhabbatingni aslo unutmayman! — deb xitob qildim.

Jim turganim tuzuk edi, albatta. Xotinim kulib yubordi. Uning kulgisida xijolat, baxtiyorlik, shubha bor edi,

lekin unda kinoya ko'proq edi. U go'yo so'zsiz e'tiroz bildirdi: «Azizim, bunday bo'lmaydi, meni aslo unutmasligingga ishonmayman», deganday bo'ldi.

Men ana shu qattiq, lekin achchiq kulgidan hamna vaqt qo'rqib, xotininga bunday ko'ngilchan gaplarni aytishga botinmasdim. Xotinim yo'q vaqtda yuragimda to'lib-toshgan shirin so'zlar uning huzurida tamom keraksiz bo'lib qolardi.

Kitobda o'qiganingda yig'latadigan jumlalar nima uchun uning shunday qattiq kulgisiga sabab bo'lishini men hamuzgacha tushunolmayman.

So'zga e'tiroz qilish mumkin, biroq kulgiga qanday javob berish kerak? Jim turishdan boshqa iloj yo'q edi.

Oy nuri yanada ravshanroq bo'ldi. Qaerdadir kakku nola qilardi. «Shunday kechada uning ma'shuqasi bu faryodni eshitmasligi mumkinmi?» — deb o'yladim men.

Zo'r berib davolashimizga qaramay, xotinimning salomatligi yaxshilanmadi. Shundan keyin doktor, iqlim o'zgartirilsa bemor shifo topar, deb maslahat berdi, biz Olloobodga jo'nadik.

Dokxinachoron hikoyani to'xtatib, menga g'alati qilib bir qaradiyu, boshini ushlab o'yga toldi. Chiroq pirpirab yonar, chivinining vizillashi barala eshitilardi.

Dokxinachoron hikoyani davom ettirdi:

— Olloobodda xotinimni doktor Xaran davolay boshladi. Vaqt o'tar, lekin bemorning ahvoli boyagi-boyagi edi. Axiyri, doktor bu dardning bedavo ekanligini aytdi, buni xotinim bilan men ham ko'pdan bilardik.

Bir kun xotinim menga bunday dedi:

— Aftidan men hech qachon tuzal olmayman, lekin haliveri o'lmasam ham kerak. Tirik murda bilan yana necha yil yashaysiz, noma'lum. Yaxshisi — uylaning.

U, bu gaplarni juda oddiy qilib gapirdi, bunda sun'iy balandparvozlilikdan ham, ayanch fidoilikdan ham asar yo'q edi. U yaxshi va oqilona maslahat bermoqda edi, xolos.

Kulish navbati menga keldi. Biroq men uning o'ziday qilib kula olarmidim. Men xuddi roman qahramoniday



viqor bilan jiddiy qiyofada:

— Toki jonim tanimda ekan... — deya soʻz boshlashim bilan:

— Bas, bas! — deb norozilik bildirdi u. — Boshqa soʻz hojat emas, eshitishga tobim yoʻq.

Biroq, men yengilganimni tan olgim kelmay, davom etdim:

— Men hayotimda boshqa hech kimga koʻngil qoʻymayman.

Xotinim yana xandon urib kuldi. Men dildorlikni toʻxtatishga majbur boʻldim.

Oʻsha vaqtda bu xususda oʻz-oʻzimga iqror boʻlibmidim, boʻlmabmidim bilmayman, ammo hozir menga ravshan: u vaqtda oʻladigan kasalni parvarish qilib yurib ruhan tolgan edim. Bu ishni tark etarman degan fikr boshimga ham kelmagan, ammo endi unrim shunday oʻtardi-da, deb oʻylash ogʻir edi.

Hayhot, yoshligimda kelajakni fusunkor sevgi, goʻzallik, baxt-saodat bilan toʻla deb tasavvur etardim. Endi esa, koʻz oʻngimda qovjiragan, quvonchsiz, bepoyon sahro yastanib yotadi...

Xotinim mening charchaganimni payqardi, albatta. Endilikda yaxshi tushunib turibmanki, oʻsha vaqtda men xotinim uchun, hali harflarni bir-biriga qoʻshib yozishni oʻrganmagan birinchi sinf bolasiday sodda va joʻngina narsa ekanligimni oʻzim bilmas ekanman.

Shuning uchun ham, men oʻzimning shoirona fikrlarimni xuddi roman qahramoni singari qiroat bilan izhor eta boshlaganimda u muloyimgina, lekin kinoyali qilib kular edi. U, hamma sir-asrordan voqif parvardigorday meni oʻzimdan ham yaxshiroq bilganini eslasam, uyalib oʻlguday boʻlaman.

Doktor Xaran bizning toifamizdan edi. U tez-tez meni uyiga taklif qilardi, koʻp oʻtmay qizi bilan ham tanishtirdi. Qizi oʻn beshga qadam qoʻygan boʻlsa ham, hali erga chiqmagan edi. Doktor, munosib kuyov topolmay turibman, deb hasrat qilardi. Toʻgʻri, eshitishimga qaraganda, qizning tarixida qandaydir tumanli jihatlar bormish. Lekin

boshqa nuqsi yo'q edi. Uning bilimdonligi ham husniday barkamol edi.

Goho qiz bilan turli mavzularda suhbatlashib qolib, uya kech qaytar, xotinimning dori ichadigan vaqtiga yetib kelolmasdim. U doktornikida mehmon bo'lganimni bilar, lekin buncha uzoq o'tirib qolasiz, deb so'ramas edi.

Go'yo sahroda sarob ko'rindi. Tashnalikdan toqatim toq bo'lganda, birdan, zilol suv oqib turgan chashmani ko'rib qoldim. Butun irodamni ishga solsam ham, undan bosh ko'tarolmas, orqaga qaytolmas edim.

Kasal yotgan xona yanada ko'ngilsiz ko'rina boshladi. Endi men kasalning holidan muntazam xabar ololmas, uning vaqtida dori ichishini kuzatmasdim.

Xaran babu bo'lsa:

— Sog'ayish umidi bo'lmaganidan keyin, bunday yashashdan ko'ra o'lgan yaxshi, — der edi ko'pincha, — bunday bemorlar o'zi ham azob chekadi, boshqalarni ham azobga qo'yadi.

Umuman olganda bu gap to'g'ri edi. Biroq, mening xotinim haqida shunday deyish mumkinmi? Doktorlar bemorlarga nisbatan juda ham berahm bo'ladilar, ular xoksar odamlarning ruhiy kechinmalarini qaerdan bilsin?

Bir kuni qo'shni xonada turib, tasodifiy ravishda, xotinim bilan Xaran babu orasidagi gapni eshitib qoldim.

— Mening hayotim azob-uqubatdan iborat bo'lib qoldi — deb shikoyat qilardi xotinim. — Menga shunday dori kerakki, doktor, uni ichay-da, tezroq o'lib, bu azobdan qutulay.

— Bunaqa gapning nima keragi bor? — ranjiganday e'tiroz bildirdi doktor.

Bu gapni eshitib ko'nglim juda buzilib ketdi. Doktor ketishi bilan kasalning karavotiga o'tirib, peshonasini ohista silay boshladim.

— Borib aylanib keling, uy juda dim, yo'qsa kechqurun yana ovqatga ishtahangiz bo'lmaydi, — dedi xotinim.

Aylanib kelmoq — doktornikiga borishdan iborat edi.

Taom oldidan bir oz sayr qilish juda foydali, deb men o'zim aytib yurardim.

Endi bilsam u mening hiylamni darhol sezib olgan ekan. Men ahmoq, u hech narsani payqamaydi, deb yurar ekanman. Dokxinachoron jim bo'lib qoldi so'ngra suv so'radi. Suv ichib bo'lgach, hikoyasini davom ettirdi:

— Doktorning qizi Monoroma mening xotinimni ko'rib kelmoqchi bo'ldi. Nechundir, bu gap menga ma'qul tushmadi. Ammo e'tirozga o'rin yo'q edi. Shunday qilib, bir kun oqshom payti u biznikiga kirib keldi.

O'sha kuni xotinimning ahvoli odatdagidan yomonroq edi. U ahvolining og'irligidan mukka tushib yotar, bo'zday oqargan yuzlari, musht qilib qisilgan qo'llari qattiq azob chekayotganini ko'rsatardi.

Kasal yotgan xona jimjit edi. Men uning bosh tomonida o'tirgandim. Boyoqish ayolning endi aylanib keling, deb aytishga ham majoli yetmasdi. Ehtimol, og'ir damlarida yonida bo'lishimni xohlagandir. Bemorning o'z dardini yengillatishga urinib, og'ir-og'ir nafas olishigina eshitalardi.

Kutilmaganda ostonada Monoroma paydo bo'ldi. Ko'ziga chiroq yorug'i tushib, qorong'i uyda hech narsani ko'rmadi shekilli, ostonada taysallab qoldi.

Xotinim qo'rqqanidan mening qo'llarimni ushlab:

— Kim bu?! — deb yubordi.

Notanish odamning paydo bo'lishi kasalni qo'rqitgan edi, u pichirlab o'z savolini yana bir necha marta takrorladi:

— Kim, kim bu axir?

Men sarosimaga tushib:

— Bilmayman, — deb po'ng'illadim.

Nazarimda birov meni xipchin bilan urganday bo'ldi.

— Ha, bu kishi doktorimizning qizlari-ku, — dedim bir ozdan keyin.

Xotinim menga qaradi, ammo men uning yuziga boqolmadim.

— Kiring, — dedi bemor zaif tovush bilan mehmonga

va menga qarab: — Chiroqni olib keling, — yedi.

Monoroma bemorning yonida o'tirdi. Ular gaplashib ketdilar. Tez orada doktor ham keldi. U o'z dorixonasidan ikki shisha dori ham olib kelgan edi.

Doktor dorilarni ko'rsatib, kasalga tushuntira boshladi:

— Havorang shishadagi dorini badanga surkaysiz, mana bunisini ichasiz. Adashtirib qo'ymang, havorang shishadagisi kuchli zahar.

U, bu haqda meni ham ogohlantirib, shishalarni kasal yonidagi kursiga qo'ydi.

Hademay doktor xayrlashib, qizini ham qistadi.

— Dada, mening kasal oldida qolganim yaxshi emasmi, — so'radi qiz. — Axir, bu kishiga qaraydigan hech kim yo'q.

— Yo'q, yo'q, tashvish qilmang, jonim, — dedi xotinim. — Uyda keksa cho'rimiz bor, u meni o'z onamdek parvarish qiladi.

— Siz, xuddi Lakshmiddek, hamisha o'zgalarga g'amxo'lik qilasiz, ammo o'zingiz tufayli biron begona odamning bezovta bo'lishiga yo'l qo'ymaysiz, — deb kuldi doktor keta turib.

— Doktor, erim ertadan beri dim uyda o'tiribdi, uni birga olib keting, ozgina bo'lsa ham sof havoda nafas olsin, — iltimos qildi bemor.

Xaran babu uning fikrini quvvatladi:

— To'g'ri, yuring biz bilan, daryo bo'yida aylanamiz.

Men yo'q deganday qo'l siltadim-u, ammo tezda shu taklifga rozi bo'ldim. Doktor xotinimni: dorilarga ehtiyot bo'ling, deb yana bir karra ogohlantirdi.

Men har kungidek kechki ovqatni doktornikida yeb, uyga kech qaytdim. Xotinim dardning zo'ridan jonini ko'ygani joy topmasdi.

— Ahvoling yomonlashdimi? — hovliqib so'radim men.

Gapirishga holi yo'q edi, menga so'zsiz nazar soldi.

Bo'g'ma dardi boshlandi.

Men vaqtni boy bermay, doktorga odam yubordim. U keldi, lekin gap nimada ekanini anchagacha tushunolmay turdi.

Dard borgan sari kuchayar edi...

— Badanga dori surkalganmidi? — xayolga botib so'radi doktor va kursidan havorang shishani olib qaradi. U bo'sh edi.

Shundan so'ng xotinimga murojaat qildi:

— Siz yanglishib bu dorini ichib qo'ydingizmi?

Xotinim bosh egib tasdiqladi.

Doktor shu zahoti asbob olib kelish uchun uyiga jo'nadi — u kasalning ichlarini yuvmoqchi edi.

Men, birdan oyog'im singandek, kasalning oyoqlariga yiqildim. U meni yupatishga urinib, yosh boladay boshimni ko'kragiga bosdi. Qo'llari go'yo: «Xafa bo'lma, azizim, oqibati xayrli bo'ladi, sen baxtiyor bo'lasan, buni bilib men ham baxtli bo'laman», deyayotganday edi.

Doktor qaytib kelganda xotinim azoblardan qutulgan: uning hayoti ham, dardlari ham tugagan edi.

Dokxinachoron yana suv ichdi.

— Oh, juda ham dim-a, — deb uydan chiqdi-da, ayvonning u burchidan-bu burchiga yura boshladi.

Aftidan, ortiq gapirgisi yo'q edi. Ammo men, xuddi gipnozchiday, uning og'zidan so'zlarni sug'urib olmoqda edim, u yana hikoya qila boshladi.

— Doktorning oq fotihasi bilan men Monoromaga uylandim. Ikkimiz mening vatanimga qarab jo'nadik.

Monoroma mening oshiqona so'zlarimga kulmay, jiddiy turib quloq solardi. Uning qachon va nechun menga ishonmay qolganini sira tushunolmayman.

Bu orada men mayxo'rlikka berilib ketdim.

Bir kuni, erta bahorda, Monoroma ikkimiz Boronagordagi bog'imizda sayr qilib yurardik. Qosh qoraydi. Qushlar inlarida jim bo'lib qolishdi. Xiyobonning ikki tarafida qorayib turgan daraxtlarning barglari shitirlardi. Monoroma charchadi, ikki qo'lini boshiga qo'yib, sizga

ma'lum marmar supaga yonboshladi. Men yonida o'tirdim. Daraxt osti timqorong'i bo'lib, osmonning yulduz to'la kichik bir parchasi ko'rinardi, xolos. Qaerdadir, uzoqda osmondan daraxt soyasiga tushgan jimlikda chigirtkalarining chirillashi yaqqol eshitilar, xuddi birov mayin o'rgimchak uyasini to'qiyotganday tuyulardi.

O'sha oqshom men andak sharob ichganim uchun kayfim yaxshi edi.

Ko'z qorong'iga ko'nikkandan so'ng supada yotgan xorg'in ayolning arang ko'ringan chehrasiga qarab rahimim keldi. Nazarimda, u qo'l tegizib bo'lmaydigan jimsiz ko'lankaday tuyuldi.

Birdan daraxtlarning shoxlari alanga olganday bo'ldi — yangi oy astagina osmonga ko'tarilib borliqqa sarg'ish nur sepdi, bu nur oq marmar supani va unda yotgan horg'in ayolning chehrasini yoritdi.

Men toqat qilolmadim, xotinimga yaqinroq o'tirib, uning qo'llarini ushladim-da:

— Monoroma, sen ishonmaysan, ammo men seni sevaman. Men seni hech qachon unutmayman! — deb xitob etdim.

Shu so'z og'zimdanda chiqdi-yu, birdan ko'nglim g'ash bo'lib qoldi — men bu gapni ilgari boshqa bir ayolga ham aytganimni esladim!

Shu onda oyning sarg'ish nurlari bilan yorishib turgan daraxtlar ustida Gangning sharq sohilidan qattiq qahqaha yangrab o'tdi: «Ha-ha-ha!»

Bu — qalblarga kirib boruvchi kulgimidi, g'amzali ko'ngilning faryodimidi, bilmayman, har holda men shu zahoti hushdan ketib, supadan yiqildim. Ko'zimni ochsam uyda, o'mimda yotibman.

— Sizga nima bo'ldi? — deb so'radi xotinim.

— Sen u dahshatli kulguni eshitmadingmi? — qaltirab savolga savol bilan javob berdim men.

— Hech kim kulgani yo'q. Bizning yonimizdan bir gala qush uchib o'tdi, xolos. Siz qanotlarning sharpasini eshitgandirsiz. Shundan ham qo'rqqaningizga hayronman.

Kunduzi ularning qush ekanini o'zim ham angladim.

Darhaqiqat, yilning bu faslida shimoldan Gang sohili-ga yovvoyi g'ozlar uchib keladi. Ammo kechalari meni yana vahima bosardi. Nazarimda, tepamda, osmon qorong'iligini qoplab bir gala g'oz turganday, sal narsaga qattiq qag'illab, tovushi olamni tutadiganday tuyulardi. Endi oqshomlari Monoroma bilan so'zlashishga botin-masdim.

Boronagordagi uyimni qoldirib, xotinim bilan daryo sayohatiga jo'nadik. Sarrin shabada vahimani sal tarqatdi.

Men bir necha kun o'zimni baxtiyor his etdim. Tabiat go'zalliklari Monoroma qalbining ko'pdan buyon berk darchalarini ochishga majbur etganday tuyulardi.

Biz Gangda suzib borib Padmaga yetdik. Dahshatli Padma uyquga tolib, mudragan oriq ilonni eslatar edi. Daryoning shimol qirg'og'ida, ufqqacha cho'zilgan kimsasiz, giyosiz cho'l yastanib yotar, unda qumlarning shirillasbi eshitilardi. Janub qirg'oqda atrofi mango darax-ti bilan qurshab olingan bir qishloqcha dahshatli daryo oldida qaltirab turardi.

Padma uyquda u yonboshidan-bu yonboshiga ag'dari-larkan, nuragan qirg'oqlar shaloplagancha daryoga qulab tushar edi.

Shu yerda bir oz aylanib yurgim keldi — shuning uchun sohilga kelib to'xtadim.

Monoroma bilan sayr qilib yurib juda uzoqqa ketib-miz. Quyosh botdi. Uning so'nggi zarrin nurlari to'lin oynning salqin ziyosi bilan qo'shilib ketdi. Hademay osmonda oynning o'zi qoldi, uning shaffof nuri cho'lni yoritib yubordi. Nazarimda, biz intihosiz, kimsasiz oy saltanatida ketayotganday edik.

Monoroma qizil ro'molga o'ranib olgan, na yuzi, na qomati ko'rinar edi. Sukunat cho'kib, atrofda cheksiz oq qumloqdan boshqa hech narsa ko'rinmagach, u qo'lini bo'shatib, mening panjalarimni qisdi. Pinjimga kirib, go'yo o'zini, o'z hayotini, yoshligini menga ishonib top-shirganday bo'ldi.

Mening yuragim nozik hislar bilan to'ldi. «Uyning to'rt devori orasida turib, muhabbatni hech qachon bunaqa his etmaysan, kishi», deb o'ylardim.

Ochiq, erkin, intihosiz osmon gumbazi bizning yagona boshpanamiz edi. Go'yo uyimiz yo'q, hamma to'siqlar olib tashlangan, orqaga qaytish hojat emas-u, biz qo'l ush-lashib, oydin sahro bo'ylab keta beramiz.

Biz juda uzoqqa borib, qumloqda bir chuqurga duch keldik. Bu — Padma suvi toshganda hosil bo'lgan ko'lmak edi. Qumlar bilan o'rab olingan, uyqudagi singari sokin bu ko'lmak suvga oynning xira nuri tushib turardi.

Biz to'xtadik. Monoroma menga qarab, o'yg'a toldi. Boshidan ro'moli tushib ketdi. Men egilib uni o'pdim. Birdan kimsasiz, poyonsiz bu cho'lda kimningdir barala gapirgani eshitildi:

«Kim bu? Kim bu? Axir, bu kim?»

Ikkimiz ham cho'chib tushdik, ammo darrov bildikki, bu na odam, na arvoq, bu — sohilda yurgan suv qushla-rining ovozi edi. Kechasi allamahalda inlari oldida sirli qadam tovushini eshitib, qushlar hurkkan edilar.

Biroq bizni vahima bosdi, shuning uchun darrov kemamizga qaytib yotdik. Charchagan Monoroma darhol uxlab qoldi.

Shunda kimdir mening bosh tomonimda turib, ori-q panjalari bilan Monoromani ko'rsatib, qulog'imga shivir-ladi:

«Kim bu? Kim bu? Axir, bu kim?»

Men sapchib turib chiroqni yoqdim. Sharpa yo'qoldi, ammo shu onda tepamizdagi chodir va qayiqni larzaga keltirib, kecha zulmatida qattiq bir faryod ko'tarildi. Bu qichqiriqdan tomirlarda qon to'xtab badanimdan ter chiq-di. Bu dahshatli faryod Padmani kesib o'tib, u sohildagi shahar va qishloqlar ustida yangradi. U faryod butun mamlakat ustidan uchib, qit'alar ustidan parvoz etib, bor-gan sari ingichkalashib, qayoqqadir, yiroqlarga intilar, bu olamning intihosiga yetgach, ignaning uchiday ingichka bo'lib qolganday tuyulardi...



Men ilgari bu xil tovushlarni eshitmagan va shunday narsa bo'lar deb gumon ham qilmagan edim.

Bu paytda, mening boshimga butun cheksiz osmon joylashib olgan-u, ovoz qancha yiroqlarga borsa ham, miyamning chegarasidan o'tib ketolmas edi...

Men ortiqcha toqat qilolmay, chiroqni o'chirdim — shunday qilsam yengil bo'lar deb o'yladim. Qorong'i bo'lishi bilan haligi bo'g'iq ovoz yana takrorlana boshladi:

«Kim bu? Kim bu? Axir, bu kim?»

Qayiqda, tun jimligida, mening cho'ntak soatingga ham jon kirdi. Soat strelkasi Monoromani ko'rsatib, raqamlardan so'rardi:

«Kim bu? Kim bu? Axir, bu kim?»

Dokxinachoron murdaday oqarib, nafasi siqila boshladi.

Zamindorning yengidan ushlab turib maslahat berdim: — Suv ichib oling.

Chiroq lip-lip qilib o'chdi. Bu vaqtda tong otgan, tashqari yop-yorug' edi. Qaerdadir qarg'a qag'illadi. Chunchuqlar chug'urladi. Uy yonidan taraqlab arava o'tib ketdi.

Dokxinachoronning chehrasi juda o'zgarib ketdi, qo'rquvdan asar ham qolmadi. Tungi bir vahima tufayli shuncha gapirib qo'ygani uchun o'zini o'ng'aysiz his etdi; men ham uning ko'ziga yomon ko'rinib ketdim chog'i. Xayrlashmay, shartta o'rnidan turib, uydan chiqib ketdi. O'sha kuniyoq, yarim kechada mening eshigimni yana taqillatishdi:

— Doktor, doktor! — degan ovoz eshitildi.

1894-yil.

Kechki payt bo'ron yana ham zo'raydi. Yomg'ir chelaklab quyari, chaqmoq chaqib, momaqaldiraq guldurar, go'yo osmonda xudolar bilan iblislar orasida shiddatli jang borardi. Olamni barbod etuvchi qora bayroq singari bulutlar jadallab uchardi. Isyonkor to'lqinlar bo'g'iq shovillab, keng Gang bo'ylab raqsga tushar, bog'lardagi azim daraxtlar bo'lsa, shoxlarini tartibsiz silkib, dahshatli ingrar, uyoqdan-buyoqqa tebranar edi.

Xuddi mana shu payt Chandernagordagi hovlilarning birida, derazalari mahkam berkitilgan bir uyda, karavot yonidagi bo'yrada o'tirib, eru xotin tortishmoqda edi.

— Bu yerda yana bir oz turamiz, sen butunlay sog'ayib ketgach, uyimizga qaytamiz, — dedi Shorotbabu.

— Men soppa-sog'man, — deb e'tiroz qilardi Kironmoyi. — Agar hozirning o'zidayoq uyga qaytsak ham hech narsa bo'lmaydi.

Bunday bahsning men bayon etgandek qisqa bo'lmasligini har bir xotinli kishi biladi, albatta. Garchi bu mummo unchalik mushkul bo'lmasa-da, munozara uni hal etishga zarracha yordam bermadi: Munozara — eshkakchisiz qayiqday, nuqul bir joyda gir aylanardi. Bora-bora ko'z yoshi to'lqinlari ostida qolish xavfi paydo bo'ldi.

— Doktor seni, yana bir oz shu yerda turishi kerak, deyapti, — davom etdi Shorot.

— Ha, albatta, sizning doktoringiz hamma narsani biladi.

— Hamma narsani bilmasa ham, hozir ko'p yerda kasal tarqalganini juda yaxshi biladi, shuning uchun yana bir ikki oy Chandernagorda yashash oqilona maslahatdir.

— Ha, aftidan, bu yerning odamlari kasalning nima ekanini bilmasalar kerak! — javob berdi Kiron.

Voqea mana bunday edi. Kironni hamma — uydagilar ham, qo'shnilar ham, hatto qaynonasi ham qattiq hurmat

qilardi. Shuning uchun u og'ir kasal bo'lib, doktor iqlimni o'zgartirishni maslahat berganda, eri va qaynonasi sira ikkilanmay o'z uylarini ham, ishlarini ham qoldirib, begona joylarga ketishga oshiqdilar. Qishloqning hamma dono odamlari havoni o'zgartirish bilan bemorning sog'ayishiga ishonish, xotinni deb shunchalik daxmaza qilish — hozirgi zamon yoshlarining besharm tantiqligidan boshqa narsa emas, degan fikrda edilar.

— Nima, hozirgacha hech kimning xotini og'ir kasal bo'lmabdimi? Nahotki Shorot bormoqchi bo'lgan joyda odamlar o'lmasa? Axir, taqdirni o'zgartirib qutulish mumkin bo'lgan mamlakat bor emishmi? — deyishardi ular.

Ammo Shorot va uning onasi bu xil gaplarga quloq solmadi. U paytda sevimli Kironning hayoti ularga butun qishloq donishmandligidan qimmatroq edi. Ha, yaqin kishisining boshiga kulfat tushganda, odam ko'pincha yanglishadi!

Shorot Chandernagorda bog'-rog'li bir uyga tushdi. Kiron hali tuzuk darmonga kirmagan bo'lsa-da, ancha sog'aygan edi. Uning ozib cho'zilgan yuzi va ichiga tortgan ko'zlari kishining rahmini keltirar edi; unga qaraganda, yurak orqaga tortib, beixtiyor, dardni qanday yengdi bu sho'rlik, deb o'ylardi kishi!

Biroq juvon bu yerda juda zerika boshladi. Chunki hammaga el bo'ladigan xushchaqchaq ayol bu yerda na ro'zg'or ishlariga qatnasha olar, na qo'shnilar bilan suhbatlashar edi; uzzukun o'z kasali haqida o'ylab tek o'tirishni esa yoqtirmasdi. Har soatda dori tomizish, uni ichish, buni ilitish, parhez tutish — bular uning joniga tegib ketdi.

Bu bo'ron oqshomida, uylarining eshik va derazalarini mahkam bekitib, er-xotin shu xususda munozara qilmoqda edilar.

Kiron e'tiroz bildirib turganda, bahs baravar kuchlar orasida davom etganday tuyulardi; biroq xotini Shorotdan yuz o'girib, boshini quyi solib, xomush bo'ldi deguncha boyoqish erining tarvuzi qo'ltig'idan tushib, nima deyishi-

ni bilmay qoldi. U yengilganiga iqror bo'lay deb turganda, birdan xizmatkorlarning shovqini eshitildi.

Shorot turib eshikni ochdi. Surishtirib bilsa, daryoda bir qayiq botibdi, undan bir braxman bola suzib qirg'oqqa, bularning bog'lariga chiqibdi.

Bu xabarni eshitib Kironning qaysarligidan asar ham qolmadi. U, darhol braxman bolaga quruq kiyim tayyorladi, sut qaynatib qo'ydi va uni o'z xonasiga olib kirishni buyurdi.

Bu — uzun sochli, olako'z bolaning iyagiga hali birorta tuk ham chiqmagan edi. Kiron uning qornini to'yg'azib, so'ngra kim va qaerdan ekanini so'radi.

Bolaning aytishiga qaraganda, u daydi — sayyor bir truppaning aktyori bo'lib, nomi Nilkanto ekan. Ular shu yerga yaqin bir joyda yashaydigan Singx janoblarning uyida tomosha ko'rsatish uchun taklif qilingan ekanlar. Qayiq to'ntarilib ketgandan so'ng sheriklarining ahvoli ne kechganini bilmas ekan; u yaxshi suza olgani uchun halokatdan salomat qutulibdi.

Nilkanto shu uyda turib qoldi. Bolaning arang xalos bo'lganini eslaganda Kironning unga juda rahmi kelib ketardi.

«Juda yaxshi bo'ldi, — deb o'yladi Shorot ham, — Kironga ermak topildi; endi Chandernagorda yana bir-muncha vaqt turishi mumkin».

Qaynona ham bu tasodifiy voqeadan mamnun edi, u bunga yaxshilik bilan nom chiqarishning bir vositasi deb qaradi. Nilkanto bo'lsa, truppa boshlig'i va ajal changalidan qutulib, bu badavlat xonadonga tushgani uchun ham baxtiyor edi.

Biroq bir oz vaqt o'tgandan keyin Shorot bilan onasining bu bolaga munosabati o'zgara boshladi. «Endi uning keragi yo'q, — deb o'ylashardi ular, — undan qancha tez qutulsak shuncha yaxshi».

Nilkanto, ichidagi suvining kuldirashidan zavqlanib, yashirincha Shorotning xukkasini (chilimini) chekib yuradigan bo'ldi. Yomg'irli kunlarda Shorotning yaxshi

ko'rgan shohi soyabonini boshiga tutib ko'cha-ko'yda yangi tanishlar qidirish unga zavq berardi.

Nilkanto qandaydir egasiz bir kuchukni ergashtirib yurardi, uni erkalatib shu darajaga olib keldiki, kuchuk Shorotning shinam yotog'iga to'g'ri kirib kelib, oq choyshabda to'rttala oyog'ining iflos izlarini uzoq vaqtga yodgorlik qilib qoldirar edi. Bundan tashqari, Nilkanto o'z atrofiga bir gala bolani to'plab mango mevasini shunday qiyratdiki, ularning dastidan Chandernagor bog'larida bu mevaning biror donasi pishmay g'o'raligidayoq tamom bo'ldi.

Rostdan ham, Kiron bu bolani haddan tashqari erkalatib yubordi. Shorot bilan onasi unga buni bir necha marta gapirsalar ham, yosh juvon ularning gapiga hech qanday ahamiyat bermadi. Bola shu choqqacha Shorotning eski kiyimlarini kiyib yurardi, endi Kiron unga yangi dxoti, chador va kavush olib berib, boyvachchalardek kiyintirib ham qo'ydi. Kiron uni tez-tez o'z huzuriga chaqirib erkalar, shu bilan o'zini ham bir qadar ovutar edi.

Kiron ba'zan jilmayib, yoniga qutida betel qo'yib, karavotda o'tirar, cho'ri xotin esa, uning cho'milgandan so'ng hali qurimagan sochlarini tarab quritish bilan mashg'ul bo'lar edi; Nilkanto bo'lsa, yonida turib «Nal va Damayanti»dan<sup>1</sup> ayrim boblarni kuyga solib, qo'llarini harakatga keltirib ijro etardi. Choshgohdan keyin vaqt shu zaylda sezilmay o'tib ketardi. Kiron tomoshabinlar qatoriga erini ham qo'shish niyatida uni o'z yoniga o'tqizardi. Biroq Shorot shunday loqayd bo'lib, zerikib o'tirardiki, bu hol Nilkantoning o'z san'atiga bo'lgan e'tiqodini bir daraja pasaytirardi. Ba'zan, tangrilarining muqaddas nomlarini eshitish uchun qaynona ham kelardi, biroq tezda uyqu bosib uning xudojo'yiligini yengib qo'yar, u darrov turib yotog'iga jo'nardi.

Shorot tez-tez Nilkantoning qulog'idan cho'zar, tarsak bilan tortar, urar, tepardi, lekin bola go'daklikdan bosh-

<sup>1</sup> «Nal va Damayanti» — qadimiy hind eposi «Maxobxorot» dostonlaridan biri.

lab bundan ko'ra og'irroq sharoitda yashagani uchun bu xil muomalani xo'rlik deb bilmas, xafa bo'lmasdi. U qat-tiq ishonardiki, yer sathi quruqlik va dengizlardan iborat bo'lgani singari, odam hayoti ham goh ovqat, goh kaltak yemoqdan iborat bo'lib, bundan keyingisi bir qadar ko'proq ham bo'lishi mumkin.

Nilkantoga qarab uning yoshini aniqlash qiyin edi. O'n to'rt yoshda desang — yuzlari bundan ko'ra kattaroq odamni eslatar, o'n yetti yoshda desang — hali u yoshga yetmaganday tuyulardi. U goho bemahal ulg'aygan bolaga, goho hali yetilmagan yigitga o'xshardi.

Gap shundaki, u juda yosh chog'idan sayyor truppga tushib, Radxa, Damayanti, Sita, Bidde<sup>1</sup> rollarini ijro qildi. Taqdirning marhamati bilan, u truppa boshlig'iga qancha lozim bo'lsa, shuncha o'sdi-yu, so'ngra o'sishdan to'xtadi. Atrofidagi odamlar unga boladek muomala qilardilar, o'zi ham bola bo'lsam kerak deb o'ylardi. Biror kimsa unga yoshiga munosib hurmat ko'rsatmadi. Mana shunday tabiiy va ayni zamonda g'ayritabiiy sharoit ta'sirida Nilkanto o'n yetti yoshida o'n to'rt yashar o'smirdek ko'rinsa ham, balog'atda o'n yetti yoshlilardan o'zib ketgan edi.

Shu choqqacha mo'ylovi chiqmaganligi ham yosh bola ekanligi haqidagi taassurotni mustahkamlar edi. U yoshligidan cheka boshlagandanmi yoxud kattalardek gapirganidanmi, har nechuk, lablari katta odamlarnikiga o'xshardi. Ammo katta ko'zlarining porlashi — sofdillik, yoshlikni ifoda etardi. Men, Nilkanto hali ham yuragida bola, deb o'ylayman, biroq sayyor truppga kelishi uni katta odamga o'xshatib qo'ygan.

Nilkanto Chandernagorga kelib Shorotbabuning uyidan boshpana topgandan so'ng, tabiat qonunlari unga

---

<sup>1</sup> Radxa — qo'ychivon qiz, mifologiyasida ma'buda Krishnaning sevgilisi; Damayanti — «Nal va Damayanti» dostonining qahramoni, qiz; Sita — «Ramayana» degan qadimiy hind dostonidagi qahramon Ramaning xotini; Bidde — «Bidde va Shundor» degan o'rta asr bengal dostonining qahramoni, qiz.

bemalol ta'sir qila boshladi. Uning g'ayritabiiy ravishda cho'zilgan bolalik davri qisqa bir muddatda yo'qolib, o'n yetti yoshlik yigitligi o'zini ko'rsatdi-ko'ydi.

Unda paydo bo'lgan o'zgarishni hech kim sezmay qoldi, ammo Kiron unga bola deb muomala qilganda, uyaladigan va hatto xafa bo'ladigan bo'ldiki, bu Nilkantodagi o'zgarishning birinchi alomatlari edi. Bir kuni Kiron hazillashib o'z dugonasiga taqlid qilish uchun, undan ayol kiyimi kiyishni so'radi. Bu taklif hech kutilmaganda bolaga haqoratday tuyuldi, biroq nima uchun ekanini o'zi ham bilmasdi. Shundan beri uni, eski rollardan birortasini o'ynab ber, deb chaqirgudek bo'lsalar, yashirib yuradigan bo'ldi. Ammo, shunday bo'lsa ham, endi u men kimman, sayyoh artistlar truppasidagi baxtsiz bir o'smirmanda, deb o'ylamasdi.

U Shorotning bir xizmatkori yordami bilan bir oz o'qib, yozishni ham o'rganmoqchi bo'ldi. Biroq u uy bekasining erkatoyi bo'lganidan xizmatkorning uni ko'rishga ko'zi yo'q edi. Umrida o'qimagan Nilkantoga ham fikrni bir joyga yig'ib, bir narsa ustida o'ylash qiyin, shuning uchun u o'qishga kirishganda, harflar ko'z o'ngida sakrardi. Yigitcha Gang sohilidagi banan daraxtga suyanib, tizzasiga kitobni ochib qo'yib, uzoq-uzoq o'tirardi. Daryo to'lqinlari shatoplar, yonidan qayiqlar suzib o'tar, tinmagur bir qushcha daraxt yaproqlari orasida nima haqidadir g'ujurlardi. Nilkanto esa kitob sahifasiga qarab nimani o'ylaganini faqat o'zi bilar, balki o'zi ham bilmasdi. Bola bir so'zni amallab o'qisa ham, ikkinchisiga sira o'tolmas, ammo o'qib turibman, degan tushuncha uning butun vujudini g'urur hissi bilan to'ldirardi. Ayniqsa oldidan qayiq suzib o'tganda u qomatini yanada rostlab, kitobni ko'zlariga yaqinroq keltirib, go'yo o'qish bilan mashg'ulday allanimalar deb valdirardi... Ammo tomoshachilar ko'zdan g'oyib bo'lishi-bilan uning o'qishga havasi ham tugardi.

Nilkanto o'z ashulalarini hamisha kuylab yursa ham, burun ularning mazmuniga zehn solmasdi. Endi esa, bu

kuylar uni hayajonga keltiradi. Bu qo'shiqlarning mazmuni juda sayoz bo'lib, keraksiz tashbehlar bilan to'ldirilgani uchun uning saviyasidagi odamga og'irlik qilardi, shunga qaramay Nilkanto:

*Ikki bor tug'ilgan oqqush bo'lsang ham',*

*Nega berahmsan, ayt-chi, oppoq qush?*

*Nechuk halok etding ul malikani,*

*Bu odam yurolmas qora o'rmonda?*

deb kuylaganida, o'zini boshqa bir olamga kirib kelgan-day his etar edi; qo'shiq — uni o'rab olgan tabiatni ham, uning ayanch hayotini ham tamom o'zgartirib yuborgan-day bo'lardi. Malika Damayanti va oqqush haqidagi rivoyat yigit qalbini ajib bir nur bilan yoritgan edi. Bu qo'shiq aytganda u o'zini kim deb hisoblashni aniq aytish qiyin, har holda, sayyoh artistlar truppasidagi yetim bolaman, deb o'ylamas edi.

Kambag'allarning ko'hna qorong'i kulbasida baxtsiz bolalar oqshom yotib shahzodayu malikalar, yetti podsholikning xazinalari haqida ertak tinglaganlarida ularning qalbi qashshoqlik va muhtojlik zanjirini uzib, o'sha sehrli olamga ko'chadi. U yerda mumkin bo'lmagan narsa yo'q, u yerda hamma narsa muhayyo: ajoyib go'zal qiyofa, shohona liboslar, yengilmas kuch, xuddi mana shuningdek, hamma narsadan mahrum etilgan darbadar artistlar truppasidagi bu go'dak ham o'z qo'shiqlari bilan o'ziga boshqa olam yaratar, unda o'zi ham o'zgarib ketar; qo'shiqlarining ohangi, qandaydir, sehrli bir yo'l bilan oyog'i ostidagi suvning shovillashini, barglarning shitirlashini, qushlarning sayrashini, yuzlari erkalatuvchi tabassumdan yorishgan, nilufardek nozik qo'llariga bilaguzuk taqqan, latif oyoqlariga xina qo'ygan, bu baxtsiz bolaga

<sup>1</sup> «Ikki marta tug'ilgan» deb Hindistonda uch oliy tabaqani — kastani ataganlar. Hind poeziyasida qushlarni ham «ikki marta tug'ilgan» deydi-lar, chunki qushlar bir marta tuxum holida, ikkinchi dafa jo'ja holida tug'iladilar, degan aqida bor. Shuning uchun qushlarda ham oliy tabaqa odamlari singari rahmdillik, olijanoblik sifatlari bo'ladi, deb faraz etiladi.



boshpana bergan anavi ma'budaning siymosini aks ettirar edi. Biroq ashulaning sehri bir lahzada yo'qolib, yana darbadar artistlar truppasida juldur kiyim kiyib yurgan eski Nilkanto qoldi. Shorot kelib uning yuziga bir necha tarsaki tushirdi, bu — mango bog'lari qiyragan qo'shnilarning shikoyati natijasi edi. Nilkanto yana bolalarga bosh bo'lib, suvda, quruqda va daraxt shoxlarida noma'qul ishlar qilib yura boshladi.

Xuddi shu vaqtda Kalkuttadan kanikulga Shorotning ukasi Shotish kelib qoldi. U kollej studenti edi. Kiron uning kelishidan juda quvondi — unga yangi ermak topildi: u qaynisi bilan hazillashib, uning jig'iga tega boshladi. Kezi kelganda shuni ham aytish kerakki, ularning yoshi baravar edi. Kiron goh qo'llarini sariq rangga bo'yab, orqasidan kelib yigitning ko'zlarini berkitar, goh yelkasiga «maymun» deb yozib qo'yar, goh eshikni taraqlatib yopib, uni ichkariga qamab, xandon urib qochardi. Shotish ham qarab turmay, o'ch olar: kalitlarini yashirar, beteliga qalampir separ, yo sezdirmay soriysining uchini karavotga bog'lab qo'yardi. Kunlar shu zaylda hazil-mutoiba, kulgi va sho'xliklar bilan o'tdi. Ba'zan janjallar, ko'zyoshlari, kechirim so'rashlar ham bo'lib, oqibat yana yarashdilar.

Ammo bu orada Nilkantoga qanday jin tekkanini bilib bo'lmasdi. Uni kim, qanday qilib xafa qildi, buni o'zi ham bilmaydi, ammo achchiq bir alam yuragini o'rtaganini biladi. U o'z tevaragidagi bolalarni bekordan-bekorga urib qaqshatar, o'zi boqib olgan kuchukchanning shikoyatomuz g'ingshiganiga qaramay, uni ham huda-behudaga kaltaklar edi. U, hatto o'simliklarni ham ayamas, qo'lga tayoq olib daraxt va nihollarning shox-shabbalarini urib sindirardi.

Kiron ishtahali odamlarni o'z oldiga o'tqizib, ularning ovqat yeyishiga qarab turishni yaxshi ko'radi. Nilkanto bu jihatdan bekamu ko'st nusxa bo'lib shirinroq bir taomni yeyish uchun necha marta taklif qilishmasin, biror marta «yo'q» degan emas. Shuning uchun Kiron uni tez-tez chaqirib mehmon qilib turardi. Bu braxman bolaning

lunjlarini to'ldirib, yamlab yutishi yosh juvonning juda ham zavqini keltirar edi. Biroq Shotish kelgandan buyon Nilkantoning ovqat yeyishini tomosha qilishga ham Kironning vaqti bo'lmay qoldi. Ilgari bunday hodisalar Nilkantoning ham ishtahasiga hech qanday ta'sir qilmasdi: u sutni shimirib, idishini ham chayqab ichgandan keyingina turib ketardi. Endi bo'lsa ovqat bemaza tuyular, taom tugamay o'rnidan turar, yegani tomog'idan o'tmas, hafagazak bir ovoz bilan cho'ri ayolga:

— Mening ovqat yegim yo'q, — deb jo'nab qolardi.

U, Kiron buni bilib rahmi keladi, orqamdan odam yuborib ovqat yegin, deb aytadi, ammo men bu gaplarga ko'nmay: «Ovqat yegim yo'q», deb turib olaman, deb o'ylardi; biroq Kiron hech narsani bilmaydi, birovni uning oldiga yubormaydi ham, qolgan ovqatni esa cho'ri xotin o'zi yeb qo'ya qoladi. Kechki ovqatdan so'ng bola o'z xonasida chiroqni o'chirib, o'zini karavotga tashlab, boshini yostiqa ko'mib, qorong'ida achchiq-achchiq ho'ngraydi. Qiziq, nega yig'laydi, kimdan shikoyat qiladi? Kim kelib unga tasalli berishi kerak? Hech kim... Nihoyat, hamma alamdialarning tasallichisi — uyqu parisi kelib, nozik qo'llari bilan bu sho'rlik yetimni ham asta-sekin tinchitadi.

Nilkanto, Shotish meni Kiron oldida beburd qilib qo'yadi, degan fikrga keldi. Ba'zan Kiron biron sabab bilan xafaroq ko'rinsa, u, Shotishni chaqimchiligi bilan mendan ranjigan, deb gumon qilardi. Shundan e'tiboran, bola ikkinchi tug'ilishimizda meni Shotish, Shotishni Nilkanto qilib yarat deya, sidqidildan xudoga yolvoradigan bo'lib qoldi.

Braxman tovush chiqarmay, ichida duo qilsa ham xudoning dargohiga yetib boradi. Mana shunga ishongan yigit sas-sado chiqarmay Shotishni braxman g'azabining alangasida kuydirmoqchi edi-yu, biroq bu o't uning o'zini kuydirardi, yuqori qavatdan uning qulog'iga hamon Shotish bilan Kironmoyining hazil va quvnoq kulgi sadolari eshitilib turardi.

Nilkantoning Shotishni ko'rgani ko'zi yo'q, lekin u buni ochiq aytishga botinmasdi, paytini topsa, uning g'ashiga tegib, shu bilan tasalli topardi, xolos. Agar Shotish Gangda cho'milib sovunni sohildagi zinapoyaga qo'ysa Nilkanto poylab turib, student sho'ng'igan hamon olib qochardi. Shotish esa keyin sovunni qidirib topmasdi. Bir kuni u cho'milayotib qarasa, yaxshi ko'rgan guldor yoqali ko'yilagi oqib ketyapti. Shamol uchirgan bo'lsa kerak, deb o'yladi u, ammo shamolning qayoqdan esgani sir bo'lib qola berdi.

Bir kuni Kiron Shotishni xursand qilish uchun bolani chaqirib, o'ynab yurgan rollarini ijro qilishni so'radi, ammo Nilkanto qovog'ini solib indamay turaverdi.

— Senga nima bo'ldi? — hayron bo'lib so'radi Kiron. Bola javob bermadi. — Huv ana u qo'shig'ingni ayt axir,— takror so'radi juvon. Nilkanto esa:

— Men uni esimdan chiqarib qo'yibman, — dedi-yu, ketib qoldi.

Nihoyat, Kironning uyga qaytadigan vaqti bo'ldi. Hamma safarga hozirlana boshladi. Shotish ham ular bilan birga ketadigan bo'ldi. Nilkantoni esa hech kim esiga ham olmadi. U biz bilan ketadimi, qoladimi deb o'ylab ham ko'rishmadi.

To'g'ri, Kiron bolani birga olib ketishni taklif etdi. Ammo eri, qaynonasi, qaynisi bunga bir og'izdan norozilik bildirishdi. Oxiri u yon berishga majbur bo'ldi.

Nihoyat, jo'nashga ikki kun qolganda Kiron bolani chaqirib, uni o'z qishlog'iga qaytishga maslahat berdi.

Shuncha e'tiborsizlikdan so'ng Kironning mehribonlik bilan aytgan so'zlarini eshitgach, bolaning ko'ngli to'lib yig'lab yubordi. Ayolning ham ko'zlari jiq yoshga to'ldi. U, shundoq tashlab ketar ekanman, begona bolani erkala-tib o'zimga o'rgatib nima qilardim, deb o'zidan qattiq nolidi.

Bu hangomaning tepasida turib, so'loqmonday bolaning ko'zyoshi to'kkanini ko'rgan Shotish nafratlandi.

— Bu qanaqa kallavaram o'zi! — dedi u, — gap yo'q, so'z yo'q, ho'ng'raydi.

Bu xil qattiq gaplari uchun Kiron undan o'pkalaganda, u bunday deb javob berdi:

— Singlim, siz odamlarni bilmay, ularga haddan ziyoda ishonasiz. Uning kim va qaerdan ekani noma'lum, ammo sizning uyingizda osmondan tushganday aziz. Tabiiy sherning qayta sichqon bo'lgisi kelmaydi, u sizning rahmdil ekaningizni yaxshi bilib, ko'zyoshi to'kmoqda — sizdan ajralgisi yo'q.

Nilkanto bu gapga chidolmay, nari ketdi. U xayolida pichoqqa aylanib, Shotishni tilka-pora qilar, igna bo'lib sanchilar, olovga aylanib uni kuydirardi, ammo bularning baridan Shotish zarracha zarar ko'rmadi, Nilkantoning yuragi qon bo'ldi, xolos.

Shotish Kalkuttadan juda ko'rkam siyohdon olib kelgan edi: ikki sadaf qayiqda bittadan davot, o'rtada kumush qanotli oqqush tumshug'ida pat tutib turibdi. Shotish bu siyohdonni juda yaxshi ko'rar, uni shohi latta bilan avaylab artib yurardi. Kiron o'qtin-o'qtin tegajaklik qilib:

*Ikki bor tug'ilgan oqqush bo'lsang ham,  
Nega berahmsan, ayt-chi, oppoq qush?  
Nechuk halok etding ul malikani  
Bu odam yurolmas qora o'rmonda?*

deb oqqushning tumshug'iga chertar, shundan so'ng, Shotish bilan uning orasida hazil, kulgidan iborat dahana-ki jang boshlanardi.

Jo'nashga bir kun qolganda ertalab siyohdon yo'qolib qoldi.

— Ukajon, sening oqqushing Damayantini qidirib uchib ketibdi, — dedi Kiron kula-kula.

Biroq Shotishning juda jahli chiqqan edi. U siyohdonni, albatta Nilkanto o'g'irlagan deb o'yladi — chunki kechqurun bolani o'z xonasi oldida aylanishib yurganini ko'rgan, buni boshqalar ham ko'rishgan edi.

Aybdorni Shotishning huzuriga olib keldilar. Kiron ham shu yerda hozir edi. Shotish darhol Nilkantoga hujum boshladi.

— Mening siyohdonimni nega o'g'irlading? Uni qayoqqa qo'yding? hozir topib kel!

Shorot Nilkantoni goh gunoh qilgani uchun, goh be-kordan-bekor bir necha marta urgan edi, bola hammasiga bardosh berib keldi. Biroq Kironning huzurida siyohdon o'g'irlashda ayblaganlarida, uning ko'zlari o't chaqnab, g'azabning zo'ridan ko'ksi tez-tez qalqa boshladi, agar Shotish yana bir og'iz gapirganda u yovvoyi mushukday tashlanib, panjasining hamma tirmoqlarini uning badaniga botirar edi.

Kiron bolani qo'shni xonaga chaqirib muloyimgina gapirdi:

— Nilu, agar siyohdonni sen olgan bo'lsang, sekin olib kelib menga bera qol. Senga va'da beraman, agar shunday qilsang, hech kim senga bir narsa demaydi!

Nilkantoning katta ochilgan ko'zlaridan yosh dumalab tushdi, so'ngra u yuzlarini bekitib, achchiq-achchiq yig'ladi.

Kiron uydan chiqdi.

— Men aminmanki, siyohdonni Nilkanto olgan emas,— dedi u.

— Nilkantodan boshqa kim bu ishni qila oladi? Hech kim! — bir ovozdan qat'iy e'tiroz bildirishdi Shorot bilan Shotish.

— Kimligini bilmayman, lekin u emas! — dedi Kiron ham qat'iy qilib.

Shorot bolani chaqirib yana so'roq qilmoqchi edi, xotin bunga rozi bo'lmadi.

— Bo'lmasa u yotgan xonani, sandiqni tintish kerak,— deb taklif qildi Shotish.

— Agar siz shunday qilsangiz, biz abadiy dushman bo'lib qolamiz, — dedi Kiron. — Men begunoh bolaning orqasidan josuslik qilishga yo'l qo'ymayman.

Shu so'zlarni aytganda, uning ko'zlariga kelgan yosh masalani hal etdi: boshqa hech kim Nilkantoga og'iz ochib biror so'z demadi.

Quruq tuhmatga qolgan yetimning ahvoli Kironning yuragida shafqat hissini uyg'otgan edi. U, dxoti, ko'ylak, chador va oyoq kiyimidan iborat ikki qator yaxshi sarpo tayyorladi-da, yana o'n rupiya pul olib, kechqurun Nilkanto yotib yurgan hujraga kirdi. U, bolaga hech narsa demay, bu hadyalarni uning sandig'iga solib qo'ymoqchi edi. Bu temirsandiq ham uning hadyasi edi.

Kiron soriysining uchidan kalitni yechib, sekingina sandiqni ochdi, ammo keltirgan narsalarini unga sololmadi, chunki unda: qog'oz varraklarni uchirish uchun g'altak, bambuk novdalari, mango g'o'ralarini kesib olish uchun o'tkir qilib qo'yilgan chig'anoq, siniq stakan va shunga o'xshash narsalar to'lib yotardi. Kiron, sandiqdagi narsalarni tartibga solib, sovg'alarni unga sig'dirish mumkin bo'lar, deb o'yladi. Juvon sandiqdan bu ashqoldashqollarni, bir necha kir va toza ko'ylaklarni buyoqqa olgandan so'ng, sandiqning ostidan Shotishning anavi la'nati siyohdoni chiqib qolsa bo'ladimi!

Taajjubda qolgan kiron o'zidan-o'zi qizarib, qo'lida siyohdon bilan qotib qoldi. U Nilkantoning kirib kelganini ham sezmedi. Bola hammasini ko'rdi.

Kiron meni o'g'irlikda ayblash uchun dalil izlab uyimga kelibdi, deb o'yladi Nilkanto. Mana dalil qo'lida! Holbuki, u, siyohdonni Shotishdan o'ch olish niyatida olib kelgan edi. Uning murodi siyohdonni Gang suviga tashlab yuborish edi, biroq, bir lahzalik ikkilanish tufayli bu niyatidan qaytib, uni sandiqqa yashirib qo'ygandi. U endi bu gaplarni qanday qilib Kironga tushuntiradi? Bordiyu tushuntirishga urinsa, u ishonarmikin? Axir, Nilkanto o'g'ri emas-ku, yo'q, u o'g'ri emas, axir! Bo'lmasa, u kim? Endi u nima deb javob berishi kerak? U o'g'irlik qildi, lekin u o'g'ri emas, shuning uchun Kironning uni o'g'ri deb gumonsirashi adolatdan emas. Nilkanto buni hech qachon unga tushuntirolmaydi, lekin bunday gumonsirashlarga toqat ham qilolmaydi.

Kiron chuqur xo'rsinib siyohdonni qayta sandiqqa soldi. Xuddi o'g'ridek, uni kir ko'ylaklar bilan yopib,

tepasidan varrak uchiradigan g'altak, bambuk tayoqchalar, g'ildiraklar, chig'anoqlar, siniq shishalar va boshqa o'yinchoqlarni solib, ularning ustiga o'z hadyalarini va o'n rupiya pulni qo'ydi.

Biroq ertasiga braxman bola g'oyib bo'ldi. Mahalliy aholidan so'rashsa, ko'rmadik, deb aytishdi. Politsiya ham uni topolmadi. Shunda Shorot:

— Kelinglar, endi uning sandig'ini ochib ko'ramiz, — deb qoldi.

Ammo Kiron qat'iy ravishda:

— Bu bo'lmagan gap! — deb ularning shashtini qaytardi.

U Nilkantoning sandig'ini o'z xonasiga olib kelishni buyurdi va undan siyohdonni olib, hech kimga sezdirmay, Gang sohiliga eltib suvga tashladi.

Shotish va Shorotbabuning boshqa oila a'zolari jo'nab ketishdi. Faqat Nilkanto o'rgatgan kuchukcha ochlikni unutib, sohilda shikoyatomuz g'ingshib, behuda umid bilan egasini qidirardi.

Qishloq bolalarining jo'raboshisi Fatik Chokrobortining kallasiga yangi fikr keldi. U daryo qirg'og'ida yotgan yo'g'on xodani kema langariga aylantirmoqchi bo'ldi. Fatik, bu ishda hamma qatnashishi kerak, degan qarorga keldi. Bu ishning qanchadan-qancha taajjub, gap-so'z va noroziliklarga sabab bo'lishini o'ylab, hamma bolalar shu taklifga xursandchilik bilan rozi bo'ldilar.

Hammalari yeng shimarib, g'ayrat bilan ish boshlaymiz deb turganlarida birdan Fatikning ukasi Makxonlal xodaning ustiga o'tirib oldi. Bolalar o'z mehnatlariga bunchalik beparvolikni ko'rib, dastlab gangib qoldilar. So'ng bittasi astagina kelib Makxonlalni turtib yubordi. Biroq bu chora hech kor qilmadi. Bola, hamma o'yinlarning bir chaqa degandek qilib, bemalol xayol surib o'tiraverdi.

Jahli chiqqan Fatik ukasiga qarab:

— Menga qara, urib abjag'ingni chiqaraman! Tur o'ringdan! — deb baqirdi.

Ammo Makxonlal bir qimirlab qo'ydi-yu, yana ham yaxshiroq o'tirib oldi.

Albatta, bunday holda, boshqalar oldida obro'ni saqlash uchun gapga kirmas ukaning quloq-chakkasiga tushirishi lozim edi, biroq Fatik bunga jur'at etolmadi. Fatik, Makxonlalning adabini berish unga hech gap emas-u, lekin undan qiziqroq o'yin o'ylab topgani uchun bu ishdan tiyilib turganday ko'rinardi. U bolalarga xodani ukasi bilan birga yumalatib yuborishni taklif qildi.

Makxonlal, mayli, juda qiziq bo'ladi, dedi-yu, bu qaltis o'yinning oqibati naqadar xavfli ekani na uning, na boshqalarning aqliga kelmadi.

Bolalar: «Ha, qani! Ha, qani!» — deb xodani qimirlata boshladilar.

Xoda sal aylanishi bilan Makxonlal ag'darilib tushdi. Bu bolalargan kutganlaridan ham ortiqroq ta'sir qilib, kula-kula ichaklari uzilayozdi. Lekin boshqalar kulsa ham, Fatik bir oz esankiradi. Makxon sakrab o'rnidan turdi-da, akasiga tashlanib, uni savalay boshladi. So'ngra,



hammayog'i timdalangan holda yig'lab uyga jo'nadi. Shu bilan o'yin tamom bo'ldi.

Fatik bo'lsa bir ko'katni yulib, yarim cho'kkan qayiqning uchiga chiqib o'tirdi-da, indamay ko'kat poyasini shimiy boshladi.

Shu paytda qirg'oqqa bir qayiq kelib to'xtadi. Undan o'rta yoshli, sochlari oq, murtlari qora bir janob chiqib keldi.

— Chokrobortining uyi qaerda? — deb so'radi u Fatikdan.

Bola poya shimib turib:

— Ana u yerda, — deb javob berdi.

Biroq, u qaysi tomonga ishora qilganini bilish qiyin edi.

Notanish janob savolini takrorladi:

— Qaerda?

Bu gal Fatik yana poya shimishni davom ettirib:

— Bilmayman, — deb javob berdi.

Shundan so'ng u janob boshqa kishidan so'rab olib, Chokrobortining uyiga qarab ketdi.

Shu orada uydan Bagxa Bagdi kelib:

— Fatik, yur, seni onam chaqiryapti, — dedi.

— Bormayman!

Bagxa uni zo'rlik bilan qo'lida ko'tarib olib ketdi. Fatik esa jon-jahdi bilan pitirlar, tipirchilar edi. Onasi uni ko'rgan hamon jahl bilan o'shqirdi.

— Sen Makxonni yana urdingmi?

— Men urganim yo'q! — dedi bola.

— Yolg'on gapiryapsan!

— Hech urganim yo'q, ishonmasangiz Makxondan so'rang.

Ammo Makxon o'z shikoyatini takrorladi. Fatik chidolmadi. Yugurib ukasining oldiga bordi-da:

— Yolg'on gapirma! Yolg'on gapirma! — deb qarsilab shapaloq bilan quloq-chakkasiga tortib yubordi.

Onasi Makxonning tarafini olib, Fatikning yelkasiga bir necha marta qattiq musht tushirdi. Shundan so'ng bola onasini itarib yubordi. Bu holni ko'rib ona:

— Hali sen menga qo‘l ko‘tarmoqchi bo‘ldingmi? — deb qichqirdi.

Xuddi shu paytda:

— Nima gap? — deb xonaga haligi qora murtli notanish janob kirib keldi.

Fatikning onasi hayrat va quvonchdan terisiga sig‘may:

— Voy, bu akam-ku! Hay, siz qachon keldingiz? — deb mehmonga ta‘zim qildi.

Akasi g‘arbga ishga ketganiga bir necha yil bo‘lgan edi. Bu orada Fatikning onasi ikki o‘g‘il ko‘rdi, eri o‘ldi, lekin akasi hanuz kelmagan edi. Endi, bir necha yil judolikdan so‘ng akasi vataniga qaytib, singlisi bilan ko‘rishgani kelibdi. Bir necha kun o‘yin-kulgi bilan o‘tdi. Ketishi yaqinlashganda Bishonbxor singlisidan bolalarning o‘qishlari haqida surishtirib qoldi. Singlisi, Fatik o‘jar, injiq, darslarga e‘tiborsiz, Makxon bo‘lsa, mo‘min-qobil bola, deb maqtadi.

— Fatik meni jondan bezor qildi, — deb qo‘shib qo‘ydi u.

Bishonbxor Fatikni olib ketib, Kalkuttada tarbiyalash niyatida ekanini aytdi. Tul xotin darrov rozi bo‘la qoldi.

— Tog‘ang bilan Kalkuttaga borishni xohlaysanmi? — deb so‘radilar Fatikdan.

Bola xursandligidan irg‘ishlab:

— Xohlayman! — deb qichqirib yubordi.

Onasi, Fatik Makxonni suvga itarib yuboradi, boshini yoradi yoxud shunga o‘xshash biror kor-hol qilib qo‘yadi, deb mudom qo‘rqib yurgani sababli, undan qutulganiga sevinib turgan bo‘lsa-da, o‘g‘lining ketishga tayyorligini ko‘rib ko‘ngli buzildi.

Fatik esa:

— Qachon ketamiz tog‘a, — deb so‘ragani-so‘ragan edi. U tun bo‘yi Kalkuttani o‘ylab, mijja qoqmay chiqdi.

Ketadigan kuni Fatik muruvvat ko‘rsatib qarmog‘i bilan varragini ukasiga hadya qildi, hadya qilganda ham qaytib olmaslik, o‘zidan so‘ng meros tariqasida bola-chaqasiga qoldirish sharti bilan hadya qildi.

Kalkuttaga kelgach, eng avval tog'asining xotini bilan so'zlashdi. Tog'asining xotini oilada ortiqcha bir nonxo'rning paydo bo'lishidan quvondi deb aytish mumkin emas edi. Uning o'zida uch o'g'il bo'lib, oilada hamma narsani o'zicha tartibga solgan, o'n uch yashar tartibiyasiz qishloqi bolaning paydo bo'lishi esa, bu tartibni buzishi mumkin. Bishonbxor shuncha yoshga kirsam ham sira aqli kirmadi!

Darhaqiqat, dunyoda o'n uch yashar boladan shum narsa bo'ladi. Uni na go'dak deb bo'ladi, na kattalar qatoriga qo'shib bo'ladi. U mehr uyg'otmagandek, baxtga ham loyiq emas. Agar u go'daklardek bo'lar-bo'lmasni gapiraversa — demak, ahmoq: bordiyu kattalardek gapirishga urinsa, uyatsiz, mahmadona. Bo'yi cho'zilib kiyimi tor kelib qolsa, u hammaga beor, xunuk ko'rinib qoladi. O'n uch yoshda bolalik latofati va mayin ovoz yo'qoladi, odamlar buni ham bolaning gunohi deb biladilar. Bolalikda ko'p xatolar kechiriladi, ammo o'n uch yashar o'smirning tabiiy xulqi — kechirilmas gunoh sanaladi. Bunday bola hayotda o'mi yo'qligini o'zi ham sezib, o'z yurish-turishidan nomus qiladi, shuning uchun o'zini chetga olib yurishga urinadi. Xuddi mana shu yoshda bola shirin so'zning gadoyi bo'ladi. Agar bu yoshda biror kishi bolaga yaxshi muommalada bo'lsa, u bola bu odamdan hayotini ham ayamaydi. Lekin o'n uch yashar bolani hech kim sevmaydi, chunki bunday qilganda, bola taltayib ketadi, deyдилar. Shuning uchun o'n uch yashar bola egasiz itdek yakkalanib qoladi.

Tabiiy, bu yoshda bola onasi bilan bo'lgani ma'qul, begona uy uning uchun do'zax. E'tiborsizlik va mensimaslik har qadamda uning yuragiga jarohat soladi. O'n uch yashar o'smir bu yoshda xotin zotini tutqich bermas samoviy bir mavjudot deb o'ylay boshlaydi. Binobarin, uning nafrati bolaga ayniqsa alam qiladi.

Tog'asining xotiniga yoqmaganini o'ylaganda Fatikning yurak-bag'ri ezilardi. Uning uchun tog'asining xotiniga yoqmaganini eslashdan ko'ra qattiq azob yo'q. Tog'asining xotini uni biror ishga buyurganda, u g'ayrat

bilan keragidan ortiqroq qilib o'tar, kelinoyisi esa uning g'ayratini sindirish uchun:

— Bas, bas... senga bir ish buyurib bo'lmaydi! Bor, yo o'qi, yoxud o'z ishingni qil, — der edi.

Kelinoyisining uning ma'naviy kamoloti to'g'risidagi g'amxo'rligi shunday kezlarda haddan tashqari adolatsizlik bo'lib tuyular edi.

Tog'asining uyidagi hayot quvonchsiz, Fatik o'z hasratini kimga aytishini bilmas edi. Chor devor orasida qamalgan bola o'z qishlog'i haqidagi xotiralar bilan yashardi.

U, uzun ipli varrakni uchirib, chopib yurgan maysazorlarni, o'zi to'qigan she'rlarni o'qib kezgan daryo qirg'oqlarini, istagan vaqtda cho'milish, suzish mumkin bo'lgan tezoqar, soy to'lqinlarini, o'rtoqlarini, o'zining sho'xliklarini, erkin hayotini, ayniqsa, adolatsiz va badjahl onasini eslab, alamdan yuragi siqilardi.

Qandaydir tabiiy mehr, aytilmagan hasrat, oldida yaqin kishisi bo'lmagani uchun, bu uyatchan, beso'naqay, ko'rimsiz bolani «ona, ona!» deb nola qilishga majbur etardi. Qosh qorayganda onasini yo'qotgan buzoq xuddi shunday ma'raydi.

Maktabda Fatikdan ko'ra noshud, e'tiborsiz bola yo'q edi. Agar muallim undan savol so'rasa, u og'zini ochib qarab turar, agar unga qattiq gapirishsa, yuk ko'tarib turgandek xomush qolar; tanaffus chog'larida bolalar o'ynagani chopishsa, u deraza oldida jimgina turib, uzoqdagi uylarning tomiga tikilar; agar bu tomlarda bolalar paydo bo'lib, oftobda o'ynashsa, yuragi hovliqib ketar edi.

Bir kuni Fatik jur'at etib:

— Tog'a, men qachon oyimning oldilariga boraman?— deb so'radi.

— Maktabda ta'til boshlanganda, — deb javob berdi tog'asi. Ta'til esa kartik oyida boshlanadi uni hali uzoq kutishga to'g'ri keladi.

Kunlardan bir kun Fatik darslik kitobini yo'qotib qo'ydi. U ilgari ham darsini yaxshi tayyorlamasdi, kitob yo'qolgandan so'ng esa darsga butunlay qaramay qo'ydi.

Muallim uni har kuni tergar, urishardi. Undan hatto tog'avachchalari ham or qilar edilar. Muallim Fatikni urganda yo so'kkanda tog'avachchalari hammadan ko'proq masxaralab kulishar edi. Buncha xo'rlikka chidolmay Fatik bir kuni kelinoyisiga:

— Men kitobimni yo'qotdim, — deb gunohkorona arz qildi.

Kelinoyisi g'azabdan lablarini qisib:

— Juda soz! Lekin men senga oyiga besh marta kitob olib berolmayman! — deb javob berdi.

Fatik «g'ing» demay ketdi. Boshqalar hisobiga yashayotganini o'ylab, yuragida onasidan juda xafa bo'ldi. Kambag'alligi unga endi ta'sir qilgan edi.

O'sha kuni maktabdan kelganda Fatikning boshi og'rib, badanlari uyusha boshladi. Bola o'zini bezgak tutayotganini, agar kasal bo'lib yotib qolsa, kelinoyisini ancha besaranjom qilib qo'yishini bilardi. U o'z kasalining kelinoyisiga qanchalik malol kelishini ravshan tasavvur etardi. Bu qiziq tabiatli, tentak bola, yotib qolsam menga onam emas, begonalar qaraydimi, degan andisha bilan kasalini hech kimga aytmadi.

Ertasiga ilk saharda Fatik g'oyib bo'ldi. Uni qidirib hamma qo'shnilarnikiga kirib chiqdilar, lekin bola topilmadi. Kechqurun sel quya boshladi. Bolani izlaganlar bekor ivib uyga qaytishdi. Oxiri Bishonbxor politsiyaga xabar qildi.

Ertasiga kechki paytda eshik oldiga ekipaj kelib to'xtadi. Yomg'ir to'xtovsiz quyay, ko'chalar tizza bo'yi suv edi. Ikki politsiyachi Fatikni qo'ltig'idan ushlab kelib, Bishonbxorga topshirdi. Fatik boshdan-oyoq jiqqa xo'l, butun vujudi loy, iflos. Yuz-ko'zlari yonar, uni bezgak tutgan edi. Bishonbxor uni ohista ko'tarib ichkariga kirdi.

Xotini Fatikni ko'rib:

— Birovning bolasiga muncha kuyishning nima hojati bor! Uyiga yuborsangiz bo'lmaydimi? — deb baqirdi. Bu kungi tashvishni ko'rib, uning ishtahasi ham bo'g'ilgan, o'z bolalarini ham jerkib tashlagan edi.

— Men onamning oldiga ketayotgan edim, nega meni qaytardingiz? — deb yig'ladi Fatik. Bolaning ahvoli og'irlashdi. Kechasi u alahsirab chiqdi. Ertasiga Bishonbxor doktor chaqirdi.

Fatik isitmadan yonib turgan ko'zlarini ochib shiftga qaradi-da:

— Tog'a, ta'til boshlandimi? — deb so'radi. Bishonbxor ko'z yoshlarini dastro'moli bilan artib uning qizib ketgan ozg'in qo'llarini ushlab yoniga o'tirdi. Fatik yana:

— Oyijon, meni urmang! To'g'ri aytyapman hech gunohim yo'q, — deb alahsiray boshladi.

Ertasiga Fatik andak hushiga kelib, bironi qidirgan-day atrofga ko'z yugurtirdi. So'ng noumid bo'lib, devorga qarab yotdi. Bishonbxor bolaning ruhiy holatini payqab egilib uning qulog'iga:

— Fatik, onangga odam yubordim, — deb shivirladi.

Ertasiga, doktor rang-quti uchib, tashvish bilan, bolaning ahvoli juda og'irlashganini xabar qildi. Bishonbxor yarim qorong'i uyda, bemor bolaning yonida o'tirib uning onasini sabrsizlik bilan kutardi.

— Chap tomonga tashla! Yo'q, bunday emas! Yana chappa! — Fatik alahsirab, matroslarga taqlid qilib qichqirardi. Kalkuttaga kelishda u tog'asi bilan paroxodda ham ancha yo'l yurgan edi, matroslar shu zaylda qichqirishib, dengiz chuqurligini o'lchardilar. Fatik alahsirab ularga taqlid etar, lekin u hozir suzayotgan bepoyon dengizda uning arqoni hech qachon suv tagiga yetmasdi.

Shu paytda Fatikning onasi faryod qilib, uyga chopganча kirib keldi. Bishonbxor uni arang yupatdi.

— Fatik, chirog'im, qarog'im, — deb chaqirardi sho'rlik ona.

— Nima? — dedi Fatik.

— O, Fatik, chirog'im!

Bola ohista o'grilib, oldidagi odamlarni payqamay, sekin gapirdi:

— Oyi, hozir mening ta'tilim boshlanadi, men uyga boraman, oyi!

## OLTIN SAROB

Adenatx bilan Boydenatx bir-birlariga amakivachcha bo'lishadi, ularning familiyalari ham bir xil: Chokroboti. Ammo Boydenatxning ahvoli tangroq. Buning sababi shuki, otasi uquvsizlik qilib, akasi Shibonatxga mute bo'lib qolgan. Amakisi esa, Boydenatx juda yaxshi ko'rardi. Shunday bo'lsa ham, bu olijanob amaki, uyalmay-netmay, bolaning ota merosidan katta bir qismini o'zlashtirib, Boydenatxga «chiqma jonim» uchun andak pul qoldirdi, xolos.

O'g'lini uylantirish uchun shaharda Shibonatx bormagan xonadon qolmadi. Oxiri o'g'lini bir boyning qiziga uylantirib, davlatiga yana davlat qo'shildi. Moxemchondro bo'lsa, yetti qizli kambag'al bir braxmanga rahmi kelib, sepini ham talab qilmay, o'g'lini shu xonadonning to'ng'ich qiziga uylantirdi. Bu odamga qolsa, braxmanning yetti qizini ham o'z uyiga olib kelardi. Lekin bunday qilolmadi, chunki uning birgina o'g'li bor edi, so'ngra, braxman ham bunday talab qo'ymadi.

Otasining vafotidan so'ng Boydenatx ozgina merosga qanoat qilib, biror ish qilishni xayoliga ham keltirmay tinchgina, xotirjam yashay berdi. Boshqalar tirikchilik uchun bir ishning boshini tutganda, bu daraxt novdalarini kesib kelib guldor tayoqchalar yasashga kirishdi. Qo'shni bolalar shu tayoqchalarni deb kelib, uni o'rab olishar, u esa mamnuniyat bilan tayoqchalarni ularga taqdim etardi. Bundan tashqari, Boydenatx qarmoq, qog'ozdan varrak va yog'ochdan g'altak yasashga ham juda usta edi. U mana shu ishlarga juda ko'p vaqt sarf etib, bu san'atini qunt bilan kamolotga yetkazardi. U shunday sermehnat va nozik buyumlar yasash imkoni tug'ilganda o'zidan juda ham mamnun bo'lardi. Bu xil ishlar undan ko'p vaqt talab etar, lekin uning oilasi uchun bir chaqa ham daromad keltirmas, binobarin, bunchalar mehnatga arzimadi.

Deyarli har kun ertalab, shu yaqindagi Durga ibodatxonasi ustidan tuman ko'tarilmay turib, Boydenatxni qo'lida pichoq, qo'ltig'ida yog'och, gavronlar bilan

ko'rish mumkin edi. U qosh qorayguncha eshigi oldida yolg'iz o'tirib, shu sevimli mashg'uloti bilan band bo'lar edi.

Ma'buda Durganing marhamati bilan Boydenatx dushmanlarning ko'zini kuydirib, ikki o'g'il va bir qiz ko'rdi. Shunga qaramay xotini Mokxodaning noroziligi tobora kuchayardi. Adenatxning uyida hamma narsa to'kinsochin, Boydenatxning uyida qashshoqlik. Adenatxning xotini Bindebashining bo'y-basti kelishgan, bo'yni, qulog'ida qimmatbaho zeb-ziynatlar, egnida banorasoriysi; boyoqish Mokxodada esa bunday narsalar sira ham bo'lmagan. Bundan ham xunuk, kelishmagan narsa bormi? Yana ikkalasi qarindosh bo'lsa? Kibr-havoni qarang-a! Adenatx amakivachchasining mol-mulkini o'ziniki qilib, kerilib yuribdi-da! Mana shuni o'ylaganda Mokxodaning yuragi qahr-g'azab bilan to'lar, erini ham, uning amakivachchasi Adenatxni ham yamlab yutgisi kelardi. Mokxodaga uyidagi narsalar ham yoqmay qoldi. Hamma narsa unga bachkana, yaroqsizday tuyula boshladi. Karavotni aytmaysizmi — o'lik yotsa xo'rliigi keladi! Hech kim bunchalik qashshoqlikda yashamas! Bu choldevor kulbada boshpanasiz ko'rshapalak ham turmaydi, tarki dunyo qilgan qalandar bo'lsa, bu oilani ko'rib ko'ziga yosh olardi. Bunday mubolag'alarga qo'rqqoq erkakning e'tiroz qilishi qiyin, shuning uchun Boydenatx eshigining oldida odatdagidan ham xomushroq o'tirib, tayoqchalar tarashlar edi.

«G'ing demayman» deb qasam ichgan bilan xavf-xatardan qutulib bo'ladimi. Bir kuni xotini Boydenatxni sevimli mashg'ulotidan to'xtatib, o'z xonasiga chaqirdi. U eriga tik qaramay, xotirjamlik bilan gapirdi:

— Ayting, bundan keyin sut keltirmasinlar!

— Sut keltirmasa, bolalar nimani ichadi?

— Suyuq shavla yeyishar — deb javob berdi Mokxoda.

Bir necha kundan keyin xotin yana Boydenatxni chaqirdi:



— Men bilmayman, ammo siz biror chora ko'ring, axir!

— Nima qilay? — horg'inlik bilan so'radi eri.

— Yarmarkaga borib biror oyga yetarli oziq-ovqat olib keling.

Shundan keyin xarid qilinishi lozim bo'lgan narsalarning ro'yxatini topshirdi. Bu masalliq bir rojaning katta dabdaba bilan qurbonlik qilishiga yetardi. Shunda Boydenatx, misli ko'rilmagan bir jasorat bilan norozilik bildirdi:

— Buncha narsaning nima hojati bor?

Javob o'rnida u mana bu so'zlarni eshitdi:

— Unday bo'lsa qo'y, bolalar ochdan o'lsin, men ham o'laman, bir o'zing qolib, bilganingcha ro'zg'orni tebrat.

Boydenatx foydasiz vaqt o'tkazishni yig'ishtirib qo'yib, jiddiy bir ish bilan shug'ullanish payti kelganini payqadi. Ammo biror joyda ishlashga ham, savdo-tijorat bilan shug'ullanishga ham bo'yni yor bermasdi, shuning uchun u boylik tangrisi Kuberaning xazinasiga yangi yo'l axtara boshladi. Bir kun yostiqaqa bosh qo'yib ma'buda Durgaga munojot qildi:

— Ey, ma'buda Durga! Menga odamlarni og'ir kasallikdan davolaydigan bir dori yasash yo'lini o'rgat! Men bu xususda gazetga e'lon berib, shu bilan boyib ketay...

O'sha kechasi tush ko'rsa, xotini undan juda norozi emish, beva qolgan hamono boshqaga tegib ketaman, deb ahd qilganmish. Boydenatx: erga chiqsang to'yga zeb-ziynat topish qiyin, bunga pul yo'q, deb e'tiroz qilarmish. Moxoda bo'lsa, tulning erga chiqishi uchun bunday narsalar hojat emas, dermish. Boydenatx bundan ko'ra kuchliroq dalillar topish mumkinligini bilsa ham, bu dalillar nimadan iborat ekani o'sha paytda xotiriga kelmasmish... Ana shunda birdan uyg'onso, vaqt allamahall bo'lib, kun yorishib ketibdi. Qo'rqinchli tush, xotining do'qlari esiga kelib, sho'rlikning juda ruhi tushdi.

Ertangi ibodatdan so'ng Boydenatx odatdagicha eshigi oldida o'tirib, qog'ozdan varrak yasamoqda edi. Birdan

baland ovoz bilan salom qilib bir sanniasi (qalandar) kelib qoldi. Shu zahotiy oq go'yo chaqmoq Boydenatxning miyasini yoritdi-yu, bo'lajak davlatning muborak darakchisini ko'rganday bo'ldi. U sanniasini zo'r ehtirom bilan qarshi oldi. Mehmonni tag-tugini surishtirib bilsa, u odam oltin yasashning maxfiy yo'llaridan voqif bo'lib, bu hunarni Boydenatxga o'rgatishi mumkin ekan. Bu xushxabardan Mokxoda shunday quvondiki, buni tasvir qilishga til lol, qalam ojizdir... Sariq kasalga muhtalo bo'lgan odamlarga hamma narsa sariq ko'ringanday, shu ondan e'tiboran, bu ayol ham butun olamni faqat oltin bilan to'lgan deb tasavvur eta boshladi. Xayolida uydagi hamma narsani — karavotdan tortib devorlargacha, barini oltin bilan qoplab chiqdi. U fikran, Bindebashinini uyiga taklif qilib, davlatini ko'z-ko'z ham qildi.

Bu orada sanniasi kuniga bir yarim ser<sup>1</sup> puding yeb, ikki serdan sut ichib turdi. Bundan tashqari, u uy egasining pulini ishga solib, undan o'ziga foyda undirishni ham eplardi. Bu vaqtda tayoqcha, g'altak, varrak ishqibozlari Boydenatx eshigini qoqib ovora bo'lardilar. Holbuki erxotin oltin vasvasasiga tushib, o'z bolalariga ham qaramay qo'yishgan edi. Sho'rlik bolalar och qolishar, dodu far-yodlari ko'kka ko'tarilardi. Ammo ota-onalari ularning ahvoliga nazar-e'tibor qilishmas edi. Ular sas-sadosiz, jiddiy qiyofada, gulxan cho'g'lariga termilib o'tirardilar. Eru xotin ochko'zlik bilan gulxan alangasining cho'ziq tillaridan ko'z uzmay, oltin paydo bo'lishini kutar edilar. Alanga bo'lsa, xuddi botayotgan quyoshday goh lovillar, goh qizg'ish tusga kirib so'nardi.

Bir kuni, o'tdan oltin chiqarish umidida Boydenatxning pullaridan alangaga ancha sadaqa qurbon etilgach, sanniasini:

— Ertaga sof oltin olasizlar, — deb qoldi.

Shu kechasi eru xotin mijja qoqmay chiqdilar. O'z xayollarida oltin qarlar barpo etdilar. Ba'zan bir fikrga kelolmay, o'zaro janjallashardilar ham, lekin cheksiz

<sup>1</sup> Ser — og'irlik o'lchovi, taxminan 900 gramm.

shodlikdan bu nizolar uzoqqa cho'zilmadi. Oilada ajib bir ahillik ro'y berib, hammayoq sizni bizga aylanadi.

Ertasiga sanniasi bexosdan g'oyib bo'ldi. Shu bilan oltinning yarqirashi ham yo'qoldi quyosh nurlari ham qorayganday bo'lib tuyuldi. Qashshoqlik va muhtojlik esa uyda to'rt chandon kuchaydi.

Endi agar Boydenatx uy-ro'zg'or haqida miq etguday bo'lsa, xotini jahl bilan uning gapini bo'ladi:

— Bas qil, bas! Sening aqling bilan ish qilib bo'ldik. Endi hech bo'lmasa jag'ingni tiy!

Boydenatx butunlay dovdirab qoldi. Mokxoda esa shunday kerilardiki, go'yo haligi oltin sarobga u bir lahza ham ishonmaganday.

O'zini qattiq gunohkor deb sezgan Boydenatx xotiniga tasalli berish yo'lini qidirardi. Bir kuni keltirgan sovg'asini yashirdi-da, xotinini chaqirib, sirli bir tabassum bilan so'radi:

— Qani, ayt-chi, senga qanday sovg'a olib keldim?

Xotini kunjikovlik hissini bir dam tiyib:

— Qayoqdan bilay? Men folbin bo'lmasam, — dedi.

Boydenatx sekin kanopni yechdi, o'ralgan qog'ozning changlarini artdi va ma'buda Durganing o'n qiyofasini birdan ko'rsatuvchi rangli suratni olib yoruqqa tutdi-da. Mokxodaning oldiga qo'ydi. Ayol shu zahotiyiq Bindebashining yotog'ida osig'liq Angliyadan olib kelingan, toza bo'yoq bilan ishlangan katta suratni esladi. Esladiyu cheksiz bir nafrat bilan eriga hujum qildi:

— Buni o'z xonangga osib qo'yib, o'zing tomosha qilishing mumkin. Menga keragi yo'q!

Ruhi tushgan Boydenatx, xudoning xotin kishiga shunchalar o'tkir aqlu iroda ato qilib, erni bundan mahrum etganiga qattiq xafa bo'ldi.

Bu orada Mokxoda vaqtni behuda o'tkazmadi. U folbinlar va munajjmlarning oldiga borib, taqdirini oldindan bilish niyatida qo'llarini ko'rsatdi. Ular hammasi bir og'izdan eringdan oldin o'lasan, deb ta'kidlashdi. Ammo u bunaqangi baxtga unchalik shoshilmas edi, u taqdirini yana ham chuqurroq bilishga intildi. Folbinlar uning ser-

farzand bo'lishidan bashorat berdilar, lekin bu ham uni unchalik quvontirmadi. Nihoyat, bir munajjim, Boydenatx bir yil ichida yombi topib oladi, deb xabar qildi. Munajjim, agar shu gapim rost chiqmasa folbinlik daf-tarim kuyib ketsin, deb qasam ichdi. Buncha dahshatli qasamni eshitgach, Mokxoda munajjimning so'zi to'g'riligiga zarracha shubha qilmay qo'ydi. Munajjim kattagina in'om olib jo'nab ketdi-yu, lekin Boydenatxning kuni og'ir holga qoldi.

Dunyoda boy bo'lishning turli yo'llari bor: dehqonchi-lik, idora xizmati, savdo-sotiq, o'g'irlik, qalloblik va hokazo... biroq, yombi topishning yo'lini hech kim bil-maydi. Binobarin, Mokxoda qancha urinmasin, eriga qan-cha ta'na qilmasin, Boydenatx nima qilishini bilmasdi. Boyoqish qaysi yerni kavlashni, qaysi ko'lga g'avvos tushirishni va qaysi devorni buzishni bilmay garang edi. Nihoyat, Mokxoda kamoli tajang bo'lganidan, eriga qarab, men shu choqqacha erkaklarning boshida miya bor deb yurgan edim, endi bilsam — miya emas, molning tezagi ekan, deb yubordi.

— Biror harakat qilsang bo'lmaydimi? — dedi u, — nima, osmondan rupiya yog'adi-yu, men terib olaman deb o'ylaysanmi?

Bu so'zlarda achchiq haqiqat bor edi, shuning uchun Boydenatxda biror ish qilish ishtiyoqi paydo bo'ldi, ammo u kimga murojaat qilishni va qayoqqa borishini bilmasdi. Shundan so'ng, Boydenatx, yana ilgarigicha, eshigining tagida o'tirib tayoqcha tarashlash bilan mashg'ul bo'ldi.

Hademay ashshin oyi kelib, Durga bayrami ham yaqinlashdi. Qirg'oqqa to'xtovsiz qayiqlar kela boshladi. Ko'pdan buyon musofirchilikda yurganlar o'z vatanlariga qaytmoqda edilar. Ularning kajava savatlari qovun, oshqovoq va quritilgan kokos yong'oqlari bilan to'la; temir sandiqlarda esa, poyabzal, soyabon, bolalar kiyimi, iroqi sovun, yangi kitoblar va jononlar uchun xushbo'y kokos suti keltiriladi edi.

Bu kunlarda, go'yo muqaddas bayramni masxarala-gandek, ko'kni qora bulutlar qopladi; guvullagan sovuq

shamolda daraxtlarning yomg'ir yuvgan yashil yaproqlari qaltirar, dalalarda yetilayozgan sholipoyalar tebrantar edi. Ipak kiyimlarga o'ralgan odamlar yelkalariga chador tashlab, soyabonlarini boshlariga tutib, shoshilganча uylariga qaytib kelardilar. Boydenatx bo'lsa, bularni ko'rib uh tartardi, xolos. U Bengaliyaning yuzlab xonadonlarini o'zining g'amxonasi bilan qiyos qilib, hasrat bilan:

— Ey, tangrim, muncha ham meni uquvsiz qilib yaratding! — deb pichirlardi.

Hayitga ma'buda Durganing surati qanday bezalganini ko'rish uchun bolalar saharda Adenatxning hovlisiga qarab chopdilar. Cho'ri xotin nonushta vaqtda uilarni arang boshlab ketdi. Hammaga quvonch keltirgan mana shu ulug' ayyomda Boydenatx o'z hayotining nechog'liq ma'nosizligini ayniqsa chuqur his etdi. U cho'ri xotinni nari yuborib, katta o'g'ilchasini quchog'iga oldi-da, rahmi kelib so'radi:

— Obu, senga hayitlikka nima olib bersamikin?

Obinash iltimos qildi:

— Ada, qayiqcha yasab bering!

Kichigi ham men akamdan kam emasman-ku, degan ma'noda:

— Dada, menga ham qayiqcha, — deb turib oldi.

Bolalari ham otasidan qolishmaydi-ya! Ularga bema'ni o'yinchoqdan boshqa hech narsa kerak emas!

Boydenatx rozi bo'ldi. Bu orada hayitni bola-chaqalari bilan o'tkazish uchun Banorasdan Mokxodaning advokat amakisi kelib qoldi. U kelishi bilan Mokxoda hadab uning uyiga qatnay boshladi. Nihoyat bir kuni erini chaqirib:

— Sen Banorasga borishing kerak! — deb qoldi.

Boydenatx, endi kunim bitibdi-da, deb o'yladi. Ehtimol, munajjim xotiniga shunday deganu xotini uning o'limini oson qilmoqchi, Mokxoda esa bu orada Banorasda bir uy sotilarmish, o'sha uyda xazina ko'milganmish: kimki bu uyni sotib olsa, ostonasi tildan bo'larmish, degan gap topib keldi.

— Men Banorasga bormayman, ming la'nat! — deb qichqirdi Boydenatx.

U hech qachon uyidan bir yoqqa chiqqan emas, ammo qadimiy shastrlarda, xotinlar erlarini o'z uylaridan ketishga majbur eta oladilar, deb yozilgan. Boyoqish Boydenatx Banorasni o'ylashi bilan ko'zlaridan yosh chiqib ketardi.

Oradan bir necha kun o'tdi. Bu orada Boydenatx ikkita o'yinchoq qayiqcha yasadi. Ularga langar qo'yib, chitdan yelkanlar yasadi, qizil bayroqchalar tikdi, rul va eshkaklar qildi, ularga qo'g'irchoq-yo'lovchilarni o'tqizib, qayiq haydovchilarga rulni tutqazib qo'ydi. Qayiqchalar qunt bilan ishlangani uchun juda chiroyli chiqdi. Bularni ko'rgan har qanday bolaning ham havasi kelib, qani endi meniki bo'lsa der edi. Bayram arafasida Boydenatx ularni bolalariga berganda, ular quvonchdan terilariga sig'may, qiy-chuv qila boshladilar. Qayiqchalarning chiroyli rullari yelkanlari, langar va eshkaklari, ayniqsa, o'rtadagi «haydovchi» va «yo'lovchilar»ni ko'rib go'daklar nihoyatda zavqlanib ketdilar. Bolalarning quvonchli qiyqiriqlari Mokxodaning diqqatini jalb etdi. U uyga kirib, kambag'al otaning bayram sovg'alarini ko'rdi. Ayol birdan dod-faryod ko'tarib, g'azab bilan peshonasiga bir urdi-yu, qayiqchalarni bolalarning qo'lidan yulib olib, derazadan irg'itib yubordi. Hamma qimmatbaho narsalar, atlas kamzullar, kashta bilan bezalgan bosh kiyimlari sotilib bo'lgan-u, bu befarosat er hanuz bolalarini qo'g'irchoq bilan ovintirib yuribdi. U bolalariga loaqal ikki paysa sarf qilmay, hammasini o'zi yasabdi tag'in!

Kichik o'g'li qattiq yig'lab yuborgan edi, onasi:

— Ahmoq bola! — deb tarsaki bilan tushirdi.

Katta o'g'li otasining ahvolini ko'rib o'z g'amlarini unutdi va go'yo hech narsa bo'lmagandek:

— Ada, erta bilan men hammasini yig'ishtirib olaman, — dedi.

Shu voqeadan so'ng, ertasiga Boydenatx Banorasga borishga rozi bo'ldi. Lekin pulni qaerdan oladi? Shunda Mokxada oxirgi taqinchoqlarini sotib, kerakli mablag'ni o'zi jamg'arishga qaror qildi. Bu taqinchoqlari Boydenatxning buvisidan qolgan tabarruk narsalar bo'lib, hozir-

gi vaqtda unday sof oltinni topish amrimahol edi. Boydenatx go'yo o'linga ketayotganday bo'ldi. U bolarini qo'liga olib o'pdi-da, ko'zlari jiqqa yoshga to'lib, uydan chiqib ketdi. Shundan keyin Mokxoda ham ko'ziga yosh oldi.

Banorasdagi uyning egasi Mokxodaning amakisiga tanish edi, shuning uchun u Boydenatxga uyni arzongina sotib ketdi. Yangi xo'jayin uyga yolg'iz o'zi ko'chib kirdi. Uy daryo qirg'og'ida bo'lib, to'lqinlar imoratning poydevoriga urib turardi.

Kechasi Boydenatxni vahima bosdi. U chiroqni yoqib bosh tomoniga qo'ydi-da, ko'rpaga o'ranib uxlamoqchi bo'ldi. Ammo uyqusi kelmadi. Yarim kechadan o'tib, hamma tinchigandan so'ng, hech kutilmaganda, qayoqdandir, bir narsaga urilgan temir jarangi eshitildiyu Boydenatx qo'rqqanidan sapchib turib ketdi. Go'yo roja Balining<sup>1</sup> xazinachisi yerosti saltanatida o'tirib pul sanayotganday tuyuldi. Boydenatxning yuragida vahima ham, havas, qiziqish ham, andak umid ham bor edi. U qaltiroq qo'llari bilan chiroq ushlab xonalarni bir aylanib chiqdi; bir xonaga kirsam, ovoz boshqa xonadan chiqayotganday bo'ldi, u xonaga kirsam xuddi boya kirgan xonadan yana o'sha ovoz eshitildi. Boydenatx tun bo'yi xonamaxona yurib chiqdi. Tongotarda bu ovoz boshqa tovushlar bilan qorishib ketgach, u bir oz tinchidi. Ikkinchi kecha ham hamma uxlagandan so'ng, bu ovoz yana eshitila boshladi. Boydenatxning yuragi tez-tez urardi. U bu ovozning qaerdan kelayotganini bilmay garang. Agar sahroda suvning shildiragani eshitilgunday bo'lsa, uning qaerda ekanini aniqlash mahol, tashna yo'lovchi esa, bunday ahvolda jon qulog'i bilan tinglab, chashmaning qaerda ekanini aniqlashga urinadi, shunda uning tomog'i qurib, o'zini yanada tashnaroq his etadi. Boydenatx ham xuddi ana shu vaziyatda edi.

---

<sup>1</sup> Rivoyatlarga qaraganda roja Bali uch olamning (yer, osmon va yerosti saltanatining) sohibi bo'lib, oxiri yer va osmondan voz kechib, yerosti saltanatida yashashga majbur bo'lgan.

Shu tariqa bir necha kun o'tdi. Uyqusizlik va hayajonlar Boydenatxning ilgarigi beg'am yuzlariga ajin tushirdi. Uning beqaror ko'zlari ichiga tortib, tushki oftob nurlarida yaltiragan qumdek mo'lt-mo'lt etardi.

Bir kuni choshgohda eshikni bekitib, lom bilan polni taqillatib ko'rdi. Kichik bir xonadan bo'g'iq ovoz eshitildi. Shu kechasi Boydenatx mijja qoqmay, shu xonaning polini ko'chira boshladi. Tongotarga borib bu ish anjomiga yetdiyu Boydenatx pol tagida yerto'laga o'xshash chuqurni ko'rdi. Biroq bu yer shunday qorong'i ediki, Boydenatx yerto'laga kirishga botinmadi. Ana shundan so'ng u teshikni ko'rpasi bilan bekitib, ustiga yotib oldi. Ammo bu yerdan shunday ovoz ko'tarildiki, Boydenatxni vahima bosib, darhol turib qochdi. Eshik ochiq qolgan edi, u uzoqqa borishni istamadi. Ochko'zlik bilan vahima uni uy oldida tutib turardi. Shu zaylda yana bir kecha o'tdi. Ertasiga bu ovoz kunduzi ham eshitiladigan bo'lib qoldi. Xizmatchi uyga kirmasin deb, Boydenatx nonushtani ham hovlida qildi. Nihoyat, u uyga kirib, eshikni ichkaridan qulfladi. Tangri Durganing nomini tildan qo'ymay, teshik ustidan ko'rpasini ohista ko'tardi. Pastda suv tomib turgani eshitildi, suv qandaydir temir idishga tomayotgan edi. Hayajon va qo'rquvdan qaltirab sekingina teshikdan pastga qarab ko'rsaki, uyga suv kirib kelmoqda, ammo, azbaroyi qorong'ilikdan, boshqa hech narsa ko'rinmasdi. U bir tayoq olib suvning chuqurligini o'lchadi, suv hali tizza bo'yi chiqmagan edi. Qo'liga gugurt va chiroq olib, yengilgina sakrab yerto'laga tushdi. Alam-iztirobda qaltirab, chiroq yoqishga urinardi. Oxiri chiroqni yoqdi. Birdan ko'z o'ngida zanjirga bog'langan katta mis xum namoyon bo'ldi. Unga asta-sekin suv tomib turardi. Necha kundan buyon Boydenatxning uyqusini qochirgan sirli tovush shu tomchi ekan. Boydenatx tizza bo'yi suv kechib xumga yaqinlashdi... Xum bo'sh edi. Boydenatx ko'zlariga ishonmay, bor kuchi bilan xumni qimirlatdi, lekin ichidan hech narsa chiqmadi, uni ag'darib ko'rdi. Ichidan biror narsa tushmadi. Boydenatx qarasa, xumning og'zi siniq, yaqindagina sinibdi, chamasi. Boydenatx



devonaday hovliqib, qo'li bilan suvostini titkilay ketdi. Katta, silliq bir narsa qo'liga tushdi. Qaltirab turgan barmoqlari bilan bu narsani ko'tarib qarasa, odamning bosh suyagi ekan. Boydenatx uni ham qoqib ko'rdi, afsuski, ichidan hech nima chiqmadi. U jahl bilan chanoqni bir yoqqa iring'itib, qidirishni davom ettirdi, lekin qancha qidirmasin skeletning qolgan-qutgan suyaklaridan boshqa hech narsa topmadi. Boydenatx uyning daryo tomonidagi devorida teshik ko'rib qoldi, suv podvalga shu teshikdan kirib turardi. Ehtimol, Boydenatxdan oldin kelib, yombini olib ketgan kishi ham shu teshikdan kirgandir. Boydenatx zo'r ruhiy tushkunlik va yuraklarni pora-pora qiluvchi qaltiroq bir ovoz bilan ma'buda Durga nomini tilga olganda, yerto'lada barcha dilxastalarning oxu zori birikkanday vazmin, ezuvchi, bo'g'iq bir aksi sado yangradi.

Hammayog'i ho'l va iflos bo'lib ketgan Boydenatx yerto'ladan chiqdi. Odamlarning g'ovur-g'uvuri bilan to'liq bu olam unga haligi xumdek bo'm-bo'sh tuyuldi. Narsalarini yig'ishtirib, poezdga uyga qaytish, yana shu xotini bilan gaplashish, eskicha g'amgin hayot kechirish Boydenatx uchun mutlaqo ma'nosiz edi. Unda suv yuvib ketgan sohilday daryoga qulab nobud bo'lish istagi tug'ildi.

Shunga qaramay, u narsalarini yig'diyu poezdga bilet olib, uyiga jo'nadi va sovuq kunlarning birida kechki payt o'z eshigi oldiga yetib keldi. Bir vaqtlar, ashshin oyida, odamlarning musofirchilikdan qaytishlarini kuzatib, Boydenatx ham shu odamlar kabi uyga qaytish halovatini totsam deb havas qilar edi. Ammo mana bugungi oqshom yetti uxlab tushiga kirgan emas. Hovliga kirib, xuddi hushsizday, kursiga o'tirdi. U xotining yotog'iga oshiqmadi. Cho'ri xotin uni birinchi uchratib, quvonganidan qichqirib yubordi. Buni eshitib bolalar chopib chiqishdi. Xotini uni o'z yotog'iga chaqirdi. Boydenatx oila a'zolarini ko'rarkan, qo'rqinchli tush ko'ra turib bexosdan uyg'onib ketganday bo'ldi. Kamoli horg'inlikdan ozib ketgan yuzlarida ayanchli tabassum paydo bo'lib, ki-

chik o'g'lini ko'tardi, kattasini yetaklab xotining oldiga kirdi.

Hali qorong'i tushmagan bo'lsa ham bu xonada chiroq yonardi, bu tunday qorong'i, sas-sadosiz shomig'aribon edi. Boydenatx anchagacha miq etolmay o'tirdi, so'ngra muloyimlik bilan so'radi:

— Qalay, salomatliging yaxshimi?

Xotini, boshqa so'z qurib ketganday savol so'radi:

— Xo'sh, ishlar qalay?

Boydenatx javob o'rniga o'z peshonasiga urdi. Mokxodaning aft-angori o'zgardi. Bolalar ham bir baxtsizlik ro'y bergan bo'lsa kerak, deb cho'ri xotin oldiga chiqib yotdilar va undan sartarosh haqidagi ertakni aytib berishni so'radilar.

Kechasi allamahol bo'ldi, ammo eru xotin bir-birlariga lom demay, jim o'tiraverdilar. Har ikkalasi ham qandaydir og'ir bir vaziyatning tazyiqi ostida ezilardi. Mokxodaning lablari qahr-g'azabdan qattiq qisilgan... Og'ir sukunat uzoq davom etdi. Nihoyat, xotin bir og'iz gap aytmay, o'z yotog'iga ketdi va eshikni ichkaridan bekitib oldi. Boydenatx eshik orqasida ma'yus o'tirib qola berdi. Kecha qorovuli vaqtni e'lon qilib baqirib o'tib ketdi. Horg'in zamin shirin uyquga toldi. Ammo yerdagi qarindosh-urug'dan tortib, poyonsiz osmondagi yulduzlargacha, olamda hech bir zot xo'rlangan Boydenatxning baxtsizligi haqida o'ylamas edi.

Kechasi allamahol bo'lganda Boydenatxning katta o'g'li uyg'ondi. U yugurib ayvonga chiqdi-da, otasini chaqirdi, lekin hech kim javob bermadi. Bola yana qattiqroq chaqirdi:

— Dada!

Yana hech qanday javob bo'lmadi. Obinash borib uyquga toldi. Erta bilan Mokxoda, odati bo'yicha trubkasiga tamaki bosib, erini yo'qladi, lekin u hech qaerda yo'q edi. Kunduzi Boydenatxni ko'rish uchun qo'shnilar chiqishdi, biroq u g'oyib bo'lgan edi.

1892-yil.

## POCHTA MUDIRI

U Ulapur qishlog'ida pochta mudiri edi. Uning ish faoliyati shundan boshlangan. Qishloq juda kichik bo'lsa ham, uning yaqinida bo'yoq fabrikasi bo'lib, shu fabrika xo'jayinining talabiga muvofiq, bu yerda pochtaxona ochilgandi.

Asli kalkuttalik bo'lgan pochta mudiri bu xilvat qishloqda o'zini suvsiz qolgan baliqday his etardi. Uning idorasi, butalar g'ovlab o'sgan ko'l bo'yida, poxol bilan yopilgan qorong'i hujraga joylashgan edi. Fabrika ishchilarining bo'sh vaqti bo'lmagani, buning ustiga ular bama'ni odamga munosib ulfat bo'lolmaganlari sababli, pochta mudiri yolg'iz yashardi. Kalkuttalik yigitimiz odamga darrov el bo'lib, do'stona suhbat boshlashga uquvsiz edi. Begonalar suhbatida goh dimog'dor, goh tortinchoq. Shunday qilib, pochta mudirining na oshnasi, na do'sti bor, buning ustiga, ishi ham juda kam edi.

Ba'zan u she'r yozishga ham urinib ko'rar, she'rlarida, agar odam kunbo'yi yaproqlarning shitirlashini tinglab, osmondagi bulutlarga qarab yursa baxtli bo'ladi, degan fikrni bayon qilishga intilar edi. Ammo arab afsonalaridagi devlardan birontasi yer yuzidagi hamma o'simlik va daraxtlarni bir kechada keng tosh ko'chaga, qorday oppoq bulutlarni to'sadigan baland g'ishtin imoratlariga aylantirsa bormi, o'shanda bu sho'rlik pochta mudirining naqadar quvonishini bir xudoning o'zi bilardi.

Pochta mudiri oz maosh olardi. Binobarin, ovqatni ham o'zi pishirar va uni xizmatini qilib yuradigan shu qishloqlik yetimcha qiz bilan baham ko'rardi. Qizchanning oti Roton bo'lib, o'n ikki-o'n uch yoshga borib qolgan bo'lsa ham, uni erga berish haqida o'ylaydigan kishisi yo'q edi.

Kechqurun molxonalar ustida bug' ko'tarilib, o't-o'lan ichida chigirtkalar chirillaganda, uzoq qishloqlardan kelgan mast-alast vishnuparastlar<sup>1</sup> do'mbira chalib, bor

<sup>1</sup> Vishnuparastlar — bosh xudo Vishnuga sig'inuvchilar, qalandarlar.

tovushlari bilan ashula aytganda, yaproqlarning shitirlashi haqida xayol surib o'tirgan tanho shoimning eti jimirlab, hujraning burchagidagi xira chiroqni yoqardi-da:

— Roton! — deb chaqirardi.

Qiz uning chaqirishini poylab eshik orqasida o'tirardi-yu, ammo ovozi eshitganda xonaga darrov kirib bormasdi.

— Siz meni chaqirdingizmi, babu? — deb so'rardi u.

— Nima qilyapsan?

— O'choqqa o't yoqmoqchi edim.

— O'tni keyin yoqarsan, hozir trubkamni tutatib berchi, — derdi pochta mudiri.

Qiz uning oldiga yugurib borardi-da, lunjini shishirib, trubkasini puflay boshlardi.

— Menga qara, Roton, — derdi pochta mudiri uning qo'lidan trubkani ola turib, — onang esingda bormi?

Bu xususda tinmay gapirish mumkin edi. Qizcha ba'zi narsalarni eslar, ba'zilarini unutgandi. Otasi qizni onasidan ko'ra ko'proq sevardi, qiz buni biladi, ammo otasini yaxshi eslolmaydi. Otasi odatda ishdan kech qaytardi. Shunday oqshomlarning ba'zilarigina qiz xotirasida naqshlanib qolgan. Bunday suhbatlar chog'ida Roton yerda, pochta mudirining oyog'i uchida o'tirib olardi. U kichik ukasini, bir vaqtlar, havo aynigan bir kuni u bilan ko'prik chekkasida o'tirib baliq ovlaganlarini eslaydi. Qarmoqlari ham daraxtdan sindirib olingan bir gavron edi. Shunga o'xshash mayda-chuyda hodisalar qizning xotirasida hayotidagi og'ir damlardan ko'ra ravshanroq iz qoldirgandi. Bu orada qorong'i tushib, pochta mudiri ovqat pishirishga erinardi. Shunda Roton darrov o'midan turib o'choqqa o't yoqar, bir nechta chavati pishirar, nonushtadan ortgan sous bilan chavati ikkalasiga yetib ortardi.

Ba'zi oqshomlari esa pochta mudiri kulbasining bir burchida o'tirib uyi, kichik ukasi, onasi va opasini o'ylar,

<sup>1</sup>Babu — janob, afandim ma'nosida.

musofirchilikda ham ularning holi ne kechdi ekan, deb tashvish tortardi. Bu o'ylar uning xayolidan sira nari ketmasdi, ammo fabrikada dardlashadigan biror odam bo'lmaganidan, u o'ylab-netib turmay, o'z hasratini hech narsaga tushunmaydigan yosh qizchaga aytardi, qizcha bora-bora uning qarindoshlarini, xuddi o'zining eski tani-shiday, ona, opa, aka deb ataydigan bo'lib qoldi.

Dam olish kuni edi. Bulutlar tarqalib, havo ochildi. Mayin, iliq shabada esdi; quyosh issig'ida nam maysa va o'simliklarning xushbo'y hidi anqib, charchagan yerning haroratli nafasi badanni kuydirganday bo'lardi. Qandaydir xiraroq bir qush ertadan-kechgacha bir xil g'amgin ovoz bilan sayrab, olamdan hasrat qilardi. Bukun pochta mudiri bo'sh bo'lgani uchun, yomg'irda toza yaproqlarning shi-tirlashiga, seldan yengilib, oftob muridan arg'uvon tusga kirgan bulut parchalariga mahliyo bo'lib boqardi. Boqardiyu o'ylardi:

«Qani endi shunday paytda yonimda bir yaqinim, had-dim siqqan sevgili zot bo'lsa-yu, men uni bag'ringa bosolsam...» Yigitning nazarida tinmagur qushlar ham bukun shu haqda sayraganday, daraxt yaproqlari ham bu kimsasiz salqin choshgohda faqat shu hasratda shivir-lashayotganday tuyulardi... Bunday bo'sh kunda, bukun-giday jazirama sas-sadosiz choshgohda, kichkina qishloq-da, ozgina maosh oladigan pochta mudirining boshida bu xil fikrlar paydo bo'ladi, deb kim ham o'ylaydi dey-siz?

U og'ir so'lish olib:

— Roton! — deb chaqirdi.

Qizcha bir meva daraxti tagida g'o'r meva yeb yotar-di. Ovozni eshitib, chopganicha kulba eshigiga bordi va hansirab turib:

— Aka, chaqirdingizmi? — deb so'radi.

— Seni bir oz o'qishga o'rgatmoqchi edim, — dedi pochta mudiri: U kunbo'yi qizga alifbe o'rgatdi. Bir necha kundan so'ng qizcha harflarni urishtirib o'qiydigan bo'lib qoldi.

Srabon' oyida yomg'ir sira tinmaydiganday tuyuldi. Ariqlar, chuqurlar to'lib hammayoqqa suv toshdi. Kechakunduz sel sharillar, baqalar sayrardi. Qishloq yo'lidan yurish amrimahol bo'lib qoldi, bozorga qayiqda borishga to'g'ri keldi.

Shunday yomg'irli kunlarning birida ertalabdan beri Roton pochta mudirining chaqirishini kutib eshik orqasida uzoq turib qoldi. Biroq, ilgarigidek tanish ovoz eshitilmagach, sahifalari kirlanib ketgan kitobni olib, sekingina uyga kirdi. Qarasa, pochta mudiri karavotda yotibdi. Dam olib yotgan bo'lsa kerak deb, astagina xonadan chiqib ketmoqchi bo'lganida, yigit birdan:

— Roton! — deb chaqirib qoldi.

Qiz darrov orqasiga qayrilib so'radi:

— Siz uxlayapsizmi, aka?

— Tobim qochganga o'xshaydi, peshonamni ushlab ko'r-chi, — dedi pochta mudiri zaif tovush bilan.

Uning yolg'izlik va namgarchilikdan azob chekkan vujudi birovning g'amxo'rlikiga tashna edi. U, bir vaqtlar, bilaguzuklar taqilgan nozik qo'llar yonib turgan peshonasiga tekkanini esladi. U bu yerda, shu qorong'i kulbada g'amxo'r ayollarni — onasi va opasini o'z yonida deb tasavvur etishni istardi... Quvg'indining ehtirosli orzulari bajo keltirildi: Roton endi ilgarigi yosh qizcha emasdi, u bemorga onasi singari g'amxo'rlik qilardi. Doktor chaqirdi, tayinlangan vaqtlarda dori ichirib turdi, kechalari mijja qoqmay yonida o'tirdi, o'zi ovqat tayyorladi va har kuni yuz martalab:

— Aka, bir oz tuzuk bo'ldingiz-a? — deb so'rab turdi.

Nihoyat, pochta mudiri bir oz tuzalib, darmonsizroq bo'lsa ham o'rnidan turdi.

«Yo'q, nima bo'lsa ham bu yerdan ketish kerak» — deb ahd qildi u. Bu qishloq havosining yomonligini bahona qilib, boshqa joyga ishga qo'yishlarini so'rab Kalkuttaga ariza yubordi.

<sup>1</sup> Srabon — hind qand kalendarida to'rtinchi oy, iyul — avgustga to'g'ri keladi.

Roton esa, kasalga qarashdan bo'shab, yana eshik orqasidagi joyida o'tirardi. Pochta mudiri endi uni chaqirmaydigan bo'ldi. Qiz ba'zan sekingina uyga kirib qarar, uni stulda o'tirib bo'shliqqa beparvo tikilgan holda uchratar yoki karavotda uxlab yotganini ko'rardi. Roton, u chaqirib qolmasmikin, deb jon qulog'ini tikib turgan bu kunlarda, pochta mudiri o'z arizasiga intizorlik bilan javob kutardi. Qiz eshik orqasida o'tirib, eski darslarini minginchi marta takrorlar: birdan chaqirib qolsa, darslarni unutib qo'yaman, deb qo'rqardi.

Shu zaylda bir hafta o'tdi. Nihoyat, bir kuni kechki payt pochta mudiri uni chaqirib qoldi. Rotonning yuragi o'ynab, chopgancha uyga kirdi.

— Aka, chaqirdingizmi?

— Roton, men ertaga ketaman, — dedi pochta mudiri.

— Qaerga, aka?

— Uyga.

— Qachon qaytib kelasiz?

— Endi qaytib kelmayman.

Roton boshqa hech narsa so'ramadi. Pochta mudiri o'zi iltimosnoma yozgani, unga rad javobi kelgani, endi ishdan bo'shab uyga ketayotgani haqida so'zlab berdi. Ular anchagacha xomush o'tirdilar. Chiroq xira yonar, o'rtaga qo'yilgan yog'och tovoqqa shiftdan bir me'yorda chakka tomib turardi.

Bir ozdan keyin Roton asta o'rnidan turib, non yopish uchun pechka yoqqani ketdi. Ammo bu gal uning qo'llari ishga qovushmadi: boshidagi ming xil xayollar unga orom bermasdi. Ovqatdan keyin qiz qo'qqisidan so'rab qoldi:

— Aka, siz meni birga olib ketmaysizmi?

Pochta mudiri kulib yubordi:

— Qandoq qilib?

Yigit uni nima uchun olib ketolmasligini tushuntirishni lozim ko'rmadi, ammo Rotonning quloqlari ostida tun bo'yi pochta mudirining istehzoli ovozi yangradi: «Qandoq qilib?»

Ertasiga pochta mudiri o'rnidan turib qarasa, yuvinish uchun suv tayyorlab qo'yilibdi. U Kalkutta odatiga muvofiq, uyda yuvinardi. Qiz undan qachon jo'naysiz deb so'rashga botinmaydi, shuning uchun hamma narsani barvaqt tayyorlab qo'yish niyatida kechasi suv tashib qo'ygan edi. Yuvinib bo'lgach, pochta mudiri Rotonni chaqirdi. Qiz sekin kirib, xo'jayinining farmonini jimgina kutib turdi.

— Roton, — dedi yigit, — mening o'rnimga keladigan kishiga sening holingdan xabar olib turishni tayinlab qo'yaman. Hech narsadan tashvish tortma.

U bu gapni samimiy, erkalatuvchi ohangda aytganiga shubha yo'q. Biroq, ayol qalbini kim bilsin? Qiz tez-tez xo'jayinidan so'kish eshitsu ham, lom-mim demay chidab kelardi, ammo g'amxo'rlik bilan aytilgan bu muloyim so'zlarga toqat qilolmadi.

— Yo'q-yo'q, mening haqimda hech kimga hech narsa demang! Men bu yerda qolishni istamayman, — deb ho'ngrab yubordi qiz.

Pochta mudiri Rotonni hech qachon bunday hayajonda ko'rmagan edi, qizning hozirgi holati uni hayron qoldirdi.

Yangi pochta mudiri keldi, qahramonimiz ishni unga topshirib ketishga hozirlana boshladi. Jo'nash oldida, u qizni yana chaqirdi.

— Roton, men senga biror marta, biror narsa bilan yordam qila olmadim. Hozir senga beradigan narsam ham bir necha kunga yetadi, xolos...

U cho'ntagidan maoshini chiqarib, o'ziga yo'l harajati uchun andak oldi-da, qolgan pulni qizga uzatdi, ammo Roton tiz cho'kib, uning oyoqlarini quchoqlab, qichqirdi:

— Aka, sizdan yolvorib so'rayman, menga hech narsa, hech narsa kerakmas. Mening haqimda birovning o'ylashi ham kerakmas, — deb, uvvos tortgancha qochib ketdi.

Pochta mudiri og'ir so'lish oldi, so'ngra yo'l-yo'l qilib bo'yalgan chamadonini hammolning boshiga qo'yib, xaltacha va soyabonini olib, asta borib qayiqqa tushdi.



Qayiq yurib ketdi, yomg'ir suvi bilan toshgan daryoning to'liqlari, yer qa'ridan otilib chiqqan ko'z yoshiday jo'sh urganda, yigit qalbida zo'r achinish hissi paydo bo'ldi. Uning ko'z o'ngida oddiy dehqon qizining iztirobdan bujmaygan chehrasi namoyon bo'ldi, go'yo bu yuzda butun olamning g'am-alamlari aks etganday tuyulardi. Pochta mudiri, orqaga qaytib, shu tobda butun olam voz kechgan bu yetimcha qizni olib ketay, deb ham o'yladi. Biroq shu chog'da yomg'ir yana kuchayib, qattiq shamol yelkanlarni surib ketdi. Tezdan qishloq uzoqda qolib, daryo bo'yida qabriston ko'rindi. Daryoning tez oqimiga mahliyo bo'lgan pochta mudirining loqayd qalbi shunda yangi bir haqiqatni kashf etdi: hayotda nima ko'p — uchrashuv va o'lim. Bas, qaytishning nima hojati bor? Bu dunyoda hech kim, hech kimga tobe emas.

Biroq, Roton bu falsafa bilan o'ziga tasalli berolmadi: hozir qiz ko'zlaridan yosh to'kib, pochta idorasi atrofida aylanardi. Uning yuragida hali ham umid uchqunlari bor, uning nazarida akasi qaytib keladiganday tuyular, shuning uchun uydan sira nari ketolmas edi.

Qani endi ko'ngil aqlning dalolatiga bo'ysunsa! Yo'q, u o'zicha yashaydi: xatosiga iqror bo'lmaydi, mantiq qonunlariga arang bo'ysunadi, kuchli dalillar bilan hisoblashmay, soxta narsalarga behuda umid bog'laydi. Vaqti bilan bu umid ko'ngil mulkini vayron etib, oxiri bizni tark etadi. Tushuncha esa, yana qaytib o'z o'rnida qaror topadi, ammo ko'ngil yana qayta xato qilib qo'yishdan qo'rqadi.

1891-yil

## TENTAK RAMKANAI

Faqat hasadchilar, behudaga ovoza tarqatishni kasb qilganlargina, Guruchoron o'lgan paytda uning xotini ichkarida qarta o'ynash bilan mashg'ul edi, deb aytishlari mumkin. Yo'q, aslida, bu mahal u zo'r ishtaha bilan ziravor sepilgan sovuq shovla va baliq yeb o'tirgan edi. Chaqirayotganlarini eshitib, chaynab turganini tupurdiyu qolgan shovlani naryoqqa surib qo'yib, zarda bilan:

— Ikki osham shovla yegani ham vaqt yo'g'-a! — deb po'ng'illadi.

Guruchoron jon bermoqda edi. Doktor ham endigina chiqib ketdi. Guruchoronning ukasi Ramkanai bemorning bosh tomonida turib:

— Aka, agar xohlasangiz, vasiyatingizni menga ayting, yozib qo'yay, — dedi.

— Mayli, yoz, — dedi bemor zaif tovush bilan.

Ramkanai qog'oz, qalam tayyorladi.

— Butun mol-mulkinni qonuniy rafiqam Shrimoti Borodashundoriga vasiyat qilib qoldirdim, — dedi Guruchoron.

Ramkanai qo'li bormasa ham vasiyatnomani yozdi, lekin u, farzandsiz akasi mol-mulkini o'z o'g'li Nobodipga vasiyat qilib qoldirar, deb o'ylagan edi.

Aka-uka boshqa-boshqa yashasalar ham, Ramkanaining xotini qaynog'asining merosiga zo'r umid bog'lagan edi. U hatto o'g'lining xizmatga kirishiga ham rozi bo'lmay, uni yoshgina uylantirib qo'ygan edi. Tabiiyki, nikoh samarasiz qolmadi: yoshlar bola-chaqalik ham bo'ldilar.

Mana vasiyatnoma tayyor. Unga imzo chekish uchun Ramkanai akasiga uzatdi. Jon uzayotgan bemorning qaltiroq qo'l bilan ilang-bilang qilib chizgan chizig'idan Guruchoronning nomini o'qib olish qiyin edi.

Xotini shovlani tashlab yugurib chiqqanda, Guruchoronning gapirishga majoli yo'q, tildan qolgan edi. Borodashundori yig'lay boshladi. Merosdan noumid bo'l-

ganlar, bu — yolg'on ko'zyoshi, deb pichirlashdilar, ammo siz bunga inonmang!

Ramkananing xotini vasiyatnomani eshitgach, janjal boshladi.

— Chol aqldan ozibdi! — deb jig'ibiyroni chiqdi uning, — tuppa-tuzuk jiyani turib-a...

Ramkanai xotining izmidan chiqmasdi, uning bu hislati shu darajada ediki, boshqalar buni qo'rqoqlik deb atardilar. Ammo bu o'rinda u ham chidolmadi:

— Jonim, axir sen aqldan ozgan emassan-ku! Nega o'zingni tutolmaysan? Akam o'lgan bo'lsa men hayotman, axir. Bu gaplarni keyin gaplashamiz. Hozir bunaqa gap-so'zning mavridi emas.

Amakisining kasalligini eshitib, Nobodip oshig'ich ravishda yetib kelganda, Guruchoron jon bergan edi.

— Ko'ramiz, kim senga urf-odatga muvofiq dafn gulxani yoqarkan, — deb tahdid qildi u, o'lgan amakisiga qarab, — men seni dafn qilib bo'pman!

Marhum dovdirroq odam bo'lib, afkori omma bilan uncha hisoblashmas edi. Shastrlarda makruh sanalgan ovqatlarni iste'mol qilish unga ayniqsa yoqar edi. Agar buning uchun uni kofir deb atasalar, u:

— Men kofir bo'lsam, mol go'shti yeganim bo'lsin, — deb, suhbatdoshining battar g'ashiga tegar edi.

U umr bo'yi shunday yashadi. Binobarin, urf-odatga muvofiq dafn etilmaganda ham, uning narigi dunyoda och qolishdan qo'rqadi deb o'ylash behuda. Ammo Nobodip shundan boshqa yo'l bilan undan o'ch ololmas edi. «Toki men tirik ekanman, — deb o'ylardi yigit, — amakimning merosisiz ham nonimni topib yeyman, qani u, narigi dunyoda bir to'g'ram non topib ko'rsin-chi...» Tirik odamlarda imkoniyat ko'pda!

Ramkanai Borodashundoriga bunday dedi:

— Xonim, akam hamma molu mulkini sizga qoldirdi. Mana vasiyatnoma. Uni temirsandiqqa mahkam bekitib qo'ying.

Shu payt tul xotin uzundan-uzoq aytib yig'ladi. Unga bir necha cho'rilar qo'shilishdi. Fig'onu nola butun qishloq aholisini uyg'otdi.

Yuqorida zikr etilgan bir parcha qog'ozning paydo bo'lishi bu tovushning ohangdoshligini buzdi, yig'i-sig'i tartibdan chiqdi.

— Oh, namuncha baxtsizman, baxti qoraman! — deb aytib yig'lardi Borodashundor. — Aka, — derdi u ba'zan to'xtab, — vasiyatnoma kimning nomiga yozilgan? Sizning nomingizga bo'lsa kerak?.. Oh, endi menga kim qaraydi? Endi mening holimdan kim xabar oladi? Hammalaring birdan baqirmanglar. To'xtanglar, men eshitay, — deb hayqirdi beka va tag'in davom etdi:

— Nega men oldinroq o'lmadim, nima uchun ham men tirik qoldim, voydod...

Ramkanai ichida: «Ha, bu taqdirning sovuq qiligi bo'lsa kerak», — deb uh tortib qo'ydi.

Uyda xotini Ramkanaini burovga oldi. Arava bilan ariqqa tushib ketgan ho'kiz, aravakashdan kaltak yeb, mo'ltillab turgandek, Ramkanai ham xotining ta'nalarini xomush turib eshitdi.

Nihoyat, u g'amginlik bilan gapirdi:

— Axir ayb mendami? Men Guruchoron emasman-ku! Xotini yana bobillab ketdi:

— O'zingcha odamoxunlik qilgansan-da. Akang «yoz!» desa, o'ylab-netmay yoza bergansan. Hammang bir go'rsan... Ehtimol sen ham uning izidan borarsan — men o'lganda, bitta badburush alvastini uyga yetaklab kelib, mening tilladek bolamni ko'chaga haydab yuborarsan. Bundan umidingni uzib qo'ya qol. Men hali beri o'lmayman.

Ayol, erining kelajakda qilishi mumkin bo'lgan shuningdek adolatsizliklari haqida so'zlarkan, borgan sari g'azabi oshib borardi.

Bu xayoliy ayblashlarga qarshi zarracha e'tiroz bildirgan taqdirda, badtar baloga qolishni Ramkanai tajribadan yaxshi bilardi. U go'yo chindan xotini o'lib, Nobodipni

mahru meros etib, butun mol-mulkini ikkinchi xotinga vasiyat qilgan-u, endi o'zini oqlashga iloj topmagan aybdorday xomush o'tirardi.

Eru xotin janjallashib turganda Nobodip tajribali do'stlari bilan maslahat qilib kelib onasiga bunday dedi:

— Amakimning mol-dunyosi bari bir meniki bo'ladi, sen behudaga qayg'urma, lekin otamni vaqtincha biror yoqqa yuborish kerak. Agar u shu yerda bo'lsa, hech ish chiqarib bo'lmaydi.

Nobodipning onasi erini tentak deb bilardi. Shuning uchun o'g'lining dalillarini darrov ma'qulladi.

Xotini bir bahona topib, noshud, nodon va go'l erini hol-joniga qo'ymay, Banorasga jo'natdi. Bu orada Nobodip yangasi Borodashundorini soxta vasiyatnoma yasashda ayblab sudga berdi. Yangasi ham Nobodipni xuddi shunday ayblab sudga berdi. Nobodip o'z nomiga yozilgan vasiyatnomani ko'rsatdi, unda Guruchoronning nomi aniq yozilgan edi; u yana bir necha «xolis» guvohlar ham topib qo'ydi.

Borodashundorining yagona guvohi Nobodipning otasi edi. Undagi vasiyatnomada esa, vasiyat qiluvchining imzosini aniqlash g'oyat mushkul bo'ldi. Ayolga dalda beradigan birdan-bir kishi uning uyida yashab turgan o'gay ukasi edi, xolos.

— Tashvish qilmang, opa sudda o'zim tarafingizni olaman, boshqa guvohlar ham topaman, — dedi u.

Hamma narsa tayyor bo'lgach, Nobodipning onasi erini Banorasdan chaqirdi. Qo'lida soyaboni, yelkasida xurjuni bilan bu yuraksiz janob uyga kirib keldi. U kishi andak hazil-mutoyiba qilmoqchi bo'lib, qo'l qovushtirdi va ta'zim vaziyatida turib:

— Kamina qulvachchalari keldilar. Xonimning qanday amru farmonlari bo'ladi? — deb so'radi. Ammo xotini jiddiy tus olib:

— Hazilga balo bormi, bas, bo'ldi. Qaerdagi bahonalar bilan Banorasda yurib-yurib, birdan bizni eslab qolibdi, — dedi.

Keyin, eru xotin bir-birlarini qanday izzat-hurmat qilishlari haqida yana uzoq gaplashib, nihoyat, boshqa mavzuga o'tdilar.

Xotini, erlarning xotinlarga munosabatini musulmonlarning tovuqqa munosabati bilan taqqosladi. Eri esa, xotinlarning lablari kishini maftun etadi, ammo yuraklari o'tkir ustaraga o'xshaydi, dedi.

Ramkananing xotinlarga bunday fasohat bilan muomala qilishni qachon o'rganganini aytish juda qiyin edi.

Bu orada, hech kutilmaganda, Ramkanaiga chaqiruv qog'oz kelib qoldi: uni guvoh tariqasida sudga chaqirgan edilar. Tashvishga tushgan er, buning tagida nima gap bor ekan, deb behuda xayol surardi. Bu vaqt xotini kelib, badburush alvasti ovsini Nobodipni mehribon amakisining merosidan mahrum qilibgina qolmay, bu tillo bolani yana turmaga ham o'tkazishga urinayotganini yig'lab turib xabar qildi...

Nihoyat, gap nima ustida ekanini payqab, Ramkanai:

— Yaxshi qilmabsizlar, bu xayrli ish emas, — dedi baland ovoz bilan.

Shunda xotini har qanday yasamalikka xotima berib, muddaoni ochib soldi:

— Axir Nobodipning nima gunohi bor? — dedi u, — nahotki u amakisining mol-dunyosini ololmasa? Bir og'iz gap bilan shuncha narsadan voz kechadimi? Qani, marhamat qilib ayt-chi, qayoqdandir bir yalmog'iz, er qotili, moxov qizi uchib kelib uyni egallab olsa, ajoyib, go'zal, adabli voris nima qilmog'i kerak? U ayol sehrjodu bilan amakini o'lim oldida yo'ldan ozdirdi. Endi uning ajoyib jiyani bu anglashilmovchilikni tuzatishga urinyapti, xolos. O'zing o'ylab ko'r, axir, bu adolat emasmi?

Sho'rlik Ramkanai, ona-bolaning tili bir ekanini bilgach, peshonasiga urib, xomush bo'ldi. Boyoqish chol yemoq-ichmoqdan ham qoldi.

Shu tariqa ikki kun tuz totmadi. Nihoyat, sud boshlandi. Nobodip tahdid va va'dalar qilib, Borodashundorining

o'gay ukasiga shunday ta'sir qildiki, u darrov Nobodip foydasiga guvohlik bera qoldi.

Omad qushi Borodashundorini qoldirib, ikkinchi tarafga parvoz qilay deb turganda, sud Ramkanaini guvohlikka chaqirdi.

Ochlikdan madori qurigan chol arang o'midan turib, guvohlar kursisining orqa suyanchig'iga tayandi. Uning lablari va tili tashnalikdan quriqshagan edi.

Tajribali advokat har taraflama murakkab so'roqlar berishga kirishdi. U uzoqdan boshladi, ehtiyot bilan so'roqlar berib, masalaning mohiyatiga yaqinlashdi.

Ramkanai sudga o'girilib, ikki kaftini bir-biriga qo'ydi-da, iltijo qilgandek:

— Janoblar, men majoli qurigan cholman. Uzoq gapirolmayman, qisqacha so'zlab beray. Mening marhum ukam Guruchoron Chokroborti o'lim oldida hamma mol-mulkini xotini Borodashundori xonimga vasiyat qilib qoldirdi. Bu vasiyatnomani u aytib turdi, men yozib oldim. Keyin imzo chekdi. O'g'lim olib kelgan vasiyatnomaga esa — soxta! — Shu so'zlarni aytgach, cholni qaltiroq bosdi va xushdan ketib yiqildi.

Prokuror yonida o'tirgan advokat taajjub bilan qoshlarini chimirib, pichirladi:

— Ish chappa ketdi-ku! Bu odam o'zini yo'qotib qo'ydi!

O'gay uka bo'lsa, sevinganidan chopgancha uyga kirdi-da, opasi Borodashundoriga:

— Chol hamma ishni rasvo qildi. Sud mening guvohligim tufayli bizning foydamizga hukm chiqardi, — dedi.

— Rostdan ham, odamning ichidagini bilish qiyin. Men bu cholni halol odam deb yurardim, — dedi Borodashundora.

Qamoqqa olingan Nobodipning tajribali do'stlari uzoq fikrlashib, ishning bunday chappa ketishiga faqat cholning qo'rqqoligi sabab bo'ldi, chindan ham u sud huzurida turganda aqldan ozgan edi, bunaqa ahmoq shaharida

rimizda boshqa topilmasa kerak, degan xulosaga keldilar.

Ramkananing isitmasi oshib ketdi. Bu tentak, bemaza, befoyda ota jon berguncha aljirab, o'g'lining nomini tildan qo'ymadi. Qarindoshlarning ba'zilari — men ularning nomlarini zikr qilishni istamayman — cholning vafotidan keyin:

— U shu safarga bundan bir oz ilgariroq otlanganda, juda yaxshi bo'lardi, — dedilar.

1891-yil



## YOZUVCHI

Shu kungacha Probxadan sira g'amim yo'q edi. Qaytaga bemor onasining tashvishi ko'proq bo'lardi. Probxaning o'ynab turganini ko'rib, men behad quvonardim, uning ma'sum kulgisidan va chala-chulpa qilib gapirishidan rohat qilib, uni jon deb ovuntirar edim. Biroq, qizcha yig'lagan hamon undan qutulishga harakat qilib, darrov onasining qo'liga berardim.

Bolaning butun tashvishi oqibat mening zimmamga tushar deb sira ham o'ylamagan edim. Baxtga qarshi, tez fursatda xotinim o'lib, qizcha butunlay mening qo'limda qoldi. Ona mehridan mahrum bo'lgan bu yetimchaga ikki chandon muhabbat bilan qarashim lozimligini juda yaxshi anglar edim. Ammo bu musibatdan Probxaning qanday xulosa chiqarganini bilmasdim; qizcha bo'lsa, yolg'iz dadamga men qaramasam, kim qaraydi, degan fikrga kelgan ekan.

Olti yoshga borganda, uy-ro'zg'or ishlari tamomila shuning qo'liga o'tdi. Kichkina qizchaning dadasini parvarish qilishga bel bog'lagani yaqqol ko'rinib turardi. Men ko'nglimda undan kulsam ham, izmidan chiqmasdim. Meni uquvsiz, yordamga muhtoj deb o'ylash unga yoqar, binobarin, kiyim yo soyabonimni biror yerga tashlasam, go'yo uning qarashib yuborishi zarurdek, darrov yig'ishtirib joy-joyiga qo'yardi. Axir uning menga o'xshash katta qo'g'irchog'i yo'q edi-da! Shuning uchun otaga ovqat pishirish, kiyintirish, yotganda ustlarini yopib qo'yish unga zo'r quvonch bag'ishlardi. Faqat harf o'rganish va o'qish vaqtidagina, istar-istamas, mening xohishimga bo'ysunar edi.

Qiz hademay balog'atga yetib, uni munosib erga berish vaqti ham keldi. Buning uchun pul kerak, menda esa pul yo'q! Bundan tashqari, men qizimga xat-savod o'rgatdim, endi u biror nodonning qo'liga tushsa nima bo'ladi? Pul topish zarur edi. Hukumat idoralariga ishga kiray desam, juda keksayib qolganman, boshqa ishga

rag'batim yo'q, o'ylab-o'ylab yozuvchilik qilishni ma'qul ko'rdim.

Yosh bambuk daraxtidan yasalgan idishga na suv, na yog' solib bo'ladi. U ro'zg'orda foydasiz narsa. Ammo, bordiyu bambukning yosh niholidan nay yasalsa-chi, u yoqimli sado beradi. Men o'z qobiliyatini hech qaysi sohada ko'rsata olmagan baxtsiz kimsa, shubhasiz, kitob yoza oladi, degan qarorga keldim. Binobarin, tortinmay-netmay bir pardalik komediya yozishga kirishdim.

Komediya ko'p kishilarga manzur bo'lib, sahnaga qo'yildi. Bu asar menga shon-shuhrat keltirdi, shu bilan birga, boshimga tashvish ham soldi: endi men boshlagan ishinni oxiriga yetkazolmasman degan xavfda edim. Kunbo'yi qo'rquv va hayajon ichida komediya yozardim.

— Dada, balki ko'chalarga chiqib bir aylanib kelarmiz, — deb iltimos qildi Proxa mayingina jilmayib.

— Bor, nari tur! Hozir menga xalaqit berma! — baqirib berdim men trubka cheka turib. Uning yorishib turgan chehrasi, puflab o'chirilgan shamdek, birpasda so'ndi. Men bo'lsam bekordan-bekorga ozor topgan bu qizning xonadan qanday chiqib ketganini ham sezmay qolibman.

Shu vaqtlarda men cho'ri xotinlarni shafqatsizlik bilan haydar, xizmatkorlarni urar, agar gado kelsa tayoq olib quvar edim. Uyim chorrahada bo'lgani uchun, ba'zi yo'lovchilar derazadan qarab yo'l so'rar, men bo'lsam ularni jerkib, ko'chaning narigi yog'idan yurishga buyurar edim. Mening qiziq komediya yozayotganimni hech kim bilmas, bilishni ham istamas edi.

Mening dramaturgiyaga havasim ham, shon-shuhratim ham tobora ortar, lekin pulimga pul qo'shilmas edi. Darvoqe, men u vaqtda pulni o'ylamasdim ham. Men hatto yaxshi oiladan qizimga kuyov topishim zarurligini ham unutgan edim.

Agar orada boshqa bir hodisa ro'y bermaganda, bu tel-balik yana qancha davom etar edi ekan, bilmayman.

Jahongirning gazeta nashri etdi. Men unga ishita bo'ldim va bir necha kun davomida gazeta kuziduz betinim yozdim. Jaxirga o'zida Axirga bishlog'i ham bor edi. Bu qishda gazeta nashri etilgan va tayinim a'zo bo'lgan partiyaga o'zida bishlog'i transub ekan. Avtishlogiga qaraganda bu gazeta nashri etilgan gazeta nashri bilan taqqis etilgan. Men sud ulardan bu nom qishda gazeta nashri etilgan. 10 y'rida nashri etilgan mayur bo'lgan gazeta nashri etilgan. Men Axirga gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan. O'zida gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan. Sharaftim gazeta nashri etilgan. Gazeta nashri etilgan da qilindi. Bu gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan. Semirir gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan bo'ldi. Gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan. Axirga gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan. Xirgramda gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan bo'ldi. Gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan.

Bu gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan. Bu gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan. Day gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan. Laricat gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan. So' gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan. Bali gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan. Shunday gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan. Do'ra gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan. Chiqqida gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan. O'ylarda gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan. Ilmiy gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan. Yaxshi gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan. Maynunda gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan. Munya gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan. Ilmiy gazeta nashri etilgan gazeta nashri etilgan.

Xo'jayinim endi menga ilgarigidek hurmat bilan qaramas, odamlar ham menga ro'yxush bermasdi. Ko'chaga chiqsam mendan yuz o'girishar, ba'zilar esa meni ko'rgan hamon kula boshlardilar.

Bu orada mening komediyalarimni hamma unutdi. Nazarimda men odamlarga bir quti gugurtchalikkina kerak ekanman; uni bir lahza yondirishdiyu ish tugadi. Ruhim tushib, boshim garang bo'lib, mutlaqo ishlamay qoldi. Hayotim zavolga yuz tutdi. Unda hech qanday ma'no qolmadi.

Bu chog'larda Probxaxa mendan qo'rqib qolgan edi. Chaqirmagunimcha mening oldimga kirishga jur'at qilmasdi. Qiz, yozishdan bo'shamagan otadan ko'ra, mudom yoningda turgan qo'g'irchoq yaxshi, degan fikrga kelib qolgan edi, chamamda.

Oxiri Axirgram gazetasi xo'jayinimni qo'yib menga yopishdi. Menga qarshi yozilgan maqolalar juda ham haqoratomuz edi. Ularning mazmunini do'stlarim, jo'ralarim menga kula-kula so'zlab berardilar. Ba'zilar, gap maqolada emas, gap uning qanday mahorat bilan yozilishida, deb qo'yishardi. Uning ravon uslubiga e'tibor qilinsa, dilozorligi ham yengillashib qolarmish. Shu fikrni yigirma kishi kunbo'yi qulog'imga quyardi.

Uyimning oldida bir bog'cha bo'lib, ba'zan biror narsadan xunobim chiqsa, shu yerda aylanib yurishni yaxshi ko'rardim. Uyalari ustida uchib yurgan qushchalarning chag'ir-chug'uri to'xtab, qosh qorayib, hammayoq tinchiganda men ham ancha hovurimdan tushardim. Qushlar orasida tilidan zahar tomadigan yozuvchilar yo'qligini bilardim, binobarin, ular bilan yaxshi did haqida munozara qilishning hojati ham yo'q. Men haligi zahar olud maqolalarga javob yozish haqidagina o'ylardim. «Olijanoblik va mardlikni hamma ham tushuna bermaydi, — derdim ichimda. — Eng yaxshisi zahar olud til». Men qattiq javob yozishga qaror qildim, mana bunda men sira ham mag'lub bo'lmayman! Shu lahza zulmat ichida yumshoq, tanish ovoz eshitildi va men

mayin va issiq qo'lining avaylab tekkanini sezdim. Biroq, o'z fikrlarimga shu qadar g'arq bo'lgandimki, unga parvo ham qilmadim. Bir necha daqiqadan so'ng shu mayin ovoz yana meni chaqirdi va yana qo'lining avaylab tekkanini his etdim. Qiz sekingina menga yaqinlashib, arang eshitilar ovoz bilan «Dada!...» dedi. Javob bo'lmanini ko'rib, mening o'ng qo'limni ushlab astagina peshonasiga olib bordi-da, sekin qaytib uyga ketdi. Probx ko'pdan buyon mening oldimga kirmas, mabodo kirsam ham bunday yolvormas edi. Hozir avaylab menga qo'l uzatishi butun vujudimni to'lqinlantirib yubordi.

Birmuncha vaqt o'tgandan so'ng uyga kirsam, qizim karavotda yotibdi. U darmonsiz, ko'zlari yarim yumuq; butun a'zosi guldek so'lgan edi. Peshonasini ushlasam, yonib turibdi, qon tomirlari shishgan, tez-tez nafas oladi. Bildimki, qizim kasalini sezib, shirin so'z, mehr-muhabbat istab otaga murojaat qilgan, u esa, bu paytda axirgramliklarga javoban yoziladigan, hech kimga nafi tegmaydigan dilozor maqola haqida bosh qotirib yuribdi.

Men bemor yonida o'tirdim. Probx so'zsiz, issiq qo'llari bilan mening qo'limni tortib peshonasiga olib bordi-da, jim bo'lib qoldi.

Men Axirgram va Jaxirgram haqidagi hamma maqolalarimni o'tga yoqdim va hech qanday javob yozmadim. Chunki endilikda g'alaba ham menga quvonch keltirmedi. Probxaning onasi o'lganda men uni o'z qo'limga olgandim. Bugun — Probxaga o'gay ona bo'lib qolgan mening yozuvchilik faoiyatim dafn etilgandan so'ng, yana qizimni qo'limga olib, bag'rimga bosdim va uyimdan chiqib ketdim.

Aka-uka Dukxiram bilan Chxidam erta saharlab belkuraklarini olib ishga ketgan hamon, xotinlari orasida qattiq janjal, mojaro boshlanardi. Ammo qo'shinlari bunga shunday ko'nikib qolishganki, bu janjallarni ko'chadagi oddiy tovushlarday parvosiz eshitaveradilar.

Xotinlarning chinqirganini eshitib, ular bir-birlariga:

— Mana, tag'in boshlandi! — deb qo'yardilar, xolos.

Buning ma'nosi shuki, xuddi ular kutgan narsa ro'y berdi, bu kun ham boshqa kunlardan sira farq qilmaydi.

Sharq tarafdin quyosh chiqishining sababini hech kim so'ramagandek, bu ovsinlar orasidagi nizoning sababini bilishga ham hech kim qiziqsinmasdi. Tabiiyki, bunchalik janjal va g'avg'olar qo'shnilardan ham ko'ra bu ayollar-ning erlariga ko'proq ta'sir qilishi kerak edi, lekin bu ularni ham u qadar bezovta qilmaydi. Ular hayotning uzoq yo'lida, bir aravada ketib borishar, yog'lanmagan g'ildiraklardan chiqqan to'xtovsiz g'ijirlashlar esa ularga hayot charxining tabiiy ovozi bo'lib eshitilardi. Aksincha, agar uydin baqirgan ovoz chiqib tinchlikni buzmasa, oqibati nimalarga olib borishini aytish qiyin bo'lgan juda katta janjal chiqishidan qo'rqib turardilar.

Bizning bu qissamiz boshlanadigan kun kechqurun aka-ukalar ishdin charchab qaytganlarida uy jimjit edi. Tashqarida ham odatdin tashqari jimlik hukm surardi. Olti soatdin beri quyib turgan yomg'ir, oxiri tingan bo'lsa-da, ufqlarda qora qalin bulutlar hamon yastanib yotardi. Havoda zarracha shabada sezilmasdi. Yomg'ir vaqtida qishloq atrofidagi daraxt va ko'katlar barq urib yashnadi. Suv oqizib kelgan ko'katlarning xushbo'y hidi uy tevaragida anqib turibdi. Uylar orqasidagi ko'ldin baqalarning vaqillashi eshitiladi. Shu yaqindin o'tgan Padma daryosi yomg'ir suvidin toshib quyuyq qora bulutlar ostida ayniqsa dahshatli tusga kirgan edi. Daryo ekinzorlarining

ko'p qismini bosib, uylarga yaqinlashmoqda. Cho'kkan yerlardan mango va non daraxtlarining tomirlari chiqib turibdi; ular biror tayanch topish niyatida bo'shliqqa qarab panjalarini uzatib turganday ko'rinadi.

O'sha kuni aka-uka Dukxiram bilan Chxidam zamindorning idorasida ishladilar.

Daryoning sayoz joylariga ekilgan ekinlar yetilib, qishloq kambag'allari yo o'z dalalarida, yoxud judkor yerlarda band edilar. Shuning uchun zamindorning ishboshisi tashqariga chiqib, faqat shu og'a-inilarni ko'rdi, xolos.

Idoraning tomi teshilgan, ko'p yeridan chakka o'tardi. Aka-uka kunbo'yi shu teshiklarni yamashdi. Tushda uyga borolmay, shu yerda, idorada andak tamaddi qilishdi. Kunbo'yi yomg'irda ishlab kiyimlari jiqqa ho'l bo'ldi, ularga korjoma berilmagan edi. Buning ustiga, ta'nayu haqoratlarni odatdagidan ko'proq eshitdilar. Suyak-suyagigacha nam o'tib, hammayoqlari iflos holda, qosh qorayganda uyga qaytdilar. Ukaning xotini Chondora kiyimining peshini yozib polda yotardi. Har kungidek qovoqlari soliq. Aft-angori shu yomg'irli oqshom singari g'amgin. Akaning xotini Radxa bo'lsa, ayvonda hurpayib o'tiribdi. Aka-uka uyga kirib qarashsa, hadeb yig'laydigan bir yarim yashar bola burchakda chalqancha yotib yalang'och uxlab qolibdi.

— Ovqat ber! — dedi xotiniga Dukxiram.

Radxa o'tga tushgan porox bochkasiday portlab:

— Ovqatni qayoqdan olaman? — deb ovozinining bori-cha chinqirib yubordi. — Nima, o'zim borib pul topaymi?

Kunbo'yi og'ir mehnat va tahqirlardan qaqshab qaytgach, ochlik tugunidan qorong'ilashgan uyda xotindan bunday zaharli ta'na eshitishga toqat qilolmasdi.

Dukxiram yaralangan yo'lbars ovozinini eslatadigan bo'g'iq tovush bilan:

— Nima deding? — dedi-yu, qo'lidagi belkurak bilan xotinining boshiga urdi. Radxa ovsinining oyoqlari ostiga yiqilib, shu zahoti jon berdi.

Ovsini Chondora esa:

— Voy, o'lganim yaxshi, nima qilib qo'ydingiz? — deb qichqirib yubordi. Uning kiyimlari qonga bo'yalgan edi. Chxidam darrov uning og'zini yopdi. Dukxiram esankirab qoldi, u belkurakni tashlab, boshini ushlagancha polga o'tirdi; uxlab yotgan bola uyg'onib, qo'rqqanidan yig'lab yubordi.

Bu uyda shuncha hodisa bo'lishiga qaramay, qishloq avvalgidek tippa-tinch edi. Podachi hozirgina podani haydab keldi. Kunbo'yi sholi o'rog'ida yurgan dehqonlar yengil qayiqlarda uylariga qaytardilar; ular boshlarida bir necha bog'dan sholi ko'tarib kelardilar, bu — ularning bir kunlik ish haqlari edi.

Aka-ukalarning qo'shnisi Ramlochon Chokroborti bobo pochtaga xat tashlab kelib, o'z uyi oldida xotir-jamgina trubka chekib o'tirardi. Dukxi uning ijarachisi bo'lib, qarzining bir qismini shu kuni to'lashga va'da bergan edi. Birdan cho'ning esiga shu gap kelib, ehtimol, Dukxi ishdan qaytgandir, deb yelkasiga chadorini tashlab, qo'liga soyabon olib hovlisidan chiqdi.

U qo'shni hovliga nazar solib, seskanib ketdi. Hamma uylarda chiroq o'chirilgan. Qorong'i ayvonda bir necha kishining sharpasi ko'rinardi. Ahyon-ahyonda bo'g'ilib chiqqan yig'i ovozi eshitilardi — bola onasini chaqirib yig'lardi. Chxidam uning og'zini qo'li bilan bekitib turardi.

— Dukxi, uydamisan? — deb so'radi besaranjom Ramlochon.

Dukxi tosh haykalday qotib yotardi. U o'z ismini eshitib, yosh boladek ho'ngrab yubordi.

Chxidam shoshilganicha hovliga chiqib Chokroborti huzuriga bordi.

— Aftidan, xotinlar yana janjallashganga o'xshaydimi? — deb so'radi Ramlochon bobo, — biz uzzukun ularning dodu faryodini eshitdik...

Chxidam nima qilishini bilmasdi. Biri-biridan bema'niroq fikrlar boshiga kelardi. Nihoyat, qorong'i tushgandan keyin murdani bir joyga ko'mib, shu bilan



undan qutulaman, degan fikrga keldi. Bungacha uyga biror kishi kirib kelishini u sira xayoliga keltirmagan edi. Qo'qqisdan kelib qolgan bu odamga Chxidam nima deb javob berishini bilmadi.

— Ha, bukun qattiq janjal bo'libdi, — dedi oxiri.

Ramlochon ayvonga chiqishga taraddudlanib:

— Nega Dukxa yig'layapti? — deb so'radi.

Chxidam buni yashirish qiyinligini fahmlab:

— Janjal vaqtida mening xotinim Radxani belkurak bilan uribdi.

Bunday paytda hech qanday xavf, faraz etilgandan ko'ra dahshatliroq tuyulmaydi: Chxidam mudhish haqiqat changalidan qutulishnigina o'ylardi. Darhaqiqat, yolg'onning haqiqatdan ko'ra dahshatliroq oqibatini u qayoqdan bilsin? Binobarin, Ramlochonning savolini eshitgan Chxidam o'ylab-netmay og'ziga kelgan so'zni aytdi-qo'ydi.

Ramlochon bu xabardan seskanib:

— Bay, bay bay! Nimalar deyapsan! Har holda o'lma-gandir-a? — deb so'radi.

— O'lib qoldi, — dedi Chxidam va Chokrobortining oyog'iga yiqildi.

Ramlochonning qochishga majoli yetmay:

«Ram, ram! — deb yubordi-da, o'ylab qoldi.— Bemaxalda nima qilib, bu hodisaning shohidi bo'ldim! Endi uzluksiz tergovga chaqirishadi».

Chxidam esa hamon uning oyoqlariga tirmashar edi.

— O, donishmand bobo, — deb yalindi u (Ramlochon qishloqda eng yaxshi qonunshunos deb hisoblardilar).— Aytinch, nima qilsam xotinimni qutqarib qolaman?

— Quloq sol, — bir oz o'ylab davom etdi Chokroborti.—Birgina yo'l bor: hozir politsiyaga borib, ukam Dukxi kechqurun ishdan och kelib, ovqat tayyor emasligini bilgach, xotinini belkurak bilan urdi degin. Shu so'zni ayt-sang xotining xalos bo'ladi, bo'ladigan gap shu.

Chxidamning tomoqlari quruqshab ketdi:

— Yo‘q, txakur<sup>1</sup> — deb o‘rnidan qo‘zg‘aldi u, — agar xotinim halok bo‘lsa, men boshqasini olaman, bordiyu ukamni ossalar ikkinchi uka topolmayman.

Ammo Chxidam xotinini jinoyatchi deb ayblaganda, bu haqda o‘ylab ham ko‘rmagan edi. U og‘ziga kelgan gapni aytishga aytdi-yu, endi o‘zi ham larzaga tushib, o‘z qilmishini oqlashga yo‘l qidirardi.

Yosh dehqoning e‘tirozi asosliday tuyuldi Chokrobor-tiga.

— Unday bo‘lsa nima ham qilarding, — dedi u, — jinoyat qanday zuhur etgan bo‘lsa, shunday qilib aytib ber. Bari bir jinoyatni yashirib bo‘lmaydi.

Shu so‘zlarni aytib Ramlochon chiqib kedi va shu zahotiyoq butun qishloqda janjal vaqtida Chondora Dukxining xotinini belkurak bilan urib o‘ldiribdi, degan duv-duv gap tarqaldi.

To‘g‘onni urib ketgan suvdek, shov-shuv bilan qish-loqqa politsiya yopirilib kelganda, gunohkor ham, begu-noh ham hamma baravar hayajonda qoldi.

## II

Chxidam bir aytgan so‘zdan qaytib bo‘lmasligini tushunar edi. Ramlochonga aytgan gapi allaqachon butun qishloqqa tarqalgan, endi u o‘zi ham boshqa bir vaj izlash-ga botinmas chunki buning oqibati nimaga olib kelishini bilmasdi. Shuning uchun xotinini qutqazishning birdan-bir yo‘li deb, ilgari aytganlarini rad etmay, so‘roq vaqtida ishni chigallashtirish fikrida edi.

Chxidam xotiniga aybni o‘z bo‘yniga olishni taklif etdi. Bu iltimos uni hang-mang qilib qo‘ydi.

— Mening gapiradigan gaplarimdan tashvish qilma, — deb dalda berdi unga Chxidam, — bari bir biz seni qutqarib olamiz.

---

<sup>1</sup> Txakur — hurmatli kishilarga hindlar shunday deb murojaat qili-shadi.

U xotiniga tasalli berdi-yu, lekin o'zi vahimaga tushib, tomoqlari quruqshadi, ranglari murdaday oqarib ketdi.

Chondora endi o'n sakkiz yoshga qadam qo'ygan edi. Uning yuzlari shirmonday, baquvvat, harakatchan gavadasi shunday chiroyli ediki; yursa ham, qayrilsa ham, egilsa ham, xullas hamma holatda o'ziga yarashardi. Chondora yangi qayiqcha singari tez, yengil harakat qilar, kiyimlarida esa biror g'ijim topilmasdi. U har bir ishni g'ayrat va mehr bilan boshlar, ko'chaga chiqib gaplashishni yaxshi ko'rar, qo'liga ko'za olib, quduq boshiga kelarkan, ro'molini qiya qilib, chaq nab turgan o'tkir qora ko'zlari bilan o'tgan-ketganni kuzatishga juda ishqiboz edi.

Akasining xotini Radxa Chogndoraning tamom teskarisi: sustkash, yalqov, isqirt edi; u na boshidagi ro'molini, na qo'lidagi go'dakni, na uy-ro'zg'or ishlarini eplay olardi. Tag'in, biror ishi bo'lmagan holda, mug'ambirlik qilib o'zini hamisha band qilib ko'rsatardi. Chondora u bilan kamdan-kam gaplashardi — shunchaki aytgan bir-ikki og'iz so'zi uchun ovsini shalla qilib baqirar, shang'illab qarg'agani qarg'agan edi.

Ajabki ikkalasining ham xulqi o'z erining xulqiga o'xshardi. Dukxiram uzun bo'yli, barvasta, yassi burunli yigit. Kichik ko'zlari borliqning mohiyatini tushunmay, shu bilan birga, so'rashga ham botinmay turganday, savol nazari bilan qarardi. Xullas, bunday yuvosh, baquvvat, ayni zamonda lapashang odamni qidirib topish qiyin.

Chxidam bo'lsa, yaltiroq qora toshdan mahorat bilan yasalgan haykalga o'xshardi. U juda ham kelishgan yigit bo'lib, hamma a'zolari mutanosib, uyg'un, naq kamolotning namunasi edi. Uning yog'langan quyuc qora sochlari hamisha taralgan, buning ustiga, o'zi ham pokiza kiyinar, andak olifstanamo ham bo'lib yurardi. Hech kim daryoga Chxidamchalik yuqoridan tashlab sho'ng'imas, hech uningdek bir zabt bilan qayiqni itarib yuborolmas, hech kim unchalik chaqqonlik bilan bambuk tepasiga chiqib,

yosh novda sindirib tusholmas, qisqasi — u nimaiki qilsa, hamma ishida tartib, fahm-farosat sezilardi.

Chxidamni qishloqdagi sohibjamol qizlarga beparvo qaraydi deb ham bo'lmasdi, lekin, goho qizlar oldidan savlat to'kib o'tsa-da, o'zining yosh xotini Chondorani hammasidan yaxshi ko'rardi.

Ba'zan eru xotin orasida nizo chiqib, aytishib qolishsa ham, bir-birlarini haqorat qilishmasdi. Totuv yashashlarining bir sababi, asosan, shundan iboratki, agar Chxidam Chondora singari sohibjamol, lekin yengiltak xotinning jilovini bo'sh qo'yish yaramaydi, deb o'ylasa, Chondora-ning fikricha, uning eri ko'zi bilan xotin ovlaydi, bordiyu uni rashk zanjiri bilan bog'lab qo'yilmasa, bir kun emas, bir kuni uni tashlaydi-ketadi.

Yuqorida aytilgan voqeadan bir oz ilgariroq er-xotin orasida jiddiy bir janjal chiqdi. Chondora erining ba'zan ishni bahona qilib qayoqqadir ketib qolayotganini payqadi. Masalan, oxirgi marta u ikki kun yo'qolib ketib, uyga pulsiz, quppa-quruq qaytib keldi. Buni ko'rgan Chondora ham, ishlar chatoq ekan, mana bo'lmasa deb, uydan tez-tez ketib qoladigan bo'ldi. U ko'proq pristanga borardi va ko'chadan qaytishi bilan Kashi Mojumdarning kichik o'g'li haqida esi ketib gapiradigan bo'ldi.

Chxidamning hayoti zaharlangan edi. Ishda ham fikr-yodi shu. Bir kun kelin oyisi Radxaning oldiga kelib xotinidan hasrat qildi. Radxa bu gapni eshitib chapak chilib yubordi va marxum otasining arvohini shafe keltirib, bobillab ketdi:

— Qarab tur, hali bu baxti qora bir baloni boshlamasa deb qo'rqaman. Men juda yaxshi bilaman bugun-erta u bir falokatga sabab bo'ladi!

Shu paytda qo'shni xonadan chiqqan Chondora salmoqlab:

— Nimadan buncha qo'rqaysiz ovsin? — dedi.

Ikki xotin orasida qattiq janjal boshlandi.

Chxidam qonga to'lgan ko'zlari bilan xotiniga tiki-lib:

— Agar yana yolg'iz pristanga borganingni eshitsam, suyaklaringni majaqlab tashlayman! — deb baqirdi.

Chondora bo'lsa:

— Hali shundaymi? Mayli, mening suyaklarim majaqlansa majaqlanib qo'ya qolsin, — dedi-yu, ko'chaga qarab yo'l oldi.

Biroq Chxidam bir sakrab unga yetib oldi. Sochidan ushlab uyga itarib yubordi-da, eshikni qulflab ketdi. Kechqurun ishdan kelib qarasa, eshik ochiq — uyda hech kim yo'q. Bu paytda Chondora uch qishloqni bosib o'tib, tog'asining qishlog'iga yaqinlashgan edi.

Chxidam ko'p yalinib-yolvorib, xotinini arang olib keldi shu bilan o'z mag'lubiyatiga iqror bo'ldi.

Chxidam bildiki, kaftdagi simobni qo'l bilan ushlab bo'lmagandek, bu nozanin juvonne ham uyda tutib turish mumkin emas. U ortiq zo'ravonlik qilmadi, ammo doim notinch edi. Yosh, o'jar xotining sertashvish muhabbati uning uchun azobdan iborat bo'lib qoldi. U ba'zan Chondora o'lsa ancha yengil bo'lardi, chunki o'lim tang-risidan hech kim rashk qilmaydi, deb o'ylardi.

Ana shu mahalda oilada musibat ro'y berdi.

Eri Chondorani, aybni bo'yningga ol, deb avrab turganda, u dong qotib ko'zlari go'yo ikki laxcha cho'g'-dek bo'lib, Chxidamning yurak-bag'rini kuydirdi. Ayol iztirob ichida, go'yo bu ajdahosimon erdan qutulish chorasini izlaganday tuyulardi. U eridan abadiy yuz o'girdi.

Chxidam xotinini, bu ishning qo'rqadigan joyi yo'q, deb ishontirishga, hatto politsiya va sudda qanday javob berishini o'rgatishga ham urindi. Ammo uning uzundan-uzoq nasihatidan Chondora biror so'zni qulog'iga ilmay toshday qotib, qimir etmay o'tiraverdi.

Dukxiram hamisha va hamma ishda ukasiga tayanardi. Chxidam unga, o'limning aybdori deb Chondorani ko'rsat, deganida, u:

— Unda sening xotining nima bo'ladi? — deb so'radi, xolos.

— Men uni qutqarib olaman, — dedi Chxidam.  
So'loqmon Dukxiram esa shu bilan tinchlanib qola qoldi.

### III

Chxidam xotiniga yo'l-yo'riq o'rgatib bunday dedi:

— Radxa meni pichoq bilan urmoqchi bo'ldi, men o'zimni himoya qilganda bexosdan belkurak unga tegib ketdi, degin!

Sudda voqeani shu zaylda bayon qilishni Ramlochon bobo o'ylab topdi. U xotin shunday javob berganda, Chxidam o'zi nima deyishi va qanday dalillar keltirishi lozimligini batafsil tushuntirdi.

Bu orada yetib kelgan politsiyachilar ish boshlab yubordilar. Radxani Chondora o'ldiribdi, degan ovoza qishloq aholisining miyasiga singib ketgandi. Hamma guvohlar shuni tasdiqlardilar.

Chondora so'roqda:

— Ha, men o'ldirdim, — deb javob berdi.

— Nega?

— Uni ko'rgani ko'zim yo'q edi.

— Janjallashib qolganmidinglar?

— Yo'q.

— Avval u seni o'ldirmoqchi bo'ldimi?

— Yo'q.

— Ehtimol u senga yomon gap gapirgandir?

— Yo'q.

Bu javoblar hammani hayratda qoldirdi. Chxidam hang-mang bo'lib qoldi.

— Noto'g'ri gapiryapti! — deb qichqirdi u. — Radxa birinchi bo'lib pichoq ko'targan.

Politsiyachilar unga tanbeh berib, jim turishga majbur etdilar. Masalaning biror jihati qorong'i qolmasin deb, Chondorani batafsil so'roq qilishdi, lekin bu foyda bermadi: uning javoblari hamon boyagining o'zi edi. Radxaning birinchi bo'lib hujum etganini u qat'iy rad etdi. Bu ayol sira ko'rilmagan o'jarlik qildi. U to'g'ri dor ostiga qarab

yo'l tutgan, uni bu yo'ldan to'xtatgulik kuch yo'q edi. Ajabo, bu qanday tahlikali kibr?

Chondora fikran eriga murojaat qilib: «Seni qoldirib, o'z yoshligimni dorga bag'ishlayman, mayli, bu tug'ilishimda dor mening oxirgi tayanchim bo'lsin», — dedi.

Mana, o'limga hukm etilgan Chondora hamqishloqlari oldida sharmandai-sharmisor etilgan o'sha beozor, chaqqon, xushchaqchaq juvon yoshlikdan tanish ko'chadan, aravalar yonidan, bozor maydonidan, pristan yonidan, Mojumdarning uyi, maktab va pochta oldidan o'tib, qishloqni abadiy tark etib bormoqda. Uning ketidan bolalar to'da-to'da bo'lib chopisbar, tengqur juvonlar esa, ba'zilari ro'molini qiya qilib, ba'zilari eshik tirqishidan, birovlar daraxtlar orqasida yashirinib, Chondorani olib ketayotgan politsiyachilarga qarar, dahshat, uyat va g'azabdan qaltirar edilar.

Sudda ham Chondora ustiga qo'yilgan aybga iqrar bo'ldi. Uning iqroriga, Radxa o'lim oldidan unga hech qanday qattiq so'z aytmagan.

Guvohlik berish navbati Chxidamga keldi. U iltijo qilganday qo'l qovushtirib, sudga qarab baland ovoz bilan dedi:

— Janobi sudya, qasamyod qilib aytamanki mening xotinimda hech qanday gunoh yo'q.

Sudya unga baqirib tinchlantirgach, so'roq boshladi. Chxidam bo'lgan voqeani to'ppa-to'g'ri so'zlab berdi.

Ammo sudya uning so'zlariga ishonmadi, chunki eng ishonchli bosh guvoh Ramlochon voqeani quyidagicha tasvir etdi:

— Men jinoyat ro'y bergan joyga o'sha zahotiyuq yetib keldim. Guvoh Chxidam menga bo'lgan voqeani batamom so'zlab berdi. U mening tizzalarimni quchoqlab turib: «Xotinimni qanday qilib qutqaraman, shunga bir yo'l ko'rsating» — deb iltimos qildi. Ammo men unga hech nima deyolmadim. «Agar men xotini ovqat pishirmagani uchun akam uni urib o'ldirdi desam, Chondorani

qo'yib yuborarmikanlar», — deb so'radi. Bunga men: «Tentak, bunaqa gapdan ehtiyot bo'l. Sud oldida bir og'iz ham yolg'on gapirmaki, dunyoda bundan qattiqroq gunoh yo'q, dedim...»

Ramlochon Chondorani qutqarib qolish uchun bir qancha yolg'on-yashiq vajlarni o'ylab qo'ygan bo'lsa ham, ayol o'zini oqlashga urinmaganini ko'rib, qo'rqdi. «Yolg'on guvohlik berganim uchun oxiri o'zim javobgar bo'lmayin tag'in! Yaxshisi, o'z bilganimni gapiray», — deb o'yladi u. Mana shu qarorga kelib, u sudga o'zi eshitgan narsalarni gapirdi, biroq ba'zi tafsilotlarni qo'shishni ham unutmadi. Sudya bu ishni ko'rish uchun vaqt tayinladi.

Bu orada mehnat va savdo, quvonch va alam — dunyoda hamma narsa o'z navbatida davom etdi. O'tgan yillardagi singari srbon oyida yetilayozgan ekinzorlarga to'xtovsiz yomg'ir yog'ib turdi.

Politsiya gunohkor va guvohlarni yana sudga olib keldi. Sud binosining hovlisida juda ko'p odamlar yig'ilib, ishning oqibatini kutmoqda edi.

Botqoqlik bir uchastkani qurilish maydoniga aylantirish yuzasidan Kalkuttadan bir advokat kelgan edi. Shu munosabat bilan da'vogar tarafidan o'ttiz to'qqiz guvoh chaqirildi. Necha yuzlab odamlar sudga kelib, o'zlarining chigal ishlarini yechmoqchi bo'ladilar! Har kim ham o'z ishidan ko'ra jiddiyroq ish yo'q deb o'ylaydi! Chxidam bu sertashvish olamga derazadan nazar tashlarkan, unga hamma narsa o'tkinchi tushday tuyuldi. Banan daraxtining osilib turgan shoxida kakku sayrardi, qushlarning na sudi, na qonuni bor.

— Oh sohib', bir gapni hadeb so'ray berasizmi? — dedi Chondora.

— Gunohingni bo'yningga olasanmi? — dedi sudya. — Buning uchun qanday jazo berilishini bilasanmi?

— Yo'q, — dedi ayol.

— Sohib — janob.



— Seni dorga osadilar.

— Bosgan izlaringizdan o'rgilay, sohib: shu ish tezroq bo'la qolsin! — deb qichqirdi Chondora. — Xohlagingizni qiling, mening toqatim qolmadi!

Sud zaliga Chxidamni olib kirganlarida Chondora undan yuz o'girdi. Sudya unga murojaat qilib:

— Mana bu guvohga qarab ayt-chi, u senga kim bo'ldi? — dedi.

Xotin yuzlarini qo'li bilan bekitib javob berdi:

— Mening erim.

— U seni sevadimi?

— Sevganda qandoq! — javob berdi u.

— Sen-chi, sen uni sevmaysanmi?

— Jonu dildan sevaman!

So'roq navbati Chxidamga kelganda, u:

— Men o'ldirganman, — deb turib oldi.

— Nima uchun?

— Ovqat so'raganimda bermagani uchun.

Dukxiramdan so'roq boshlanganda u behush bo'lib qoldi. O'ziga kelgach:

— Men o'ldirganman, sohib, — dedi.

— Nima sababdan?

— Ovqat bermagani uchun.

Guvohlardan qayta-qayta so'rab, sud, bu aka-ukalar xotin kishini sharmandalarcha dorga osilishdan xalos etish uchun aybni o'z bo'inlariga olmoqdalar, degan qat'iy fikrga keldi.

Ammo Chondoraning o'zi hamma joyda — politsiya uchastkasida ham, sudda ham bir aytganini takrorlay berdi. Uning javoblarida zarracha ikkilanish sezilmasdi. Ikki advokat, ixtiyoriy ravishda, uni o'limdan qutqazish uchun himoya qila boshladi, biroq, oxiri ularning ham hafsalasi pir bo'lib, o'ziga qo'yib berishdi.

Bir vaqtlar, yoshlik tongida kulcha yuzli, jajjigina qoracha qizcha, qo'g'irchoqlarini qoldirib, ota uydan qaynota xonadoniga kelib kirgan edi. O'sha quvonchli nikoh kechasi bukun yuz bergan bu voqeani kim ham

tasavvur eta olardi! Ota, nima bo'lganda ham qizimga yaxshi tarbiya berdim, deb bearmon ko'z yumdi.

Osishdan oldin ko'ngilchan bir vrach Chondoradan, biror odamni ko'rishni istaysanmi, deb so'radi.

— Men onamni ko'rishni istardim, — dedi Chondora.

— Ehtimol, ering bilan ko'rishishni xohlarsan, uni chaqirib beraymi?

— Yo'q, o'lgan yaxshi! — deb javob berdi Chondora.

## JOGESHSHORNING QURBONI

Jogeshshor qachonlardir tuppa-tuzuk hayot kechirar edi. Hozir esa, uning nuragan loyshuvoq uyida ilonlar, qurbaqalar va ko'rshapalaqlar o'rimalaydi. Chol bo'lsa, kichik kulbada yashab, zerikkan chog'larida «Bxagavad-gita»ni o'qib vaqt o'tkazadi.

O'n bir yil ilgari u qiz ko'rdi. O'sha mahaldayoq uning bir vaqtlardagi farovonlik oyi bota boshlagan edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, qiziga Komola' deb nom qo'ydi. Bu hiyladan murod ma'budalarning eng injig'i — Lakshmining diqqatini bu uyga jalb etish edi.

Garchi bu nayrangdan hech narsa chiqmasa-da, har holda, ma'buda Lakshmi qizning chehrasiga bir nigoh tashlab qo'ydi — Komola sohibjamol qiz bo'lib o'sdi.

Jogeshshor qizini erga berib, biror narsa ortirishni xotiriga ham keltirmagan edi. Unga kim qo'yibdi bu haqda o'ylashni! Shu atrofdan bitta-yarimta mo'min-qobilni topib, Komolani uzatib yuborsa bo'ldi-da.

Lekin ammasi boshqacha o'ylardi: uning sevikli jiyani faqat badavlat xonadonga tushishi kerak! «Men topgan-tutganimning hammasini sepiga beraman» — deb ahd etdi u. Nihoyat, u shastr o'qish bilan band bo'lgan akasi Jogeshshorni kuyov qidirishga jo'natdi.

Chol Rajaxiga borib tanish bir advokatning uyiga qo'ndi.

Advokatning mijozlari orasida Gourshundor Choudxuri degan bir zamindor bo'lib, uning birdan-bir o'g'li Bibxutibushon kolledjda o'qir, advokatning uyida tarbiyalanardi.

Bu yigitning Komolani qachon va qanday qilib ko'rganligi bir xudodan boshqa hech kimga ma'lum emas.

Jogeshshor, tabiiyki, xudoning bu makrini o'ylab-o'ylab tagiga yetolmadi. Bibxutiga bo'lajak kuyovim deb qarash uning xayoliga ham kelgan emas. Bu mo'min chol

<sup>1</sup> Komola — ma'buda Lakshmining sifati — nozik ma'nosida.

o'ziga bino qo'yishni ham, yelib-yugurishni ham bilmasdi. Bibxuti esa, xushbichim, jonon yigit! Shunday yigit unga kuyov bo'larmidi!

Jogeshshor advokatning yordami bilan qizi ajoyib kuyov topdi. Yigit juda bilimdon bo'lmasa ham molu dunyosi yetarli. U yiliga davlat xazinasiga uch ming ikki yuz yetmish besh rupiya soliq to'laydi, shundoq bo'lgach, biror o'quv yurtini bitirmagan bo'lsa hech boqisi yo'q.

Qiz ham kuyovning ota-onalariga ma'qul bo'ldi. Ular advokatning uyida mehmon bo'lib, sutda tayyorlangan shirinliklar va noranj yong'og'idan pishirilgan tansiq taomlar tanovul etishdi.

Bu darakni eshitib ertasiga Bibxuti Jogeshshorning uyiga keldi. Cholning kayfi chog' edi, u mehmonni siylamoqchi bo'ldi. Ammo yigit ishtahasi yo'qligini aytib, hech narsa yemadi va biror og'iz gapirmay chiqib ketdi.

O'sha kuni kechqurun advokat Bibxutidan xat oldi. Yigit, Jogeshshorning qizi menga juda ham ma'qul, men o'shanga uylanaman, deb yozibdi. «Ana xolos, — deb o'yladi advokat, — men baloga qoladigan bo'ldim. Endi Gourshundor o'g'lining qarindoshimga uylanishini faqat mendan ko'radi».

O'takasi chiqqan advokat Jogeshshorni qishloqqa yuborib, Komolaning to'yini tezlatishga urindi, o'z tarbiyasidagi yigitga esa, faqat o'qish bilan shug'ullan, boshqa har qanday fikrni yig'ishtirib qo'y, deb nasihat qildi.

Biroq bu nasihat Bibxutining jahlini chiqarib, o'jarligini oshirdi, xolos.

Jogeshshorning kulbasida zo'r berib to'y taraddudini ko'ra boshladilar.

Kunlardan bir kun Jogeshshor yashagan qishloqda Bibxutining o'zi paydo bo'ldi.

— Marhamat, azizim, marhamat, — dedi besaranjom chol.

«Mehmonni qaerga o'tqizish, nima bilan mehmon qilish kerak? Axir, men shaharliklarga yoqadigan taomni qayoqdan olay», — degan tashvishda qoldi u.

Bibxuti cho'milish oldidan tosh kursida o'tirib badaniga xushbo'y narsalar surkay boshladi. Komolaning ammasi uzun bo'yli, barvasta yigitning fil suyagiday oq badaniga qarab mahliyo bo'ldi.

— Qani endi shu yigit bizning Komolani ola qolsa, — deb shivirladi u, Jogeshshorning qulog'iga.

Chol qo'rqqanidan ko'zlarini katta ochib:

— Bo'lmag'ur gaplarni qo'ysang-chi, — deb yubordi.

— Ha, nima bo'пти? Yaxshi niyat, urinib ko'rish kerak.

Amma mol bozordan pishloq olib kelib, mehmonga ovqat tayyorlay boshladi.

Ovqatdan keyin Bibxuti xijolatda qizarib-bo'zarib cholning qiziga og'iz soldi.

Shoshib qolgan Jogeshshor bu katta yangilikni darhol singlisiga yetkazdi.

— Juda soz, azizim! Lekin bunaqa hovliqishning keragi yo'q! — dedi ayol. Uni biror narsa bilan hayratda qoldirish ancha mushkul edi. Agar Kobil amiri yoxud Xitoy hoqoni ostonangga keldi, desa ham bu ayol hayron bo'lmas edi.

Lekin Jogeshshor sira o'zini bosolmadi. U yigitning qo'lidan ushlab:

— Azizim, ishqilib bizni xijolat qilib qo'yma, — deb yolvorardi.

Bibxuti, qizga niyatini rasmiy ravishda bildirib, otasining huzuriga jo'nadi.

Gourshundor savodsiz edi, shuning uchun ham o'g'lining bilimdonligidan juda faxrlanardi. U hamisha o'zining nodonligi va madaniyatsizligini Bibxutidan yashirishga urinar, o'g'lim ko'nglida men uchun uyalmasaydi, savodsizligimdan nafratlanmasaydi, deb juda qo'rqardi.

Shunday bo'lsa ham, o'g'lining kambag'al qizga uylanish niyatida ekanini bilib jahli chiqdi.

Yigit otasining so'zlarini boshini quyi solib tingladi. Chol bir oz hovuridan tushgach, o'zini tutib so'zlariga yakun yasadi:

— Men uning sepidan quruq qolaman deb gapirayotganim yo‘q. Bo‘lajak qaynota bilan savdolashib o‘tiradigan pastkash odam emasman. Kelinim yaxshi oiladan bo‘lsin deyman, xolos.

Shunda Bibxuti uning yaqindagina kambag‘allashib qolgan mo‘tabar avlodga mansub ekanini aytdi.

Gourshundorning e‘tiroz qiladigan joyi qolmay, nochor rozi bo‘ldi, lekin dilida Jogeshshorga kek saqlab qo‘ydi.

Komola bilan Bibxutini fотиha qilishdi, oliq-soliqlar haqida ham kelishib olishdi, lekin to‘yni qaerda o‘tkazishga kelganda sira ham bir fikrga kelisholmadi. Gourshundor o‘g‘lining nikoh to‘yini katta dabdaba bilan o‘tkazmoqchi edi, Burashitoldagi kulba esa bunday marosimga nobop. U qaysarlik qilib, to‘y o‘z uyimda bo‘ladi, deb turib oldi.

Komolaning ammasi esa, xunob bo‘lib yig‘lagani yig‘lagan edi: «Axir, biz ham bir vaqtlar yaxshi kun ko‘rardik. To‘g‘ri, Lakshmi bizdan yuz o‘girdi, shuning uchun biz o‘z sha‘nimizni poymol qilib, ajdodlarimizning muborak xotirasini tahqirlashimiz lozimmi? Yo‘q, bunday sharmsorlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Mayli, uyimiz poxol bilan yopilgan bo‘lsa ham, to‘y faqat o‘zimizda bo‘ladi!»

Yuvosh Jogeshshor ancha qiyin ahvolda qoldi. Nihoyat, Bibxutining qo‘llashi bilan to‘yni kelinnikida o‘tkazmoqchi bo‘ldilar.

Gourshundor va uning xeshu aqrabolari Jogeshshorni battar yomon ko‘rib qoldilar. Ular, kuyovni ogohlantirmay, juda ko‘p kuyovnavkar boshlab borib, bu gerdaygan kambag‘alning ta‘zirini berishga ahd qildilar.

To‘y boyshax<sup>4</sup> oyida bo‘lishi kerak edi. Jogeshshor bor-yo‘g‘ini to‘yga sarf etdi. Uyiga ayvon qildi. Pabnadan un, yog‘, qand va boshqa masalliqalar olib keldi.

<sup>4</sup> Boyshax — hind kalendarida birinchi oy, aprel — martga to‘g‘ri keladi.

Ammaning ham jiyan to'yiga atagan pullari tamom bo'layozdi.

Xuddi o'chakishganday, to'yga ikki kun qolganda havo aynidi. Dahshatli bo'ron ko'tarilib, sel quya boshladi. So'nggi yigirma besh yil mobaynida bunday sel bo'lganini hech kim eslolmasdi.

Gourshundor oldinroq harakat qilib, stansiyaga bir necha fil va taxtiravon yubordi. Jogeshshor qo'shnilarining soyabon aravalarini yolladi, havo yomon bo'lgani uchun aravakashlar borishga ko'nmadilar. Jogeshshor yalinib-yolvorib, ikki baravar haq to'lashga va'da qilib, ularni arang ko'ndirdi. Bu aravalarga tushgan odamlar esa darg'azab bo'lib ketdilar.

Qishloq yo'lini suv bosgan edi. Fillar oyoqlarini yopishqoq loydan ko'tarolmas, aravalarining g'ildiragi zo'rg'a aylanardi. Yomg'ir hamon sharillab quyimoqda. Kuyovnavkarlarning hammayog'i ho'l, loy. Ular bunday xo'rlik uchun o'ch olishga ahd qilishdi! Sho'rlik Jogeshshor bemahal yomg'ir uchun ham javob berishga majbur edi.

Nihoyat, kuyov o'z qavm-qarindoshlari, yor-do'stlari bilan qaynota uyiga yetib keldi. Kutilmaganda buncha mehmonning paydo bo'lishini ko'rib boyoqish Jogeshshorni vahima bosdi. «Buncha odamni qaerga joylayman», — deb o'ylardi u.

Chol ikki qo'li bilan boshini ushlab:

— Juda yomon bo'ldi-ku, endi sharmanda bo'laman, — deb g'udirlar edi.

Jogeshshor bu oyda buncha yomg'irning qaerdan paydo bo'lishini sira tushunolmasdi.

Yangi ayvon atrofidan suv sharillab oqmoqda. Aslida tor joy, atrofda suv oqib turganida yanada torroq tuyular edi. Shunda qishloqning kattayu kichigi Jogeshshorga yordamga keldi. Ularning qiy-chuvi yomg'irning sharilashiga qo'shilib ketdi. Go'yo birov dengizni chayqaganday tuyulardi.

Qishloq oqsoqollari, munosib izzat-hurmat ko'rsatmaganlari uchun mehmonlardan uzr so'radilar.

Kuyov taomilga muvofiq, ichkariga kirib ketdi. Uning hamrohlari:

— Ochdan o'ldik-ku, bizga ovqat beringlar! — deb to'polon qilishardi.

Bechora Jogeshshor ikki bukilib, xafa bo'lmanglar, deb iltijo qilardi.

— Men qo'limdan kelgancha harakat qildim, — derdi u, — taom tayyorladim, biroq hammasini suv bosib ketdi...

Darhaqiqat, masalliqning bir qismi hanuzgacha Pabnadan kelmagan edi. Buning ustiga chalavayron oshxonaga suv kirib, pechkani g'arq etdi, bor masalliq ham suv ostida qolib, bo'tqaga aylandi.

Burashitola uncha boy qishloq emas ediki, u yerdan kerakli masalliq darrov topila qolsa.

Gourshundor mamnun bo'ldi. Uni quvontirgan narsa Jogeshshorning boshiga tushgan kulfat edi.

— Mehmonlarni och qoldirish yaxshi emas, biror chora ko'rish kerak-da! — dedi zarda qilib.

Jahli chiqib turgan mehmonlar g'ovg'a ko'tarishdi:

— Biz stansiyaga chiqib, poezdga o'tiramiz-da, uyuyimizga ketamiz! — deb baqirishdi.

Jogeshshor qo'l qovushtirib yolvorardi:

— Sizlardan o'tinib so'rayman, ketmanglar. Hali u-bu narsam bor. Bizning o'lkamiz ajoyib pishlog'i bilan dong chiqargan. Men pishloq va boshqa shirinliklarni ko'nglingiz xohlagancha topib kelaman. Nima bo'lsa ham ketmanglar! Bunday ko'ngilsiz hodisa ro'y bergani uchun nechog'li xafa ekanimni bir xudoning o'zi biladi.

Sutfurushlar Jogeshshorni qo'llab yubordilar:

— Qo'rqmang, muxtaram, biz sizga pishloq bilan shirinlikni qo'limizdan kelgancha topib beramiz, — dedilar ular.

Agar mehmonlar och qaytishsa, butun qishloq isnodga qolardi. Shuning uchun sutfurushlar juda ko'p pishloq keltirishdi.



O'zaro shivirlashib olgach, mehmonlar mezbondan so'radilar:

— Siz rostdan ham pishloq qancha kerak bo'lsa shuncha topa olasizmi?

Jogeshshor bir oz nafasini rostladi.

— Albatta.

— Bo'пти, olib kela bering!

Mehmonlar yana qaytib o'tirishdi. Gourshundor bir chekkada jim turib, ahvolni zimdan kuzatar edi. Yomg'irda hovuz toshib, mehmondorchilik uchun tuzalgan joyning atrofida ham loyqa ko'lmak suv hosil bo'lgan: pishloq keltirilgan hamon mehmonlar uni yelkalaridan oshirib shunday irg'itdilarki, shalop-shalop etib loyga tushaverdi.

Boyoqish cholning ko'zlariga jiqqa yosh to'ldi. Ammo u qayta-qayta uzr so'rab iltijo qilardi.

— Men xoksor bir odamman, meni ranjitib nima qilasiz?! — der edi u.

Qaysi birdir toshyurak kuldi:

— Siz kelinning otasi, o'z gunohingizni yuvolmaysiz.

Qishloq oqsoqollari ham Jogeshshorga ta'na qila boshladilar.

— Agar qizingni o'z baravaringga berganingda bunday kulgi bo'lmas eding, — deyishdi nafrat bilan.

Ichkaridan yig'i eshitildi, qizning katta buvisi tashqaridagi tartibsizlikdan xo'rliigi kelib yig'lab yubordi. Buni ko'rib nabirasi ham yig'ladi. Shunda kelinning ammasi Bibxutining yoniga keldi:

— Biz kambag'alimiz, uzr so'raymiz. Lekin bizni masxaralab, to'yini buzishning nima hojati bor?

Bu vaqtda sutfurushlar pishloqning loyga irg'itayotganlarini ko'rib, janjal ko'tarmoqchi bo'lib turgan edilar.

Jogeshshor nima bo'lsa ham ularni tinchitishga harakat qilardi: u mehmonlar bilan sutfurushlar orasida janjal chiqmasaydi deb qo'rqardi.

Bu hangoma bo'lib turgan joyga, kutilmaganda, kuyov chiqib keldi.

— Shu ishlar bizga munosibman, — dedi bo'g'iq ovoz bilan otasiga qarab. Yigit pishloq solingan patnisni o'zi olib mehmonlarning oldiga qo'ya boshladi.

— Sizlar orqaroqda turinglar, agar biror kishi pishloqni loyga tashlasa, olib joyiga qo'yinglar, — dedi u sut-furushlarga.

Bir necha kishi o'tirishini ham, turishini ham bilmay, Gourshundorga qaradi.

Bibxuti Gourshundorni taklif etdi:

— Ota, o'tiring endi, vaqt allamahal bo'lib qoldi.

Gourshundor o'tirdi. Uning oldiga ham xurmo yaprog'ida pishloq qo'ydilar.

Jirakotlik Krishnogopal Shorkar zamindorlikni va oila boshlig'i vazifasini katta o'g'liga topshirib, o'zi Banorasga jo'nadi.

Viloyatning hamma kambag'allari shu munosabat bilan hasrat-nadomatga qoldilar. Bunday olihimmat va odil bir zotni bizning davrimizda topish qiyin.

Yangi zamindor — Krishnogopalning o'g'li Bipinbixari esa, hozirgi zamon kishisi. U o'qimishli, ilmiy unvoni bor, soqol qo'ygan, ko'zoynak taqib yuradi. Boshqalarga qo'shilmaydi. Xulqi o'zgalarga ibrat bo'larlik — chekmaydi, qimor o'ynamaydi. Ko'rinishi yoqimtoy. Biroq juda qattiqqo'l. Eski xo'jayin ularga ancha mehribon edi. Yangisi esa, vaqtida to'lanmagan bir paysani ham kechmaydi. Buning ustiga, u to'lanmagan qarzga bir kun ham muhlat berishga rozi emas.

Bipinbixari xo'jalik ishlarida ko'pgina nuqsonlarni topdi. Otasi braxmanlarga yer berib, ulardan soliq olmabdi. Ko'p dehqonlar ijara haqini qisman berishibdi, xolos.

«Otam juda ko'ngilchan edi, — deb o'yladi Bipinbixari. — Undan nimani so'rashsa beravergan. Men bunga chek qo'yaman. Birinchidan, — der edi u ishonch bilan, — yerdan kelgan daromad bilan yashab, hech ish qilmaydigan bu bekorchi xo'jalar kimga kerak? Ularga rahm qilish — yalqovlik va takasaltanglarni rag'batlantirishdan boshqa narsa emas. Ikkinchidan, hozir ilgorigiga qaraganda hamma narsa qimmat, kun kechirish og'irroq, odamshavanda kishilarga esa yanada kattaroq talablar qo'yilgan. Hozir o'z obro'yingni saqlash uchun uch-to'rt marta ortiqroq sarf qilishga to'g'ri keladi, pulni hovuchlab sochish, sarmoyani sovurish yaramaydi. Ilgari boy berilgan hamma narsani asta-sekin yig'ib olishga harakat qilish zarur. Bu mening burchim».

Bipin ikkilanmay o'z burchini ado etishga kirishdi. U ijarachilardan otasi hadya qilgan mol-mulkni ham tortib oldi, tez fursatda ularda deyarli hech narsa qolmadi.

Dehqonlar o'z og'ir ahvollaridan shikoyat qilib, birin-ketin Banorasga xat yubora boshladilar. Ba'zilari Krishnogopalning oyoqlariga yiqilib arz-dod qilish uchun o'zlari Banorasga bordilar.

Sobiq xo'jayin, xo'jalikni bu tarzda boshqarish yaramaydi, deb o'g'liga xat yozdi. O'g'li bunga e'tiroz bildirdi. «Ilgari, — deb yozdi u otasiga, — daromad turli manbalardan kelgani uchun zamindorlar bilan ijarachilar bir-biriga yon berardilar. Yangi qonun bo'yicha esa, zamindorga faqat soliq to'plash huquqi va uning yagona daromad manbai bo'lgan ijara haqini to'la-to'kis yig'ib olish qolgan, xolos. Men bundan ortiq hech narsa talab qilmayman. Ijara haqidan o'zga hech qanday daromadimiz yo'q, agar biz xayr-saxovatga zeb bersak — xonavayron bo'lamiz. U holda mol-mulkimiz qo'ldan ketib, obro'yimiz yer bilan yakson bo'ladi».

Zamon ruhiga mos keladigan bu zayldagi jiddiy o'zgarishlar dastlab Krishnogopalni tashvishga solib qo'ydi. Ammo u, keyincha, hozirgi zamonda qanday ish yuritishni bizdan ko'ra shu zamona yoshlari yaxshi biladi, ehtimol ilgari ish uslubi hozirga to'g'ri kelmas, degan fikrga keldi. «Agar men uzoqdan turib har narsaga aralasha bersam, deb o'ylardi u, — o'g'lim: «Undoq bo'lsa bu ishni o'zingiz qiling» deb qolishi mumkin. Men esa hozir bunday ishlar bilan shug'ullanishga qodir emasman».

Shu fikrga kelgach, chol qolgan umrini taot-ibodat bilan o'tkazishga qaror qildi.

## II

Bu orada Bipinbixari ko'p odamlar bilan sudlashib, da'voda ustun chiqib, hammasini o'z foydasiga hal qildi. Ijarachilarning aksariyati qo'rqib, bo'ysunishga maj-

bur bo'ldi. Faqat bir kishi, Mirzo Birining o'g'li Ozimuddin Bishshashgina o'jarlik qilib, bo'ysunmay turib oldi.

Bipinbixarining hammadan ko'proq ana shunga g'azabi kelardi. Agar uning otasi biror braxmanni yer solig'idan ozod qilsa, bunisi bir nav, biroq qandaydir bir musulmonning hech qanaqa soliq to'lamay, hosildor yerdan foydalanib kelishiga sira tushunib bo'lmaydi.

Qishloq maktabida jamoat puliga o'qigan bu musulmon bolasi aftidan o'zini baxtiyor sanab, hech kim bilan hisoblashmay qo'yibdi.

Bishshash oilasi ko'pdan buyon eski xo'jayinning iltifotidan foydalanib kelardi. Buni Bipin sobiq xizmatchilaridan bilib oldi. Lekin ular ham buning sababini bilishmasdi.

Ehtimol beva kampirning yig'lab-siqtashlarini ko'rib qari xo'jayinning rahmi kelgandir. Biroq musulmon farzandiga bunday imtiyoz berish Bipinga sira ham ma'qul ko'rinmadi. Chunki Bipin ularning o'tmishda kambag'al va muhtojlikda yashaganlarini ko'rmagan, u faqat bu oilaning farovonliginiyu sababi noma'lum g'ururini ko'rgan, xolos. Unga musulmonlar rahmdil otasini vijdotsizlarcha aldab, molu mulkining bir qismini o'g'irlaganday tuyulardi.

Biroq Ozimuddin ham bo'sh kelmaydigan yigit edi.  
— Men o'lishga roziman, — dedi u, — lekin o'z huquqimdan zarracha chekinmayman!

U bilan Bipin orasida qattiq kurash boshlandi. Ozimuddinning onasi zamindor bilan olishib yurma, deb nasihat qilardi.

— O'shaning iltifoti bilan biz ko'pdan beri yaxshi yashab keldik, — derdi u, — bizning vazifamiz itoatkorlik. Unga bir oz yon bera qol, bolam.

— Ona, siz hech narsani tushunmaysiz, — deb e'tiroz qildi o'g'li.

Hamma da'volar uning zarariga hal bo'ldi, biroq bu mag'lubiyat uning qaysarligini oshirdi, xolos. Ozimuddin

o'z mol-mulkini saqlab qolish uchun hamma choralarni ko'rdi.

Onasi Mirzo bibi bo'lsa, bir kuni meva-cheva, sovg'a-salom olib, yashirin ravishda Bipin babu huzuriga keldi.

Kampir Bipinga ma'yus nazar soldi-da, yengiga astagina qo'l tegizib, iltijo etdi:

— Bipin babu, siz bizning otamizsiz, ollo taolo sizni hargiz kam qilmasin. Ozimni halok qilmang. Bu ish sizga munosib emas. Men o'g'limning taqdirini sizga topshiraman. Unga hali es kirmagan, yordamga muhtoj, akalik qiling. Shuncha katta davlatingizning bir zarrasiga egalik qilgani xafa bo'lishingizga arzimaydi.

Bu kampir Bippingning oilasiga suqilib kirishga urinatganday tuyuldi. Bu yuzsizlarcha harakat uning g'azabini yanada oshirdi.

— Sen xotin kishisan, hech narsani tushunmaysan, — dedi Bipin, — agar biror narsa haqida so'zlashish lozim bo'lsa, mening oldimga o'g'lingni yubor.

Shunday qilib Mirzo bibi o'g'lidan ham, begona kishidan ham bir xil gap eshitdi: «Sen hech narsani tushunmaysan». Endi unga ko'zyoshlarini artib, tangrining nomini takrorlab, uyga qaytishdan o'zga chora qolmagan edi.

### III

Ish jinoiy suddan okrug sudiga, undan oliy sudga o'tdi. Sudlashish bir yarim yil davom etdi. Nihoyat, Ozimuddin quloqlarigacha qarzga botgach, shikoyatlar sudi ishni qisman uning foydasiga hal qildi.

Biroq u endigina yo'lbars — zamindor changalidan xalos bo'lganda, unga timsohlar — puldorlar hujum boshladi, ya'ni payt poylab turgan sudxo'rlar veksillarini pesh qilib, pul talab qildilar.

Qarzlarni to'lashga qodir bo'lmagan Ozimuddin mol-mulkini kim oshdi qilib sotish bozor kuniga — dushanbaga tayinlandi.

Bozor daryo sohilida edi. Yomg'irlar mavsumi bo'lgani uchun daryo lim-lim to'lib oqardi. Savdogarlar hamma joyda — qirg'oqda, suvda, qayiqda savdo qilardilar. Hammayoqni shovqin-suron tutgandi. Dehqonlar bu oyda bozorga juda ko'p choranj yong'og'i va baliq keltirgan edilar.

Havoni bulut qoplagan, savdogarlar yomg'irdan qo'rqib, bambuk yog'ochlaridan ayvonchalar yasab olishgan.

Ozimuddin ham oziq-ovqat olish uchun bozorga keldi. Ammo bir paysa ham puli yo'q edi, bukun unga hech kim qarzga mol bermadi. U bolta bilan mis tovoq olib kelgan, ularni garovga qo'yib, bir oz pul olmoqchi edi.

Bipin babu kechki paytda sayr-tomoshaga chiqdi. Bir necha muhofizlar kaltak ushlab, uni qo'riqlab borardilar. Olomonning g'ala-g'ovuri zamindorning diqqatini jalb etdi. U bozor darvozasi oldida to'xtab, qorovuldan, ishlaring qalay deb surishtirdi.

O'z dushmanini ko'rgan Ozimuddin bolta ko'tarib Bipinga tashlandi. Uni shu ondayoq qurolsizlantirib, politsiyaga topshirdilar. Bozorda esa savdo-sotiq davom etardi.

Bipin babu bu hodisadan quvonmadi deb aytish mumkin emas. Ta'qib ostida qolgan odam ta'qidchiga qo'l ko'tardi. Axloq va odobga zid bo'lgan bu xatti-harakat uchun jazo berilishi kerak. Endi u ablah o'z qilmishiga yarasha jazosini tortadi.

Bipinning ichkari hovlisidagi xotin-xalajning qahrg'azabi cheksiz edi.

— Bu xaromzodaning qilmishiga qarang-a, — deyishardi ular. Ayollar ham endi Ozimuddin xo'p jazosini tortadi-ku, deb o'zlariga tasalli berardilar.

Tul xotinning huvillab qolgan uyi timqorong'i edi. Uning yemoqqa hech narsasi yo'q. O'g'lining qamalishi uning uchun dunyodagi eng mudhish hodisa edi. Boshqalar bu hodisani allaqachon unutib, birov ovqat yer, birov uxtlar, birov dam olar edi. Butun olamda uning o'g'lini himoya qilgudek biror kimsa yo'q edi.

Ozib-to'zigan kampir qorong'i kulbada tanho o'tirar, umidsizlikka tushganidan o'z dodini kimga aytishni bilmasdi.

#### IV

Bir necha kun o'tdi. Nihoyat, sud muovini ish ko'riladigan kunni tayinladi. Bipin guvohlik berishi lozim edi. Ilgari zamindorlar hech qachon guvohlik bermaganlar. Ammo Bipin guvoh tariqasida so'roq berishga rozi bo'ldi.

Sud bo'ladigan kun, Bipin taxtiravonga tushib yetib keldi. Boshida salla, ko'krak cho'ntagida uzun zanjirli soat.

Sud raisi unga alohida hurmat ko'rsatib, o'z yoniga o'tqizdi. Sud binosi odamga to'la edi: ko'pdan buyon bunaqa dabdabali sud bo'lmagan.

Sud boshlanish oldida himoyachilaridan biri kelib Bipin babuning qulog'iga nimanidir shivirladi. Tashvishga tushgan Bipin: «Men hozir kelaman», deganicha ko'chaga chiqib ketdi.

Banan daraxti soyasida yalangoyoq va yarim yalang'och qari otasi kutib turgan edi. U qo'lida tasbeh ushlab, tangri Vishnu nomini takrorlar, ozib ketgan badanidan nur chiqib turganday tuyular, nuroniy yuzlarida osoyishtalik, olijanoblik barq urardi.

Tor toza kiyimlar kiygan Bipin unga zo'rg'a egilib ta'zim qildi. Uning sallasi burni ustiga kelib, soati cho'ntagidan tushdi. U darhol o'zini tartibga solib, otasidan shu yerdagi advokatlar honasiga kirishni so'radi.

Krishnogopal ko'nmay:

— Men o'z burchimni shu yerda ado etaman, — dedi.

Bipinning xizmatchilari to'planganlarni nari surdilar.

— Ozimuddin ozod etilib, undan tortib olingan hamma narsalar qaytarilib berilishi lozim, — dedi Krishnogopal.

Bipin hayratda qoldi:

— Siz shuni deb Banorasdan atay keldingizmi? Nega siz ular uchun bunchalik tashvish qilasiz? — deb so'radi.



— O'g'lim, bu surishtirishingdan nima foyda chiqadi? — savolga savol bilan javob berdi chol.

Bipin mag'lubiyatni bo'yniga olmadi.

— Ota, men qancha-qancha noloyiq kishilarni olgan narsalarni qaytarishga majbur qildim, siz ularga aralashmadingaz. Nega bu musulmon bolasiga bunchalarg'amxo'rlik qilasiz? Endi bu ishning vaqti o'tdi. Agar Ozimuddin ozod etilib, u hamma narsalarni qaytarib olsa, odamlar nima deydi?

Krishnogopal bir oz jim qoldi. So'ngra qaltirab turgan panjalari bilan tez-tez tasbeh o'girib turib, mayin ovoz bilan gapirdi.

— Agar lozim bo'lsa, men el oldida hammasini ochiq aytaman. Ozimuddin sening ukang, mening o'g'lim.

— Musulmon-a?

— Shunday, o'g'lim.

Bipin anchagacha o'ziga kelolmadi. Nihoyat, tilga kirib:

— Bu haqda keyin gaplasharmiz, hozircha, marhamat qilib mana bu xonaga kirib turing, — dedi u.

— Yo'q, — dedi Krishnogopal, — men hozir qaytib ketaman. Ammo sen o'z burchingni bajarasan, deb umid qilaman.

U o'g'lining haqiga duoyi xayr qilib, butun vujudi qaltiragan holda, ko'zyoshlarini arang tutib, yo'lga tushdi.

Bipin nima qilishini, sudga nima deyishini bilmay qoldi. «Taqvodor odamlarning holi mana shuda, — o'yladi u. — Bular hammasi diniy rukunlarga e'tiborsizlik oqibati». O'ylab-o'ylab zamindor, fe'lu atvorda ham, bilimdonlikda ham otamdan yuqoriman, degan qarorga keldi.

U sud binosiga qaytib, oriqlab majoli ketgan, ranglari bo'zday oqargan, ko'zlari yonib turgan Ozimni ko'rdi. U yirtiq va iflos kiyimda, qurolli soqchilar orasida turardi. Mana shu. — uning ukasi!

Sudyaning muovini Bipinning do'sti edi. Dabdabali sud to'xtatildi. Ozinga hamma narsalari qaytarib berildi. ishning bu zaylda tugatilishidan hamma hayratda edi. Hech kim hech narsa tushunolmay qoldi.

Krishnogopalning qisqa muddatli kelib-ketishi haqidagi xabar tezda hammayoqqa tarqaldi. G'iybatchilarning labi-labiga tegmay bobillab ketdi.

Qilni qirqqa yoradigan advokatlar buning tagiga yetishdi. Bu ish bilan advokat Ramtaron ayniqsa ko'proq qiziqqan edi. U Krishnogopal hisobiga o'qigan bo'lib, bu ishdan gumondor edi. «Agar shu tariqa sinchiklab tekshirilsa, har bir avliyoning olijanoblighi zamirida bir sir borligi aniqlanadi. Mayli, o'sha avliyolar xohlagancha tasbeh o'gira bersinlar, bari bir ular ham mendek ablah odamlar. Farq faqat shundaki, avliyolar — riyokor, menga o'xshaganlar — ochiqchasiga ish ko'radi», — deb o'yladi u.

Krishnogopalning hammaga ayon olijanoblighi — riyokorlik degan xulosaga kelib, Ramtaron qiyin bir muammoni yechganday bo'ldi.

Bu xulosa, qaysi mantiqqa to'g'ri keladi — bilmayman, har holda Ramtaron o'ziga malol kelib yurgan minnatdorlik yukini bir daraja yengillashtirdi. U xotirjam bo'lib qoldi.

Bir vaqtlar noyonjorlik zamindorlar o'z aslzodaliklari bilan mashhur edilar. U vaqtlarda olijanoblik bilan nom chiqarish oson emas edi. Babu nomini olish uchun tasavvufning mushkul rasm-risolasini o'rniga qo'yib, juda ko'p riyozat chekishga to'g'ri kelardi. Bu shunday og'ir ediki, hozirda raybaxadur unvonini olish uchun tavsiyanoma yig'ish, ziyofat berib, o'yin-kulgilar tashkil etishdan zarracha qolishmasdi.

Noyonjorlik nozik babular mahalliy matolardan qilingan dag'al sharflarni yoqtirmay, Dakda to'qilgan harir sharflarni taqib yurardilar. Ular yaxshi ko'rgan mushuklarini yasantirish uchun necha minglab rupiyani sovurishga tayyor edilar. Aytadilar-ki, ular qandaydir bir bayram munosabati bilan kunduzga kecha tusini berish uchun sonesanoqsiz chiroqlar yoqishgan ekan. Sun'iy ravishda quyosh nuri hosil qilish uchun sof kumush tolalardan yong'ir ham yoqdirgan emishlar.

Ma'lumki, buncha isrofgarchilik va dabdabali hayot uzoq davom etolmasdi. Noyonjorlik zamindorlarning davlat va shuhratlari ko'p pilikli chiroq singari yalt etib yondiyu shu zahoti abadiy so'ndi.

Bizning Koylash Ray Choudxuri noyonjorlik aslzodalarning so'nggi avlodi edi. U tug'ilganda ajdodlarining halovat chirog'ida yog' tagigacha yonib bitgan, otasining vafotidan so'ng esa, odatdan tashqari tantanali dafn marosimi bo'lib, oxirgi marta yalt etgan chiroqning so'nggi uchquni ham so'ndi. Hamma mol-mulk sotilib, qarzga to'landi. Qolgan andak narsa esa, ajdodlarning sobiq shuhratini tiklashga yetmasdi.

Shuning uchun Koylash babu Noyonjorni tashlab, o'g'li bilan Kalkuttaga ko'chib keldi. Biroq ko'p o'tmay o'g'li ham yolg'iz qizchasini yetim qoldirib, ajdodlarining g'oyib bo'lgan shon-shuhrati bilan abadiy xayrlashib, narigi dunyoga sayohatga jo'nadi.

Koylash bilan biz qo'shni edik. Ammo nasl-nasabimizning tarixi tamomila boshqacha. Mening otam o'zi urinib yurib mol-dunyo to'plagan. U hech qachon tizzasidan pastga tushadigan kiyim kiymadi, pulning qadrini bilardi. Babu unvoniga tashnalik unga begona edi, buning uchun men, uning yagona o'g'li, undan juda minnatdorman. Men pul bo'lsa hech qanday laqabsiz ham izzat-ikromga sazovor bo'lish mumkin, deb o'ylashga o'rganib qoldim. Shuhratning qanday nozik narsa ekanini juda yaxshi bilaman. Kampaniyaning temirsandig'imizdagi qog'ozlari mening uchun babu unvonining bo'sh xazinadagi yaltiroq yorlig'idan ko'ra yuz marta qimmat.

Mana shuning uchun men, otdan tushsa ham uzangidan tushgusi kelmay, hadeganda aslzodaligini, puturi ketgan sobiq obro'sini pesh qilishni yaxshi ko'radigan Koylash babuni jinimdan ham yomon ko'rardim. Nazarimda, ota o'z kuchi bilan pul topgani uchun Koylash babu bizdan nafratlanib yurganday tuyulardi. Bu mening g'ashimga tegar, bunday nafratga qaysi birimiz loyiqroqmiz, degan savol hayolimdan chiqmasdi. Butun umri og'ir muhtojliklarga bardosh berib, har qadamda qiyinchiliklarni yengib, hayot jilvalariga mahliyo bo'lishdan o'zini tiyib, odamzodning sertashvish shuhratidan nafratlanib, kecha-kunduz ishlab, o'z aqli tufayli, o'zi yolg'iz, o'z qo'li bilan kichkina kumushdan boylikning baland ehromini qurgan odam nafratga munosibmi? Nahotki u tizzasidan pastga tushadigan ro'dapo kiyim kiymagani uchungina hurmatdan mahrum bo'lsa!

Yoshligimda sal narsaga achchig'im chiqib urishardim. Ulg'aygach bildimki, bular hammasi behuda gap — mening katta davlatim bor, hech narsaga muhtoj emasman. Mayli, cho'ntagida bir chaqasi bo'lmaganlar nasl-nasablarini ro'kach qilib yuraversinlar. Bu ularning birdan-bir va oxirgi tasallisi. Bundan men chorak paysalik ham ziyon ko'rmayman.

Koylash babuni mendan boshqa hech kim yomon ko'rmasligini payqamagan edim.

Bu olijanob va ojiz odamning tabiati juda qiziq edi. U qo'shnilarining tashvishlariga hamisha aralashib, quvonch va qayg'ulariga sherik bo'lardi. Katta-kichikka bir xilda muloyim tabassum bilan tikilib, qaerda nima hodisa ro'y bersa hammasiga qiziqib yuradigan bir saxiy mehribon edi. Tanishlaridan biror odamni uchratsa uzundan-uzoq gapga solardi: «Uy ichlaringiz bilan xotirjammisiz? Shoshi salomatmi? Olijanob babumizning ahvoli shariflari qalay? Modxuning o'g'li bezgak bo'пти deb eshitdim, qalay, tuzalib ketdimi? Xorichoron babuni ko'pdan beri ko'rmayman, bu orada uning boshidan nelar kechdi? Rakxalingizdan xat-xabar bormi? Uyingizdagi ayollar sihat-salomat bormi?» va hokazo.

Uning kiyim-boshi ko'p bo'lmasa ham, mudom pokiza edi. Chador, eski ko'rpa, yostiq jildlari va gilamchalarni tashqariga olib chiqib shamollatganda barini avaylab arqonga osib, qoqib, cho'tka bilan tozalashlari o'zi bir tomosha edi.

Bu qariya qaerda paydo bo'lmasin, hamisha yaxshi kiyingandek ko'rinadi.

Ozgina jihozni uyiga shunday joylashtirgan ediki, ko'rgan odam, jihozi ko'p ekan-ku, sig'may qolibdi-da, deb o'ylardi. Ko'pincha xizmatkorsiz turardi, shunday kezlarda uyga kirib olib, zo'r berib dxoti, ko'ylak va chadorini tozalar, dazmollar edi.

Ajdodlarning cheksiz mol-mulki sovurilgan bo'lsa ham, chol qashshoqlik komidan atir sepadigan qimmatli kumush buyumni, gulob soladigan idishni, oltin tovoq, kumush trubka, shol ro'mol, eskicha tikilgan ikkita ko'ylak va bir sallani saqlab qololgan edi. Agar odatdan tashqari biror hodisa bo'lib qolsa, Koylash babu bu narsalarni sandiqdan chiqarib ko'rsatar va shu tariqa noyonjorlik babularning yuksak shon-sharafini himoya etardi.

Garchi Koylash babu kamtar odam bo'lsa ham, ajdodlarini turli yo'l bilan maqtashni burchi deb bilardi. Shuni ham aytish zarurki, uning bu ishiga haybarakallachi

bo'lishi ko'p qo'shnilar ham huzur bag'ishlardi. Qo'shnilar uni Txakurda-moxashoy<sup>1</sup> deb atashar, uning huzuriga ko'p odam kelardi. Cholning og'ir ahvolda kun kechirayotganini bilib, mehmonlarning hech biri uning tamakiga chiqimdor bo'lishini istamasdi. Shuning uchun mehmonlar Koylashnikiga kelishdan oldin bir necha serdan tamaki xarid qilardilar.

Odatda ular bunday gaplashardilar:

— Txakurda-moxashoy, mana bu tamakidan chekib ko'ring-a, yaxshimikan? Yaqinda qo'shnimiz Gayidan olgan ekan.

Txakurda-moxashoy bir necha bor tortib ko'rib:

— Yaxshi, inim, yaxshi tamaki ekan,— deb maqtaydi.

So'ngra u o'zi gap ochib, men odatda bxorisi<sup>2</sup> oltmish-oltmish besh rupiyalik tamakidan chekaman, deb mehmonlarga undan bir chekib ko'rishni taklif etadi.

Mehmonlardan birortasi chekib ko'rishni xohlagan taqdirda ham, xo'jayinning kalitni qidirib topolmasligini hammasi yaxshi bilardi. Ko'p qidirishlardan keyin, yaramas xizmatchi Gonesh kalitni qaerga yashirgani noma'lum bo'lib chiqardi. Gonesh bo'lsa, bu ta'nalarga lom-mim demay qarab turardi. Shunda mehmonlar mezbonga tasalli berishardi:

— Ovora bo'lmang, Txakurda-moxashoy, ovora bo'lmang! U tamaki juda kuchli, mana bu esa, o'rtacha.

Koylash babu qarshilik qilmas, faqat miyig'ida kulib qo'yardi. Mehmonlar turadigan vaqt yetganda, chol birdan:

— E-ha, aytganday, do'stlarim, sizlar biznikiga qachon bir kelasizlar, ovqat qilardik? — deb qolardi.

— Qachon bo'lishini bir kun kelishib olarmiz.

— Unday bo'lsa yaxshi, yaqinda yomg'irlar boshlanib, havo salqinroq bo'ladi, ana o'shanda ovqat qilarmiz.

<sup>1</sup>Txakurda-moxashoy — qariyalarga ehtirom bilan murojaat shakti.

<sup>2</sup>Bxori — 180 gramm.

Yo'qsa, bunday issiqda kuchli ovqat odamni lohas qilib qo'yadi.

Yomg'ir davri ham kelardi, ammo hech kim cholga uning taklifini eslatmasdi. Bordiyu ba'zan shu haqda gap ochilgunday bo'lsa do'stlar:

— E, qo'ysangiz-chi, shunday havoda bu juda o'ng'aysiz ish... yomg'irlar to'xtasin, bir gap bo'lar, — der edilar.

Kichik uyda, o'ng'aysiz sharoitda yashagani uchun do'stlari Koylash babuga achinardilar. Ular, Kalkuttada durustroq joy topish juda qiyin, hatto mumkin emas, deb yupatardilar cholni. Ularning ko'pchiligi cholga necha yillardan beri yaxshi uy qidirib yurganday bo'lib ko'rinsalar ham, hech biri munosibroq bir joy topib berolmasdi.

— Shuning o'zi tuzuk, do'stlarim, — dedi oxiri Koylash babu, — sizlarga qo'shni bo'lib yashaganimdan juda baxtiyorman. Noyonjorda mening katta uyim qolib ketdi, biroq u yerda sizlardek odamlar topilarmidi?

Fikrimcha, odamlar unga shunchaki tasalli berib yurganlarini chol o'zi ham tushunardi. U noyonjorlik babularning bir vaqtlardagi dabdabali hayoti haqida hikoya qilishga kirishganda, qo'shnilar esa unga ha, ha deb dalda berib turganda, ezgu hislar ta'sirida bir-birini aldashdan boshqa narsa emasligini chol yuragida sezib turardi, albat-ta.

Shunga qaramay, undan ko'nglim qolgan edi. Yoshlikda o'zgalarning manmanligini, garchi u beozor bo'lsa ham, yanchib yuborging keladi, bundan tashqari, men odamlarning ahmoqligini sira hazm qilolmasdim. Shunisi ham borki, Koylash babu umuman ahmoq emas, uning yordami va oqilona maslahatlari kishilar uchun ancha foydali edi. Ammo ba'zi hollarda, ayniqsa ajdodlarining shon-shuhratidan gap ochilganda u haddidan oshib ketardi. Uni yaxshi ko'rgan qo'shnilari esa cholni ranj-tishni istamas edilar. Hech kim bir og'iz so'z bilan unga e'tiroz etmas, chol esa, hech qanday chegarani bilmas edi. Biror odam uning oldida kulgili mubolag'alar bilan no-

yonjorlik babularning nasl-nasabini maqtab qolsa, u o'ylab-netib turmay, bu uydirmani haqiqat deb qabul qilardi. U hikoyachining so'ziga biror odamning shubha qilishini hayoliga ham keltirmasdi.

Ba'zan menda shuhratparastlik bilan qarilik quchoqlashib yashiringan bu qal'ani to'pga tutish xohishi paydo bo'lardi. Ovchi daraxt shoxida bamaylixotir o'tirgan qushni ko'rganda, unda ham o'shani otish istagi paydo bo'ladi! O'smir bola qoyadan bir tosh parchasi uzilib tushish oldida ekanini sezib qolsa, bu toshni turtib yuborish uchun darrov qo'lga tayoq oladi. Bunda ovchiga otib tushirilgan qush, bolaga yumalatib yuborilgan tosh ko'p huzur-halovat va qanoat bag'ishlaydi. Koylash babuning yolg'oni shunchalik sodda, uning asoslari shunchalik omonat ediki, bu yolg'on haqiqat qilishi oldidagi o'lim raqsini eslatar va menda bu soxtalikni majaqlash xohishi paydo bo'lardi — faqat o'ta yalqovlik bilan zo'r odamiylikkina kishilarni unga qarshi qo'l qo'tarishdan saqlab turardi.

## II

Yoshlikdagi fikr va tuyg'ularimni imkon boricha xotiramda tiklab, tahlil qilgandan so'ng, shu xulosaga keldimki, bir vaqtlar Koylash babuga bo'lgan dushmanligimning sababi xiyla chuqur ekan, bu sababni andak izohlasa arziydi.

Otamning boyligi san'at magistri unvonini olishimga xalaqit bermadi, yoshlik esa, isnodga qoldiradigan ulfatlar orasiga olib kirmadi. Hatto homiylarimning o'limi ham mening fe'lu atvorimga o'zgarish kiritmadi. Buning ustiga, men shunchalik xushbichim yigit edimki, agar chiroyli edim desam, odamlar meni kamtar emas ekan, deb ayblashlari mumkin, lekin yolg'on deya olmas edilar. Shuning uchun men, Bengaliyaning qizlar bozorida yuqori baholanarman, deb qattiq ishonardim. Tasavvurim eng go'zal qiz siymosini yaratdi, xayolimdagi bu qiz, go'zalligidan tashqari, bilimdon, nozik, ota-onalari esa — juda badavlat odamlar edi.



Menga qizini bermoqchi bo'lganlarning son-sanog'i yo'q edi. Ular o'n ming rupiyadan qalin ham va'da qilishdi, ammo men o'z talablarimning sezgir tarozusida qizlarning fazilatlarini sovuqqonlik bilan tortaverdim-u, o'zimga tengini topmadim.

Oxiri shoir Bxavabxo'ti'ning fikrlariga qo'shildim:

*Munosib yorni uzoq kuta olaman, ko'ngil to'q. —*

*Olam quchoqqa sig'mas, vaqtning chegarasi yo'q.*

Ammo kichkina Bengaliyada menga munosib qizning topilishi ehtimoldan uzoq edi.

Qizlari balog'atga yetgan ota-onalar, ularning qizlari menga yoqish-yoqmasligidan qat'i nazar, meni maqtay berib eslari ketardi. Maqtashga kelganda ular so'zni aymas, mendan yangidan-yangi fazilatlar qidirib topardilar. Shastrlardan ma'lumki, tangrilar bandalariga muruvvat qiladimi, yo'qmi — bunisiga qaramay, ulardan sig'inishni talab etadi, agar ular sig'inmasalar qattiq g'azabiga oladi. Mening ham, yuragimda ana shunday hislar paydo bo'lgandi.

Koylash babuning qiz nevarasi borligini yuqorida aytib o'tgan edim. Men uni bir necha bor ko'rganman, ammo uning chiroyi hech qachon mening diqqatimni jalb etmagandi. Binobarin, unga uylanishday ahmoqona fikrning boshimga kelishi ham mumkin emasdi. Ammo chol meni eng munosib yigit deb, xudolarning rizoligi uchun qurbonlik qilganday, bir kunmas-bir kun nevarasini keltirib menga nazr etar, etagimga solib ketar deb qattiq ishonardim. Biroq u bunday qilmadi. Mening do'stlarimdan biriga, hatto, mana bunday gapirganini ham eshitdim:

— Noyonjorlik babular hech qachon, hech kimdan hech narsa so'ramaganlar. Men nevaramning qiz o'tishiga rozi bo'lsam bo'laman, ammo-lekin ajdodlarimizning an'analarini buzishga rozi bo'lmayman.

---

<sup>1</sup> Bxavabxo'ti — miloddan ilgari VIII asrda yashagan mashhur hind shoiri.

Mening g'azabim keldi. Ko'p vaqt yuragimda g'azab qaynab tursa ham, odobli bola bo'lganim uchun xomush yurdim. Chaqmoq momaqaldiraq bilan almashinib turganday, ba'zan mening g'azabim ham hazil bilan almashinib turardi. Biroq cholga hazil qilish uchun payt topolmay yurdim. Bir kun boshimga shunday bir fikr keldiki, uni amalga oshirmasdan ilojim yo'q edi.

Cholning ko'nglini olish uchun do'stlari uning yolg'on gaplariga ham «ha, ha» deb turishlarini yuqorida zikr qilgan edim. Bir qo'shnisi Koylash babuga bunday debdi: gubernator o'rinbosarini ko'rdim, u mendan noyonjorlik babu janoblari haqida surishtira boshladi, sohib aytdiki, Bengaliyada faqat ikkita olijanob avlod bor: Burdxvan<sup>1</sup> rojalariyu noyonjorlik babular.

Chol bu gapdan juda xursand bo'lib, shundan buyon bu qo'shnisini qachon uchratsa, uni turli-tuman so'roqlar bilan ko'mib yuborar ekan:

— Gubernator bilan rafiqalarining kayflari qalay? Bolalari sihat-salomatmi?

Shuning bilan birga, chol sohib bilan uchrashishga zo'r ishtiyoqmand ekanligini ham qayta-qayta izhor etarkan. Ammo noyonjorlik babu bu dargohga qadam qo'yguncha ne-ne gubernator va o'rinbosarlar o'zgarishi mumkin ekanini qo'shnisi juda yaxshi bilarkan, albatta.

Bir kuni ertalab Koylash babuni bir chetga chaqirib oldim-da:

— Tkaxurda, — dedim shivirlab, — kecha men gubernator o'rinbosarining huzurida bo'ldim. Tasodifan noyonjorlik babu haqida gap ochildi. Men sohibga, Koylash babu Kalkuttada, dedim. Shu vaqtgacha unikiga bormaganingiz uchun juda ham ranjib qoldi. So'ngra, bukun qiyom paytida o'zim u kishini ko'rgani boraman, deb aytdilar.

Boshqa biror kimsa haqida shunday gap bo'lsa, chol ishonmay kulib qo'ya qolardi. Bu gapimga tamom isho-

<sup>1</sup> Burdxvan — Bengaliyada bir shahar nomi.

nib, terisiga sig'may ketdi. Ham quvondi, ham hayajonga tushdi — mo'tabar mehmonni qaerga o'tqizish kerak, unga qanday taom tayyorlash lozim, ne yo'sinda tabriklash kerak? Axir, Noyonjorning shuhrati shunga bog'liqda! Buning ustiga, Koylash ingliz tilini bilmasdi. Bas shunday ekan, u mehmon bilan qanday suhbat qiladi — masalaning mana shu jihati cholni hammadan ko'p besaranjom etardi.

— Xafa bo'lmang, — deb Koylash babuga tasalli berdim. — U bilan birga tarjimon bo'ladi. Gubernator o'rinbosari uchrashuv chog'ida sizdan boshqa odam bo'lmasligini iltimos qildi.

Qiyomda, qo'shnilarning aksariyati idoraga ketib, qolganlari eshikni bekitib uxlaydigan paytda, Koylash babuning uyi oldiga ikki ot qo'shilgan izvosh kelib to'xtadi.

Yasangan xizmatkorlar gubernator o'rinbosarining kelganidan xabar berdilar. Chol bobolar davridan qolgan liboslarni kiyib, mehmonni kutardi. Eski xizmatkori Goneshga o'zining eng yaxshi kiyimlarini kiygizib oro bergandi. Mehmonning kelganini eshitgan hamon chol hansirab, ko'zlariga yosh olib yugurdi. To'xtovsiz ta'zim etib, qayta-qayta salom berib, mehmonni uyga olib kirdi. Inglizcha kiyingan, faraz etilgan gubernator o'rinbosari, mening do'stim, uning ketidan kirib keldi.

Uydagi kresloga qimmatbaho shol yopib qo'yilgan edi. Koylash mehmonni kresloga o'tqizib, unga qarata izzat-hurmat bilan nutq irod qildi. So'ngra aziz mehmonga oltin tovoqda qadimiy oltin tangalardan tizilgan marjon taqdim etdi. Shu paytda qo'lida gulob va gul bilan Gonesh paydo bo'ldi.

Koylash babu, men Noyonjordagi uyimda bo'lsam xurmatli mehmonni munosib kutib olardim; bu yerda, Kalkuttada begonaman; bu yerda suvdan chiqib qolgan baliqday ojizman, deb takrorlard, xolos.

Mening oshnam silindrni olmay, jiddiy qiyofada kallasini qimirlatardi. Ingliz odatiga muvofiq, bosh kiyimini olib qo'yish lozim bo'lsa-da, tanilib qolish xavfi uni

bosh kiyimda o'tirishga majbur etdi. Koylash babu va uning gerdaygan eski xizmatkoridan boshqa har kim mehmonni inglizcha kiyingan bengal yigiti ekanini darrov payqashi mumkin edi.

Oz minutli suhbatdan so'ng (mening oshnam suhbat asnosida miq etmay, faqat bosh qimirlatib turdi) mehmon o'rnidan qo'zg'aldi. Ilgaritdan o'rgatib qo'yilgan yugurdaklar kreslodan sholni, oltin tovoq bilan oltin marjonni yig'ishtirib oldilar, Goneshning qo'lidan atir sepadigan kumush buyumni, gul yog'i solingan shishani ham yulqib olib, hasham bilan hammasini izvoshga olib chiqdilar. Koylash babu ularning yo'lini to'smadi, u gubernator o'rinbosarining odati shunaqa bo'lsa kerak, deb o'yladi chog'i.

Men qo'shni xonada yashirinib, tomosha qilarkanman, kulgim qistab, yorilgundek bo'ldim. Ortiq jim turishga toqat qilolmay, mehmon va mezbob turgan uydan nariroqdagi xonaga chopib o'tdim. U yerda qotib-qotib kulardim, ammo to'satdan payqadimki, bu yerda yana kimdir bor ekan. Karavotda bir qiz yotib alam bilan ho'ngardi. Mening qo'qqisidan kirib kelishim va telbalar-cha quvnoqligimni ko'rib qiz yotgan joyidan turdi. Qizning yosh to'la qora ko'zlari chaq nab turar, yig'idan qaltiragan ovozi esa momaqaldiroqday yangrardi.

— Mening bobom sizga nima yomonlik qildi? Nega siz uni bunday kalaka qilasiz? Bu yerga nega keldingiz? — dedi qiz va ortiq gapirolmadi, yuzini ro'moli bilan o'rab, yana ham qattiqroq ho'ngrab yubordi.

Mening kulgilarim qayoqqa ketdi! Hozirgacha hamma qilmishlarimni hazildan boshqa narsa emas deb o'ylardim. Hozir, to'satdan ko'rdimki, ma'sum bir qalbgaga qattiq ozor beribman. Qanday qo'pollik, odobsizlik qilganim birdan ravshan bo'ldi-qoldi. Uyalib, ming pushaymon bo'lib, kaltak yegan itday bo'lib xonadan chiqdim. Xo'sh, bu qariya menga nima gunoh qilgan edi? Axir u o'zining beozor g'ururi bilan hech qachon, hech kimning dilini og'ritmagan-ku! Mening manmanligim esa, dilozorlikka aylandi.

Bu voqea mening ko'zimni ochib, boshqa narsalarga qarashimni o'zgartirdi. Hozirgacha men Koylash babuning nevarasi Kushumga hech qachon hech kim uylanmaydigan, behudaga xaridor kutib turgan bir buyum deb qarardim. Nazarimda, uni men sevmagach, istagan odam olib ketishi mumkinday tuyulardi. Biroq to'satdan bildimki, bu eski uyning bir burchida yashab turgan qizcha katkon insoniy qalb egasi ekan.

Uning quvonchi va alami ham, g'azabi, marhamati ham, noma'lum o'tmishi va qorong'i kelajagi ham menga sirli tuyulib, ixtiyorsiz o'ziga torta boshladi. Nahotki shunday qalb egasining birovga yoqishi uchun pul va shahlo ko'z singari bezaklarga ehtiyoj bo'lsa?

Men tun bo'yi mijja qoqmay chiqdim. Ertasiga, oftob chiqishi bilan, kecha olib ketilgan narsalarni yig'ib, xuddi o'g'riday, yashirincha Koylash babuning hovlisiga kirdim. Hech kimga bildirmay, narsalarni cholning xizmatkoriga topshirib qo'ymoqchi edim.

Uni hech yerdan topolmadim, nima qilishimni bilmay to'xtab qoldim. Mana shu yerda chol bilan qizning qo'shni xonada gapirishib turganini eshitdim:

— Bobo, kecha gubernator o'rinbosari sizga nima dedi? — so'radi Kushum mayin tovush bilan.

Takabbur Koylash unga Noyonjorning qadimiy aslzodlari haqida go'yo gubernator o'rinbosaridan eshitgan gaplarni xayoliy ranglar bilan bo'yab, bo'rttirib gapirib boshladi. Kushum cholning gaplariga zo'r e'tibor bilan quloq solardi.

Bu zaif qizning ona qalbi bilan bobosiga yoqimli yolg'onni ma'qullab, uning ko'nglini ko'tarishini ko'rib ko'zlarimdan yosh tirqirab chiqdi.

Uzoq vaqt jim turdim. Nihoyat, chol o'z hikoyasini tugatib chiqib ketdi, shunda men qizga yaqinroq keldim. Unga hech narsa demay, Noyonjor aslzodalarining oilaviy yodgorlarini ro'parasiga qo'yib chiqib ketdim.

Shu voqeagacha men chol bilan salom-alik qilmasdim,

bu kun esa, unga havasim kelib pronam' qildim. Koylash babu mening bu kutilmagan ehtiromimning sababini kecha gubernator o'rinbosarining tashrifidan deb o'yladi, albatta. Bu unga yoqardi, u Indraday viqor bilan menga sohib haqida so'zlab ketdi. Men uning so'zini bo'lmadim. Cholni har xil gaplar bilan rag'batlantirib turdim. Kechagi voqeani eshitgan qo'shnilar ham o'z navbatida Koylash babudan hikoyani boshdan batafsil so'zlab berishini so'ray boshladilar.

Nihoyat, hamma ketib-bo'lgandan keyin men xijolatdan qizarib, cholning nevarasiga og'iz soldim. Men aytdimki, garchi bizning naslu nasabimiz noyonjorlik zodagonlarga baravar kelmasa ham, har holda...

Gapimni tamom qilishim bilan Koylash babu meni o'ziga yaqinroq tortib, kamoli quvonganidan xitob etdi:

— Men kambag'alman! Taqdir menga bunday baxt ato qilar deb o'ylamagan edim, do'stim. Mening Kushumim baxt tilab ko'p munojot qilardi, mana siz baxt olib kelib-siz! — cholning ko'zlaridan yosh oqib tushdi.

Bukun u o'z umrida birinchi marta ulug' ajdodlari oldidagi burchini unutib, kambag'alligiga iqror bo'ldi. Uning aytishicha, mening bu oilaga kirib kelishim noyonjorlik aslzodalarning shon-shuhratiga zarracha putur yetkazmas ekan.

Koylash babuning obro'sini tushirish uchun qilgan harakatlarimning oqibati shu bo'ldiki, u meni eng munosib kuyov deb sevib qoldi.

1895-yil.

---

<sup>1</sup>Pronam — hurmat va muhabbatni ifodalovchi ta'zim. Pronam qiluvchi kaftlarini bir-biriga qo'yib, qo'lini yuziga ko'taradi.

Bosgan izlaringdan o'rgilay!

Bu kun bizning to'yimizga o'n besh yil to'ldi, biroq hanuzgacha senga biror marta xat yozmadim — bunga ehtiyoj ham yo'q edi; chunki biz hamisha birga edik, bir-birlarimizga so'zlaganlarimiz kifoya qilar edi.

Ammo bugun men bu yerda, Puridaman, sen esa — idorada, ishdasan. Sen Kalkuttaga qattiq bog'lanib qolgansan. Bu aloqa sening aql-hushingni tamomila chulg'ab olgan. Shuning uchun sen otpuska ham olmading. Mayli, bu xudolarning' xohishi, ular g'amxo'rlik qilib, meni ozod qildilar.

Men sizlarning oilangizda o'rtancha kelin edim. Ammo sen bilan o'n besh yil umr kechirgandan so'ng bugun — bu yerda, okean sohilida turib, angladimki, mening yo'lim boshqa ekan. Shuning uchun senga bu xatni yozishga jasorat qildim. Ammo bu endi o'rtancha kelinning xati emas.

Ikkimizning munosabatimizni tayin etgan samogagina mening hayot yo'lim ma'lum bo'lishi lozim. Yoshligimda ukam bilan ikkalamiz qattiq bezgakka muftalo bo'ldik. Ukam o'ldi, men tuzaldim. Shunda qishloqning hamma xotinlari:

— Mrinala qiz bola bo'lgani uchun tuzaldi, o'g'il bola bo'lganda, sog'aymas edi, — dedilar.

Darhaqiqat, o'lim tangrisi Yama o'z ishini juda yaxshi biladi: nimaiki qimmatli bo'lsa, o'shanigina tanlab oladi.

Men o'lmadim. Men tirikman! Sizlar buni bilinglar deb bu xatni yozayotirman.

Tog'ang va do'sting Nirod senga qalliq izlab bizning qishloqqa kelganlarida, men o'n ikki yoshda edim. Men hatto kunduzi ham chiyabo'rilarning tovushi kelib turadigan uzoq bir qishloqda yashardim. Stansiyadan bizning

<sup>1</sup> Hindlarning e'tiqodicha xudo bitta emas, bir nechta.

qishloqqa kelish uchun aravada 12 mil yo'l bosib, so'ngra yana 3 mil palankinda<sup>1</sup> yurish kerak edi. Shunda ular ko'p azob tortdilar. Bizning qishloq ovqati esa taomlarning eng bemazasi, uni tog'ang hanuz eslab yuradi.

Oilaning bu nuqsonini o'rtancha kelinining husni bilan yopmoqchi ekan. Agar shunday bo'lmasa, sening qarindoshlaring nima uchun bizning qishloqqa keladilar? Ma'lumki, Bengaliyada biror kasallik yoki falokatni qidirib yurishga ehtiyoj yo'q — bunday narsalar o'zi keladi.

O'sha kuni otam sho'rlikning qo'llari qaltirar, bechora onam esa, nima qilishini bilmay hadeb tangrining nomini takrorlar edi. Chindan ham bu sho'rlik qanday qilib u shaharlik janoblarning marhamatini qozonsinlar? Bor umidlari qizlarining go'zalligida edi. Xayriyatki, qizlari o'ziga bino qo'yganlardan emas, u o'ziga qanday baho qo'ysalar yo'q demay, rozi bo'ladi. U o'ziga nega ham bino qo'ysin? Qiz bola ming go'zal bo'lganda ham or-nomus uni biror so'z aytishga qo'ymaydi.

Uydagilarning, qishloqdagi har bir toshning vahmi qalbimni ezardi. O'sha kuni go'yo yeru osmonning hamma kuchlari 12 yoshli qizni tutib ikki hakamga ko'rsatmoqchi bo'lardilar. Bu ikki ko'zdan yashirinish uchun biror burchak topilmas edi. Mana shunda surnayning fig'oni eshitildi, g'amgin sadolar ko'kka ko'tarildi, natijada men sizlarning oilangizga ketdim.

Xotinlar mening nuqsonlarimni sinchiklab muhokama etgach, haqiqatan ham boshqalarga nisbatan go'zal deb e'tirof qildilar. Buni katta kelin eshitganda, yuzlari bo'zarib ketdi. Axir mening husnim kimga ham kerak edi? Agar u Gang daryosining loyqasidan biror pandit<sup>2</sup> qo'li bilan yasalganda, sizlar uchun qadru qimmat kasb etardi. Biroq mening go'zalligimni Brama<sup>3</sup> yaratgan, shuning

<sup>1</sup> Palankin — taxtiravon.

<sup>2</sup> Pandit — muqaddas kitoblarni bilgan kishi, ruhoni.

<sup>3</sup> Brama yoki Braxma — hind mifologiyasida hamma yaratilgan narsalarning ibtidosi, qudrati azaliy.



uchun bu go'zallik sizlar uchun ahamiyatsiz. Siz hammangiz qisqa bir muddatda mening go'zalligimni unutdingiz, ammo har qadamda mening aqlim haqida o'ylashga majbur edingiz. Mening tabiiy aqlimni na o'choq boshi, na uy ishlari nobud qilolmadi — bu aql hozirgacha saqlanib qoldi. Bu mening onamni hamisha tashvishga solardi: chunki aql — xotin kishi uchun faqat yomonlik keltiradi! Shart-sharoit bilan kelishmog'i zarur bo'lgan odam faqat aqlni tan olaman desa, u har qadamda qoqiladi va bora-bora o'z hayotini barbod etadi. Ammo men nima qila olardim? Tangrilar mendan so'ramasdan menga shunchalik aql bag'ishlabdilarki, bu o'rtancha kelin uchun keragidan ancha ortiq tuyulibdi. Men buni kimga qaytarib bera olaman? Siz hammangiz meni «jyata»<sup>1</sup> deb, xo'rladingiz, ammo men sizlarni kechirdim, chunki qo'pollik — zaiflik belgisidir.

Sizlarning oilangizda hisobga olinmagan bir mashg'ulotim bor edi — men yashirincha she'r yozardim, sizlardan hech biringiz buni bilmasdingiz. Faraz qilaylikki, mening she'rlarim hech narsaga arzimaydi, ammo ularni uyingizning devorlari o'ziga parchinlab qololmadi, men o'z she'rlarimda ozod edim, men she'rlarimdagina ko'nglimdagini ayta olardim. Agar biror ish o'rtancha kelindan talab etilgan me'yordan chiqib ketguday bo'lsa, sizlarga yoqmas edi, ammo sizlar buni o'zingiz tasavvur ham qilolmas edingiz. O'n besh yil davomida sizlar bilan bir hovlida shoira yashaganini hech biringiz payqamadingiz!

Sizlarning uyingiz haqidagi eng yorqin taassurotim, esimda qolgan eng qadrdon narsa ichkari hovlida yoniga narvon qo'yilgan molxona bo'ldi. Unga sigirlar tashqari hovlidan kirardi. O'sha yerda burchakda oxur bor edi. Xizmatkorlarga erta bilan ish oshib-toshardi. Sigirlar har kun erta bilan oxur oldida uymalashib kavsh qaytarardilar. Ularga qarab yuragim ezilib ketardi. Bu tabiiy, chunki

<sup>1</sup> Jyata — aka.

men qishloqi xotinman! Sizlarnikiga, shaharga borganimda bu ikki sigir va uch buzoq eng yaqin sirdoshim bo'ldi. Dastlab o'zim yemay, shularni to'yg'izishga tirishdim. Mening yangi va hazilkash qarindoshlarim sigirlarga g'amxo'rlikimdan ogoh bo'lib, meni past toifadan bo'lsa kerak deb darhol gumonsiray boshladilar.

Keyin men qiz tug'dim, biroq u tezda o'ldi. U meni ham o'z orqasidan chaqirardi. Agar u tirik qolganda, hayot menga onaga munosib ulug'vorlik baxsh etar va uning butun haqiqatiga ko'zimni ochar edi. U holda men o'rtancha kelin emas, o, men ona bo'lardim! Ona esa yolg'iz o'z bolasining emas, butun bashariyatning onasidir. Men azob-uqubatlarga bardosh berib, ona bo'lmoqchi edim, ammo ozodlikka erisha olmadim.

Men uyimizga ingliz vrachi kelganini eslayman. U hovlingizni ko'rinishidan hayratda qolgan edi, men tug'ib yotgan xona bo'lsa, uning g'azabini keltirdi. Bunga g'azablanmay bo'ladingmi? Uylaringizning oldi tomoni go'zal bog'. Oldingi xonalarning jihozlarida hech qanday nuqson yo'q. Biroq ichkari xonalar xuddi terining orqa tomoniday, sharm-hayosiz yalang'och, zeb-ziynatsiz, go'zallikdan mahrum edi. Yorug'lik bu yerga arang tushar, havo ham o'g'riday yashirincha kirar, axlat supurilmas, stol va devorlar hamisha dog', iflos edi... Ammo bir narsada doktor yanglishdi: u, bu ahvoldan bizlarni azob tortadi deb o'yladi. Aksincha! E'tiborsizlik kulga o'xshaydi! Ustki qatlami sovuq bo'lsa ham, o'rtasida harorat saqlanadi. O'z qadring yo'qolgach, e'tiborsizlik qonuniy tuyulib, u kishiga ozor bermay qo'yadi. Bundan azob tortish mumkinligi xotin kishining xayoliga ham kelmaydi. Sizning uyingizdagi xotin kishiga e'tiborsizlik uning uchun baxt saodatdir! Agar xotin kishiga alam yetkazmoqchi bo'lsangiz unga e'tibor qiling, bundan uning azob-uqubati ortadi xolos.

E'tibordan mahrum bo'lgan kishining azob chekishi mumkin, deb hech vaqt o'ylagan emasdim. Tuqqan chog'imda jonim qil ustida edi, biroq men sira qo'rqqan

nim yo'q. Menga hatning nima qadri bor? Nechun o'limdan qo'rqay? Muhabbat va g'amxo'rliklarga sazovor kishilargina o'limdan qo'rqadi, ular hayotga mahkam tirmashib oladilar. Agar o'lim tangrisi Yama meni chaqirsa, ko'kat tomirlari yumshoq yer qa'riga kirgandek bir yengillik bilan «labbay» deb chopib borardim. Bengal xotinlari qaerlardagina o'lmaydi deysiz!

Axir mening o'limimdan nima foyda bor? O'liming birovning parvoyiga kelmasa, o'lishga ham nomus qilasan!

Mening qizim ko'p yashamadi — oqshom yulduziday yondi-yu, so'ndi. Men yana odatdagi ish bilan — sigirbuzoq boqish bilan band bo'ldim. Mening hayotim shunday o'tib, qazom yetar va bu xatni ham yozishga ehtiyoj bo'lmasdi. Ammo shamol ko'kam urug'ini uchirib kelib hovlidagi tosh ustiga sepadi, so'ngra bundan maysa unib tosh bag'rini yorib chiqadi. Xuddi shunday, sizning qotib qolgan oila tartibingizga ham hayotning kichik bir zarrasi uchib keldi-yu, oilada ixtilof boshlandi.

Katta kelinning singlisi Bindu, onasining vafotidan so'ng amakivachchalarining ta'na, tazyiqidan qochib bizning uyga, opasining oldiga panoh tortib kelganda, sizlar hammangiz: «Shunday ham ko'ngilsiz hodisa ro'y beradimi-a», deb o'yladingiz. Biroq mening fe'l-atvorim yomon — nima ham qilar eding! Sizlarning jahlingiz chiqqanini ko'rgach, men butun vujudim bilan shu uysiz qolgan qizga intildim. Begona odamning uyiga kelib boqindi bo'lishdan ham og'irroq xo'rlik bormi! Shunday ahvolga tushgan odamga rahmsizlik qilish mumkinmi!

Men katta kelinning ahvolini tushunardim. U singlisini juda sevardi, shuning uchun uni o'z uyiga qabul etdi. Ammo erining noroziligini bilgandan keyin, o'zini shunday tutdiki, singlisining kelishi go'yo juda katta badbaxtlik bo'lib, undan bir amallab qutulishga tayyorday ko'rinishga tirishardi. U erini jon-dili bilan sevgani uchun, bu baxtsiz qizga oshkora mehribonlik qilishga jasorat etmas-

di. Yetim qizga nisbatan bu xil g'ayriinsoniy muomalalar menga qattiq dard bo'lardi. Katta kelinlaringiz odamlar ko'rsin deb, jo'rttaga Binduga to'yguday ovqat bermas, yomon kiyintirar, unga bir cho'riday muomala qilardi. Men bu holatdan azob tortar va hatto nomus qilardim. Katta kelinlaring, Bindu sizning oilangiz uchun nayrang bilan qo'lga kiritilgan tekin cho'ri, buni hammangiz ko'rib qo'ying, degan fikrni ta'kidlashga urinardi. Singlim ko'p ishlaydi, lekin hech qanday chiqimi yo'q, demoqchi bo'lardi.

Katta kelinning aslzodaligini hisobga olmaganda, uning hech narsasi yo'q edi — na pul, na go'zallik. Uning urug'lari otangga: «Sepsiz bo'lsa ham shu to'yga rozi bo'ling», — deb yolvorganliklarini o'zing juda yaxshi bilasan. Kelinoyim sho'rlik buni fahmlab, sizlarning oldingizda o'zini aybdor sanar va mumkin qadar kamtarlik qilishga urinardi! Uyingizda uning hech qanday qadr-qimmatini yo'q edi.

Ammo uning yaxshi ibratini biz uchun yomon natijalar berdi. Men har narsada o'zimning haddan tashqari chegaralab qo'yishga yo'l qo'yolmas edim. Men kishini qanchalik hurmat qilmay, u tufayli yaxshini yomon deyoymayman — o'zing ham buni bir necha marta ko'rib ishon-gansan.

Men Binduni o'z uyimga oldim.

Binduning opasi: o'rtancha kelin kambag'al oilaning qizini buzib qo'yadi, deb go'yo men nojo'ya bir ish qilganday, hammaga shikoyat qila boshladi. Ammo men uning butun vujudi bilan quvonayotganini juda yaxshi bilar edim: endi xatoning butun og'irligi mening yelkanda edi. U singlisiga mehribonlik qilishga jasorat etolmay, buni men orqali qilinayotganini ko'rib quvonardi.

Opasi Binduning yoshini bir necha yilga ozaytirib ko'rsatishga tirishardi. Ammo bironta odamga, yashirincha, Binduning yoshi o'n to'rttdan kam emas desak — hech kim tortishib o'tirmas edi. Sen uning xunukkina qiz ekanini eslaysan — bordiyu u yuzini stolga urib yarador

qilsa, odamlar uni emas, stolni o'ylab besaranjom bo'lardilar. Uning na otasi, na onasi bor, binobarin, erga beradigan kimsasi ham yo'q edi. Kim ham unga uylanishga rozi bo'ladi?

Bindu menikiga ming xil xavf-xatar bilan keldi. U naq meni harom qilib qo'yayotganday, qo'rqardi. O'zini shunday his qilardiki, go'yo dunyoga kelishga haqqi yo'qday: hamisha bir chekkada siqilib, odamlarning ko'ziga ko'rinmaslikka intilardi. Axir amakivachchalari, hatto o'z otasining uyida ham Binduni sig'dirmadilar-ku! U hech kimga kerak emas edi. Keraksiz, ortiqcha narsalar uyda osonlik bilan joy topadi, chunki egalari ularni unutib yuboradilar. Biroq keraksiz xotin — bu boshqa masala. Birinchidan, u keraksiz, ikkinchidan, uni unutish mumkin emas. Shuning uchun unga hatto axlat tashlaydigan chuqurda ham o'rin yo'q. Binduning amakivachchalari ham bu dunyoda juda zarur odamlar emasligi ikkinchi masala. Men, to'g'risi, buning aksini ta'kidlab o'tirmasdim. Chunki ular buni o'zlari ham mendan yaxshiroq biladilar.

Mana shuning uchun, Binduni uyga olib kelganimda u qo'rqib qaltirar edi. Bu ahvol dilimni siyoh qildi. Unga faqat mening uyimda yashashi mumkinligini juda ehtiyot bilan tushuntirdim.

Biroq bu uy faqat meniki emasdi. Mana bu masalani hal qilish, qizga joy topish g'oyat mushkul ish bo'ldi.

Bir necha kundan keyin Binduning badaniga qizil toshdi — bu issiqlikmi yoki shunga o'xshash bir narsa edi. Ammo, uydagilarning bari — bu chechak, deb qichqirdilar, chunki bemor — yetim qiz Bindu edi! Shu mahallada yashaydigan tajribasiz doktor kelib, aniq bir narsa deyolmay, bir-ikki kun kutishga buyurdi. Biroq, kutishlikka hech kim ko'nmadi. Bindu uyatdan o'lishga rozi edi. Shunda men bu chechakmi, boshqami, nima bo'lsa bo'lsin, Bindu bilan birga axlat chuqurida yotishga ham roziman, lekin unga yomon gapirmanglar, deb turib ol-

dim. Shunda hammangiz meni urishga tayyor edingiz, faqat Binduning opasi o'zini jahli chiqqanday ko'rsatib, baxtsiz qizni kasalxonaga yuborishni taklif qildi. Shu vaqtda Binduning badanidagi qizil dog'lar yo'qolgan edi, ammo bu sizlarni battar tashvishga soldi. Bu faqat chechak bo'lishi mumkin, deb baralla qichqirdingiz. Chunki bemor — kimsasiz Bindu edi!

Ortiqcha g'amxo'rlik bilan erkatoy bo'lmay o'sgan kishida bir yaxshi fazilat bo'ladi — uning a'zoyi badani mustahkam, uncha-muncha kasallik ta'sir qilmaydi, osonlikcha o'lmaydi ham. Shuning uchun bemorlik Binduga kor qilmadi, hech qanday jiddiy hodisa ro'y bermadi. Ammo menga bir narsa aniq bo'ldiki, dunyoda hech kimga keraksiz bir kimsani o'z uyingda joylashdan og'ir narsa yo'q ekan. Kishi qancha tashlandiq bo'lsa, uning yo'lida shuncha ko'p to'siqlar bo'lar ekan.

Bindu mendan hadiksiramaydigan bo'lib qolganidan keyin yana bir musibat yuz berdi. U meni shunchalik yaxshi ko'rib qoldiki, men bundan vahimaga tushdim. Umrimda bunaqa muhabbat ayollar bilan erlar o'rtasida tug'ilishini kitoblarda o'qiganman. Mening go'zalligim haqida ko'p vaqtgacha hech kim hech narsa demagan — bir narsa deydi odamning o'zi ham yo'q edi. Endi bo'lsa mening go'zalligimni mana shu badburush qiz payqab qolibdi. U menga qarab to'ymaydi.

— Opa, sening bu qadar go'zalligingni mendan boshqa hech kim bilmaydi, — der edi. Men sochimni o'zim o'rgan vaqtlarimda u juda qattiq xafa bo'lardi.

U sochlarimni silab-siypashni, tekislab qo'yishni yaxshi ko'rar edi. Bizni hech yerga taklif etmaganlari uchun men o'zimga ortiqcha oro berishga ehtiyoj sezmas edim. Biroq, charchashni bilmagan Bindu har kun menga bir oz bo'lsa-da, oro berishga urinardi. Qiz sho'rlik butunlay aqldan ozdi.

Ichkari uyning hovlisida bir qarich bo'sh joy yo'q edi. Faqat hovlining shimoliy qismida, devor oldidagi ariqcha bo'yida, qandaydir bir mo'jiza bilan yakkayu

yagona gab daraxti o'sgandi. Men daraxt kurtaklarining qizarganini ko'rib tomirlariga bahor ta'sir etganini angladim. Sho'rlik qiz qalbi yorishganini ko'rganda esa, uning ham yuragida bahor shamoli esganini angladim. Biroq, qaysi baxtiyor o'lkadan esdi ekan? Axir qo'shni ko'chadan emas-ku!

Meni uning muhabbati bezovta qilardi. Binduga men bir necha marta jahl bilan gapirdim. Lekin u quloq solmadi. Uning sevgisida men bukunga qadar sezmagani narsani: o'zimni, o'zimning erksevar qalbimni ko'rdim. Mening Binduga bo'lgan mehribonligim, g'amxo'rlikim sizlarni ranjitardi, ta'na va haqoratlarigizning chegarasi yo'q edi. Mening uyimda bilaguzuk yo'qolganda, hammangiz uyat-sizlarcha, bu ish Bindusiz bo'lmagan, deb kinoya qildingiz. Savadeshlar<sup>1</sup> harakati qatnashchilarini politsiya uyma-uy izlab yurgan paytda ham, hech qanday dalilsiz Binduni politsiya yuborgan josus deb aybladingiz. Chunki Bindu — kimsasiz qiz edi, uyingizdagi xizmatkorlar unga xizmat qilishni istamas edilar, bordiyu birortasiga Binduga xizmat qilish buyurilganda, u hayajondan qotib qolardi. Shuning uchun mening unga sarf qilgan xarajatlaringim ortib borardi: men o'zimga alohida xizmatchi oldim; bu hammaning jahlini chiqardi. Sen o'zing mening unga kiyim sotib olganimni ko'rib, shunday jahling chiqdiki, menga mayda xarajatlar uchun pul berishni ham to'xtatding. Shundan keyin men unga 5 shikiga<sup>2</sup> oharlanmagan qo'pol matodan kiyimlik oldim.

Ortgan ovqatni buzoqlarga berib, idish-tovoqlarni hovlida o'zim yuvadigan bo'ldim. Bir marta meni shu mashg'ulot ustida ko'rganingda, qattiq xafa bo'lding deb aytolmayman. Agar men baxtsiz bo'lsam, bu sening ham baxtsiz ekaningni bildirmaydi — to shu kungacha bunday oddiy haqiqat xayolingga ham kelmagan edi.

<sup>1</sup> Savadeshlar — hukumatga qarshi qo'zg'olon ko'targan guruh.

<sup>2</sup> Shiki — rupiyaning to'rtidan biri.

Bindu o'sdi, shu bilan birga sizlarning unga bo'lgan g'azablaringiz ham o'sa bordi. Uning tabiiy o'sa borishi — hammangizning haddan ziyod g'azabingizga sabab bo'lardi. Shu vaqtgacha meni bir narsa hayratda qoldiradi, nega sizlar uni haydab yubormadinglar? To'g'risini aytganda, men buning sababini juda yaxshi tushunaman: mendan hayiqar edingiz. Brama menga aql bergan — sizlar qalbingizda uni hurmat qilishga majbur edingiz. O'z kuchingiz bilan Bindudan qutula olmagach, yordam uchun chet kishilarga murojaat qilishga qaror qildingiz, Binduga er topdingiz.

— Endi yaxshi bo'ldi, naslimizning shon-sharifi saqlanib qoldi, — der edi kelinoyim.

Men kuyovni ko'rmadim, lekin u, umuman, yaxshi odam deb eshitdim.

Bindu mening oyoqlarimni quchoqlab yig'lardi:

— Opa, nega meni erga berish zarur bo'lib qoldi?

— Qo'rqma, Bindu, eshitishimcha, ering yaxshi odam emish, — deb uni yupatardim.

— Agar u yaxshi bo'lganda ham, mening nimamni sevadi?

Kuyovning qarindoshlari kelinni ko'rish to'g'risida so'z ochmadilar. Bu hol katta kelinni tinchitdi.

Boyoqish Bindu kechayu kunduz ko'zyoshi to'kishdan to'xtamas edi. Uning ahvoli nechog'li og'ir ekanini o'z tajribamdan bilardim. Bu qiz tufayli men sizlarning oilangizda ko'p urishdim, biroq uning to'yiga qarshilik qilishga menda jasorat yetmadi. Men buni qilolmadim. Agar men o'lsam u nima qiladi? Axir u qiz bola, buning ustiga qora qiz. U holda u qaerda yashaydi? Qay ahvolga tushadi? Yo'q, bu haqda o'ylamagan yaxshi — o'ylasang — yuraging yoriladi.

— Opa, — dedi bir kuni menga Bindu, — to'yga besh kun qolibdi, shu orada o'lib qo'ya qolsam qanday bo'lar ekan.

Men uni urishdim, ammo, xudo haqqi, agar Bindu



hayot bilan azobsiz vidolashsa, mening yuragimni bosib turgan tosh tushganday bo'lardi.

To'ydan bir kun burun Bindu opasining oldiga kelib yolvordi:

— Opa, men sizning og'ilingizda yashayman, nimaiki buyursalar hammasini qilaman! Oyoqlaring ostiga yiqilay, meni haydab yuborma!

Binduning opasi so'nggi vaqtda yashirincha, tez-tez yig'lardi, o'sha kuni ham yig'ladi. Nima ham qilsin sho'rlik, axir, yurakdan boshqa qonun ham bor!

— Bilasanmi, Bindu, — dedi, — er, xotin uchun ham hayot, ham ozodlik. So'ngra shunisi ham borki, taqdir senga baxtsizlikni ravo ko'rgan bo'lsa, undan qochib qutulolmaysan.

Ha, boshqa iloj yo'q. Bindu erga tegishi kerak, undan so'ng nima bo'lsa bo'lar.

Men to'yning biznikida bo'lishini istardim, biroq hammalari bir og'izdan — bu mumkin emas, to'y kuyovnikida bo'lishi kerak, odatimiz shunday, dedilar. Men bilar edim: Bindu to'yiga pul xarjlash sizlar uchun gunoh. Shuning uchun men indamadim. Ammo bir narsani sizlar payqamadinglar — men yashirincha, Binduga o'zining ba'zi qimmatbaho narsalarimni taqdim etgan edim, bu haqda men kelinoyimga aytmoqchi edim-u, biroq aytmadim, negaki uning qo'rqib joni chiqishi mumkin edi — nazarimda kelinoyim bularni ko'rgan bo'lsa ham, o'zini ko'rmaslikka soldi. Uning bu gunohini kechiringiz!

Ketish oldida Bindu meni quchoqlab:

— Opa, siz meni butunlay unutib yuborasizmi? — dedi.

— Yo'q, Bindu, nima hodisa yuz bersa ham, men seni unutmayman.

Uch kun o'tdi. Bundan sal ilgari ijarachingiz so'yish uchun bir qo'y yuborgan edi. Men meshqorin qarindoshlaringdan uni qutqazib, ko'mir qo'yadigan dahlizga bog'lab, o'zim boqib turdim. Men dastlab xizmatkorlarga

ishondim. Ammo ular qo'yni boqishdan ko'ra ko'proq o'zlari yeyishni o'ylandilar.

To'rtinchi kun erta bilan dahlizga chiqqanimda, burchakda o'tirgan Binduni ko'rdim. Meni ko'rib ho'ngrab yubordi.

Uning eri jinni ekan.

— Nahotki shu to'g'ri bo'lsa?

— Opa, nainki men noto'g'ri gapirsam? U jinni. Qaynotam rozi bo'lmagan, lekin u qaynonamdan Yamadan qo'rqqanday qo'rqadi. U to'ydan ilgari Banorasga ketgan ekan, qaynonam shu paytda o'g'lini uylantirib qo'yibdi...

Men beixtiyor ko'mir ustiga o'tirib qoldim. Xotin kishining xotin kishiga rahmi kelmasa-ya!

— Xotin kishi, xotin kishi bo'ladi, — debdi qaynona, — ammo yigit — jinni bo'lsa ham erkak-da.

Binduning eri hamisha jinni emas edi. Biroq, ba'zan shunday jinniligi qo'zg'ardiki, uni qamab qo'yishga to'g'ri kelardi.

To'ydan keyingi birinchi kecha u soppa-sog' edi. Ikkinchi kuni birdan jinniligi qo'zg'adi. Tushda Bindu sariq mis idishda ovqat yebdi. Shunda eri birdan idishni tortib olib, hovliga otib yuboribdi. Jini qo'zg'ab, Binduni Rammoni nomli podsho xotini deb xayol qilgan ekan, go'yo xizmatkorlar uning oltin idishini o'g'irlab, unga o'z tovoqlarida ovqat bergan emishlar.

Bindu qo'rqib, joni chiqishga sal qolibdi. Kechasi qaynonasi unga, ering yoniga chiq deganda, yuragi yorilay debdi. Agar qaynonaning jahli chiqsa, uni hech qanday dalil bilan ishontirib bo'lmas ekan. Aslida bu yana ham havfliroq jinni, chunki buni hamma sog'lom aql egasi deb hisoblaydi. Bindu vahimadan toshday qotib, eri yoniga chiqishga majbur bo'libdi. Yarim kechada eri uxlab qolgandan keyin, Bindu yashirincha uydan chiqib, mening oldimga qochib kelibdi. Buni tafsiloti bilan tasvir qilishga hojat yo'q.

G'azab va hayajondan tomirlarimda qon qaynab ketdi.

— Agar ular bunday nayrang qilgan bo'lsalar, to'yni qonuniy deb hisoblash mumkin emas, — dedim men. — Bindu, sen ilgarigidek menikida yashaysan. Qani ko'raychi, seni mendan tortib olishga kim jur'at qilar ekan?

Biroq, shunda siz hammangiz g'avg'o ko'tardingiz.

— Bindu yolg'on aytadi!

— U hech qachon yolg'on gapirmaydi!

— Sen qaerdan bilasan?

— Men aniq bilaman!

Sizlar meni qo'rqitishga urindingiz.

— Agar Binduning qaynonasi politsiyaga murojaat qilsa, biz baloga qolamiz.

— Sud ularning so'zini inobatga olmaydi, — dedim men. — Binduni aldab, jinniga erga bergansizlar.

— Sen nima, shuning uchun sudga bormoqchimisani? Buning bizga nima keragi bor?

— Men bugun qimmatbaho narsalarimni sotib bo'lsa ham, qo'limdan kelgan ishni qilaman.

— Advokatning oldiga o'zing borasanmi?

Men jim qoldim. Men boshimni devorga urishim mumkin edi. Bundan boshqa hech narsa qo'limdan kelmaydi.

Shu mahalda Binduning qaynog'asi kelib hovlida shovqin ko'tardi: politsiya uchastkasiga borib arz qilaman deb do'q qildi.

Bilmadim bu jasorat qaerdan paydo bo'ldi: ammo men politsiyadan qo'rqib, mendan najot istab kelgan odamni jallod qo'liga topshirishni istamas edim.

— Mayli, borsin politsiyaga, — dedim men.

Men Binduni o'z uyimga yashirib qo'ymoqchi edim, lekin uni qidirib topolmadim. Men gapirguncha eshikdan chiqib qochibdi: agar bu yerda qolsa, men uchun ko'ngilsiz hodisalar ro'y berajagini bilgan-da.

Bindu ahyon-ahyonda qaynonasinikidan qochib keldi. Biroq, bu bilan uning g'ussalari ortardi, xolos. Qaynonasi unga: «Axir yigit seni yemaydi-ku! Dunyoda

yomon erlar ko'p, ularga qaraganda mening o'g'lim — tilla», der ekan.

— Qizning taqdiri shum, — der edi opasi, — biroq men nima ham qila olaman. U erkakmi, hayvonmi, nima bo'lsa ham er!

Ayollarning sadoqati haqida gapirib, xotini fohishaxonaga ko'tarib kelgan moxov tarixini tez-tez takrorlar edingiz. Siz erkaklar bu razolat haqida so'zlaganda, ozgina o'ng'aysizlik ham his etmaysiz. Shuning uchun sizlar Binduning xatti-harakatlaridan g'azablandingiz. Sizlarda uyat degan narsa yo'q!

Men qishloqi ayolman, sizning oilangizga tasodifan tushib qoldim. Lekin bu yerda ayollar oldiga qo'yiladigan talablarga men chiday olmayman, sizlarga odat bo'lib qolgan narsani yaxshi deya olmayman. Nega ham Brama menga bunchalik aql berdi!

Men Binduning bundan keyin, hatto men o'lganda ham biznikiga kelmasligiga qattiq ishongan edim. Biroq to'y arafasida men unga: seni hech unutmayman, deb va'da berganman.

Kichik inim Shorot Kalkuttada o'qiydi. Siz hamman-giz bilasizki, u har bir ishga astoydil kirishadi. Qaerda ko'ngillilar kerak bo'lsa: vabo paydo bo'lgan rayonlarda kalamushlarni qirishmi yoki Damodor toshqiniga qarshi kurashmi — hammasiga qatnashib, ikki marta imtihondan yiqildi. Lekin bu uning ruhini tushirmadi. Shundan keyin men ukamni chaqirib aytdim:

— Shorot, sen bir ish qilib Bindudan xabar top, u o'zi menga xat yozishga jur'at qilolmaydi, yozgan taqdirda ham, uning xati menga tegmaydi.

Agar men unga borib Binduni o'g'irlab olib kel, yoki jinni erining boshini yorib kel deganimda, u bundan ham ortiqroq xursand bo'lar edi!

Men Shorot bilan gaplashib turgan paytda sen uyga kirib, so'rading:

— Yana qanday baxtsizlik? Yana qanday hodisa yuz berdi?

— Men sizning uyingizga kelib qolgan ekanman, bunga sen o'zing aybdor.

— Sen yana Binduni qaergadir yashirdingmi?

— Agar Bindu kelsa, men uni, albatta, yashirgan bo'lar edim. Xotirjam bo'l, u kelmaydi.

Shorotning hozir bo'lishi sening gumoningni yana oshirdi. Shorotning biznikiga kelib ketishi senga yoqmasligini bilardim. Siz hammangiz, uning orqasidan politiya kuzatib yuradi, biror siyosiy ishda ayblanib, bizni ham bir kulfatga duchor qiladi, deb qo'rqar edingiz! Shuning uchun men unga hatto Bxaypoto<sup>1</sup> qilmadim, uyimga ham taklif etmadim.

Sen, Bindu yana qochibdi, qaynog'asi qidirib kelibdi, deding. Bu g'ussadan mening yuragim ezilib ketdi. Boyoqish qizning ne-ne musibatlariga giriftor bo'lishini bila turib, unga hech yordam qilolmadim.

Shorot ketdi, ammo kechqurun qaytib kelib menga quyidagilarni aytdi:

— Bindu akalarining oldiga qochib boribdi. Ularning jahli chiqib, darhol qaytarib qaynonasinikiga yuboribdilar. Hozirgacha so'kayotirlar. Buni qara-ya! Shu qiz uchun pul xarjlab ot yollashga to'g'ri keldi!

Shunda birdan otangning xolasi kelib, Puriga ziyoratga borish niyatida ekanini aytdi. Men ham u bilan birga boraman dedim.

Qo'qqisdan menda paydo bo'lgan dinga moyillikni ko'rib, sizlar shunday quvondinglarki, borishimga darhol rozi bo'la qoldinglar. Bundan tashqari, hammangiz, mabodo men Kalkuttada qolsam yana Bindu to'g'risida harakat qiladi deb qo'rqardingiz. Shunday qilib, men bor joyda ko'ngilsizlik ro'y berishidan sira qutulolmas edingiz!

Seshanba kuni jo'nashim lozim edi, lekin ketishga yakshanba kuniyoq hamma narsa tayyor bo'ldi. Shunda men Shorotni chaqirib:

---

<sup>1</sup> Bxaypoto — opaning ukaga baxt-saodat tilab, har yil uning peshonasiga xol qo'yish marosimi.

— Nima bo'lganda ham seshanba kuni Puriga ketadigan poezdga Binduni olib kelishing kerak, — dedim.

Shorotning chehrasi ochildi.

— Xotirjam bo'l, opa, — dedi u, — men uni poezdda Purigacha kuzatib boraman — Djagannatxni' ham bir ko'rsin!

O'sha kuni kechqurun Shorot yana keldi. Yuzlariga nazar solganimda, ko'kragimda allanima uzilganday bo'ldi.

— Shorot, nima gap? Nima bo'ldi?

— Yo'q, — dedi Shorot, — hech nima...

— Bindu rozi bo'lmadimi? — deb surishtira boshladim.

— Endi unga rozi bo'lishning hojati yo'q. Kecha kechasi o'zini o'zi o'ldiribdi. U o'z kiyimiga o't qo'yib, yonib halok bo'libdi. Men jiyani bilan so'zlashdim: uning gapiga qaraganda, Bindu senga xat yozib qoldirgan emish, lekin qarindoshlari yirtib tashlabdilar.

Ana endi tamom. Binduning uqubatli umri sob bo'ldi.

Urf-odatga mukkasidan ketganlar darg'azab bo'lib:

— Kiyimiga o't qo'yib o'z-o'zini o'ldirishi nimasi tag'in, bu nima degan noma'qulchilik, — deb jar soldilar.

Uyda qarindosh-urug'lar bir og'izdan: «Bu o'taketgan masxarabozlik-ku», — deb javradilar. Mayli, shunday ham bo'lsin. Biroq, nega bu masxarabozlik bengal ayollarining libosini kuydiradi-yu, erlar kiyimiga ta'sir etmaydi. Bu haqda o'ylasang arziydi.

Binduning taqdiri cheksiz musibat edi! U tirik ekan, na go'zallik, na boshqa fazilat bilan shuhrat qozondi; mana ajal keldi, biroq u, o'lishning ham erlarni qoyil qiladigan yo'lini tanlolmadi. Hatto o'limi ham kishilarning g'ashiga tegdi.

Opasi o'z uyiga kirib olib, yashirincha yig'ladi. Ammo uning yig'lashidan bir navi xotirjamlik ko'rinardi. Nima bo'lganda ham, endi bari tugadi. Bindu o'ldi, tamom.

<sup>1</sup> Djagannatxni — Puri shahrida Vishnu tangrisining tasviri.

Tirik qolganida boshida yana qanday ko'rguliklar borligini kim biladi deysiz!

So'ngra men Puriga jo'nadim. Endi Binduga biryooqqa borishning keragi yo'q. Lekin menga kerak.

Men sizning uyingizda, odamlar og'ir hayot deb atagan musibatni ko'rganim yo'q. Men kiyim-kechak va ta'minot jihatidan tanqislikni bilmadim. Garchi katta akang yomon bo'lsa ham — sening fe'l-atvoringda xudoga noligulik yomon xislat yo'q. Bordiyu akangga o'xshaganingda ham, eriga sadoqatli bir xotin sifatida, katta kelingiz singari, ehtimol buni sendan emas, xudodan ko'rardim. Shuning uchun, shikoyat qilishni istamayman, men bu maqsad bilan yozayotganim yo'q.

Ammo sizning Makxon Borol ko'chasi-dagi 27 uy-ingizga qaytib bormayman. Men Binduni ko'rdim, sizning oilangizda xotinlarning qanday yashashini bilaman. Shu yetadi, menga boshqa narsa kerak emas.

To'g'ri, keyinchalik angladim, Bindu xotin kishi bo'lsa ham, falak uni tashlab qo'ymadi. Siz unga qancha tajanglik qilgan bo'lsangiz ham, endi qahr-g'azabingiz unga kor qilmaydi. U o'zining baxtsiz hayotidan yuqori. Sizning oyoqlaringiz uncha uzun emaski, endi ham Binduni ilgarigidek poymol qilsangiz! O'lim sizdan yuqori! U Binduni ma'nadan ulg'aytirdi. U yerda u yolg'iz bengal ayoli, faqat o'z akalarining singlisi yoki jinni erining noma'lum xotini emas. U yerda — u o'lmasdir.

O'lim nag'malari chalinib, bu qizning ezilgan yuragini harakatdan to'xtatganida, ko'kragimga go'yo o'q tekkan-day bo'ldi. Men tangridan iltijo qildim:

— Nega eng kichik odamlar bu dunyoda hammadan og'irroq kun kechiradilar? Atroflari o'rab olingan tor ko'chadagi bu kichik uy nega qo'rqinchli? Nega men hayot jomidan bir tomchi obihayot istab, shu qadar qo'l cho'zdim-u, shu choqqacha ichkarining ostonasidan hatlab o'tolmadim? Nega men sening dunyongda bu jirkanch g'isht devor orasida sekin-asta o'lishim kerak? Nega hayotim bu qadar ma'nosiz! Bu dunyoning qonunlari, qabul

etilgan odatlari, gap-so'zlari; ig'vo-fasodlari, urish-janjallari, shular hammasi qanday ma'nosizlik bilan tayin etilgan! Nahotki, shu azob-uqubat tuzog'i ustun kelib, sening quvonch olaming mutlaqo mag'lub bo'lsa?

Mana o'lim naylaridan sado yangradi — qani u g'isht devorlar? Qani mudhish qonunlaringiz, atrofi tikonli simlar bilan o'ralgan ko'ralar qani? Qaysi kirdikori, qaysi haqorati uchun kishini zindonda tutishga jasorat qildingiz? Mana qarang, o'limning qo'llarida hayotning hammani yenguvchi qudratli tug'i hilpiramoqda! Qo'rqma, o'rtancha kelin! Hadeguncha sening oyoqlaringdagi zanjirlar ham parcha-parcha bo'lg'usidir.

Men endi sizning tahdidingizdan qo'rqmayman. Bugun mening ko'z oldimda moviy okean, tepamda ashar bulutlari.

Men sizning qonunlaringiz zulmatiga o'ralib yashadim. Bir lahzaga Bindu paydo bo'ldi-yu, shu kichik shu'lada men o'zimni yaqqol ko'ra oldim. Bu ayol o'z o'limi bilan zanjirlarni uzib tashladi. Endi yorug'likka chiqib, ko'rib turibmanki, men faqat shu yerdagina o'z qadr-qimmatimni saqlay olaman. Hamma tomonidan tahqirlangan u go'zal, endi meni ravshan ko'rib turibdi. O'rtancha kelin endi yo'q! Ehtimol sen meni o'z-o'zini o'ldirishga tayyorlanayotir deb o'ylarsan. Qo'rqma, men sen bilan bu eski va beburd hazilni o'ynamoqchi emasman! Mirabay<sup>2</sup> ham xotin kishi edi va uning kishanlari menikiday zaif emasdi, biroq unga o'lim izlashga to'g'ri kelmadi. Mirabay o'z qo'shiqlarida bunday kuylagan edi:

*Mayli, ota Miridan yuz o'girsin,*

*Mayli, ona yuz o'girsin Miridan.*

*Mayli, barcha yuz o'girsin, u — mahkam!*

*Mayli, nima bo'lsa bo'lar, qaytmaydi!*

<sup>1</sup> Ashar — bengal kalendarining uchinchi oyi bo'lib, iyun-iyul oylariga to'g'ri keladi.

<sup>2</sup> Mirabay — o'rta asrda yashagan shoira va ashulachi.



Bu so'zlar hayotga qaytaradi.

Ha, men yashayman! Men xalos etildim.

Sizning uyingizni tashlab ketgan

Mrinal.

# TAGOR DAHOSIGA TA'ZIM

(Tarjimon mulohazalari)

## I

Hind adabiy tanqidchilari: «Tagorning har bir hikoyasi, bir roman» deb baholaydilar. Bu ulug' san'atkorning ajoyib hikoyalarni o'qigan kitobxon ham beixtiyor shu fikrga keladi.

Hikoyalarning tub mohiyati: insonni qadrlash, uning aql-idrokini ulug'lash, ezgu-hislarini ardoqlash va rag'batlantirish, odamlar orasidagi yovuzlikka qarshi o't ochish, bashariyatni adolat yo'liga boshlashdan iborat.

Tagor hikoyalardagi psixologik tasvirlar, nozik lirizm, ko'tarinki uslub va chuqur falsafiy muhokamalar har qanday kitobxonning go'zallikka tashna qalbini qondira oladi. Tagorning hikoyalari badiiy kamolotning bunday yuksak cho'qqisida bo'lsa, uning romanlari, dramalari, she'rlari qanday deb so'rashingiz mumkin. Bu savolga adabiyotshunos A. Lunacharskiyning quyidagi so'zlari juda aniq javob bo'ladi:

«...Tagor asarlari... anvoyi ranglari, nozik ruhiy kechinmalari va olijanob g'oyalari bilan haqiqatan ham umumbashariy madaniyat durdonalaridir».

R. Tagor badavlat ma'rifatli xonadonda tug'ilgan. Bu xonadondan juda ko'p jamoat, madaniyat arboblari, san'atkorlar yetishib chiqqan. 1912 yilda ingliz tilida nashr etilgan «Gitanjali» she'rlar to'plami shoirga olamshumul shon-shuhrat keltirdi. Qizig'i shundaki, bu to'plamga kirgan she'rlarini Tagor o'zi ingliz tiliga tarjima qilgan edi. 1913 yilda esa, «Gitanjali» («Qurbonliq qo'shiqlari») uchun R. Tagor Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.

Men Tagor asarlari bilan birinchi marta 1926 yilda tanishdim. «Tong sirlari» kitobida Tagorning «Sham va quyosh» she'ri va epigraf tarzida keltirilgan quyidagi jumlasini bor edi: «O'zimiz olam kitobini yangilish o'qiyimizda, so'ngra, u bizni aldadi, deymiz». Keyinchalik «Maorif va o'qitg'uvchi» jurnalida R. Tagorning «Soqov qiz» hikoyasini o'qidim. Oradan o'ttiz yil o'tgach, taqdir meni Tagorning tarjimoni darajasiga ko'tardi.

1956 yildan 1976 yilgacha buyuk adibning to'rt romanini, yigirma uch hikoyasini va uch she'rini — jami o'ttiz asarini o'zbek tiliga tarjima qildim.

Katta adabiyot o'quvchidan, ayniqsa, tarjimondan katta tayyorgarlik talab qiladi. Umuman, klassiklarni naridan-beri o'qib, pala-partish tarjima qilish — gunohi azim. Tagor o'z asarlari tarjimasini ajnabiy tillarda o'qib norizo bo'lgani va: «Yevropaliklar tarjima deb asarlarining skletini taqdim qilishadi», deb afsuslangani menga ayon edi. Shu vajdan Tagor asarlarini qayta-qayta o'qibgina qolmay, Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» nomli mashhur asarini, undan keyin «Bobinoma»ni, Javoharlar Neruning «Hindistonning kashf etilishi» kitobini, hind faylasuflarining asarlarini o'qib chiqdim. Biroq shunda ham Tagor asarlariga qo'l urishga botinmay, tarjima uchun avval hind ertaklarini va «To'tinoma»ni tarjima qilib ko'rdim. Bu ishlarim elga manzur bo'lgach, Tagor asarlari tarjimasiga kirishdim. «Nur va soyalar», «Xotinning xati», «Tashna toshlar» va «Meros» sarlavhali hikoyalar dastlabki ishlarim edi.

### III

Tarjima jarayonida, bir hikoyani tugatib ikkinchisiga o'tganda men o'zimni ma'naviy jihatdan bir pog'ona ko'tarilganday his eta boshladim. Shuning uchun «Meros», «Xotinning xati» hikoyalarini qiynalmay tarjima qildim. Ammo «Tashna toshlar» hikoyasiga kelganda,

ilhom parisi menga qiyo boqmay qo'ydi. Hikoyani takror-takror o'qidim, deyarli yodlab oldim. Lekin qo'limga qalam tutganda o'zimni ojiz his etardim. Chunki bu benazir hikoya mavhum olam, ruhlar dunyosi tasviri, xayolot mahsulidir. Bu orada nashriyot rahbarlari Tagor hikoyalari tarjimasiga meni muharrir qilib tayinladi. Boshqa tarjimalar tayyor bo'lsa ham, «Tashna toshlar» hamon munosib tarjimonga tashna bo'lib yotardi. Men sheriklarimga voqeani naql etib «Tashna toshlar»ni tarjima qilib berishlarini so'radim. Ularning javoblari qisqa bo'ldi:

— Ichimizda yoshi ulug'i ham, tajribalisi ham o'zingiz, bordi-yu, u hikoyani siz chiqarolmagan bo'lsangiz, bizning holimiz ne kechadi?

Shu payt muharrirlar xonasiga adibimiz Abdulla Qahhor kirib keldi. Men unga Tagor hikoyalarini nashr etish niyatida ekanimizni aytib, «Tashna toshlar»ni tarjima qilib berishini iltimos qildim. Abdulla Qahhor boshqa hikoyalarni kimlar tarjima qilgani bilan qiziqsindi. Men ishning avvalidan oxirigacha tushuntirib berdim. Shundan so'ng u bunday dedi.

— Men «Tashna toshlar»ni o'qiganman; u nasriy she'r, yana to'g'risi — nasriy doston. U asarni tarjima qilish oson emas. Ammo, fikrimcha, u sizdan chiqadi.

Sheriklarim, ya'ni nashriyot muharrirlari ham bu mo'tabar adibning fikrini quvvatlashdi. Ajabo, bu ishonchni oqlay olarmikanman?

Shu kuni men barvaqtroq uyga qaytib, yuvinib-tarandim-da, Kaykovus arig'i bo'yidagi soya-salqin bir joyda o'tirib, xayolga toldim. Nazarimda, shu tobda menda tasavvur kuchi yetishmaganday tuyulardi. Ajabo, nega Toshkentning yarmini serob, obod etgan, bog'rog'larga aylantirgan bu anhor Eron shohi nomi bilan atalgan? Nega anhorning eng serqatnov ko'prigi fors tilida Taxtapul deyilgan? «Shohnoma» qahramoni qachon Toshkentga kelib, bu zamin aholisiga munchalar g'amxo'rlik qilishga ulgurdi? Nega nechun Toshkentning

bir mahallasini «Sebzor», boshqasini Olmazor deb yuritadi? Agar Eron shohi Kaykovus, rostdan ham Toshkentga kelgan bo'lsa ham, uning muhtasham saroylari, Eron va Turondan saralab olingan gulruxsor kanizlari ham bo'lgan, ular ham «Tashna toshlar»dagi singari favvoralar atrofida o'tirib, dutoru setor chalgan bo'lsalar ne ajab?

Birdan xayol suvoriysi boshqa yo'lga burildi. Jahon adabiyotida «Tashna toshlar»ning timsoli bormi? Mopassan va Chexovda bunaqasi yo'q. Pushkin va Lermontov hikoyalarining yo'nalishi boshqa. Ha, Gorkiyning «Ona» hikoyasi... «Tashna toshlar»ni salcha eslatadigan boshqa asami ham o'qiganman...

Quyosh botib, kun g'ira-shira bo'lganda, Kaykovus sohilini tark etib, uyga chiqdim. Fikru zikrimni Tagorning dilbar hikoyasi qamrab olgan edi. Kechki taomdan so'ng, yana «Tashna toshlar» mutolaasiga kirishdim. Tovba, bu nimasi? Birdan zehnim shunday ochilib ketdiki, olamdagi hamma go'zal so'zlar, nozik, latif iboralar saf tortib, jum-lalarda o'z o'rnini egallashga muntazir bo'lib turardilar, tekstlardagi eng murakkab jumalarni o'zbek tilida aslidan afzalroq, musiqiyroq qilib o'qishim, kuylashim mumkin-day tuyuldi. Ana shunday ma'naviy sarxushlik holatida, tunda tarjimaga kirishib, ertalab bu sermashaqqat, ammo rohatbaxsh ishni nihoyasiga yetkazdim.

Ertalab xushnud, xushhol nashriyotga bordim, hamkorlarim mening qiynalib yurganimdan voqif bo'lganlari uchun, kuyunib hol so'rashdi:

— Qalay, «Tashna toshlar» chiqdimi?

— Nazarimda chiqqanga o'xshaydi,— dedim.

— Unday bo'lsa, marhamat qilib o'qing, eshitaylik,— iltifot qildi Mamarasul Boboev.

Turob To'la bilan Shukrulloning ham xohishlari shu edi. Men o'qishga kirishdim. Bir necha sahifa o'qigandan so'ng, sheriklarimning yuzlariga nazar solsam, hammalari jon qulog'i bilan tinglab turishibdi, bundan ruhim ko'tarilib, yana ham ifodaliroq qilib o'qishda davom etdim. Hikoya tugashi bilan fozil hamkorlarim meni olqishlashdi.

Men imtihondan o'tgan student singari o'zimni mas'ud, masrur his etardim.

Tagor hikoyalari 1957 yilda «Nur va soyalar» nomi bilan bosilib chiqdi va tezda tarqalib ketdi. Biz xalqimizning Tagor asarlariga rag'batini hisobga olib, bu buyuk adibning sakkiz jildlik asarlari tarjimasiga kirishdik. Shu tariqa Tagor o'zbek diyorida qayta tug'ildi, qayta shuhrat topdi.

\* \* \*

*Sharq adiblari orasida mumtoz, barkamol asarlarga, agar u she'r bo'lsa, muhammas bog'lash, doston yoki «Xamsa» bo'lsa, unga javob yozish udumi bor. Tagor asarlari tarjima jarayonida menga shu qadar ta'sir etdi, shunchalar halovat bag'ishladiki, men Tagor dahosiga ta'zim etib, uning «Nur va soyalar» hikoyasiga «Oltin qafas» qissasi bilan, «Xotinning xati» hikoyasiga «Asl aynimas» qissasi bilan javob aytdim. Shu ma'noda R. Tagorni ustozim deb bilaman.*

**To'xtasin JALOLOV.**

1981-yil

## MUNDARIJA

Nur va soyalar .....	5
Tashna toshlar .....	35
Mrimmoyi .....	49
Skelet .....	72
O'likmi, tirik? .....	81
Daliya .....	94
Taskin topgan rashk .....	104
Shubxa .....	115
Opa .....	122
Nazari baxayr .....	134
Tunda .....	141
Baxtsizlik .....	154
Ta'til .....	168
Oltin sarob .....	175
Pochta mudiri .....	187
Tentak Ramkanai .....	194
Yozuvchi .....	201
Hukm .....	206
Jogeshshorning qurboni .....	219
Yechilgan jumboq .....	227
Noyonjorlik babu .....	235
Xotinning xati .....	247
Tagor daxosiga ta'zim (Tarjimon mulohazalari) .....	266

## **RABINDRANAT TAGOR**

### **HIKOYALAR**

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi

Bosh tahririyati  
Toshkent — 2006

Muharrir *G. Zokirova*

Rassom *V. Kulikov*


Badiiy muharrir *A. Musaxo'jayev*

Texnik muharrir *D. Gahdraxmanova*

Terishga berildi 11.11.2005. Bosishga ruxsat etildi 27.01.2006. Bichimi 84x108<sup>1</sup>/<sub>32</sub>. Tayms garniturasi. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 14,28. Nashriyot-hisob tabog'i 13,87. Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 2035. Bahosi kelishilgan narxda.

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,  
700083, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41.





**«SHARQ» NASHRIYOT-MATEBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TAVSIYA ETADI**

**SULTON HOSHIM. «ILONLI QO'RIQ»**

**«Sharq ziyokori» — kitoblar markazi.  
Toshkent shabri, Buxoro ko'chasi, 26.**

**Tel.: 133-35-90, 133-58-72**

**Fax: 152-67-72**

